



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-176-6

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 245 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

ISBN 978-9910-09-176-6

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Atamuratova Dilafruz

"ISHTIROKIYUN", "QIZIL BAYROQ", "TURKISTON" GAZETALARIDA XIVA XONLIGI, XXSR
HAMDA XSSRG AOID XABARLAR VA ULARNING AHAMIYATI 7-9

Sultanov Samandar

XORAZM VOHASI VA QUYI ZARAFSHON VODIYSI BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDA
ARXEOLGIK TADQIQOTLAR NATIJALARI 10-12

Bobobekova Nargiza

JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI
FAOLIYATI TARIXI (XX ASR BOSHLARI) 13-19

IQTISODIYOT FANLARI

Tangirkulov Bekzod

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY RESURLAR
SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI 20-24

FILOLOGIYA FANLARI

Azamatova Gulnoza

NEMIS TILIDAGI "EIN" SO'ZI VA UNING QO'LLANILISHI 25-27

Nazimova Himmatoy

EPOS JANRINING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISH MASALALARI TAHLILI 28-31

Tadjiyeva Umida

MAQOLLAR TILSHUNOSLIK SOHASINING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA 32-35

Matyaqubova Ozoda

FRANSUZ TILIDAGI GAP TARKIBLI FRAZEOLGIK
BIRLIKLER VARIANTLARINING TURLARI 36-40

Qilicheva Shahlo

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING MORFOLOGIK,
STRUKTURAL YASALISHI 41-45

Samandarova Nilufar

FRANSUZ TILIDA HARAKATGA YO'NALTIRILGAN FE'LLARNING
IFODA XUSUSIYATLARI 46-49

Jumanazarova Kamola

ABDULLA QODIRIYNING „O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA
MILLIYLIKNING IFODALANISHI 50-52

Abdullayeva Gulnora

HOZIRGI NEMIS TILIDA "ES" KOMPONENTLI GAPLARNING MA'NOSI VA VAZIFALARI HAMDA
ULARNING O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK EKVIVALENTLARI 53-56

YURIDIK FANLARI

Karaxodjaeva Okilaxon

O VZAIMODEYSTVIY OLIY MAJLISA RESPUBLIKI UZBEKISTAN I ORGANOV
GOSUDARSTVENNOY VLASTI PRI OSUJESTVLENIY
PARLAMENTSKOGO KONTROLYA 57-62

<i>Otamirzayev Oybek</i> YER OSTI SUVLARI HUQUQIY MUHOFAZASI YO'LIDAGI MUHIM QADAM	63-65
<i>Abdihakimov Samandar</i> SUD HAL QILUV QARORLARINI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66-69
<i>Komilov Asadbek</i> MATBUOT ERKINLIGI BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR	70-74
<i>Xudaibergenova Dilnoza</i> RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQIGA OID HUQUQIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH	75-79
<i>Eraliyeva Malika</i> "INSON" IJTIMOIIY XIZMATLAR MARKAZLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOIIY XIZMATLARNING SIFATINI OSHIRISH YO'LLARI	80-82
<i>Самигжонов Зилола</i> ПОНЯТИЕ, ПРИНЦИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНОСТРАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	83-87
<i>Asqarov Nodirbek</i> VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI G'AYRIIJTIMOIIY XATTI-HARAKATLARGA JALB ETGANLIK HOLATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA AMALIYOTDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI	88-92
<i>Тураев Абдуазим</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93-102
<i>Murodova Sojida</i> WHAT CAN UZBEKISTAN LEARN FROM CHINESE SMART COURTS?	103-107
<i>Akramova Sabrina</i> O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGININ HUQUQIY ASOSLARINI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR	108-111
<i>Шермухамедова Камилла</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ СДЕЛОК В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	112-116
<i>Саматова Шахзода</i> ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБЕСПЕЧИТЕЛЬНОГО ПЛАТЕЖА КАК СПОСОБА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИСПОЛНЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВА	117-120
<i>Акрамов Акмалжон</i> ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТНЫЙ КОНТРОЛЬ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	121-125
<i>Гофуржонов Низомиддин</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ НАСИЛИЯ НАД ДЕТЬМИ В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ	126-132
<i>Акрамова Хилола</i> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	133-136

<i>Safayev Javohir</i> XORIY DAVLATLARDA PARLAMENT TEKSHIRUVI: HUQUQIY MEKANIZMLAR VA AMALIY TAJRIBA	137-140
<i>Кучкорова Гулхаёт</i> РАЗВИТИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПРАВА В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	141-144
<i>Бобоева Муслима</i> ПРАВОВОЕ ПОЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ КАК СУБЪЕКТА ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА	145-150
<i>Султонова Дурдона</i> АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ НА ЭЛЕКТРОННУЮ КОММЕРЦИЮ В КОНТЕКСТЕ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	151-157
<i>Мелсова Камила</i> ПОНЯТИЕ, ПРАВОВАЯ ПРИРОДА И КЛАССИФИКАЦИЯ ПООЩРИТЕЛЬНЫХ НОРМ.....	158-162
<i>Soatboyeva Shoxnura</i> FUQAROLIK HUQUQIDA MULK HUQUQINI HUQUQIY HIMOYA QILISH INSTITUTINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	163-166
<i>Qilichev Nosirbek</i> QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA – KAM AHAMIYATLI QILMISHLARNING HUQUQIY TAHLILI	167-169
<i>Allamberganova Farida</i> ANGLO-SAKSON HUQUQIY TIZIMI DAVLATLARI TAJRIBASIDA ELEKTRON TIJORAT VA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQIY HIMOYASI	170-175
<i>Turg'unboyev Abrorjon</i> XALQARO HUQUQDA ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN DAVLATLAR JAVOBGARLIGI ASOSLARI VA MUAMMOLAR	176-180
<i>Abdumalikov Otabek</i> AXBOROT OLIISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI: AXBOROT TURLARI VA MANBALARINING HUQUQIY JIHATDAN TASNIFLANISHI	181-187
<i>Xursanov Shamsiddin</i> BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	188-192
<i>Adizova Nargiza</i> ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARINING AN'ANAVIY TIJORATDAGI SHARTNOMALARDAN FARQI VA O'ZIGA XOSLIKLARI	193-196
<i>Omonkeldiyeva Sevara</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING SHAKLLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI	197-199
<i>Anvarova Azizabonu</i> FUQAROLIK PROTSESSIDA MEDIATSIYANING HUQUQIY ASOSLARI	200-203
<i>Сайдалиева Ойсултанахон</i> ДОКТРИНА СНЯТИЯ КОРПОРАТИВНОЙ ВУАЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРУГА ОТВЕТСТВЕННЫХ ЛИЦ	204-211

Qahramonova Sevinch

IJTIMOIIY ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASH:

KONSTITUSIYAVIIY-HUQUQIIY TAHLIL 212-215

Xolmo'minova Barchinoy

RAQAMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY SOHALARGA, XUSUSAN, PENSIYA

TIZIMIGA TA'SIRI 216-220

Sadinov Shohboz

XORIJIY DAVLATLARDA ADVOKAT XIZMATIGA HAQ TO'LASHNING O'ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI 221-226

Harifov Sobir

FUQAROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY HAYOTIDA HUQUQIIY TARBIYANING O'RNI..... 227-231

PEDAGOGIIKA FANLARI

Turgunova Nilufar

CHARACTERISTICS OF IMPLEMENTING HEALTH-PROMOTING

TECHNOLOGIES IN INCLUSIVE EDUCATION SETTINGS 232-234

TIBBIYOT FANLARI

Жураев Жамол

ПРИЧИНЫ РЕЦИДИВА ПОСЛЕ ЛЕЧЕНИЯ ГЕПАТИТА С 235-237

Jumabaeva Miyasar, Xidoyatova Dilbar, Mansurova Nargiza

INSULTDA HARAKAT BUZILISHLARINI TRANSKRANIAL MAGNIT STIMULYATSIYA (TMS)

YORDAMIDA KORREKSIYA QILISHNI OPTIMALLASHTIRISH 238-244

TARIX FANLARI

"ISHTIROKIYUN", "QIZIL BAYROQ", "TURKISTON" GAZETALARIDA XIVA XONLIGI, XXSR HAMDA XSSRGA OID XABARLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent, Abu Rayyhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasida dotsenti
E-mail: atamuratovadilafruz@gmail.com
Tel: +998 97 510 84 33
ORCID: 0000-0002-0804-0512
Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti tomonidan F.Nuriddinova tuzgan "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalarida e'lon qilingan maqolalar izohli bibliografiyasi tahlil qilinib, unda Xiva xonligi, XXSR hamda XSSR da 1918-1930-yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yoritib beruvchi maqolalar o'rganilgan. Mazkur bibliografik asar Xiva xonligiga oid ma'lumotlarni yoritishda uhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda maqolada "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalarida 1919-1924-yillar oralig'ida Xiva xonligi, XXSR hamda XSSRda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga to'xtalib o'tilgan. Maqolada shu haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalarida, 1919-1924-yillar, Xiva xonligi, XXSR, XSSR.

NEWS ABOUT THE KHIVA KHANATE, THE KHNSR AND THE KHSSSR IN THE NEWSPAPERS "ISHTIROKIYUN", "KYZIL BAYROK", "TURKESTAN" AND THEIR SIGNIFICANCE

Dilafruz Rashidovna Atamuratova

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Associate Professor, Associate Professor of the
Department of History, Urgench State University
named after Abu Raykhan Beruni

Abstract. The first printing house in Turkey in the 18th century was opened during the reign of Sultan Ahmed III on Abstract: The annotated bibliography of articles published in the newspapers "Ishtirokiyun", "Kyzyl Bayrok", "Turkiston", compiled by F. Nuriddinova by the publishing house of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, was analyzed, and articles covering political, socio-economic processes in the Khiva Khanate, the USSR and the Ukrainian SSR in 1918-1930 were studied. This bibliographic work is of great importance in covering information about the Khiva Khanate. Based on this, the article touches upon the socio-political processes that took place in the Khiva Khanate, the USSR and the Ukrainian SSR in the period from 1919 to 1924 in the newspapers "Ishtirokiyun", "Kyzyl Bayrok", "Turkiston". This will be discussed in detail in the article.

Key words: newspapers "Ishtirokiyun", "Kyzyl Bayrok", "Turkiston", 1919-1924, Khiva Khanate, USSR, USSR.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-01>

Xorazm matbuoti tarixining ahamiyatli tomoni XX asr boshlarida Turkiston, Samarqand, Buxoro matbuoti shakllangan ayni damda Xorazmda birorta matbuot nashri ishi mavjud emas edi. Holbuki, dastlabki matbuot ishlari uchn asos bo'lgan litografik bosih usuli aynan Xorazmda dastlab o'z faoliyatini boshlagan. Shuni qayd etish kerakki, 1920-yilga qadar ya'ni Xorazmda

dastlabki matbuot nashri ishi yo'lga qo'yilguncha bo'lgan davr tarixining ba'zi jihatlari uchun milliy matbuotda chop qilingan maqola va xabarlarining o'рни beqiyos. Bu o'rinda, mazkur masala yuzasidan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti tomonidan F.Nuriddinova tuzgan "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalarida e'lon qilingan maqolalar izohli bibliografiyasining o'рни katta nazarimizda. Unda Xiva xonligi, XXSR hamda XSSR da 1918-1930-yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yoritib beruvchi maqolalar bibliografiyasi keltirilgan. Mazkur asarda "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston" gazetalarida 1919-1924-yillar oralig'ida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yoritib beriladi. Mazkur bibliografik asar Xiva xonligiga oid ma'lumotlarni yoritishda uhim ahamiyat kasb etdi. Maqolada shu haqida batafsil to'xtalib o'tiladi.

"Ishtirokiyun"da Abu Turg'udning 1919-yil 12-iyuldagi sonida "Xiva masalasi", 19-, 26-iyul sonida "Xiva xonligi", 1919-yil 10-iyun sonida Polvonniyoz Hoji Yusupov "Vaqtsiz zoe" maqolasida Yosh xivaliklardan Otaxon Afandi Ramazon oyining 3-kunida Eski Toshkentda vafot etgani haqida xabar beradi. 1920-yil 11-fevraldagi sonda Abu Turg'udning "Xiva inqilobi", 3 martdagi sonida Abu Turg'ud "Xiva inqilobi va Sho'rolar Rusiyasi" haqida xabar beradi. Mazkur gazetada "Turk Rusto" xabarlar ostida Xiva hukumatining xitobnomasi ham e'lon qilinadi (1920-yil 17-fevral soni). Xorazm jumhuriyati a'zolaridan Nazir Sholikorovning Toshkentga tashrifi haqida "Xiva vakillari" xabarida ma'lumotlar keltiriladi. "Ishtirokiyun" gazetasida 1920-yil 7-avgustida "Xivada teskarichilar harakati" maqolasi nashr qilinadi.

"Qizil bayroq" gazetasida 1918 – 1920-yillarda sodir bo'lgan jarayonlar haqida 1921-yilning 2-apreldagi sonida "Xivada muhim voqealar" nomli xabarda yoritiladi. 1921-yil 4-yundagi sonida Xorazm qurultoyida milliyat masalasi ko'rilganligi haqida xabar beriladi. 1921-yilning 16-iyun sonida esa "Butun Xorazm halqlarining ikkinchi qurultoyi" haqida xabar beriladi. Ushbu gazetaning 1922-yil 8-sentyabridagi sonida "Junaidxonning o'g'li o'ldirilgan"liga haqida, ya'ni qizil askarlar bilan jangda Junaidxonning o'g'li o'ldirilganligi to'g'risida xabar e'lon qilingan. "Xiva jumhuriyatida" xabarida Sobiq xon bog'iga "Lenin" nomi, qizil askarlar o'rnashgan ko'chaga "Troskiy" nomi qo'yilgani haqida xabar berilgan (1922-yil 15-may sonida). Gazetaning 1922-yil 3-iyun sonida Anvar poshoning Sharqiy Buxoroga kelishi munosabati bilan "Turkiston, Buxoro, Xorazm mamlakatlarining ahli Islom fuqarllariga!" nomli maqolasi nashr qilinadi.

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilishi munosabati bilan bir qator maqolalar va xabarlar Turkiston gazetasi tomonidan nashr qilinadi. Jumladan, "Xiva milliy jumhuriyatlarga bo'linishni ma'qul topdi" nomli Ahmadjon Yoqubning 1924-yil 3-oktabrdagi, yoki Z.Bashirning "O'rta Osiyoning milliy jumhuriyatlarga bo'linishi to'g'risida musohabalar" Xorazm jumhuriyati markaz ijroqo'mining raisi Sulton qori Jumaniyozov haqida maqolasi mazkur gazetaning 1924-yil 18-avgustdagi sonida chop qilindi. Mazkur masala 1924-yilning 28-, 29-iyul kunlari O.Karklinning "O'rta Osiyo jumhuriyatlari (Turkiston, Buxoro, Xorazm)ni milliy-jug'rofiy jihatlardan chegaralash masalasi to'g'risida ma'ruzachilar uchun asoslar" maqolasi chop qilindi.

"Turkiston" gazetasida o'lka hayoti haqida kengroq ma'lumotlar beriluvchi bir qator musohaba shaklidagi xabarlar chop etilganligi guvoh bo'ldik, jumladan, 1923-yil 9-mart sonida "Xorazmda siyosiy va iqtisodiy ahvol" maqolasida Xorazm iqtisodiy hay'ati va nozirlar sho'rosining raisi o'rtoq Otajonov bilan, A.Bobojonovning 1924-yil 4-noyabrdagi "Xorazmning

umumiy ahvoli” maqolasida Xorazm Markaziy firqa qo‘mitasining mas’ul kotibi Shoabdurasulov bilan, 1924-yil 31-avgustdagi sonida esa Nurmatning “Xorazmda yoshlar harakati” maqolasida Xorazm Maorif noziri Rizaev bilan musohabalar e’lon qilingan. 1924-yil 1-sentyabr sonida “Xorazmda maorif ishlari” haqida xabar berilib bu xabardayam Xorazm jumhuriyatining Maorif noziri o’rtoq Rizayev bilan musohabasi yoritiladi. Maorifga doir maqolalar mazkur gazeta ancha keng yoritili, unda Tuhfatov Haybatning “Xorazmda maorif ishlari” (1924-yil 16-iyun), Toshkentda tahsil olayotgan xorazmlik yoshlar haqida “Xorazm o’qiguvchilaridan biri” (1924-yil 14-fevral) maqolalari yoritiladi. “Turkiston” gazetasida 1924-yilning 11-sentyabrdagi sonida A.Yoqubning “Xorazm uchun ulug’ qayg’u: Bosmachilarning yovvoyiligi” xabarida Xorazmdan chetga o’qishga ketayotgan 22 ta Komsomol a’zosi Amudaryoda “bosmachilar” tomonidan o’ldirilganligi va Xorazmda shu munosabat bilan 3 kun motam tutishga qaror qilinganligi haqida gapiriladi. A.Yoqubning gazetada 1924-yil 31-oktyabr sonida “Xorazmda inqilobqo’m o’rniga ijroqo’m”, 1-dekabrda “Xorazm jumhuriyatining tarqalishi: Xorazm inqilob qo‘mitasining majlisi” kabi maqolalari nashr qilingan. 1924-yil 21-noyabr sonida muallifning “Matbuot ishlari” maqolasi nashr qilinib, unda Xorazm jumhuriyati misolida matbout tizimi yoritilgan. A.Yoqubning Xorazmda xalqni qoniqtiradigan birorta ham kutubxona yo‘q ekanligi to‘g‘risida 1924-yilning 18-sentyabrida “Kutubxona va qiroatxona ishlari” nomli maqolasi nashr qilinadi. 1924-yil 16-sentyabr sonida Muxbirning Xorazm yoshlari birligi tomonidan “Xorazm yoshlari” nomi jurnal chiqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida “Yangi jurnal” maqolasi e’lon qilinadi. Mazkur jaridaning 1924-yil 16-noyabrdagi sonida Xivada nashri amalga oshirilgan Xorazm tarixidagi ilk davriy nashr hisoblanuvchi “Inqilob quyoshi” haqida “Inqilob quyoshi”ga tahrir hay’ati” haqida xabar beriladi. Bundan tashqari Xoliqovning 1924-yil 12-noyabr sonida “Xorazmda taftish nazorati” haqida, 26-may sonida esa “Xorazmda suv kamchiligi” haqida xabar beriladi. Din masalasi haqida ham xabarlar chop qilinib turilgan, jumladan Zahriddin A’lamning “Turkiston, Buxoro va Xorazm musulmonlariga xitobnoma”si nashr qilinib, unda islom xalifalik to‘g‘risida ma’lumotlar berildi (1924-yil 9-oktyabr). Gazetaning 1924-yil 23-aprel sonida Amudaryo muzofoti va Xorazmda boshlangan toun kasalligi haqida Sovnarkom raisi Islomov bilan musohaba “Toun – o’lat” maqolasida xabar beriladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуазизова Н.А. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тошкент. «Академия», 2000. – Б. 25-26.
2. Бобохонов А. Асрдан ошган зиё масканлари. Т., “Ўзбекистон”. 2011.
3. Эрназаров Т.Э., Акбаров А.И. История печати Узбекистана. Т., “Ўқитувчи”, 1977.
4. Инояттов Х.Ш. История Хорезмской Народной Советской республики (1920-1924 гг.). Т., “Фан”. 1976.
5. Погорельский И.В. История Хивинской революции и Хорезмской Народной Советской Республики 1917 – 1924 гг. Ленинград., Издательство Ленинградского университета. 1984. С.40.
6. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870 – 1927). – ТошкентСамарқанд: Ўздавнашр, 1927.

XORAZM VOHASI VA QUYI ZARAFSHON VODIYSI BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDA ARXEOLGIK TADQIQOTLAR NATIJALARI

Sultanov Samandar Mahmud o'g'li,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

"Tarix" kafedrası o'qituvchisi,

E-mail: samandar194seq@gmail.com

Annotatsiya. Janubiy Oqchadaryo xavzasi va Quyi Zarafshon vodiysida bronza davrida kechgan etnik jarayonlar ta'sirida tadrijiy ravishda rivojlangan bronza davri turar-joylarda istiqomat qilgan neolit davri urug' jamoalari avlodlarining xo'jalik sohasida erishgan Zarafshon tarixiga bag'ishlanganligi diqqatga sazovor. Muallif ikki xududda bronza davrida geografik jihatidan manzarasi Qizilqum saxroi sharoitida ajdodlarimizning tosh asridan bronza davrida tabiiy resurslardan foydalanishi, ikki azim daryo Amudaryo va Zarafshon daryolarining asrlardan asrlar mobaynida suv tarkibidagi loyqa qatlamlarini yotqizishi natijasida tarkib topgan sernam va serunum tekislikdan uddaburon va epchil xarakterlari bilan xo'jalik sohasini olib borishiga imkon bergan turar-joylarni arxeologik jihatidan o'rganilish tarixini yoritishni maqsad qilib olgan, bu masala tezis mazmunida o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Vinogradov A.V., Itina M.A., Kes A.S., Mamedov E.D., Baratov P., Tolstov S.P., G'ulomov Ya.G., Islamov U.I., Asqarov A., Turon, Osiyo, O'rta Osiyo, Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Oqchadaryo, Quyi Zarafshon, Angqa-5, Qavat-3, Ko'kcha-3, Jonbos 33, 34, Zomonbobo.

RESULTS OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH AT THE BRONZE AGE SETTLEMENTS OF THE KHOREZM OASIS AND THE LOWER ZARAFSHAN VALLEY

Sultanov Samandar Mahmud ogli,

a teacher of the "History" department of Urganch

State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract. It is noteworthy that the article is dedicated to the history of Zarafshan, where the descendants of the Neolithic clan communities who lived in the Bronze Age settlements that gradually developed under the influence of ethnic processes in the Bronze Age in the South Akchadarya basin and the Lower Zarafshan valley achieved economic success. The author aims to shed light on the archaeological history of the study of settlements in the Bronze Age, which allowed our ancestors to use natural resources from the Stone Age to the Bronze Age in the conditions of the Kyzylkum desert, which is geographically located in the two regions, and to conduct economic activities from the Sernam and Serunum plains formed as a result of the deposition of muddy layers of water by the two great rivers, the Amudarya and Zarafshan, over the centuries. This issue is reflected in the content of the thesis.

Key words: Vinogradov A.V., Itina M.A., Tolstov S.P., Gulyamov Ya.G., Islamov U.I., Askerov A. Turan, Asia, Central Asia, Tashkent, Fergana, Surkhandarya, Kashkadarya, Samarkand, Bukhoro, Khorezm, Akchadarya, Lower Zarafshan, Angka-5, Kavay-3, Kukcha-3, Zhonbas 33,34, Zaman-Baba.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-02>

Turon pasttekisligi Osiyo materigi o'rtasida joylashgan xudud turli nomda nashrlarda O'rta Osiyo etnogeografik atamada qayd qilingan. O'rta Osiyo mintaqasi xudud yuzasi tuzilishi tog'li va tekislik bo'lib, geologik jarayonlarning maxsuli bo'lgan. Geografiya fani yutuqlari natijalariga ko'ra, O'rta Osiyo geografik o'rin 3 mln 150 ming kv km.ni tashkil etgan[Baratov P., Mamatqulov M., Rafikov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi-Toshkent: O'qituvchi", 2002.B.7.].

Mintaqaning fizik-geografik xaritasida tabiiy geografik xududlari birnecha o'lkalardan iborat. Shunday o'lkalar Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Xorazm dextqonchilik voxalari bo'lib, ularning geografik xolati, tabiiy resurslari. Suv zahiralari, aholi joylashishi bir tarixiy davrda kechgan emas. Mazkur maqolada Turon pasttekisligi tarkibiy qismi bo'lgan Oqchadaryo havzasi, unga geologik va geografik muhiti jihatidan ulanib ketgan Quyi Zarafshon vodiysida bronza davri axolisi xayot va ijod uyg'unligi bo'lgan turar-joylarini arxeologik jixatidan o'rganilish tarixi yoritish maqsad qilingan.

Quyi Amudaryo xududida Xorazm ekspedisiyasi, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Qoraqalpog'iston respublikasi ilmiy markazlari arxeologiya guruhlarlari xamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tarix va arxeologiya instituti, Ya.G'.G'ulomov naomidagi arxeologiya instituti xamda Samarqand Davlat Universiteti arxeologiya guruhlarining bronza davriga oid manzilgohlarda olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari taxlil qilindi,shu ma'nodan kelib chiqib, quyidagi natijalar qayd qilindi:

-Janubiy Oqchadaryo xavzasi va Quyi Zarafshon vodiysi yer osti tebranishlari natijalari mahsuli ekanligi;

-Ikki xududda neolit davri urug' jamoalari avlodlari bronza davrida xo'jalik an'analari davom ettirdilar.

Ikki xudud yuzasini gidrologik xususiyatini Amudaryo va Zarafshon daryolari toshqini natijasida yuz bergan.

-Mazkur jarayonda Janubiy Oqchadaryoda Oqchadaryo irmog'i, Quyi Zarafshon xududi gidrologiyasi keng xududni qamrab olgan, bunga Mahondaryo Xo'jayli, Oyoqagitma, Daryosoy irmoqlari xarakatlari omil bo'lgan.

-Bronza davriga kelganda turar joylar tuzilishi yog'och ustunli, yarim yerto'la shaklda bo'lgan.

Mavzu asosiy mazmuni, taxlil va natijalar quyidagi xulosa va takliflarni izohlash mumkin:

Xulosada esa, Janubiy Oqchadaryo va Quyi Zarafshon vodiysi yaxlit Qizilqum saxroi sharoiti, geografik muhiti jihatidan gidrologik xususiyatlari jixatidan farqlanish xolati mavjud.

-Janubiy Oqchadaryo Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida cheklangan. Oqchadaryo irmog'i xam Amudaryo-Qizilqum oralig'i doirasida berk xolatda bo'lgan.

Ikki xududda neolit davri yog'och ustunli yer sathiga turar-joylar qurilgan bo'lsa, bronza davrida esa, yarim yerto'la shaklda bo'lgan.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

1.Janubiy Oqchadaryo xavzasi qva Quyi Zarafshon vodiysi geografik xolati, suv zahirasi jixatlarini hozirgi zamon bilan taqqoslash;

2.Bronza davri jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarning iqtisodiy omillarini o'rganish;

3.Amudaryo va Zarafshon daryolarining qadimgi xolati va hozirgi zamon bilan nazariy-qiyosiy taxlil qilish.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vinogradov A.V, Itina M.A, Kes A.S, Mamedov E.D. Paleogeograficheskaya obuslovlennost rasseleniya drevnego cheloveka v pustynnykh Sredney Azii //Pervobytnyy chelovek, yego materialnaya kultura i prirodnaya Sreda v Pleystosene i Golosene-M.:Nauka, 1974.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi-Tashkent, "O'qituvchi", 1996.
3. Vinogradov A.V, Neoliticheskiye pamyatniki Xorezma-M.:Nauka, 1968. Выр 8.
4. Vinogradov A.V. Drevniye oxotniki i rybolovy Sredneaziatskogo mejdurechya //TrXAEE-M.:Nauka. 1981. T.XIII.
5. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm-MGU. 1948.
6. Itina M.A. Новые стоянки Tazabag'yabskoy kultury (raboty 1956 //MXE,-M: Nauka, 1959. Выр.L.
7. Itina M.A. Raskopki стоянки Kavat-3 //MXE-M:Nauka, 1963. Выр-6.
8. Itina M.A. Raskopki стоянки Tazabag'yabskoy kultury 1957 //MXE-M.:Nauka 1960 № 4.
9. Tolstov S.P. Raboty Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii v 1954 g. /MXE-M:Nauka 1955 № 6.
10. Itina M.A. Raskopki na Akchadarye //AO 1976-M.:Nauka, 1977.
11. Itina M.A. Pamyatniki epoxi neolita i bronzы //Drevnosti Yujnogo Xorezma //TrXAEE,-M: 1991. T. XVI.
12. Gulyamov Ya.G, Islamov U.I, Askarov A, Pervobytnaya kultura i vozniknoveniye oroshayemogo zemledeliya v Nizovyax Zarafshana-Tashkent, Fan.1966.
13. Askarov A. Kultura Zaman-Baba v Nizovyax Zarafshana //ONU-Tashkent,:Fan 1962. № 1.

JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XX ASR BOSHLARI)

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna

QarDU doktoranti

ismatullayeva88@mail.ru

+998993564005x

ORCID ID 0009-0001-3055-1941

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston zaminida sovet tizimi o'rnatilgandan so'ng Jizzax viloyati sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ishlar, o'zgarishlar, yangi ochilgan tibbiy muassasalar va ularda o'rinlar soni, qayerda, nima maqsadda ochilganligi bayon etilgan. Shuningdek, ularda tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi qay holatda bo'lganligi, yillar kesimida qiyosiy tahlil etilgan. Yangi ochilgan tibbiyot muassasalarda faoliyat olib borayotgan xodimlar, soni, ularning zahmatli mehnatlari maqolada o'z aksini topgan. Jumladan, ilk ayol shifokorning viloyatimizda ish boshlashi qanday ahamiyatga egaligi tarixiy dalillar asosida ochib berilgan. Yana bir tomondan mazkur yillarda mahalliy aholiga xavf solib turgan kasalliklar, epidimiyalarga qarshi kurash jarayonlari, shifokorlarning fidokorona mehnatlari maqolada o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar. Tibbiy xizmat, zamestvo tibbiyoti, Sovet hokimiyati, epidemiya, yuqumli kasalliklar, tibbiyot muassasalari, medpunktlar

HISTORY OF THE HEALTHCARE SYSTEM IN JIZZAKH REGION (EARLY 20th CENTURY)

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna

Doctoral student at Karshi State University

Abstract. This article explores the developments and transformations in the healthcare system of the Jizzakh region following the establishment of the Soviet regime in Turkestan at the beginning of the 20th century. It provides information on newly established medical institutions, the number of available beds, their locations, and the purposes for which they were opened. The article also presents a comparative analysis of the level of medical services provided during different years. The dedicated work and number of medical personnel active in the newly established healthcare facilities are reflected in the article. In particular, the historical significance of the first female doctor beginning her work in the region is highlighted based on historical evidence. Additionally, the article discusses the diseases and epidemics that posed a threat to the local population during this period and the devoted efforts of healthcare workers in combating them.

Keywords: medical service, zemstvo medicine, Soviet government, epidemic, infectious diseases, medical institutions, medical posts.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-03>

Kirish qismi. Rossiya imperiyasi hukumati davrida tibbiyot tashkilotlari rasmiy idoralarga tegishli bo'lib, o'sha idoralarning ixtiyori asosida ish ko'rishga majbur bo'lishgan. Tibbiy xizmat ko'rsatish avvalo, harbiylarga, amaldorlarga va rus fuqarolarigagina qaratilib, mahalliy aholini davolash so'ngi o'rinda turgan. Butun imperiya va unga qaram o'lkalar sog'liqni saqlash borasida zamstvo tibbiyoti asosiy o'rinda edi. Ma'lumki, XIX asrda Rossiya imperiyasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mahalliy boshqaruv tizimi sifatida tashkil etilgan zemstvolar sog'liqni saqlash sohasida muhim o'rin tuta boshladi. Zemstvo tibbiyoti —

ana shu islohotlar doirasida shakllangan, xalqqa yaqin tibbiy xizmat shakli bo'lib, keyinchalik Rossiya mustamlakasi bo'lgan hududlarda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sir emaski, 20-yuzyillikka kelib ham Rossiya imperiyasida sog'liqni saqlashning yagona tizimi yaratilmagandi va muammoning yechimi sifatida ko'rilgan zemstvo tibbiyoti g'oyasi markaziy shaharlardan tashqarida, ayniqsa, chekka hududlarda mukammal ishlamadi [1]. Xususan Turkistonda ham o'z samarasini bermaganligini manbalardan ko'rish mumkin. Xo'sh buning asosiy sababi nima edi? Ajratiladigan mablag'larning ozligi, tibbiyot kadrlarini tayyorlashga e'tiborsizlik va sog'liqni saqlash ishlari rejasiz ravishda olib borilishi kabi holatlar zemstvo tibbiyotini xalq talablariga javob berolmasligini asoslab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Maqolada XX asrning 20-yillarida, sovet hokimiyati o'rnatilishi davrida Jizzax viloyati sog'liqni saqlash sohasi faoliyati tarixini o'rganish jarayonida statistik-tarixiy dalillarni qiyosiy yoritishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi.

1917-yilgi oktabr inqilobidan so'ng 1-noyabrda Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatildi[2], natijada aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish davlat ixtiyoriga o'tdi. Shu yilning 15– 22 noyabr kunlari Sovetlarning III s'ezdi bo'lib[3], unda Turkiston o'lkasi Xalq Komissarligi Kengashi tuzilganligi e'lon qilindi. Kengash tarkibiga 15 nafar komissar kiritilib, Sog'liqni saqlash xalq komissari lavozimiga sobiq harbiy vrachi, eserlar partiyasi a'zosi N. F. Barankin qo'yildi[4]. "Ammo-deydi professor Gavhar Mo'minova o'z tadqiqot ishida- bu davrda Turkiston sog'liqni saqlash sohasi ishini yo'lga qo'yish, aholi orasida profilaktika va sanitariya maorifi ishini tahlil etish, qolaversa, o'lkada tez-tez takrorlanib turgan epidemiyalar oldini olish va unga qarshi kurashni tashkil etishga qodir rahbar kadr yo'q edi. Shu bois Turkiston Sog'liqni saqlash xalq komissarligiga tayinlangan rahbarlar tez-tez almashtirilib turilgan. Xususan, N. F. Barankinning bir necha haftalik rahbarligidan so'ng o'rniga sobiq harbiy vrach K. Ya. Uspenskiy tayinlanadi[5], ammo u ham tez orada ma'lum sabablar bilan lovozimidan olinadi. Afsuski bu kabi sog'liqni saqlash boshqaruvidagi beqarorlik ancha yillar davom etgan. Natijada esa o'lkada sog'liqni saqlash sohasi yillarcha bir tizimga tusholmadi, hamda yechimini kutayotgan muammoli soha sifatida qoldi.

Ilk tizimlashtirish borasidagi o'zgarishlar 1918-yillarda boshlanganligini ta'kidlab o'tadi ilmiy ishlarida professor Gavhar Mo'minova. Shu yilning may oyida har bir uyezdagi mahalliy sovetlar qoshida sog'liqni saqlash bo'limlari tuzilib, ular zimmasiga endi shakllanayotgan Sovet respublikasining meditsina-sanitariya xizmatini tashkil etish vazifasi yuklangandi. Xususan, bu vazifalarnin quyidagilar tashkil etgan:

- joylarda tibbiy xizmat tarmoqlarini yo'lga qo'yish;
- profilaktika va sanitariya maorifi ishlarini olib borish;
- epidemiyalarning oldini olish va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- onalar va bolalar salomatligini saqlash yuzasidan tadbirlar tashkil etish va boshqalar.

Keyinchalik davolash muassasalari qoshida saylab qo'yiladigan kasalxona komiteti tuzilib, yangi kasalxonalar va dispanserlar qurilib ishga tushirilgan. Meditsina maktablari hamda bilim yurtlari ochiladi. Dastlab universitetlar qoshida tibbiyot fakultetlari va so'ngra tibbiyot institutlari tashkil etilgan. Aytib o'tish kerakki bu davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy murakkabligi bilan ajralib turganligi bois sog'liqni saqlash sohasining tizimli shakllantirishga urinish katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayon edi.

MUHOKAMA. Sovet hukumati o'rnatilgan ilk yillarda Jizzax uyezdi hududidagi 35 o'rinli 3 ta kichik kasalxona va ularga qarashli ambulatoriya, 3 ta feldsherlik punkti mavjud bo'lgan. Ularda 1 nafar vrach[7] va 9 nafar o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi[8] faoliyat olib brogan bo'lib, oldilarida o'ta ma'suliyatli vazifalar turgan. Ular imperialistik urush, xalq qo'zg'olonlarining og'ir oqibatlari, ochlik, qashshoqlik natijasida vujudga kelgan va aholi orasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar- tif, vabo, o'lat epidemiyasi bilan kurashishga majbur bo'lib, bezgak va rishta kasalliklarini tugatishga harakat qilganlar. Muammo shu ediki, aholi orasida tarqalgan bu kabi xilma-xil kasalliklarni davolash uchun tibbiyot muassasalari juda kam sonni tashkil etardi. Hatto aholi soniga nisbatan tibbiyot xodimlari ham etarli bo'lmagan. Bundan tashqari sog'liqni saqlash uchun ajratilayotgan mablag'lar, tibbiyot asbob uskunalari va anjomlari, dori-darmonlar, yara bo'g'laydigan materiallar, disenfeksiya qiluvchi eritmalar va gigiyena predmetlari etishmasdi. Shunga qaramay, shifokor I.N.Semetskiy, keyinchalik N. V.Samoylov boshliq shifokorlar kunni-tunga ulab, tinimsiz xalq salomatligi yo'lida mehnat qilishganligini manbalar ko'rsatadi.

Savol tug'iladi. Nima sababdan XIX asr oxiri XX asrning boshlarida aholi orasida yuqumli kasalliklar juda keng tarqalgan? Manbalarga yuzlanamiz, XX asrning so'ngi yillarida Jizzax viloyati shifo maskanlarida fidokorona mehnat qilgan shifokor Sunnat Qosimov 1982-yil "Jizzax haqiqati" da chop ettirgan maqolasida quyidagilarni asosiy sabablar sifatida keltirib o'tgan. Jumladan, sanitariya-epidemiologiya xizmatining yomonligi, ya'ni kiyim-kechak tanqisligi, yuvinish uchun sovun va hammomlarning etishmasligi, shifoxonalar qoshida disenfeksiya qiluvchi ko'chma kameralar yo'qligi kabi masalalarni bayon etgan. To'g'ri, shifokor Sunnat Qosimov jamiyatning murakkab siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy omillaridan kelib chiqib yondashgan. Sababi, Turkiston sovet hokimiyatining o'rnatilishi arafasida Rossiya imperiya bosqinidan qolgan asoratlar ichida yashardi, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy tanazzul xalq qashshoqlashuviga olib kelgandi. Ammo masalaning yana bir tomoniga, Jizzax viloyatining geografik joylashuvi, iqlimini hisobga olgan holda, geografik determinizm[9] kabi metodlarga ham asoslanib yondashish lozim deb o'ylayman. Chunki, tarixiy jarayonlarga, sodir bo'layotgan ba'zi muammolarning keng ko'lamli bo'lishiga muayyan hududning joylashgan geografik o'rni, iqlimi ta'sir etmay qolmaydi. Xususan, aholi salomatligi ko'p jihatdan atrof-muhitga va iqlim sharoitlariga bog'liqligi sir emas. Jizzax iqlimi keskin kontinental, quruq-issiqligi tufayli barcha tarixiy davrlarda aholi turli yuqumli va boshqa asalliklardan aziyat chekib kelgan. Bu davrda nafaqata Jizzax, balki O'zbekistonning barcha hududlarida bezgak, ichburug', qichima kabi kasalliklar keng tarqalganki, albatta hududlarning joylashgan o'rni, issiq iqlim sharoiti bilan bog'liqdir. Masalan, bezgak kasalligini tarqatuvchi zararli hasharotlar botqoqliklarda yashab, issiq iqlim ularning ko'payishi uchun qulay imkoniyat yaratib bergan. Bundan xulosa qilish mumkinki, O'rta osiyoga Rossiya imperiyasi yoki Sovet tizimi o'rnatilgandan so'ngina xalq salomatligi yo'lida ishlar qilindi, deb e'tirof etilayotgan bir tomonlama qarashlar xatô. Xalqimiz asrlar davomida mavjud kasalliklar bilan kurashib, xalq tabobati asosida yechim topishga harakat qilishgan. Zamonaviy tibbiyot kirib kelgach ijobiy, amaliy natikjasi ko'paygan.

NATIJALAR. Tarixiy ma'lumot, 1918-1919-yillari yuqumli kasalliklar ichida bitliqilik tufayli kelib chiqadigan tepkili va qaytarmali terlama kasalligi keng tarqalgan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, qorin tifi, ichburug', vabo, chechak kabi yuqumli kasalliklar ham aholi salomatligiga doim xaf solib turgan. Hatto shu yili bitliqilik tufayli paydo bo'lgan Tif butun

Rossiya bo'ylab tarqalganligi uning qanchalik xavfli bo'lganligini ko'rsatadi. 1919-1920 yillarda bu kasalliklar bilan 2 milliondan ziyod kishi o'g'rigan. Shifokor Sunnat Qosimov "Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar" nomli maqolasida V.M.Jdanov va Yu.L.Lebedevlarning 1918-1922 yillar orasida tepkili terlama bilan 6,5 mln kishi, qaytarmali terlama bilan 3,5 mln kishi kasallanganligini qayd qilganligini yozgan.

Terlama kasalligi epidimiyasiga qarshi kurashish maqsaddida 1919 yil 28 yanvarda RSFSR xalq komissarlari Sovetida "Tepkili terlama bo'yicha tadbirlar" haqida maxsus qaror chiqadi. Qarorga muvofiq markaziy shahar va chekka o'lkalarda joylashgan jami sovet, fuqaro va harbiy organlar zimmasiga tepkili terlamaga qarshi kurashda vrachlik sanitariya organlariga yordam berish vazifasi qat'iy yuklatilgan. Ular qarorni amalga oshirish va bu yo'ldagi to'siqlarni bartaraf etish uchun tibbiyot xodimlarining barcha talab va istaklarini so'zsiz bajarishlari shart edi. Shuningdek, qarorda aholi va harbiylar orasida sanitariya maorifi ishlarini kuchaytirish zarurligi ham alohida ta'kidlab o'tilgan[10].

O'z navbatida qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Jizzax uyezdida ham tibbiy tashkilotlar tomonidan terlama kasalligi epidemiyasiga qarshi tadbirlar ishlab chiqilgan. Bu tadbirlar jumlasiga:

- Jami yuqumli kasalliklar bilan o'g'rigan kishilarni ro'yxatga olib, ularning umumiy sonini aniqlash;
- Bemorlarni sog'lom kishilardan ajratgan holda davolash. Buning uchun maxsus muvaqqat shifoxonalar tashkil qilish;
- Bemor chiqqan hovlini dezinfeksiya qilish va oila a'zolari sog'lig'ini kuzatish;
- Qishloqlarda maxsus hammomlar tashkil etish va aholining har 8-10 kunda ushbu hammomlarda yuvunib turushini ta'minlash;
- Kiyim-kechaklarni tez-tez qaynatib yuvishni, ko'rpa-to'shaklarni quyoshda toblash va shamollatishni yanada kengaytirish;
- Uy va hovli joylarda, ovul va qishloqlarda, shahar markazi va atroflarida tozalik o'rnatishni kuchaytirish;
- Aholi orasida yuqumli kasalliklarga qarshi kurash to'g'risida keng ko'lamda tushuntirish ishlarini olib borish.

Terlama epidemiyasini bartaraf qilish rejasini amalga oshirish ishiga uyezd hududidagi barcha organlar, shahar va qishloq sovetlari, xo'jalik savdo, militsiya, maorif sistemasi va ma'muriy idoralar jalb qilingan. Kasallik bilan og'rigan bemorlarni kasalxonaga yotqizish va ularni davolashda Toshkent, Samarqand shaharlarining shifokorlari katta yordam berishganligini manbalardan ko'rish mumkin. Xususan, 1918-yili Jizzaxga doimiy ishlash uchun maxsus ko'rsatma bilan N.Y.Samoylov boshchiligida 10 nafar feldsher va hamshiralar guruhi etib kelishgan. Ular joylarda ishni tashkil qilish va mahalliy feldsherlarga yordam ko'rsatish maqsadida viloyatningning Ravot, Yom, Zomin, Sangzor, O'smat, Yangiqo'rg'on, Sovrun, Qizilqum, Bog'don, Chorda va boshqa qishloqlariga joylashishgan[11].

Bajarilgan eng muhim tadbirlaridan biri malakali va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatadigan mavsumiy kasalxonalarning ochilishi bo'ldi. Shu yilning avgust oyidan boshlab yuqumli kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni oilasidan ajratib ushbu shifoxonalarga yotqizish jarayonlari boshlangan. Jizzax viloyatida o'rinlar soni 150 taga etgandi. Xususan, Jizzax shahrida 50 o'rinli, Zomin, O'smat, Yangiqo'rg'on, Bog'donda 25 o'rinli shifoxonalar ishga tushirilgan. Har

bir kasalxona atrofidagi qishloqlar aholisi uchun xizmat qilishi belgilangan. Yana bir eng muhim tadbir mavjud tibbiyot xodimlarining yuqumli kasalliklar epidemiyasi, ayniqsa tif kasalligining tarqalishiga qarshi kurashdagi o'rinlari aniq belgilab olinganligi edi. Ammo malakali kadrlar etishmas, bu esa vaziyatni tezroq ijobiy hal etish to'siqlaridan edi. Misol uchun, Jizzax shahridagi yangi ochilgan kasalxonada ikki feldsher va ikki hamshira, qolganlarida esa bir feldsher va bir hamshira ish olib borishgan. Qolgan shifokorlar zimmasiga kasalxonalarda ishni davom ettirish bilan bir vaqtda aholi orasidagi bemorlarni aniqlash va olib borilayotgan profiliktika ishlarini nazorat qilib borish vazifasi yuklatilgan. Davolash va profiliktika ishlarining borishiga shifokorlardan I.N.Sametskiy va N.Y.Samoylovlar rahbarlik qilganlar. Ular epidemiyaga qarshi qilinayotgan ishlarning borishi haqida uyezd partiya komiteti va ijroiya komitetiga har haftada axborot berib turishardi[12].

Yuqumli kasalliklarni bartaraf etish uchun epidemiya fond hisobidan ochilgan mavsumiy shifoxonalar bir yil faoliyat ko'rsatishgan. Sog'liqni saqlash organining o'sha yillardagi hisobotiga ko'ra shu bir yil ichida kasalxonalarda har xil yuqumli kasalliklar bilan og'rigan ko'plab bemor davolanishgan[13].

1920 yil iyun oyiga kelib epidemiya barham topgach 150 o'rinli kasalxona 25 o'ringa qisqartirilgan. Bu kasalxona 1924 yilgacha mustaqil faoliyat ko'rsatib, keyinchalik shahar kasalxonasi tarkibiga qo'shib yuborilgan.

1918-1919 yillarda Toshkent harbiy gospitalining laboratoriyasida 20 xildan ziyod dorilar tayyorlangan. Uxlatuvchi, og'riqni qoldiruvchi, istmani tushiruvchi, yurak faoliyatini yaxshilovchi, yallig'lanish va mikroblarga qarshi pereparatlar, dezinfeksiyalovchi vositalar shular jumlasidandir. Bundan tashqari tibbiyotga doir paxta, kanakunjutmoyi kabi mahsulotlar paxta zavodlari qoshida tayyorlanadigan bo'lishgan. Dorilarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida keng sur'atda dorivor o'simliklar ekishga kirishilgan. Toshkent harbiy gospitali qoshidagi laboratoriyalarda vabo, qorin tifi va chechakka qarshi emlash uchun vaksina tayyorlash ishlari avj olib, avvalda kamchil bo'lgan dori zaxirasini birmuncha boyitgan. Bu holat shahar va uyezd dorixonalarida dorivor moddalar tanqisligi ancha kamayganligida ham ko'rinadi. O'sha yillarda Jizzax uyezdida yagona dorixona mavjud bo'libgan, ammo shunga qaramay unda faoliyat olib borayotgan xodimlar shifoxonalarni va tibbiyot punktlarini dorivor pereparatlar bilan ta'minlab turishga harakat qilganlar. Epidemiyani bartaraf etish uchun zaruriy dezinfeksiyalovchi moddalarni etkazib berish doimiy yo'lga qo'yilganli o'sha davr sog'liqni saqlash sohasining katta yutuqlaridan edi. Natijada 1921 yilga kelib aholi ortasida nafaqat terlama bilan og'rish keskin kamaydi, balki qorin tifi, ichburug', vabo, o'lat va chechak kasalliklarining tarqalishiga chek qo'yildi[14]. Bu esa o'sha davr shifokorlarining qahramonona mehnatining natijasi edi.

Ammo hali vohada bezgak va rishta kasalliklari mavjud bo'lib, aholi sog'lig'iga keltirayotgan zarari katta edi. Shuning uchun ham sog'liqni saqlash muassasalari oldida bu dardni bartaraf etish masalasi yillar davomida muammoli holat bo'lib turgan.

1922 yilning mayida Jizzax uyezdida Soveti qoshida Sog'liqni saqlash bo'limi tuzildi. Bu bo'limning mudiri qilib Nikolay Vladimirovich Samoylov tayinlangan[15]. Mazkur tashkilot zimmasiga Jizzax vohasida yosh Sovet respublikasining meditsina-sanitariya xizmatini yanada takomillashtirish vazifasi yuklatilgandi.

Aholini dori-darmonlar, meditsina buyumlari bilan ta'minlash va dorixonalar faoliyatini boshqarish maqsadida Sog'liqni saqlash bo'limi qoshida viloyat farmasevtik boshqarmasining uyez organi tuzilib, unga dorishunos Valeriy Denisovich Ramonov rahbar etib tayinlangan[16].

1923 yilga kelib aholi orasida davolash va profilaktika ishlarining keng ko'lamda olib boorish jarayoni boshlangan. Natijada, o'lat, vabo va chechak kasalliklariga, hatto keyinroq bo'lsada rishta kasalligiga ham barham berilganli manbalarda qayd etilgan.

1924 yilgi milliy chegaralanish davrida Jizzax shahar kasalxonasi harbiy lazaret va yuqumli kasalliklar shifoxonalarining birlashtirilishi natijasida 40 o'rinli (ichki kasalliklar-25, yuqumli kasalliklar-15)[17] yagona shahar shifoxonasi tashkil etilib, Bosh shifokor vazifasiga Valeriy Gancharov tayinlangan. Yuqumli kasalliklar binoning bir tomoniga, alohida palatalarga joylashtirilib, ichki kasalliklardan alohida ajratib qo'yilgan. Shu hovlidagi ko'pxonali alohida imoratga shahar poliklinikasi ko'chirib o'tqazilgan. Poliklinika tarkibida bolalar va ayollar konsultatsiyasining ochilishi ayollar o'rtasidagi kasalliklarning qisqarishiga olib kelgan. Bu o'z davri uchun mintelitetimizdan kelib chiqib muhim hodisa edi. Kasalxonaning avvalgi binolariga sog'liqni saqlash bo'limi, viloyat farmasevtika boshqarmasining kichik bo'limi va shahar dorixonasi joylashtirilgan.

Eski shahar markazida medpunkt ochilib, u yerda feldsher Gennadiy Muratov aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni boshlagan. Keyinchalik Jizzax uezdiga qarashli Yangiqo'rg'on, Baxmal, Zomin va Forish tumanlarida ham birin ketin meditsina punktlari ochilgan. Bu jarayon sog'liqni saqlash sohasining tizimli tashkil etish bosqichlaridan edi.

1925 yilda Jizzaxga tish shifokori V.N.Kozlova keladi[18]. Hamda shahar ambulatoriyasi qoshida tish kasalliklari kabineti ochiladi. Buning o'ziga xos tomoni shundaki, V.N.Kozlova XX asr 20-yillari Jizzax vohasidagi ilk ayol shifokorlardan biri edi. U tez orada xalq e'tiboriga tushib, izzat-hurmatga sazovor bo'ladi. Ayniqsa xotin-qizlar o'rtasida obro'-etibori yuqori bo'lgan. Sababi milliy mintalitetimiz, qadriyatlarimiz xotin-qizlarning erkak shifokorlarga borib ko'rikdan o'tishlariga yo'l qo'ymagan. Shifokor V.N.Kozlovaning viloyatda ish boshlashi, shahar poliklinikasi qoshida bolalar va ayollar konsultatsiyasining ochilishi ayollarning tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini kuchaytirgan. Bu aholi salomatligining ta'minlanishidagi muhim qadamlardan biri edi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, 1917 yil oktabr inqilobidan so'ng Jizzax uyezdida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati oz bo'lsada yaxshilangan. Misol uchun, 1925-yil Jizzax viloyatida 60 o'rinli 3 ta shifoxona mavjud bo'lib, 20 o'rinli 2 ta kasalxona qishloqlarda joylashgan edi. 1915-yilga nazar solsak, vohada 35 o'rinli 3 ta kichik kasalxona mavjud edi xolos. 1919-1920-yillarda bir yo'la 150 o'rinli mavsumiy yuqumli kasalliklar shifoxonasi ochilganligini yuqorida qayd etib o'tdik. Bunday tibbiyot muassasasi 1917-yilga qadar biror marotaba ham tashkil etilmaganligini hisobga olsak ma'lum manoda siljish bo'lganligini ko'ramiz.

1915-yildagi har birida bittadan shifokor qabul qiladigan 3 ta ambulatoriyada 1925 yilga kelib bir yo'la 7 shifokor ishlay boshlagan. Raqamlarga e'tibor qaratsak, 1925-yilda feldsherlik medpunktlari soni 1915-yildagiga nisbatan 3 tadan 5 taga, vrachlar 2 nafardan 4 nafarga, feldsher va hamshiralar 9 nafar kishidan 20 kishiga, apteka punktlari 3 tadan 6 taga, dorishunoslar 1 tadan 3 taga oshib borgan. 1917-yildan so'ng 8 yil ichida tibbiyot muassasalari, undagi o'rinlar, dorixona punktlari o'rta ma'lumotli tibbiyot kadrlar 2 barobar, dorishunoslar 3

barobar, shifokorlar 4 barobar ko'payib, aholi salomatligi uchun kurashganlar. Qanday omil hisobiga? Mahalliy xalq orasidan shifokorlar etishib chiqqan boshlagan va ular hisobiga ham bu raqamlar boyib borgan.

Haqiqatdan ham bu davr xalqimiz uchun eng og'ir davrlardan edi. Milliy qadriyatlarimizga, milliylikimizga yod bo'lgan bir tizim o'rnatilishiga qaramay tibbiyot sohasida ma'lum o'zgarishlar, tizimli shakllanish jarayoni yuz berdi. Bu davrda yetishib chiqqan tibbiyot xodimlari o'z davrining qahramonlari edi. Ularning mehnatlari sabab asrlar davomida aholiga dahshat solib kelgan vabo, o'lat, chechak kasalliklari mutlaqo tugatildi. Tepkili va qaytarmali terlama kasalliklari epidemiyasiga barham berildi. Yuqumli kasalliklarning boshqa turlarini uzil-kesil tugatishga zamin yaratildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Jumanazarov. X. Turkistonda tibbiyot tarixi (19-yuzyillik so'ngi – 20-yuzyillik boshi). - Toshkent: Fan, 2024.- 98 b
2. Shamsutdinov.R. Vatan Tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) Uchinchi kitob. Toshkent : Sharq, -2010 y.- 39 b
3. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob, O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida. Toshkent : Sharq, - 2000. -47 b
4. Mo'minova.G.E. O'zbekistonda sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991yillar).t.f.d (DSc) Diss. -Toshkent, –2018. – 46 b
5. O'sha manba
6. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 1982 yil 16 dekabr №151- son (1340)
7. O'sha manba
8. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi. Toshkent: Mehnat — 1996. - 223 b
9. Mo'minova.G.E. O'zbekistonda sovet davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixi (1917–1991yillar).t.f.d (DSc) Diss. -Toshkent, –2018. – 18 b
10. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 1982 yil 16 dekabr №151- son (1340)
11. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 1982 yil 21 dekabr №153- son (1342)
12. O'sha manba
13. O'sha manba)
14. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi. Toshkent: Mehnat — 1996. - 223 b
15. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 1982 yil 21 dekabr №153- son (1342)
16. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi. Toshkent: Mehnat — 1996. - 223 b
17. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 1982 yil 21 dekabr №153- son (1342)
18. O'sha manba

IQTISODIYOT FANLARI

TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY RESURSLAR SHAKLLANISHINING NAZARIY ASOSLARI

Tangirkulov Bekzod Boxadirovich,
Mustaqil tadqiqotchi, O'zbekiston Respublikasi
bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamentning
davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasining
masofaviy nazorat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,
E-mail: fayz.tangirkulov@gmail.com
Tel: +998-99-931 74 42
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Tijorat banklari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklari kredit portfelining samarali shakllanishi hamda kredit qo'yilmalarining daromadliligi ular majburiyatlarining tarkibiy tuzulushiga, kreditlash uchun zarur moliyaviy resurslar manbalarining optimallashtiruviga uzviy bog'liq hisoblanadi. Ushbu maqolada tijorat banklari moliyaviy resurslari shakllanishining nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, moliyaviy resurslar, depozit, nodepozit, pul bozori, kapital bozori, fond bozori, o'z kapital, jalb qilingan kapital.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF FINANCIAL RESOURCES IN COMMERCIAL BANKS

Tangirkulov Bekzod Bakhadirovich,
Independent researcher, deputy head of
the remote monitoring department of the
state financial control inspectorate under the
department for combating economic crimes
under the general prosecutor's
office of the Republic of Uzbekistan

Abstract. Commercial banks play a crucial role in ensuring the stable development of our country's economy. The effective formation of the credit portfolio of commercial banks and the profitability of credit investments are closely linked to the structural composition of their liabilities and the optimization of sources of financial resources necessary for lending. This article highlights the theoretical foundations of the formation of financial resources in commercial banks.

Keywords: commercial banks, credit, financial resources, deposit, non-deposit, money market, capital market, stock market, equity capital, borrowed capital.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-04>


Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun tijorat banklari moliyaviy barqaror bo'lishi lozim. Shundagina ular xo'jalik subyektlari va aholiga etarli darajada kredit beradi, iqtisodiyot subyektlari o'rtasida to'lovlar uzluksiz o'tadi va barchaga zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi ularning kredit portfelining holati va

tuzulishi bilan uzviy bog'liq. Tijorat banklarning moliyaviy holati ularning kredit portfeli holatiga uzviy bog'liqdir. Tijorat banklarining turli davlatlarda kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan risklarni kamaytirish, kredit qo'yimlarining daromadlilikini oshirish, bank likvidlilikini ta'minlash, kredit portfelining sifatini yaxshilash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib kelmoqda.

Shuningdek, banklarda barqaror resurs bazasini kengaytirish, depozit va omonatlarning yangi turlarini muntazam ravishda joriy qilish, hamda aholidan jamg'arma va muddatli depozitlarni qabul qilish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining kredit portfeli hajmining oshishiga erishilmoqda. Tijorat banklarining jami kredit qo'yimlari 2025-yil 1-yanvar holatiga 533,1 trln. so'mni tashkil etib, ularning 66,5 foizi korporativ kreditlar va qolgan 33,5 foizi chakana kreditlar hissasiga to'g'ri keladi¹. Banklar kreditlash faoliyatining doimiy o'sib borishini ta'minlash, ular moliyaviy resurslarining shakllanishi va tarkibiy tuzulishiga chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Tijorat banklarining kreditlash faoliyati uchun zarur hisoblangan moliyaviy resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali shakllantiradi. Shundan kelib chiqqan holda, tijorat banklari moliyaviy resurslari shakllanishini ikki katta guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh tarkibiga tijorat banklarining o'z mablag'lari yordamida kredit operatsiyalarini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh tarkibiy tuzulishi jalb qilingan mablag'lar hisobidan kredit qo'yimlari shakllanadi va ular bank faoliyatining asosiy foizli daromadlarini olib keladi².

Quyida keltirilgan rasmda xalqaro amaliyotni o'rganish asosida tijorat banklari kreditlash uchun zarur resurslarining shakllanish usullarini ko'rishimiz mumkin.



¹ O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Banki, "Moliyaviy barqarorlik sharhi", ma'lumotlari, 2024-yil


² Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari", i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati, Toshkent, 2008-yil.

1-rasm. Tijorat banklarida moliyaviy resurslarning shakllanish yo'llari¹

Tijorat banklarida shakllangan resurslar yordamida banklarning tashkiliy faoliyati amalga oshiriladi, to'lovlar amalga oshiriladi, asosan kreditlar berish salohiyati yaxshilanadi, buning natijasida banklarning asosiy daromadlari, foizli daromadlari vujudga keladi. Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzluksiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiylikiga asos hisoblanadi.

Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarining boshqarilishi va uning tizimli tahlili jarayonida bank tomonidan jalb qilingan resurlarning holati, ular bo'yicha kelishilgan muddati, iqtisodiy sohalar bo'yicha tasniflanishi, kreditlash uchun yo'naltirilgan manlag'larning bahosi va ularning daromadliligi, shuningdek boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring ishlarining doimiy tarzda olib borilishi muhim vazifa hisoblanadi.

Quyida keltirilgan rasmda hozirgi globallashuv sharoitda tijorat banklari moliyaviy resurslari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslarini ko'rib chiqishimiz mumkin.



1-rasm. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirishning nazariy asoslari²

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari balansi passivining asosiy ulushini majburiyatlar (asosan, jalb etilgan mablag'lar) tashkil etib, ular jami bank resurslarining tarkibida 85-90 foizdan iborat bo'ladi. Majburiyatlarning muddati va vujudga kelish manbasiga qarab, barqaror va beqaror mablag'larga, ular uchun to'lanadigan xarajatlar miqdoridan kelib chiqib, arzon va qimmat mablag'larga ajratgan holda tahlil qilish mumkin.

Tijorat banklarining depozitlari kredit operatsiyalarining asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklarining depozit hisobraqamlariga jalb etish ularning depozit bazasini mustahkamlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, tijorat banklari depozitlari hajmini oshirish bevosita ularning bahosiga bog'liq. Shu sabab, kredit operatsiyalarni amalga

¹ Adilov M.M. "Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish", PhD. dissertatsiya avtoreferati ma'lumotlari, Toshkent-2024.

² Tadqiqotchi tomonidan boshqa ilmiy ishlar asosida mustaqil tayyorlandi.

oshirishdan oldin, uning manbalarni optimallashtirish zarur vazifa hisoblanadi, chunki buning natijasida moliyaviy resurslar baho va muddat jihatidan to'g'ri shakllanishiga erishiladi.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari yordamida tijorat banklari kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslarining shakllanish mexanizmi va uning muhim elementlarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Tijorat banklari kredit resurslari shakllanish mexanizmining elementlari¹

<i>Nº</i>	<i>Shakllanish yo'llari</i>	<i>Shakllanish metodlari</i>	<i>Bozor instrumentlari</i>
1.	Kreditli moliyalashtirish	- banklararo kreditlar, - Markaziy bank kreditlari	Pul bozori instrumentlari
2.	Depozitli moliyalashtirish	- depozit va omonatlar - joriy hisobraqamlar	
3.	Qarzli moliyalashtirish	qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali	
4.	Ulushli moliyalashtirish	aksiyalarni muomalaga chiqarish yordamida	Kapital bozori instrumentlari
5.	Balansdan tashqari operatsiyalar	- shartli majburiyatlar - kafolatlar - bozor operatsiyalar	Pul bozori va kapital bozori instrumentlari

Quyoridagi jadval ma'lumotlari asosida shuni ta'kidlash lozim, tijorat banklarida kreditlash uchun resurslar shakllanishida ikki asosiy bozor instrumenti muhim ahamiyat kasb etadi: pul bozori instrumentlari va kapital bozori instrumentlari. Pul bozori instrumentlarida banklararo kreditlar, yuridik va jismoniy shaxslarning depozit va omonatlari, Markaziy bank kreditlari, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish asosiy usullar hisoblanadi. Shu bilan birga, kapital bozori instrumentlari asosida kredit qo'yilmalari resurslarini shakllantirishda aksiyalarni muomalaga chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Alohida ta'kidlash lozim, moliyaviy resurslarni shakllantirish, qo'shimcha zaruriy mablag'larni jalb qilish tijorat banki faoliyatining asosiy va ustuvor vazifasi bo'lib, usiz bank o'z faoliyatini samarali va ishonchli olib bora olmaydi. Bu zarur resurslar bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar hisobiga hamda jalb qilingan va qarz mablag'larini yuzaga kelishidan iboratdir. Shu bilan birga, kredit qo'yilmalari manbalarini shakllantirish va qo'shimcha resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Adilov M.M. "Tijorat banklari kredit qo'yilmalari manbalarini optimallashtirish", PhD. dissertatsiya avtoreferati ma'lumotlari, Toshkent-2024.

¹ Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. dissertatsiya avtoreferat ma'lumotlari, Toshkent-2023.

2. Omonov A.A. "Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari", i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati, Toshkent, 2008-yil.
3. Sattarov O.B. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish", i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent, 2018-yil.
4. Rasulov T.S. va Ziyodilloev X.R., "Tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish", Monografiya, Toshkent-2024.
5. O'zbekiston Respublikasi, Markaziy Banki, "Moliyaviy barqarorlik sharhi", ma'lumotlari, 2024-yil.
6. Ortiqov U.D. (2023), "Tijorat banklari moliyaviy resurslari boshqarishni takomillashtirish", DSc. dissertatsiya avtoreferat ma'lumotlari, Toshkent-2023.

FILOLOGIYA FANLARI

NEMIS TILIDAGI “EIN” SO‘ZI VA UNING QO‘LLANILISHI

Azamatova Gulnoza Sunnatova

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,

E-mail: azamatovagulnoza1@gmail.com

Tel: +998 93 726 62 68

ORCID: 0009-0008-1428-1620

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tilidagi „ein“ so‘zining grammatik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. So‘zning noaniq artikl, noaniq olmosh va son sifatidagi funksiyalari morfologik va sintaktik kontekstda ko‘rib chiqiladi. Misollar adabiy manbalar va zamonaviy nemis lug‘atidan tanlab olingan. Shuningdek, „ein“ so‘zining stilistik, idiomatik va poetik kontekstdagi o‘rni ham baholangan. Tilshunoslik nuqtai nazaridan maqola umumiy lashtirish, individuallashtirish va prototipik ifoda vositalarini chuqur o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ein, nemis tili grammatikasi, noaniq artikl, olmosh, son, semantika, stilistika, tilshunoslik, morfologiya.

THE USAGE AND FUNCTIONS OF THE GERMAN WORD “EIN”

Azamatova Gulnoza Sunnatovna,

PhD Student of Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the grammatical and semantic functions of the German word “ein”. It explores its usage as an indefinite article, indefinite pronoun, and numeral within morphological and syntactic contexts. Examples are drawn from literary texts and modern dictionaries. The paper also examines the stylistic, idiomatic, and poetic roles of “ein”. From a linguistic perspective, the article focuses on concepts such as generalization, individualization, and prototype-based expression in the German language.

Key words: ein, German grammar, indefinite article, pronoun, numeral, semantics, stylistics, linguistics, morphology.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-07>

„Ein“ so‘zi nemis tilidagi eng asosiy grammatik birliklardan biridir. Bu so‘z yuqori qo‘llanilish xususiyatiga ega bo‘lgan funksional so‘zlar jumlasiga kiradi, biroq lingvistik tahlillarda ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi. „ein“ turli sintaktik va semantik rollarda qo‘llanadi: noaniq artikl, noaniq olmosh va son sifatida keng qo‘llanadi. Uning bu ko‘pma’noligi uni morfologiya, sintaksis va semantika nuqtai nazaridan o‘rganishda qiziqarli obyektga aylantiradi.

1. Morfo-sintaktik xususiyatlari. Yordamchi so‘z turkumi. „Ein“ morfologik jihatdan noaniq artikl hisoblanib, otning jins, kelishik va sonini ifodaaydi:

Erkak jins	Ayol jins	Neutrum (o'rta jins)
ein Mann	eine Frau	ein Kind

Kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

- Tushum kelishigi (Akkusativ): *Ich sehe einen Mann / eine Frau / ein Kind.*
- Jo'nalish kelishigi (Dativ): *Mit einem Mann / einer Frau / einem Kind.*

Sintaktik funksiyalari bo'yicha bu artikl ismiy iboralarni belgilaydi va shuning bilan birlikdagi noaniqlikni bildiradi. Aniqllovchi artikl (*der/die/das*) dan farqli ravishda „ein“ hali noma'lum yoki kontekstdan yangi bo'lgan ob'yektga ishora qiladi [1, 5 b].

2. Semantik jihatdan „ein“ so'zi individuallashtiruvchi va umumlashtiruvchi vazifalarni bajaradi.

Individuallashtiruvchi vazifasi. Bu holatda „ein“ bir toifadagi ob'yektlar orasidan bittasini ajratib ko'rsatadi:

„Im Walde trafen wir einen Förster.“ [2, 17 b]

Bu qo'llanma kuchli dejiktik (kontekstual ishora qiluvchi) xususiyatga ega bo'lib, matnda hali tanishtirilmagan yangi ob'yektga e'tiborni tortadi. Zweig [4, 92 b] ta'kidlashicha, bunday qo'llanma adabiy matnlarda uslubiy vosita sifatida ham ishlatiladi.

Umumlashtiruvchi vazifasi. „Ein“ umumiy tushunchani bildirganda, ma'lum bir emas, balki bir toifaning vakili sifatida ishlatiladi:

„Ein Lehrer sollte Geduld haben.“ [7, 89 b]

Bu holatda „ein“ prototip (tipik vakil) sifatida ishlatiladi. Kognitiv tilshunoslikka ko'ra, bu prototipiklik deb ataladi, ya'ni bir shaxs yoki narsa butun sinf uchun model hisoblanadi [6, 56 b].

3. Olmosh sifatidagi qo'llanishi

Noaniq olmosh sifatida „ein“ noma'lum shaxs yoki narsani bildiradi. Og'zaki yoki badiiy nutqda tez-tez uchraydi:

„Da kam einer die Straße entlang.“ [8, 47 b]

„So etwas muss einer erlebt haben.“ [9, 130 b]

Bu shakl semantik jihatdan „jemand“ (kimdir) ga yaqin turadi va gapda subyekt yoki obyekt o'rnini egallaydi. Ayniqsa hikoyaviy va og'zaki nutq turlarida qo'llanadi [5, 118 b]

4. Son sifatidagi qo'llanishi

„Ein“ son sifatida 1 raqamiga mos keladi. Bu holatda u urg'u bilan aytiladi va sifat (adjektiv) yoki ot (substantiv) sifatida ishlatiladi:

„Das kostet einen Euro.“ [6, 34 b]

„Eins von beiden muss wahr sein.“ [1, 15 b]

Bu qo'llanmani artikl shaklidan farqlovchi belgi — bu intonatsiya va sintaktik rolidir. Bu holatda „ein“ ko'pincha taqqoslash yoki alternativa ifodalarida qo'llanadi va mantiqiy ifoda ahamiyatiga ega bo'ladi [10, 74 b].

5. Idiomatik va stilistik vazifalari

Og'zaki va badiiy nutqda „ein“ ko'p hollarda so'z birikmalari yoki idiomatik iboralar tarkibida ishlatiladi, bu holatda u grammatik emas, balki semantik jihatdan bog'langan:

„Einen trinken“ (= spirtli ichimlik ichish) [10, 163 b]

„Jemandem eine reinhauen“ (= tarsaki tushirish)

„Ein Herz und eine Seele sein“ [10, 74 b]

Bu iboralar semantik jihatdan yopiq bo'lib, ularning ma'nosi tarkibiy qismlarning oddiy yig'indisidan farqlanadi. „Ein“ bu yerda idiomatik bog'lovchi sifatida xizmat qiladi.

6. Adabiy uslubdagi qo'llanishi

Adabiy matnlarda „ein“ ko'pincha ramziy, allegorik yoki she'riy ritm maqsadida qo'llanadi:

„Ein jeder trägt sein Kreuz.“ (Schiller, *Wallenstein*) [11, 211 b]

„Ein Traum, ein Leben – kaum mehr.“ (Rilke, *Gedichte*) [12, 99 b]

Bu hollarda „ein“ yagona holat, taqdir yoki ekzistensial yondashuvni anglatadi. She'riy til va estetikada bu so'z umumlashtirish va individuallashtirish o'rtasida nozik bir balansni ifodalaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, „ein“ so'zi nemis tili grammatikasi va matn strukturasida muhim o'rin egallaydi. U artikl sifatida individual va umumiy holatlarni belgilaydi, olmosh sifatida noma'lum shaxslarni bildiradi, son sifatida esa aniq miqdorni ifodalaydi. Bundan tashqari, „ein“ stilistik va idiomatik ifodalar tarkibida ham muhim semantik yuk ko'taradi. Shunday qilib, bu so'z nemis tilining turli qatlamlarida chuqur tahlilga loyiq grammatik birlikdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Elektronisches Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache, Berlin-Brandenburgische Akademie der Wissenschaften, Berlin, <https://www.owid.de>
2. Hesse, Hermann. *Unterm Rad*. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main, 2001, 126 S.
3. Mann, Thomas. *Buddenbrooks*. Fischer Verlag, Frankfurt am Main, 2002, 768 S.
4. Zweig, Stefan. *Die Welt von Gestern*. S. Fischer Verlag, Frankfurt am Main, 2013, 560 S.
5. Kafka, Franz. *Der Prozess*. Rowohlt Verlag, Reinbek, 2007, 320 S. ISBN: 978-3-499-22644-7
6. Cornelsen Verlag. *Deutsch A2 Kursbuch*, Cornelsen Verlag GmbH, Berlin, 2022, 160 S.
7. Mayr, Franz. *Einführung in die Pädagogik*. Beltz Verlag, Weinheim und Basel, 2018, 352 S.
8. Böll, Heinrich. *Ansichten eines Clowns*. Kiepenheuer & Witsch, Köln, 2011, 256 S.
9. Canetti, Elias. *Die Blendung*. Carl Hanser Verlag, München, 2008, 496 S.
10. Dudenredaktion. *Redewendungen und Sprichwörter*. Dudenverlag, Mannheim, 2020, 272 S.
11. Schiller, Friedrich. *Wallenstein*. Reclam Verlag, Stuttgart, 2000, 384 S.
12. Rilke, Rainer Maria – *Gedichte*. Insel Verlag, Frankfurt am Main, 1997, 352 S.

EPOS JANRINING PAYDO BO'LISHI VA SHAKLLANISH MASALALARI TAHLILI

Nazimova Himmatoy Komilovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti, filologiya fakulteti, o'zbek tili
va adabiyoti kafedrasida magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda o'zbek adabiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan hamda qimmatli asarlarning dunyo yuzini ko'rishida, shakllanishida xizmat qilgan adabiy janrlardan biri eposning paydo bo'lishi, shakllanish tarixi haqida tahlillar olib borganmiz.

Kalit so'zlar: epos, tarixiy va madaniy kontekst, Uyg'onish davrida, Renessans davri, yangi davr eposi.

ANALYSIS OF THE ORIGINS AND FORMATION OF THE EPIC GENRE

Nazimova Himmatoy Komilovna

Master's student, department of uzbek
language and literature, faculty of philology,
Samarkand state university named
after Sharof Rashidov

Abstract. In this article, we conducted an analysis of the history of the emergence, formation of the epic, one of the literary genres that has a significant role in Uzbek literature and served in the visualization and formation of the world face of valuable works.

Keywords: epic, historical and cultural context, Renaissance, Renaissance, New Age epic.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-05>

Epos yozma adabiyotdan ilgari paydo bo'lib, dastlab xayolot dunyosining odamzodga kuchli ta'siri natijasida og'zaki: miflar, afsonalar, rivoyatlar shaklida ko'rinishga boshladi. Qadimgi eposlarda real faktlar to'qimalar bilan boyitilgan va o'sha davr xalqlari tasavvuri orqali ifodalangan. Shu sabab eposlar ishqiy-sarguzasht, qahramonlik, diniy-fantastik, mifologik talqin va tasvir kasb etgan[1].

Shu o'rinda buyuk olim Baxtinning eposga bergan ta'rifini ko'rib o'tamiz. 1. Epos uchun milliy epik o'tmish, Gyote yohud Shiller ta'biri bilan aytganda, mutlaq o'tmish dasturlamal bo'lib xizmat qiladi. 2. Xalq afsonalari epos uchun manba vazifasini o'taydi. 3. Epik vaqt, ya'ni eposda qo'llanayotgan zamon bilan baxshi kuylayotgan, tinlovchilar tinglayotgan zamon o'rtasidagi ulkan masofa mavjud[2. B. 204].

Epos insoniyat madaniy tarixining eng qadimiy va qimmatli adabiy shakllaridan biri hisoblanadi. U nafaqat badiiy-estetik qiymatga ega, balki xalqlarning tarixiy, diniy va ijtimoiy hayotini ifodalaydigan muhim manbadir. Bu tadqiqotimizda epos janrining ta'rifi, shakllanishi, taraqqiyoti va uning turli davrlardagi o'zgarishlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shu bilan birga, turli xalqlarning eposlari va ularning madaniyatdagi o'rnini ham alohida ahamiyatga ega. Huquqiy va diniy qadriyatlar hamda milliy ruh eposlarda qanday tasvirlanganligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotimiz o'quvchilarga eposning murakkab tarixiy va madaniy kontekstini tushunishga yordam beradi hamda uning bugungi zamonaviy adabiyot va madaniyatga ta'sirini

ko'rsatadi. Muxtor Avezov epos haqida shunday fikrlarni bildirib o'tgan: "Epos o'tmishning o'lmas va donishmand hikoyachisi bo'lib, bizga asrlar nafasini olib keladi. Undagi inson ko'z o'ngimizda o'zining azaliy o'y-fikrlari, hayoloti, baxt haqidagi qo'l yetmas orzulari, bu yo'ldagi asrlar osha kurashi bilan namoyon bo'ladi va beixtiyor shuurimizga kirib ketadi", - deb yozgan edi. Eposga murojaat qilganda, ijodkor ulkan qomus bilan to'qnashib makon va zamon chegaralarini oshib o'tadi, o'zligiga qaytadi, azaliy qadriyatlarga duch keladi. V. L. Jirmunskiy so'zlari bilan aytganda "eposlar xalqning tarixiy o'tmishi ifodasi, dunyoqarashi va madaniyatining tajassumi" dir.[3]. Epos janrining paydo bo'lishi dastlab og'zaki ijod shaklida yuzaga kelgan. Xalq og'zaki an'analar yordamida o'z tarixiy voqealari, qahramonliklari va diniy e'tiqodlarini avlodlarga yetkazgan. Bu davr eposlari ko'pincha uzun she'rlar sifatida shakllangan bo'lib, ularni eslab qolish va og'zaki o'qish an'anaga aylangan. Mashhur og'zaki eposlar qatoriga, masalan, Skandinav "Beovulf"i yoki hind "Mahabharata"sini kiritish mumkin. "Maxabxarata" eposidagi Bharata avlodlari odil va xalqparvar shoh sifatida nom qoldirgan. Besh aka-uka Pandavlar ham ilohlardan tug'ilgan. "Ramayana"da Ko'shala podshosi Dasharatha befarzand. Azbaroyi marhamatli bo'lgani uchun emas, balki tangrilar Lanka shahrining yovuz podshosi dev Ravanadan qutilish uchun ham uning iltijosini inobatga olishgan. Tangrilar odam suratida yerda mujassam bo'lmoqni istaganlari bois najotkor Vishnu Dasharathaning to'rt o'g'li qiyofasida tug'iladi[4]. Bundan ko'rinadiki, eng qadimgi eposlar adabiyotimiz ko'rkidir. Yozuvning ixtiro qilinishi bilan eposlarning yozma manbalarga aylanishi boshlanadi va ular doimiyroq saqlanib qoladi.

Qadimgi Sharqda esa epos janri juda erta rivojlangan. Masalan, Mesopotamiya "Gilgamish qissasi" dunyodagi eng qadimgi yozma eposlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Hindistonning "Mahabharata"si va Eronning "Shohnoma"si kabi eposlar milliy tarix, falsafa, diniy qadriyatlar va insoniyat umumiy tajribasini aks ettiradi. Bu asarlar o'z davrining madaniy-landshaftini ifodalaydi va keyingi avlodlar uchun manba sifatida xizmat qiladi. Qadimgi Yunon adabiyotida epos janrining o'rni alohida ahamiyatga egadir. "Iliada" va "Odisseya" eposlari Homer tomonidan yaratilgan deb qabul qilinadi va ular G'arb adabiyoti uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu asarlar miloddan avvalgi 8-asrda paydo bo'lgan bo'lib, ular yunonlar tarixidagi muhim voqealarni, jumladan Troya urushini va qahramonlarning jasoratlarini bayon etadi. Ikkala asar ham nafaqat qahramonlik vakillari, balki odamiyatning murakkab his-tuyg'ulari va qadriyatlarini o'zida aks ettiradi.

Homer eposlardagi she'riy uslub va obrazlarni shakllantirishda muhim shaxs bo'lib, uning yaratgan qahramonlari va voqealari ko'plab keyingi adiblar uchun ilhom manbai bo'lgan. Ushbu eposlar Qadimgi Yunon jamiyatining diniy e'tiqodi, ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettirib, ularning madaniy merosini asrab-avaylashda muhim rol o'ynaydi.

O'rta asrlar davrida epos janri Yevropada va boshqa mintaqalarda yanada boyib, yangi ramzlar va diniy unsur bilan boyidi. Evropa eposlari orasida "Beovulf", "Roland haqida qo'shiq" va "Nibelunglar haqida qo'shiq" kabi asarlar xalq qahramonlari va tarixiy voqealarni tasvirlagan. Bu asarlar ko'pincha qahramonlik, sadoqat va din mavzulari bilan to'ldirilgan. Islom olamida esa "Go'ro'gli" va "Alpomish" kabi eposlar shakllandi. Ular xalq qahramonlari va ularning jasoratlarini yoritadi, milliy va diniy qadriyatlarni muhim qism sifatida ko'rsatadi. Ushbu asarlar nafaqat madaniy meros, balki o'sha davrning siyosiy va ijtimoiy voqealariga oid manbadir. Qadim "Alpomish" dostoni qahramonlik dostoni sifatida xalqimizning davlatchilik

borasidagi qarashlari, insonning jamiyatdagi o'рни, kishi umrining mazmuni tevaragidagi fikrlarni jamlab, goh hayotbaxsh, goho mahzun kechinmalarni chuqur ramziylikda donishmandlarcha aks ettirgan. Zotan, turkiylar tarixi ichki va tashqi dushmanlar bilan kurash tarixidan iborat. Xalqlar qachondir mana shu ichki nizolar va o'zaro kurashlar barham topishini, jamiyatda haqiqat, siyosatda odillik hukumronlik qilishini, tinch va farovon kunlarga yetishni kutib yashaganlar va bu tasavvurlarini o'z Alpomishlarida mujassamlashtirganlar [5.B.159]. O'rta asr eposlari diniy va milliy qahramonlikni uyg'unlashtirib, xalqlar tarixini yorituvchi muhim adabiy manbalarga aylandi. Ularda qahramonlar o'z xalqlarining qadr-qimmatini va e'tiqodlarini himoya qiluvchi muqaddas vakillar sifatida tasvirlanadi. Uyg'onish davrida, ya'ni Renessans davrida, epos janriga qiziqish yangidan uyg'ondi. Bu davrda inson va tabiat haqidagi falsafiy qarashlar rivojlanib, klassik madaniyat namunalari qayta o'rganildi va eposda yangicha yondashuvlar paydo bo'ldi. Uyg'onish davri eposlarida insonning individualligi, qahramonlikning yangi shakllari va tarixiy voqealar muhim o'rin oldi.

Masalan, Torquato Tasso tomonidan yaratilgan "Ozod qilingan Quddus" eposi tabiiylik bilan diniy qahramonlikni uyg'unlashtiradi. Shuningdek, Portugal shoiri Luis de Camo'esning "Lusitaniya" asari milliy ruhni kuchaytirish va mustaqillik maqsadlarini masnaviy shaklda ifodalaydi. Bu asarlar Renessans g'oyalarini o'z ichiga olgan, qadimgi an'analarga hurmat va zamonaviy ijtimoiy voqeliklarni aks ettirgan muhim adabiy yutuqlardir.

Yangi davr eposlari, asosan, XVII-XVIII asrlar davomida paydo bo'lgan asarlar ijtimoiy-siyosiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratdi. Bu davrda klassik an'analar uzoq davom etib, ularga zamonaviy mazmunlar qo'shildi. Yozuvchilar inson huquqlari, siyosiy erkinlik, inqilob g'oyalari va jamiyat o'zgarishlarini epos shaklida ifodalashga harakat qildi.

John Miltonning "Yo'qotilgan Jannat" eposi badiiy yuksaklik va diniy falsafani uyg'unlashtirish bilan Arabiston madaniyati va Yevropa an'alarining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi. Voltairening "Henriad" asari esa ijtimoiy-siyosiy tahlillar bilan boyitilgan. Ushbu eposlarda tarixiy voqealar va fikrlar yangi yondashuvlar bilan ko'rsatilib, o'quvchilarda ma'naviy va siyosiy tafakkurni kengaytirishga yordam berdi. O'zbek xalq eposlari o'ziga xos madaniy va badiiy xususiyatlariga ega. "Alpomish", "Go'ro'gli" va "Kuntug'mish", "Ravshan", "Rustamxon" kabi asarlar uzoq yillar davomida og'zaki ijod orqali avloddan avlodga yetib kelgan. Bu eposlar tarixiy voqealar, milliy qahramonlik, xalqning ijtimoiy hayoti va urf-odatlarini o'zida mujassam etadi. Ularning qahramonlari jasur, dono va halol xalqning ideal obrazlari sifatida shakllanadi.

O'zbek eposlari yirik ilmiy tadqiqotlar va nashrlarga sabab bo'lib, ularning tili, qahramonlari va mavzulari o'rganilmoqda. Ushbu asarlar milliy madaniyatni o'rganish uchun bebaho manbadir. O'zbek klassiklari va zamonaviy yozuvchilar bu eposlarni o'z asarlarida o'zgartirib, rivojlantirishda davom etmoqda. Epos janri o'z shaklini va mavzusini vaqt o'tishi bilan kengaytirdi. Dastlabki davrlarda eposlar faqat qahramonlik voqealarini yoritgan bo'lsa, keyinchalik ular ijtimoiy, diniy, siyosiy va falsafiy mavzularni o'z ichiga qamrab oldi. Mavzu doirasi yanada chuqurlashib, insoniyatning umumiy tajribasini aks ettira boshladi.

Qahramonlar tasvirining o'zgarishi ham muhimdir. Ular dastlab idealizatsiya qilingan qahramonlar bo'lsa, keyingi davrlarda yanada murakkab va insoniy his-tuyg'ular bilan to'la obrazlarga aylanishdi. Bu o'zgarish eposlarni yanada jonli va haqqoniy qildi.

Uslub jihatidan, eposlar dastlab she'riy va ritmik shaklda bo'lsa, keyinchalik proza va aralash uslubiy shakllarga o'tdi. Har bir davr va madaniyat eposlarni o'ziga xos badiiy uslubda yaratdi, bu esa janrning boy va xilma-xil bo'lishiga olib keldi.

Zamonaviy adabiyotda epos an'analari yangi usullar va janrlarda davom etmoqda. Ko'pgina zamonaviy yozuvchilar epos elementlarini qahramonlik, sarguzasht va xalq voqealarini yoritishda qo'llaydi. Bundan tashqari, epos tushunchasi kino, teatr va boshqa ko'plab madaniy shakllarga ham kirib kelgan.

Masalan, zamonaviy romanlarda yoki fantastika janrida eposga xos qahramonlar va keng ko'lamli voqealar qatorlari ko'rinadi. Bu janr o'zining tarixiy ildizlaridan kuch olib, bugungi zamon madaniyatining ko'p qirralarida o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, epos janrining madaniyatdagi ta'siri hali ham o'sib bormoqda. Epos janri insoniyat madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi va u tarix davomida rivojlanib, turli shakllarda namoyon bo'ldi. U nafaqat o'tmishga oid tarixiy va madaniy qadriyatlarni yoritadi, balki zamonaviy madaniyat va adabiyot uchun ham ilhom manbai hisoblanadi. Eposni o'rganish orqali biz nafaqat xalqimizning o'tmishini yaxshiroq tushunamiz, balki uning bugungi davrdagi roli va imkoniyatlarini anglaymiz.

Bundan tashqari, epos kelajakda ham o'z yangicha shakllari va ifodalarini topishi kutilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va madaniyatning rivojlanishi epos janrining yangi yo'nalishlarini ochadi. Shu sababli, eposni chuqur o'rganish va tadqiq qilish dolzarbligicha qolmoqda.

Umuman olganda, epos inson tafakkurining boyligi, xalqlar tarixining gumrohligi va madaniyatlararo bog'lanishlarni tushunishga xizmat qiluvchi bebaho merosdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ashurova Gulchehra. Xalqda qahramon – eposda alp//“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi 2013-yil 20-son.
2. БахтинМ.Эпос и роман. – Санкт-Петербург: Азбука, 2000. 204-б.
3. Eshonqulov J. “Alpomish” dostoni va “Dada Qo'rqut kitobi” dagi tutqunlik motivining qiyosiy tahlili. “Alpomish” – o'zbek xalq qahramonlik eposi to'plamida. – Toshkent: Fan, 1999.
4. Ashurova Gulchehra. Xalqda qahramon – eposda alp//“O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi 2013-yil 20-son.
5. Hakimova S.M. EPOSGA MUROJAAT QILGANDA...// “Экономика и социум” №5(84) ч.1 2021. 159-b.

MAQOLLAR TILSHUNOSLIK SOHASINING O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Tadjiyeva Umida Faxritdinovna

Oriental universiteti Sharq tillari

kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: umida.fayziyeva@mail.ru

Tel: +998 93 533 98 56

ORCID: 0000-0002-9975-3242

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqollar, matallar, naql va iboralar yillar osha tildan tilga ko'chib millatning madaniy me'rosiga aylangan xalq og'zaki ijodi na'munalari. Ushbu maqollarda xalqning nafaqat tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi balki ularning g'amu tashvishlari, orzu o'ylari ham o'z aksini topadi. Ushbu maqollarni o'qir ekanmiz biz o'sha xalqning madaniyati ichiga kirib boramiz va undan baxramand bo'lamiz. Shu vaqtgacha maqollar folklorshunoslikda keng tarzda o'rganilgan, hozirda tilshunoslikda tadqiqot manbaiga aylangan. Ushbu maqolada maqollarning tilshunoslikning o'rganilish obyekti sifatidagi ilmiy qarashlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, maqollar, matallar, frazeologik birliklar, Maslova, mentalitet, kognitiv tilshunoslik.

PROVERBS AS AN OBJECT OF STUDY IN THE FIELD OF LINGUISTICS

Tadjiyeva Umida Faxritdinovna

Senior Lecturer, Department of Eastern

Languages, Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. Proverbs and sayings are examples of folk oral art, which over the years have been passed from one language to another and become the cultural heritage of the nation. These proverbs reflect not only the history, lifestyle and worldview of the people, but also their sorrows, worries and dreams. Reading these proverbs, we enter the culture of this people and enjoy it. Before that, proverbs were widely studied in folklore, and now they have become a source of research in linguistics. This article describes scientific views on proverbs as an object of study of linguistics.

Keywords: Language culture, proverbs, phraseological units, Maslova, mentality, cognitive linguistics.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-06>

Maqollar xalq dunyoqarashi, ruhiyatini chuqurroq anglashga imkon beruvchi milliy-madaniy birliklardir. Xalq og'zaki ijodi xalqning xalq bo'lib shakllanish va rivojlanish davridan bugungacha bo'lgan bosib o'tgan yo'li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko'rsatuvchi o'ziga xos bir madaniyat ko'zgusidir. Shuning uchun ham ulug' rus yozuvchisi L.N. Tolstoy maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman"- deb yozgan edi. Adib M.Sholoxov esa "Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko'chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko'rinmaydi" deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta'kidlaydi [14].

Maqol va matallar nafaqat adabiyotshunoslik yoki folklorshunoslikda, balki tilshunoslikda ham o'rganish muhim hisoblanadi. Shu haqda V.A. Maslovaning yozishicha:

“Maqol va matallar odatda folklorda janr matnlari sifatida oʻrganilgan, tilshunoslikda esa ularni oʻrganish endigina boshlanmoqda”. V.A. Maslova lingvokulturologiyada faqat tabiati va faoliyati muayyan xalqning tarixi, madaniyati va hayoti bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan maqol va matallarni hisobga olish kerakligini taʼkidlaydi[4:208]. Shuningdek, E.S. Mezentsevaning yozishicha maqol va matallarga ham xalq mentalitetining inʼikosi sifatida kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraladi. Maqol mentaliteti aynan maqolning mentaliteti emas, balki xalqning, aniqrogʻi, xalqning muayyan ijtimoiy guruhlar aks ettirilgan mentalitetdir[5:23-26]. Maqol va matallar xalq mulkidir. Har bir xalqning oʻziga xos maqol va matallari bor, ularning har biri koʻp asrlik tarixga ega, turli tillardagi maqollarning kognitiv tuzilmalarida ham oʻxshashlik, ham farqlar mavjud boʻlib, bu bizga qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi va natijada, turli etnik guruhlarining tillararo va madaniyatlararo tadqiqot mentaliteti istiqbollari kashf qilishga turtki boʻladi[6:154]. Umuman tillarning paremiologik fondiga va ularning eng koʻp qoʻllaniladigan sinfi sifatida maqollarga qiziqish soʻnggi yillarda ortdi, bu bir qator omillar: matnlarda turli janr va uslubiy yoʻnalishlarning keng qoʻllanilishi, matndagi paremiyalarning pragmatik yukini oʻsishi, shu jumladan, internet tili, maqollarni yangi jihatlarida- (lingvokulturologik, lingvoaksiologik, lingvokognitiv, lingvokulturografik va boshqalar) koʻrib chiqish; paremiyalarning turli janrlari: belgilar, topishmoqlar, va boshqalarni batafsilroq oʻrganish kabilar bilan bogʻliq. Paremiologiyani tilshunoslikning bir tarmogʻi sifatida oʻrin egallashida etakchi roʻl taniqli frazeolog, paremiolog Valeriy Mixaylovich Mokienkoga tegishli, u frazeologiyaning lingvistik fan sifatida tatbiq qilinishi, tadqiqotchilarni “frazeologik birliklar va paremiyalarning sof lisoniy xususiyatlari, ularning badiiy nutqda qoʻllanilishi, boshqa xalqlar folklor fondi bilan oʻzaro aloqasi, boshqa tillarga tarjima qilish muammolari” bilan qiziqtirganligini taʼkidlaydi[7:267].

V.N. Telia, lingvokulturologiya yoʻnalishining asoschisi tilning frazeologik manbalarini oʻrganar ekan, maqolni oʻziga xos milliy “kod” yoki maishiy madaniyat tili sifatida koʻrib chiqadi, u asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga oʻtib, muayyan madaniyat vakillarining hayotiy pozitsiyasi va falsafasining barcha oʻrinlarni oʻzida aks ettiradi. M.L.Kovshova lingvokulturologik yondashuv N.I.Tolstoy tomonidan ishlab chiqilgan etnolingvistik tahlil bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. Lingvokulturologik usul “madaniy maʼlumotlar lingvistik belgilarda saqlanadi va uzatiladi - oʻtmishni tushuntirish va kelajakni bashorat qilish” pozitsiyasiga asoslanadi. Maqollarning leksikografik tavsifi bilan birga keladigan lingvistik va madaniy sharhlar tegishli birlikni talqin qilishda xatolardan qochish imkonini beradi[8:23].

Maqolni zamonaviy tilshunoslikda oʻrnini aniqlash va uning maqomini belgilash muammolari doimo dolzarb boʻlib qolmoqda. Buning sababi turli xil hayotiy vaziyatlarning belgilari va modellari sifatida maqollarning koʻp qirraliligi, xilma-xilligidir. Bundan tashqari, ushbu mavzuning dolzarbligi paremiya taʼrifining eng keng koʻrinishi - koʻchma leksemdan toʻliq takrorlanadigan matngacha boʻlgan imkoniyat bilan bogʻliq[8:25]. Lingvistik maʼnoda maqol ham matn, ham ishora (E.V.Ivanova, G.L.Permyakov), til belgisi maqomiga ega boʻlishi mumkin boʻlgan eng murakkab shakllanish (V.V.Gvozdev) hisoblanadi. Devid Kramning fikricha, maqol ichki va tashqi tuzilishi oʻzgarmagan birlik turi sifatida esda qolishi va qayta-qayta qoʻllanilishi maʼnosida koʻchirma maqomiga ega leksik elementdir. Maqollar maishiy va shaxslararo munosabatlar doirasini aniqlash va klishe qilish va bu madaniy kategoriyalarni avloddan-avlodga etkazishga xizmat qiladi[8:26].

Maqollar semantikasi ko'ra bir necha guruhga bo'linadi: Birinchi guruh savdo va iqtisod bilan bog'liq bo'lgan geografik nomli va "Keraksiz ish qilmaslik kerak, befoyda ish qilish kerak" semantikasiga ega bo'lgan maqollardan iborat: rus. В Тулу со своим самоваром не ездят (Tulaga samovar bilan borilmaydi), ingliz. To send coals to Newcastle (Nyukaslgga ko'mir yuborgandek), fin. Ei kanneta lunta Lappiin (Laplandiyada qor kiymang) [7:269]. Huddi shu maqol o'zbek tilida ham O'rmonga o'tin bilan borilmaydi tarzida qo'llaniladi.

Ikkinchi guruh maqollarga kelsak, toponimni o'z ichiga olgan, biron bir maqsadning ko'zlanishini ifoda etgan, biror bir talab ni anglatadi, (So'rasa, topasiz)" semantikasini ifodalaydi. Rus tilida Kiev va Moskva shaharlari shunday maqsad sifatida harakat qiladigan maqollar mavjud: Rus. Til Kievga olib keladi; Til bilan Moskvagacha boradi. Qadimgi davrlarda Kiyev Rossiya davlatining poytaxti bo'lgan, "rus shaharlarining onasi" iborasi mashhur. Poytaxtning bu tasviri "O'tgan yillar haqidagi ertak" dan ma'lum bo'lib, unda 882 yilda shahzoda Oleg "Kiyevda hukmronlik qilish uchun o'tirdi" va "се буди мѣи градомъ рускими" ("Bu rus shaharlari onasi bo'lsin") degani tasvirlangan. Keyinchalik Rossiyaning davlat markazi Moskvaga ko'chirildi va u oxir-oqibat ulkan mamlakatning poytaxtiga aylandi. Maqolning ma'nosi shundan iboratki, zarur va muhim maqsadga (poytaxt) uzoq bo'lsa-da, odamlardan yo'l-yo'riq so'rash bilan erishish mumkin [7:275]. O'zbek tilida Izlagan imkon topadi, arab tilida Man jadda vajada (qidirgan topadi) kabi maqollar qo'llaniladi.

Maqol va matallarda aks ettirilgan hayotiy vaziyatlar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi bilan chambarchas bog'liq. Maqollar o'sha zamon, makon, ularni yuzaga keltirgan o'ziga xos voqelik izlarini o'zida mujassam etgan va og'zaki ifodalab, saqlab, tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etish va bilish xususiyatlariga oid asosiy tushunchalarni avloddan avlodga yetkazishda o'ziga xos elchi, milliy mentalitet va milliy xarakter ko'zgusidir [7:4].

Xulosa qilib aytganda, maqollar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi lozim bo'lgan birliklar bo'lib, ular tilning o'ziga xos imkoniyatlarini ochib beruvchi xalq donishmandligining noyob durdonasi sanaladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
2. Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе. Вестник Санкт-Петербургского Университета. 2012.
3. M.Sodiqova "Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqollar lug'ati" to'plami . Toshkent "O'qituvchi"-1993
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – В 208
5. Мезенцева Е.С. Пословичный фонд языка как фрагмент языкового сознания этноса // Вестник КазНУ.
6. Краснокутская М.А. Пословицы и поговорки как объект изучения в лингвистике. International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-5 (74), 2022.
7. Бредис М.А., Димогло М.С., Ломакина О.В., Паремии в современной лингвистике: подходы к изучению, текстообразующий и лингвокультурологический потенциал // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2020.

8. [Антонова Е.Н., Бредис М.А.](#), Владимирова Т.Е., Паремнология без границ. Изд-во РУДН М.2020. 27.
9. Sirojiddin Sotvoldiev. (2024). AUTOANTONYMY AND ENANTIOSEMY: A COMPARATIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF OPPOSITIONAL MEANINGS IN LANGUAGE. American Journal of Philological Sciences, 4(12), 125–129. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume04Issue12-2225>.
10. Salima Rustamiy SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA BALOG'AT ILMINING O'RNI // Scientific progress. 2020. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-mumtoz-adabiyotida-balog-at-ilmining-o-rni24>.
11. Yakubova, F. (2023). ARAB TILIDA FE'L KATEGORIYALARINI O'RGATISH MUAMMOLARI: YECHIM VA TAVSIYALAR. Interpretation and Researches, 1(18). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1520>
12. Tadjiyeva, U. . (2024). ARABIC AND UZBEK PROVERBS FORMED BASED ON ISLAMIC SOURCES. Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies, 2(01), 100–105. <https://doi.org/10.37547/os/vol-02-01-02-12>
13. Govkhar Rakhmatova, . (2023). SIMPLE SENTENCE AND ITS EXPRESSION IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 4(05), 27–32. <https://doi.org/10.37547/philological-crijps-04-05-07>
14. Library.ziyonet.

FRANSUZ TILIDAGI GAP TARKIBLI FRAZELOGIK BIRLIKLAR VARIANTLARINING TURLARI

Matyaqubova Ozoda Masharipovna,
o'qituvchi, Urganch davlat universiteti
E-mail: matyakubovaozoda80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz tilidagi Gap tarkibli frazeologik birliklar variantlarining turlari haqida gap boradi. Frazeologik variantlilik muammosi yuzasidan bildirilgan turli xil fikrlar tahlil qilingan va ularning barcha turlari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: variantlilik turlari, frazeologizm komponenti, leksik birikma, grammatik struktura, morfologik variant.

TYPES OF VARIANTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS OF SPEECH IN THE FRENCH LANGUAGE

Ozoda Masharipovna Matyaqubova,
Lecturer, Urgench State University

Abstract. This article examines the types of variants of phraseological units with gap content in the French language. It analyzes the various opinions expressed on the problem of phraseological variability and explains all their types using examples.

Key words: types of variation, phraseological component, lexical combination, grammatical structure, morphological variant.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-08>

Gap tarkibli frazeologizmlar til birligi sifatida shakl jihatidan turg'unligi ya'ni o'zgarmasligi bilan xarakterlanadi. Ba'zan bu barqarorlikni o'zgarmaydigan struktur-grammatik shakllanganlik hamda qat'iy belgilab qo'yilgan joylashuv tartibiga egalik bilan xarakterlanuvchi leksemalar to'plami sifatidagi frazeologik hosila tushunchasi bilan bog'lashadi. Haqiqatan ham shaklning turg'unligi – mustaqil hosil qilinadigan gaplardan farqli ravishda frazeologizmlarning muhim belgilaridan biridir. Biroq, frazeologik birlik til birligi sifatida kommunikatsiya jarayonida aniqlikni qo'lga kiritadi. Gap tarkibli frazeologik birliklarning ko'pchiligi kommunikativ ehtiyojlar ta'siri ostida ularning o'xshashligiga ta'sir ko'rsatmaydigan o'zgarishlarga duch kelishadi, aynan shu o'xshashliklar frazeologik birliklarni nisbatan turg'unlikka ega hosilalar sifatida baholashga imkon beradi.

O'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarish – muloqot vositasi bo'lish uchun, til – malum darajadagi turg'unlikka ega bo'lishi kerak. Biroq "tilning kommunikativ vazifasi uning nisbiy turg'unligini ko'zda tutadi". Til va nutqning frazeologiya sohasidagi munosabatlari shundan iboratki, bir tomondan, frazeologik birliklar o'zining leksik tarkibini saqlab qolishga intiladi, boshqa tomondan esa frazeologik birliklarning qo'llanilish jarayonida ularni leksik qamrab olinganligining o'zgarishiga moyillik kuzatiladi. [1;70-71-b]

Keyingi yillarda frazeologik variantlilik muammosiga katta e'tibor qaratilyapti, chunki uning hal qilinishi frazeologiya nazariyasi uchun, yana shuningdek tillarni o'qitish amaliyoti, leksikografik va frazeografik ishlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologlarning bu muammoga qiziqishlarining ortishiga hamda bir qator tillarning faktik materiali asosida frazeologik variantlilikni tadqiq qilishga bag'ishlangan maxsus ishlarning soni ko'pligiga qaramasdan, u hali aniq va mukammal ma'noga ega bo'lgan izohni qo'lga kiritmadi. Bu til birliklarining o'zgarishi haqidagi umumiy ta'limotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq. "Variantlilik muammosini o'rganishning murakkabligi lingvistik jarayonning o'zining murakkabligi bilan aloqador bo'lib, u yagona aktdan emas, balki mutlaqo har xil, bir-biriga ko'proq yoki kamroq bog'liq bo'lmagan holda kechadigan jarayonlarning umumiy natijalariga bog'liqdir. [2;210-213-b]

Frazeologiyaga muvofiq ravishda variantlilik masalasiga ilgari Sh. Balli tomonidan to'xtalib o'tilgan bo'lsa, nazariy jihatdan bu muammo V. V. Vinogradov tomonidan "Frazeologik birliklarning asosiy tiplari haqida" maqolasida ilgari surilgan bo'lib, yaxlit mulohazani ifodalovchi gap – frazeologik chatishma ichida xilma-xil grammatik o'zgarishlar va joyini o'zgartirishlar bemalol bo'lishi mumkin. [3;151-153-b]

Frazeologik variantlilik muammosi yuzasidan har xil nuqtai nazarlar mavjud. Fikrimizcha, eng maqbul nuqtayi nazar shuki, unga binoan frazeologizm o'xshashligining asosiy sharti yagona leksik tarkib va grammatik struktura bilan bir qatorda yagona obrazning mavjudligi hisoblanadi. A. G. Nazaryan tomonidan taklif qilingan va biz ko'rib chiqqan variantlarning ta'rifi obrazning birligi hamda ma'noviy mazmunning umumiyliigi bilan xarakterlanuvchi va shuningdek tilda bajarayotgan vazifasi bilan, ham o'zining kategorial ((leksik-grammatik) ma'nolari bilan mos keladigan frazeologik birliklarning turlariga biriktirilgan norma kabi javob beradi. [5;173-174-b]

1. Struktur-grammatik jihatdan Gap takkibli frazeologik birliklar (keyingi o'rinlarda GFB) o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- a) morfologik;
- b) sintaktik;
- v) pozitsion;
- g) orfografik.

2. Leksik.

3. Miqdoriy.

4. Aralash (qorishiq).

GFB variantlarining har bir turini alohida ko'rib chiqadigan bo'lsak, GFBlarda eng ko'p uchraydigan tiplardan biri morfologik variantdir :

1. Son kategoriyasi bo'yicha:

Il y a beau jour (beaux jours) "ancha ilgari ;

Le pari est ouvert (les paris sont ouverts) - ishning oqibati hali ma'lum emas ;

2. Artikl kategoriyasi bo'yicha (har xil artikllar bilan shakllantirish, artiklning tushirib qoldirilishi, artiklning determinativ bilan almashtirilishi):

C'est à faire pleurer les (des) pierres- bunga tosh ham chidamaydi ;

C'est (un) marché donné - bu boy berilib bo'lingan ish ;

Il sent le (son) vieux battu- anchadan buyon kaltak yemagan ko'rinadi ;

3. Predlog kategoriyasi bo'yicha (har xil predloglar bilan shakllantirish va predloglarning tushirib qoldirilishi):

Ça n'avance à (en) rien -bu hech narsaga olib kelmaydi, bu hech narsaani hal qilmaydi;

Morfologik variantlilik GFBlar tarkibidagi komponentlarning semantik qayta o'zgartirilganligiga yana bir marta ishontirishga xizmat qiladi. Bunday o'zgartirishda GFBlarning bir xilligi buzilmaydi.

Quyidagi misollarda sintaktik o'zgartirish hollarini ham kuzatish mumkin.

C'est un pas glissant (le pas est glissant) (fam.) - bu qaltis (xatarli) ish ;

Il aimerait (il)serait amoureux d'une) une chienne coiffée - u har bir ayolning ketidan yugurishga tayyor ;

Pozitsion va grafik variantlar juda kam sonli uchraydigan variantlar hisoblanadi.

On dira qu'il ne sait pas troubler l'eau (l'eau troubler) - yuvosh, qo'y og'zidan cho'p olmagan ko'rinadi ;

C'est l'eau et le feu (c'est le feu et l'eau) - bu yer bilan osmondek farq qiladi, bir-biriga aslo mos kelmaydigan narsa ;

Kuzatishlar ko'rsatadiki, GFBlarda frazeologizmning komponentlarini bu birlikning semantik bir xilligini buzmaydigan ideografik va stilistik sinonimlar bilan almashtirishdan iborat bo'lgan leksik variantlilik juda yaqqol ifodalangan.

GFBlar leksik tarkibining tahlili ko'rsatadiki, leksik variantlilik quyidagilar bo'yicha namoyon bo'lishi mumkin: Fe'l komponenti bilan.

Masalan: ***Le champ de bataille lui est resté - le champ de bataille lui est demeuré*** - jang maydoni uning ortida qoldi, u g'olib bo'lib chiqdi ;

Keltirilgan misolda ***rester, demeurer*** fe'llari sinonim hisoblanadilar, chunki ular umumiy ma'noni ifodalab, semantik invariant sifatida chiqayotgan obrazni saqlab qolishga ko'maklashadilar.

Quyidagi GFBlarda ham fe'l komponentlari sinonimik munosabatlarni xarakterlaydilar:

Il y en est sorti les bras nettes – il s'en est tiré les bras nettes –

u epchillik bilan qutulib qoldi, u suvdan quruq chiqdi, u osongina qutuldi ;

Il avalerait le diable – il mangerait le diable - u ho'kizni ham yamlamay yutadi ;

Misollardan ko'rinib turibdiki, sanab chiqilgan frazeologizmlarning tarkibida fe'l komponentlar-sinonimlarning o'zgarishi yuz beradi. Bu shu bilan bog'liqki, fe'llar « klassik predikatlar bo'lib, osongina sinonimik munosabatlarga kirishish qobiliyatiga egadir, bu munosabatlar denotativ mazmunga emas signifikativ mazmunga, ularning referensiya qobiliyatiga emas, ma'nosiga asoslanadi ». [3;151-153-b]

Shu bilan bir qatorda berilgan misollar shuni ko'rsatadiki, mustaqil qo'llanilganda sinonimik munosabatda bo'lmagan fe'l komponentlari bir-birini almashtirishlari mumkin. Masalan: ***La graisse ne l'étouffe pas (ne l'empêche par de courir)*** - u tarashadek ozg'in ;

Ce n'est (cela n'en vaut) pas la peine (fam.) - kerakmas, siz ovora bo'lmang ;

Il aura (entendra) de mes nouvelles (fam.) - men hali unga kimligimni ko'rsatib qo'yaman;

Bu shu bilan izohlanadiki, o'zgarayotgan komponentlar ular o'rtasida assotsiativ aloqalarni o'rnatish mumkin bo'lgan tushunchalarni ifodalaydilar.

GFBlarning leksik variantliliği ot komponenti (ot yoki sifat) qo'llash usuli bilan ham namoyon bo'ladi.

La coupe déborde - Le vase déborde - sabr kosasi to'ldi ;

La mesure est somble - La mesure est pleine - ish juda chuqurlashdi;

O'zgarayotgan komponentlarning semantik tadqiqoti ko'rsatadiki, GFBlarning tarkibida bitta o'sha yoki unga yaqin bo'lgan semantik maydonga tegishli bo'lgan komponentlarning o'zgarishi yuz beradi. Masalan:

C'est la femme qui porte les chaussures ; C'est la femme qui porte la culotte ; **"u xotining izmida, u xotini chizgan chizig'idan chiqa olmaydi"**

Une vache n'y retrouverait pas ses petits ; Une chatte n'y retrouverait pas ses petits - u yerda shunday tartibsizlikki! (It egasini tanimaydi!)

Un cochon n'y retrouverait pas ses petits - tushunib bo'lmaydigan; aji-buji ;

Ce n'est pas un aigle ; Ce n'est pas un phénix - u osmondagi yulduzni ololmaydi ;

Les mains lui démangent ; Les doigts lui démangent ; Les poings lui démangent - uning qo'li qichiyapti, biror ish qilgisi yoki urushgisi kelyapti.

To'plangan materialni tahlil qilishda, tadqiq qilinayotgan birliklar orasida hali lug'atda qayd qilinmagan frazeologizmlar variantlari mavjud. Misol uchun ***l'affaire est faite*** - ish qilindi, ish yo'lga qo'yildi GFBi yana bir qancha variantlarga ega: ***1'affaire est réglée (baclée, classée, jouée, arrangée)***. ***Ses actions montent*** - uning obro'si, nufuzi ortayapti.

Komponentlarining turlicha soni bilan xarakterlanadigan GFBlar alohida, yetarli darajada katta guruhga ajratiladi. Ko'pincha sonli (miqdoriy) variantlar gap frazeologik birliklarning boshidagi, oxiridagi yoki o'rtasidagi bitta yoki ber necha komponentlarni qisqartirish, kesib tashlash yo'li bilan, yoki yangi komponentlarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan:

(Allons) saute, marquis! - quvonchdan sakra, o'zingdan mamnun bo'l ;

(Il n'y a) pas mèche - hech qanday imkoniyati yo'q, foydasiz, foydasi yo'q, befoyda, nima foydasi bor.

Brisons là (-dessus) - yetar endi, bas qilaylik, shu gapni to'xtataylik.

C'est kif-kif (bourricot) - hammasi bir; bir (fam.) xil; ikkalasi (hammasi) bir go'r.

Tu veux (toujours) courir - bekorga urinyapsan, senga buni ko'rish aslo (mutlaqo) nasib bo'lmaydi, buni tuyani dumi yerga tekkanda ko'rasan.

C'est (tout) le bout du monde - bu quyushqondan chiqish; bundan ham yomon (rasvo) bo'lishi mumkin emas; bo'lgancha bo'ldi ;

C'est son dada (favori) - bu uning sevgan, yaxshi ko'rgan narsasi;

Shuni ta'kidlash kerakki, gap komponentlarning qisqarishi yoki qo'shilishi haqida ketayotganini aniqlashga imkon beradigan dastlabki variant shaklini topish har doim ham oson emas.

Ayrim GFBlar bir qator belgilar bo'yicha farqlarni ko'rsatadi, bu aralash variantlar guruhini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari variantlarning uchta tipi bir vaqtning o'zida birikishi mumkin. Masalan : ***(D'ici là) il coulera*** - ko'p vaqt (zamon) o'tadi (o'tib ketadi) ***(passera) bien de l'eau sous le(s) pont(s)*** (miqdoriy + morfologik + leksik variantlilik);

C'est midi (sonné), c'est midi moins cinq - iloji yo'q, hech uddalab bo'lmaydi, epaqaga keltirib bo'lmaydi; taqdirga tan berishga to'g'ri keladi ; boshqa iloj yo'q;

(leksik + leksik- stilistik + miqdoriy variantlilik).

Leksik, miqdoriy va sintaktik birikmalarning variantlarini biz qiyidagi GFBlarda uchratamiz:

Voilà le (grand ou gros) mot lâché - nihoyat fikrini bayon qildi;

– le mot (le grand ou gros) mot est lâché -bu bilan gap tamom ;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, struktur-grammatik, leksik, aralash variantlarning barcha ko'rinishlari bilan mavjudligi semantik yadroning buzilishiga olib kelmaydi, u har qanday sharoitlarda yaxlit bo'lib qolaveradi.

GFBlarning grammatik va leksik strukturasidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqish ular barqarorligining dialektik xarakterini yana bir bor tasdiqlaydi, GFBlar qotib qolgan hosilalar emasligidan dalolat beradi. GFBlarning o'zgarishi – frazeologik birliklarning kommunikativ vazifasining kengayishiga va hozirgi tilning, bu holda, fransuz tilining frazeologik fondini boyishiga ko'maklashuvchi obyektiv qonuniyatlarga asoslangan xususiyatidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл: логико-семантические проблемы.- Москва., 1976. С.70-71.
2. Bally Ch. Traité de stylistique française. – P.: 1921. С.210-213.
3. В. В. Виноградов. Избранные труды. Лексикология и лексикография. -Москва., 1977. С.151-153.
4. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь. - М.: 2000.
5. Назарян А. Г. Фразеология современного французского языка. -Москва., 1976.С.173-174.
6. Мурадова Л.А. Гак.В.Г. Новый большой французско-русский фразеологический словарь. - М.: 2006.

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA QO'SHMA SO'ZLARNING MORFOLOGIK, STRUKTURAL YASALISHI

Qilicheva Shahlo Marksova

Urganch Davlat Universiteti „Roman-German

filologiyasi” kafedrası o'qituvchisi

E-mail: shaxlo.qilicheva@mail.ru

Tel: +998 93 280 99 96

Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi qo'shma otlar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot davomida ikki tildagi qo'shma so'zlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlanib, ularning morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotimizda qo'shma so'zlarni har tomonlama chuqur tahlil qilishga intildik. Xususan, ularning qanday so'z turkumlariga mansub bo'lgan birliklardan tashkil topgani, shuningdek, tayyor holatda mavjud bo'lgan qo'shma so'zlarning ham qaysi so'z turkumlariga oid ekani e'tibordan chetda qoldirilmadi. Maqolamizda ushbu masalaga doir qisqacha ma'lumotlar hamda mualliflik mulohazalari bayon qilingan. Masalani yanada aniqroq tushuntirish maqsadida, keyingi qismda bevosita misollar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'shma so'z, attributive, so'z turkum, qo'shma ot, juft va takroriy.

MORPHOLOGICAL AND STRUCTURAL FORMATION OF COMPOUND WORDS IN UZBEK AND GERMAN LANGUAGES

Qilicheva Shahlo Marksova

Teacher, Department of Romance-Germanic

Philology, Urgench State University

Khorezm, Uzbekistan

Abstract. This article comparatively studies compound nouns in Uzbek and German. During the research, the common and different aspects of compound words in the two languages were identified, and their morphological and semantic features were analyzed. In our study, we sought to conduct a comprehensive and in-depth analysis of compound words. In particular, we did not ignore the word families from which they are composed, as well as the word families to which compound words that exist in a ready-made form belong. Our article provides brief information on this issue and the author's comments. In order to clarify the issue more clearly, the next section will be illustrated with direct examples.

Key words: Compound word, attributive, word group, compound noun, pair and repetition.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-09>

Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillaridagi qo'shma otlar qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida ikki tildagi qo'shma so'zlarning o'xshash va farqli tomonlari aniqlanib, ularning morfologik hamda semantik xususiyatlari chuqur tahlil etilgan. Ishimizda qo'shma so'zlarni har tomonlama yoritishga harakat qilindi. Jumladan, ularning tarkibini tashkil etuvchi birliklarning qaysi so'z turkumiga mansubligi, shuningdek, tayyor holatda ishlatiladigan qo'shma so'zlarning ham so'z turkumlari nuqtayi nazaridan o'rganilishi e'tibordan chetda qolmadi. Dissertatsiyamizning birinchi bo'limida bu masala yuzasidan qisqacha ma'lumotlar berilgan va mualliflik fikrlari keltirilgan. Mavzuni yanada aniqroq yoritib berish maqsadida, aniq misollar bilan tahlil qilinadi.

O'zbek tilida qo'shma so'zlarning so'z turkumlariga xosligi:

Ot – mingoyoq, o‘rinbosar;
Sifat – sheryurak, bodomqovoq;
Fe‘l – sotib olmoq, paydo bo‘lmoq;
Olmosh – hech kim;
Ravish – bir pasda, bir zumda.

1. Attributive Zusammensetzungen (Attributiv qo‘shma so‘zlar)
2. Kopulative Zusammensetzungen (Kopulativ qo‘shma so‘zlar) M.: taubstumm, Strumpfhose
3. Zusammenrückungen (Butun bir gapni jiplashuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar) M.: Habenichts, Taugenichts, Vergissmeinnicht.
4. Zusammenbildungen (Qo‘shma yasama so‘zlar) M.: Holzfäller, (-er) ot yasovchi suffix
- Attributiv qo‘shma so‘zlar (attributive Zusammensetzungen). Ushbu qo‘shma so‘zlarda ikkinchi o‘rinda kelgan bosh so‘z (das Grudwort) birinchi o‘rinda kelgan aniqlovchi (das Bestimmungswort) so‘z orqali konkretlashtiriladi. Bunday so‘zlar ot va sifat so‘z turkumlaridan tashkil topadi.
M.: blau rang belgisi birinchi komponent orqali ma‘nosi ochiladi.
M.: hellblau, dunkelblau, himmelblau; yoki Schwarzbrot, Tischlampe, Sonnenstrahl
- Kopulativ qo‘shma so‘zlar (kopulative Zusammensetzungen). Alohida qismlari qo‘shilib, yangi butunlikni hosil qiluvchi kopulativ kompositsiyalar. M.: taubstumm, Dampfschiff
- Zusammenrückung- Butun bir gapni jiplashuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar M.: Habenichts, Taugenichts, Vergissmeinnicht. Qo‘shma so‘zning bunday turi o‘zbek tilida uchramaydi.
Zusammenbildung – Qoshma yasama so‘zlar. Nemis tilida qo‘shma so‘zga so‘z yasovchi qo‘shimcha(lar) qo‘shilishi orqali yangi so‘z yasash.
M.: Holzfäller (Holz+fäll+er) bu yerdagi -er ot so‘z turkumini yasovchi qo‘shimcha hisoblanadi. [5:17]

Nemis tilida deyarli barcha so‘z turkumlarida qo‘shma so‘zlar yasalgan:

Ot (Nomen) – Autopark, Landkarte;
Olmosh (Pronomen) – Duform, Sieform;
Sifat (Adjektive) – himmelblau;
Son (Zahlwort) – Dreieck;
Fe‘l (Verb) – stehenbleiben;
Predlog (preposition) – Umfrage
Ravish (Adverb) – Zusammenarbeit; [7:1240]

Quyida siz ikkala tildagi qo‘shma so‘zlarning so‘z turkumlariga oidligini jadval ko‘rinishida ko‘rishingiz mumkin:

Jadval 1.

№	Nemis tilida	O'zbek tilida
1	Qo'shma ot	Qo'shma ot
2	Qo'shma sifat	Qo'shma sifat
3	Qo'shma son	—
4	Qo'shma fe'l	Qo'shma fe'l
5	Qo'shma olmosh	Qo'shma olmosh
6	Qo'shma ravish	Qo'shma ravish
7	Qo'shma bog'lovchi	—
8	Qo'shma predlog	—

Yuqorida keltirilgan ma'lumot va misollarda qo'shma so'zlarning tayyor holatda qaysi so'z turkumlariga mansub ekani tahlil qilindi. Endi esa maqolamizning ushbu qismida qo'shma so'zlar asosan qanday so'z turkumlariga oid bo'lgan komponentlardan tashkil topishini aniqlashga harakat qildik hamda buni misollar yordamida yoritishga intildik.

QO'SHMA OT

Yuqoridagi jadvalda ko'rib turganingizdek qo'shma otlar har ikkala tilga ham xos bo'lgan til birlklari hisoblanadi. Shunday ekan ularni ikkala tilda ham tahlilini amalga oshirishga urindik:

Nemis tili

Ot + fe'l (Haushalt)
Ravish + ot (Voraussage)
Fe'l + ot (Schreibtisch, Bindelaut)
Fe'l +sifat (merkwürdig)
Sifat + ot (Schwarzbrot)

QO'SHMA SIFAT

O'zbek tili

Ot + sifat (oshko'k)
Ot + fe'l (ishyoqmas, muzyorar)
Sifat + ot (kaltadum, oqqush)
Son + ot + (beshkokil, oltiburchakli)
Fe'l + fe'l (iskabtopar)

Nemis tili

Ot + sifat (himmelblau)
Sifat + sifat (dunkelblau)
Ravish + sifat (immergrün)

QO'SHMA FE'L

O'zek tili

Ot + fe'l (dam olmoq)

Fe'l + fe'l (sotib olmoq)

“Bugungi zamonaviy o'zbek tilining nutqida ba'zi fe'l+fe'l formasi qo'shma so'z hisoblanmaydi: *o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi*. Bu so'zlarda yangi leksik ma'no yo'q” [3:37]

Yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda, shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, o'zbek tilida fe'l+fe'l shaklidagi birikmalar ko'pincha qo'shma so'z sifatida talqin etilishga to'liq asos bermaydi. Buning sababi shundaki, qo'shma so'z tushunchasiga ko'ra, ikki yoki undan ortiq so'z birikib, yangi – uchinchi bir leksik ma'noni ifodalovchi so'z hosil qilishi lozim. Biroq, “o'qib chiqdi”, “ko'rib bo'ldi” kabi misollarda esa ikkinchi fe'l faqat harakatning tugallanganligini bildiradi, xolos. Shuning uchun bunday birikmalarni qo'shma so'z sifatida qabul qilish noto'g'ri, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, o'zbek tilida qo'shma ravishlarni tahlil qilganimizda, ularning faqat so'z turkumlari asosida tashkil topgan shakllariga deyarli duch kelmadik. Aksincha, qo'shma ravishlar hosil bo'lishida so'z turkumlariga boshqa til birliklari – masalan, affikslar, yordamchi so'zlar yoki boshqa grammatik vositalar ham qo'shilganini kuzatdik. Masalan:

Son + kelishik (bir pasda, bir zumda)

Ot + ko'makchi vositalar: aro, bo'yi, sayin (kunaro, umrbo'yi, oysayin) [2:36]

Ushbu tadqiqotimiz boshida ta'kidlab o'tganimizdek, boshqa tillardan farqli ravishda o'zbek tilida son so'z turkumiga tegishli bo'lgan qo'shma so'zlar, ya'ni qo'shma sonlar mavjud emas. Shunga qaramay, son so'z turkumi ishtirokida yasalgan, ammo tayyor holda boshqa so'z turkumlariga oid bo'lgan qo'shma so'zlar mavjudligini eslatib o'tish joiz.

O'zbek tilida qo'shma so'z yasashda eng ko'p ishlatiladigan sonlardan biri bu — “besh” sonidir. Buni isbotlash maqsadida biz quyida “besh” soni ishtirok etgan qo'shma so'zlarga misollar keltirib, ularni batafsil tahlil qilishga harakat qildik.

BESHBARG – Atirgullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik.

Mazkur qo'shma so'zda qo'shma so'zlar ta'rifi muvofiq ravishda ikki so'z — “besh” va “barg” birikib, yangi bir tushunchani — beshbarg o'simligini ifodalamoqda. Bu birikma aniqlovchi (attributive) turdagi qo'shma so'zlar sirasiga kiradi va biz uni to'liq asoslangan qo'shma so'z sifatida baholadik. Shuni ham ta'kidlash joizki, “beshbarg” so'zining o'zbek tilidagi yana bir muqobili — “yerchoy” so'zidir.

BESHBATTAR – Nihoyat darajada, o'taketgan darajada, haddan ortiq, juda og'ir, qiyin (salbiy ma'noda).

Mazkur qo'shma so'z boshqa qo'shma so'zlardan farqli jihatga ega. Unda birinchi komponent bo'lgan “besh” so'zi o'zining bevosita son ma'nosida emas, balki kuchaytiruvchi ma'noda qo'llanmoqda. Ikkinchi komponent — “battar” so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, u “bat(bad)” (yomon) va “-tar” (daraja bildiruvchi qo'shimcha) morfemalaridan tashkil topgan bo'lib, “yomonroq” ma'nosini bildiradi. Demak, “battar” so'zi mazmun jihatidan “yomonroq” so'ziga sinonim sifatida ishlatilmoqda. Shu sababli biz ushbu birikmani qisman asoslangan qo'shma so'z sifatida baholadik. Chunki komponentlarning biri — “besh” ko'chma ma'noda, ikkinchisi esa — “battar” o'z to'g'ridan-to'g'ri ma'nosida qo'llanmoqda.

BESHBARMOQ – To'rtburchak qilib kesilgan, go'sht, dubayog` solib pishiriladigan xamir; shilpildoq.

Navbatdagi qo'shma so'zimizning ma'nosiga e'tabor bersak, uning komponentlari qo'shma so'z ma'nosida hech qanday ro'l o'ynamayotganday. Haqiqatda ushbu taom turning na 5 soniga va na barmoqqa aloqasi bor. Lekin bizning nazarimizda bu qo'sha so'zimizda shu taom turini yeyishda foydalaniladigan barmoqlar asos qilib olingan ya'ni bu yerda ushbu taomning qo'lda 5ta barmoq ishtirokida yeyilishiga ishora qilinyapti. Ushbu qo'shma so'zimiz ham attributive qo'shma so'zlar qatoriga kiradi va asoslanmagan qo'shma so'z sifatida o'rganiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I. A. Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", ToshkentMa'naviyat- 2008. 83,87b.
2. E. Qilichev, "Hozirgi o'zbek adabiy tili: o'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun qo'llanma – Buxoro, 2005. – 136b.
3. I. Hotamova, "Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning badiiy adabiyotlardagi kosnitiv xususiyatlari". Toshkent – 2017. 30-31b
4. N. Erkaboyeva, "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent: "Akademnashr"- 2015. 133,199b.

Nemis tillari adabiyotlari

5. A.Iskos, A. Lenkowa, "Deutsche Lexikologie", Leningrad- 1970. 91
6. X. A. Lewkowskaya, "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache"
7. Duden „Deutsches Universal Wörterbuch“ Berlin. 2015, 8.Auflage

FRANSUZ TILIDA HARAkatGA YO'NALTIRILGAN FE'LLARNING IFODA XUSUSIYATLARI

Samandarova Nilufar Kodirovna

UrDU "Roman-german filologiyasi"

kafedrasi fransuz tili o'qituvchisi

E-mail: n.samandarova1981@gmail.com

Tel: +998 93 752 89 59

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4864-9501>

Urganch, O'zbekiston

Annotatsiya. Berilayotgan maqolada fransuz tilidagi direktiv fe'llarning ifodadagi struktur turlari xususida gap boradi. Shuningdek, ushbu fe'llarning yaqin yoki uzoq masofaga yo'naltirilganlikni, lokumlashish va lokumlashmaslikni ifoda etishlari misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: makon, lokumlashgan yoki lokumlashmagan harakat, direktiv fe'llar, yo'naltirilgan harakat, struktura, joy, manzil, mo'ljal, birikma.

THE EXPRESSIVE CHARACTERISTICS OF MOTION VERBS IN THE FRENCH LANGUAGE

Samandarova Nilufar Kodirovna

UrSU department of "Roman-german

filology" French teacher

Urgench, Uzbekistan

Abstract. The article deals with structural means of expression of directive verbs in the french language. Besides, direction of such verbs to long and short distances, expression of locumness and unlocumness is analyzed through examples.

Key words: space, location, locuminated or unlocuminated verb, directive verbs, structure, place, address, goal, combination.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-10>

Direktiv fe'llar ifodada o'z ma'no imkoniyatini muayyan til birliklari ifodasi orqali namoyon etadi. Ularga xos bo'lgan strukturaviy alomatlar turkumlashish xususiyatiga ega bo'lib, zaruriy strukturaviy ko'rinishlarni shakllantiradi.

Direktiv fe'llarning yaqinga yoki uzoqqa yo'naltirilganlik alomatlari fe'l bilan bog'lanuvchi, fe'lni tavsiflab keluvchi alohida so'zlar orqali ifoda etiladi. Bular jumlasiga **au loin, devant nous, à coté, par terre, entre ses pieds** va boshqalar kiradi. Ushbu ko'rsatkichlar ifodada direktiv fe'l xususiyatini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Direktiv fe'llar yo'naltirilgan joy, manzil, mo'ljal, nishon konkretlashuviga ko'ra yo'nalishning lokumlashgan yoki lokumlashmagan xususiyatini ochib beradi.

Lokumni konkretlashtiruvchi leksik birliklarning ifodadagi ishtiroki yoki ishtirok etmasligiga ko'ra yo'nalishning lokumlashgan va lokumlashmagan alomati farklanadi.

Masalan:

1. Elle écrasa le sac entre ses mains et le jeta dans la cheminée. (Guy de Maupassant. Bel Ami. p.201).

2. Je jetai mon cigare aussitôt. (P. Merimée. Nouvelles. Carmen. p.491).

Birini misolimizdagi “jeter dans la cheminée” lokumlashgan direktiv harakatni anglatadi, ikkinchi misolimizdagi “jeter mon cigare” lokumlashmagan direktiv harakatni anglatadi. Chunki, bu jumlada lokum belgisi ishtirok etmaydi.

Lokumlashgan yo'naltirilgan harakat ma'nolari ifodasida lokumni anglatuvchi otlar bilan birgalikda lokativ predloglar ishtirok etadi va ular yo'naltirilgan harakat etabini belgilash uchun xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan leksik birikmalar yo'naltirilgan harakatning lokumga qaratilganligini ifoda etadi. Lekin nutqda ba'zi hollarda direktiv fe'llar lokum ko'rsatkichsiz ishtirok etishlari mumkin:

1. La façade illuminée de l'établissement jetait une lueur dans les quatre rues qui se joignent devant elle. (Guy de Maupassant. Bel Ami. p.19).

2. Je jetais mon paquet, et j'essayais de la prendre. (P. Merimée. Nouvelles. Carmen. p.530).

Direktiv harakatning bir nutqqa qaratilganligi yoxud keng ma'noni qamrab olganligiga qo'ra yig'iq va yoyiq ma'no alomatlari kasb etadi. Bu xususda ikki misolni kiyoslab ko'ramiz:

1. La lune répandait, comme l'autre soir, la lumière abondante et calme sur les murs blanc des villas et sur la grande nappe luisante de la mer. (Guy de Maupassant. Bel Ami. p.131).

2. Après un grand effort, il ajoute « Elle est habitée en partie par des Arabes... » Puis il jeta sa plume sur la table et se leva. (Guy de Maupassant. Bel Ami. p.34).

Birinchi misoldagi “répandre” fe'li yoyiq yo'naltirilgan harakatni anglatadi. Chunki u xususiyatiga ko'ra makonning keng qamrovli o'ramini qamrab oladi. Aksincha “jeta sa plume sur la table” esa kichik hajmdagi lokumni aks ettiradi va harakatning ma'lum bir nuqtaga qaratilganligini bildiradi.

Shuni alohida ilova etish lozimki, harakatda ishtirok etayotgan direktiv fe'llar yuqori, meyoriy, past intensivlik ko'rsatkichlariga ko'ra meyoriy hamda dinamik harakatga ajraladi.

Meyoriy harakatlarda deyarli intensivlik atomati kuzatilmaydi. Aksincha, dinamik harakatni anglatuvchi fe'llar ma'lum ko'rinishdagi intensivlik atomatlarini oladi. Bu xususda quyidagi misollarni keltirib o'tamiz:

1. Quelque âme charitable informa, sans doute, M de Rênal des longues visites que la femme faisait à la prison de Julien : car, au bout de trois jours, il lui envoya sa voiture, avec l'ordre exprès de revenir sur – le – champ à Verrières (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p. 505).

2. Nous reçûmes bientôt quelque argent, qu'elle nous envoya, et un avis valait mieux pour nous: c'était que tel jour partiraient deux myllord anglais, allant de Gibraltar à Grenade par tel chemin. (P. Merimée. Nouvelles. Carmen. p.533).

3. Il la lâcha, lui lança par la figure un tel soufflet qu'elle alla tomber contre le mur. Mais elle se retourna vers lui, et soulevée sur ses poignets, vociféra encore une fois :

- Tu as conché avec ! (Guy de Maupassant. Bel Ami. p.246).

4. Tout à coup Carmen se retourne et me lance un coup de poing dans la poitrine. Ja me laissais tomber exprès à la renverse. (P. Merimée. Nouvelles. Carmen. p.509).

Yuqorida berilgan misollarda “envoyer” fe’li ishtirokida direktiv xarakatlar meyoriy hisoblansa “lancer” fe’li ishtirokidagi misollar intensivlik xususiyatiga ega bo’lib, dinamik harakatni aks ettiradi. Har ikki holatda xam tranzitivlik xususiyati aks kuzatiladi.

Meyoriy harakatlar ega + kesim + vositasiz to’ldiruvchi ko’rinishidagi strukturalarda namoyon bo’lsa, dinamik harakatlar ega + kesim + hol + vositasiz to’ldiruvchi ko’rinishidagi strukturalarda ko’zga tashlanadi.

Direktiv fe’llarning xarakterli qirralaridvn biri uning emotsional qiymatga moyil yoki moyil emasligida kuzatiladi.

Emotsional qiymat alohida leksik birliklar orqali yoki iplitsit tarzda fe’l semantemasida ishtirok etishi orqali namoyon bo’ladi.

Ekspletsit tarzda namoyon bo’luvchi emotsional baho kategoriyasi sintetik yoki analitik tarkibdagi fe’llar bilan birikib yoki tarkiblashib namoyon bo’ladi.

Eksilitsit tarzda namoyon bo’lganda emotsional baho alohida leksik ko’rsatkichlar orqali beriladi. Ularning barchasi direktiv fe’llar tavsifi uchun nutq vaziyatida xizmat qiladi.

Masalan:

Bien qu’elle veillait à maitriser constamment White Knight, elle jetait de temps à autre un regard sur le duc pour plaisir de l’admirer. (B.Cartland. Un mariage improvisé, p.152).

Julien le vit pâlir en lisant cette lettre écrite sur du papier bleuâtre et jeter sur lui des regards méchants (Stendhal. Le Rouge et Le Noir. p.136).

Il lui jeta un regard rapide. (B.Cartland. Un mariage improvisé, p.130).

Tout en parlant, elle avait jeté un coup d’oeil à l’horloge. (B.Cartland. Fuste un rêve, p.6).

Dastlabki ikkita misolda emotsional qiymat kategoriyasining ijobiy va salbiy aspektlari o’z aksini topgan. Jumladan, “pour le plaisir de l’admirer” ijobiy emotsional baho uchun xizmat qilsa “des regards méchants” salbiy emotsional baho uchun xizmat qiladi. Har ikki holatda ham direktiv fe’l analitik ko’rinish kasb etadi. Qolgan ikkita misolda esa meyoriy direktiv harakat namoyon bo’lib, ulardagi fe’llar emotsional baho ko’rsatkichidan mahrumdir. Xullas, direktiv fe’llar ifodaga chiqqanda muayyan nutq vaziyatlarida zaruriy kategorial alomatlarini namoyon etadi. Ushbu kategorial alomatlar ifodasida til strukturasining aloxida ko’rinishlari ishtirok etadi.

Ularning ifodadagi turkumlashuvini aniqlash, xarakterli tomonlarini ochib berish direktiv fe’llar potensiyasini ifoda xususiyati va qudratini ochib berishga ko’mak beradi. Ularning bu jihatlarini aniqlash fe’llarning stilistik jihatlarini aniqlashda qimmatli va noyob tarzda xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Гак В.Г., Ганшина К.А. Новый французско-русский словарь.- М.: 2000.
2. Русско-узбекский словарь в двух томах Отв. ред. А. Мадвалиев. – Т.: 2000
3. Тер-Авакян Г.А. Значение и употребление предлогов во французском языке. Пособие по грамматике ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: 1983.
4. Тер-Авакян Г.А. Предлоги французского языка. Пособие по курсу нормативной грамматики. – М.: 1977.
5. Stendhal. Le Rouge et Le Noir. – М.: 1957.
6. Maupassant G. de. Bel Ami. – М.:1981.

7. Maupassant G. de. Contes et nouvelles. – M.: 1976.
8. Mérimée P. Nouvelles. Carmen. – M.: 1976.
9. Мериме П. Кармен. Новелла. – Т.: 1963.

ABDULLA QODIRIYNING „O‘TKAN KUNLAR“ ROMANIDA MILLIYLIKNING IFODALANISHI

Jumanazarova Kamola Ibrohimovna

Urganch davlat universiteti,
Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romani nemischa tarjimasida milliylikni ifodalanishi tahlil qilingan. Tarjima g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, u mutarjimdan mahorat va tajriba talab qilishi borasida gap ketadi.

Kalit so‘zlar: milliylik, milliy ruh, tarjima matni, milliy muhit, tarixiy kontekst.

EXPRESSION OF NATIONAL IDENTITY IN ABDULLA QODIRIY’S NOVEL "BYGONE DAYS"

Jumanazarova Kamola Ibrohimovna

Urgench State University,
Urgench, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the representation of national identity in the German translation of the famous Uzbek writer Abdulla Qodiriy’s novel O‘tkan Kunlar (Bygone days). Translation is an extremely complex process that requires skill and experience from the translator.

Key words: national identity, national spirit, translated text, national environment, historical context.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-11>

O‘zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar” romani bilan yangi davrni boshlab berdi. Bu asar nafaqat o‘zbek romanchiligining ilk namunasi, balki milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etgan. Roman voqealari XIX asr Buxoro va Qo‘qon xonliklari davridagi o‘zbek jamiyati hayotini tasvirlash orqali milliylikni yuksak badiiy mahorat bilan aks ettiradi.

“O‘tkan kunlar” romanida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an‘analar badiiy jihatdan yuksak tasvirlangan. Romandagi obrazlar o‘zbek xalqining hayot tarzi, kiyinish uslubi, oilaviy munosabatlari va ijtimoiy hayoti orqali milliy ruhni aks ettiradi. Masalan, asardagi to‘y marosimlari, sovchilik, kuyovnavkar va kelin salomi kabi an‘analar xalq hayotining muhim jihatlari sifatida berilgan.

Qodiriy roman tilini xalq tiliga yaqin holda yaratdi. Asardagi qahramonlar o‘zbek xalqining jonli og‘zaki nutq uslubida so‘zlashadi. Ayniqsa, devonbegi va otliq qo‘shinning nutqi milliylikni yanada jonlantiradi. Shuningdek, “O‘tkan kunlar” romanida ko‘plab maqol va iboralar uchraydi, bu esa xalq tafakkurining badiiy ifodasidir. Masalan, “Yer yutsa ham, odamni til yutadi” kabi iboralar o‘zbek xalq donishmandligi namunalari.

Roman tarixiy voqealarga asoslangan bo‘lib, unda XIX asr o‘zbek jamiyatining turli qatlamlari – zodagonlar, hunarmandlar, dehqonlar va ulamolar hayoti aks ettiriladi. Muhammad Aminxon, Nasriddinxon, Olimbek kabi tarixiy shaxslar orqali muallif milliy o‘zlikni saqlash muammolariga e‘tibor qaratadi. Ayniqsa, asardagi siyosiy fitnalar va xonliklar

o'rtasidagi nizolar millat taqdiriga ta'sir etgan voqealarni yoritishga xizmat qiladi. Romandagi ayollar – Kumush, Oybachin va Ra'no obrazlari orqali Qodiriy o'zbek ayolining milliy timsolini yaratadi. Kumush obrazi go'zallik, sadoqat va vatanparvarlik timsoli sifatida tasvirlanadi. U o'zining halol va pokiza sevgisi bilan milliy axloqiy qadriyatlarni ifodalaydi. Bu obrazlar orqali yozuvchi o'zbek oilasida ayollarning tutgan o'rnini yuksak darajada ko'rsatadi. Roman milliy o'zlik va vatanparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. Otabek obrazi fidoyi, halol va vatanparvar inson sifatida gavdalandiriladi. U jamiyatdagi adolatsizlik va korrupsiyaga qarshi kurashgan, milliy birdamlikni saqlashga intilgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Uning fojiali taqdiri esa millatning o'sha davrdagi og'ir ahvolini aks ettiradi.

“O'tkan kunlar” romani o'zbek milliy ruhini, qadriyatlarini va tarixini badiiy ifodalashning yorqin namunasi hisoblanadi. Abdulla Qodiriy o'z asarida milliylikni faqat voqealar tasviri orqali emas, balki obrazlar, til, urf-odatlar va tarixiy haqiqatlarni badiiy yondashuv orqali ifoda etgan. Ushbu asar nafaqat adabiy yodgorlik, balki milliy o'zlikni anglash vositasi hamdir.

Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani nemis tiliga “Die liebenden von Taschkent” nomi bilan tarjima qilingan. Ushbu tarjimada milliylikning ifodalanishiga bir nechta asosiy jihatlari ta'sir ko'rsatgan:

Nemis tiliga tarjima qilinganida asarning tili o'zbekona ruhini saqlab qolishga harakat qilingan. Xalq maqollari, so'z o'yinlari va o'zbekona iboralar iloji boricha ekvivalent shaklda nemis tiliga moslashtirilgan. Biroq ba'zi hollarda, tarjima jarayonida ayrim so'z va iboralar boshqa madaniyat vakillariga tushunarli bo'lishi uchun izohlab berilgan yoki yumshatilgan. Masalan, o'zbek tilidagi “qirg' kun to'y” an'anasi nemis o'quvchisi uchun tushunarli bo'lishi uchun batafsil izohlab berilgan. Romanda tasvirlangan sovchilik, to'y marosimlari, kelin salomi, kuyovnavkar, duv-duv gap kabi o'zbek xalqiga xos an'analar tarjimada ham milliy kayfiyatini yo'qotmagan holda ifodalangan. Tarjimonlar ushbu marosimlarning o'ziga xosligini saqlash uchun ba'zan izohlar bilan to'ldirgan. Masalan, “kelin salomi” nemis o'quvchisi uchun tushunarli bo'lishi uchun “traditioneller Gruß der Braut” tarzida izohlab berilgan.

Tarjimada asarning tarixiy davrga mansubligi saqlanib qolgan. XIX asr Buxoro va Qo'qon xonliklari davrida yashagan o'zbek xalqining turmush tarzi, hukmdorlarning siyosiy kurashlari va xalq orasidagi ijtimoiy tabaqalanish aniq aks ettirilgan. Nemis tiliga moslash jarayonida ayrim tarixiy tushunchalar (masalan, “mingboshi”, “dehqon”, “bek”) nemis tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmagan, balki izohlab berilgan. Nemis tiliga tarjima qilingan “Die liebenden von Taschkent” romanida milliylikning asosiy unsurlari – urf-odatlar, til, tarixiy kontekst va qahramonlarning milliy xarakteri asosan saqlanib qolgan. Biroq tarjimada ayrim tushunchalar chet ellik o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi uchun izohlangan yoki moslashtirilgan. Shu sababli, asarning milliy ruhi nemis tilida ham o'z ta'sirini yo'qotmagan bo'lsa-da, ayrim o'zbekona unsurlar originaldagi kabi ta'sirchan bo'lmasligi mumkin. Bu esa tarjimondan mahorat va iste'dod talab qiladi. Har doim ta'kidlanganidek tarjima juda murakkab jarayon. Ushbu jarayon tarjimondan juda katta ma'suliyat talab qiladi zero, tarjimada asliyatni saqlash va shu yo'sinda tarjimonga yetkazib berish mushkul hisoblanadi. Mazkur asar ham nihoyatda mahorat bilan tarjima qilingan asarlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qodiriy A. 1926. O'tkan kunlar. Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti.
2. A.Qodiriy 2020 „Die liebenden von Taschkent“ Daglyeli Verlag Berlin
3. Karimov S. 2008. O'zbek romanchiligi tarixi. Toshkent: "Fan".
4. Rasulov B. 2015. Abdulla Qodiriy ijodida milliylik masalasi. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
5. Ismoilov U. 2012. O'zbek nashrida tarix va milliy ong. Toshkent: "Ma'naviyat".

HOZIRGI NEMIS TILIDA "ES" KOMPONENTLI GAPLARNING MA'NOSI VA VAZIFALARI HAMDA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK EKVIVALENTLARI

Abdullayeva Gulnora Erimmatovna

Urganch Davlat Universiteti „Roman-German
filologiyasi“ kafedrası kata o'qituvchisi

E-mail: gulnora2003@mail.ru

Tel: +998 94 230 22 02

Xorazm, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi nemis tilida ishlatiladigan shaxs ko'rsatmaydigan „es“ olmoshining vazifasi va ahamiyatini, shuningdek uning o'zbek tilidagi sintaktik ekvivalentlarini o'rganishga bag'ishlangan. Nemis tilida „es“ ko'pincha aniq sub'ekt yo'q gaplarda formal sub'ekt sifatida ishlatiladi va shaxs ko'rsatmaydigan holatlar, tabiiy hodisalar hamda infinitiv konstruktsiyalarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, o'zbek tilida bunday maxsus shaxs ko'rsatmaydigan olmosh mavjud emas, o'rniga bu ma'nolar sub'ektsiz gaplar yoki ma'lum fe'l shakllari orqali ifodalanadi. Tadqiqot nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi sintaktik va semantik farqlarni yoritib beradi hamda „es“ olmoshini o'zbek tiliga tarjima qilishdagi murakkabliklarga e'tibor qaratadi. Taqqoslash va misollar yordamida maqola nemis tilida „es“ asosiy sintaktik element sifatida ishlatilishini, o'zbek tilida esa o'xshash ma'nolarni ifodalashda ko'proq kontekst va semantik vositalarga tayanilib, ko'pincha „es“ olmoshining to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti ishlatilmasligini ko'rsatadi. Ushbu ish tillararo grammatik farqlarni chuqurroq anglashga va tarjima jarayonlarini takomillashtirishga yordam beradi

Kalit so'zlar: shaxssiz olmosh, formal subyekt, sintaktik ekvivalent, tillararo grammatik farq, ma'no va kontekst, shaxssiz gap, tarjima jarayoni.

THE MEANING AND FUNCTIONS OF SENTENCES WITH THE "ES" COMPONENT IN MODERN GERMAN AND THEIR SYNTACTIC EQUIVALENTS IN UZBEK

Abdullayeva Gulnora Erimmatovna

Teacher, Department of Romance-Germanic

Philology, Urgench State University

Khorezm, Uzbekistan

Abstract. This article investigates the role and significance of the German impersonal pronoun "es" in modern German sentences and its syntactic counterparts in Uzbek. In German, "es" frequently acts as a formal subject, particularly in sentences without an explicit subject, and is essential for expressing impersonal situations, natural events, and infinitive phrases. Conversely, Uzbek does not have a dedicated impersonal pronoun and conveys these meanings using subjectless constructions or specific verb forms. The study emphasizes the syntactic and semantic distinctions between German and Uzbek and addresses the difficulties encountered when translating "es" into Uzbek. Through comparative analysis and illustrative examples, the article reveals that while "es" serves as a key structural component in German, Uzbek depends more on contextual and semantic methods to express similar ideas, often leaving out a direct equivalent of "es." . This research enhances the understanding of grammatical differences across languages and informs translation methodologies.

Key words: Impersonal pronoun, formal subject, syntactic equivalents, cross-linguistic grammatical differences, meaning and context, impersonal sentences, translation process.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-12>

Nemis tilida "es" so'zi ko'p qirrali grammatik vosita bo'lib, turli vazifalarni bajaradi. Nemis tilida shaxssiz olmosh „es“ turli vazifalarni bajaradi. U asosan formal sub'ekt sifatida, ya'ni gapda aniq sub'ekt bo'lmagan holatlarda gapni to'liqlashtirish uchun ishlatiladi. Shuningdek, tabiiy hodisalarni ifoda etishda, infinitiv guruhlarini qabul qilishda yoki shaxssiz fe'llarni bayon etishda ham qo'llaniladi. Masalan, "Es regnet" yoki „Es freut mich, dich zu sehen“ kabi gaplarda „es“ muhim sintaktik va ma'noli vazifani bajaradi. [1:17]

O'zbek tilida esa shaxssiz olmoshning maxsus shakli mavjud emas. Tabiiy hodisalar va shaxssiz holatlar ko'proq sub'ektsiz gaplar yoki fe'lning shaxssiz shakllari orqali ifoda etiladi. Shu bois, nemis tilidagi esning formal sub'ekt vazifasi o'zbek tilida boshqa sintaktik vositalar bilan amalga oshiriladi.

Shuningdek, o'zbek tilidagi sintaktik va funktsional ekvivalentlar tahlili orqali tillar o'rtasidagi grammatik va semantik farqlar aniqlanadi. Zamonaviy nemis tilida „es“ olmoshining grammatik pozitsiyasi tilshunoslikda turli yondoshuvlarga sabab bo'lgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu so'z ko'pincha formal sub'ekt yoki gap tuzilishini ta'minlovchi element sifatida ishtirok etadi. Ayrim hollarda, „es“ komponenti faqat grammatik strukturani to'liqlashtirish uchun xizmat qiladi, real sub'ekt sifatida qaralmaydi. Shu jihatdan, uning o'zbek tilidagi funktsional ekvivalentlarini topish muayyan tilshunoslik tahlilni talab qiladi. Hozirgi nemis tilida gaplar turli sintaktik shakllarda ifodalanadi va shular orasida „es“ komponentli gaplar alohida ahamiyatga ega. "Es" olmoshi bu gaplarda maxsus sintaktik vazifani bajarib, gapning ma'nosini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada es komponentli gaplarning ma'nosi, ularning vazifalari, turlari hamda o'zbek tilidagi sintaktik ekvivalentlari o'rganiladi. Shuningdek, ularning tillararo farqlari va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar ham muhokama qilinadi. Bu borada bir-ikki misollarni tahlil tortsak.

Masalan: *Es regnet. — Yomg'ir yomyapti.*

- *Es donnert und blitzt. — Chaqmoq chaqyapti va momaqaldiraq bormoqda.*
- *Es wird dunkel. — Qorong'ulashyapti.*

Ushbu nemis tilidagi gaplar tarkibidagi es shaxssiz olmoshi birlik 3-shaxsda ega vazifada kelayapti va o'zbek tiliga tarjima qilinganda tushirilib qoldirilgan.

Ba'zi fe'llar bilan es formal sub'ekt vazifasini bajaradi:

- *Es scheint, dass er recht hat. — Uning haqligi ko'rinayapti.*
- *Es ist schade, dass du nicht kommen konntest. — Sen kelolmaganing afsuslanarli.*

Baholash va emotsional ifodalashda: Bu gaplarda es infinitiv guruhni formal sub'ekt sifatida qabul qiladi.

- *Es ist wichtig, regelmäßig zu lernen. — Muntazam o'qish muhim.*
- *Es ist schwer, diese Sprache zu lernen. — Bu tilni o'rganish qiyin.* [1:47]

Nemis tilida „es“ komponentli gaplar sintaktik jihatdan muhim bo'lib, ular formal sub'ekt vazifasini bajaradi yoki holatni ifodalaydi. Ushbu olmosh gapning barqarorligi va ma'nosini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilida esa bu vazifalar ko'proq ma'no va kontekstga asoslangan holda ifodalanadi, formal sub'ektga ehtiyoj kam. Shuning uchun nemis tilidagi "es" olmoshini o'zbek tiliga tarjima qilishda ma'no va kontekstga alohida e'tibor qaratish lozim. Tarjima jarayonida perifraza va ma'noni aniqlashga xizmat qiluvchi so'zlar, iboralar qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrlarni misollar yordamida tahlilga tortib

ko'rsak va bunda Uchqun Nazarovning "Chayon yili" romani va ushbu asarning Germaniyalik tilshunos olim Ingeborg Baldauf tomonidan nemis tiliga qilingan tarjimasiga murojaat qilamiz.

1. Masalan: *Komendatura odami Marhamat rayoniga eltib qo'yish uchun transport yo'qligini aytgan edi.* [3:93]- *Der Mann von der Kommandantur hatte gesagt, es gäbe kein Fahrzeug, das Oynisa in den Rayon Marhamat verbringen könne.* [2:113]

Ushbu nemis tilida keltirilgan misolda "es" shaxssiz olmoshi formal sub'ekt vazifasini bajaradi, chunki gapda aniq sub'ekt yo'q va gap shaxssiz holatni ifoda etadi. Nemis tilida bunday shaxssiz gaplarda "es" zarur bo'lib, gapni sintaktik jihatdan to'liqlashtiradi. Uning tarjimasiga e'tiborimizni qaratsak.

Tarjimada shaxssiz olmosh sifatida maxsus bir so'z yoki almashtiruvchi so'z, iboralar mavjud emas. Shuningdek, bu tarjimada shaxssizlik "transport yo'qligi" iborasi orqali ifoda etilgan, ya'ni mavjud emaslik to'g'ridan-to'g'ri keltirilgan. Gapda formal sub'ekt yoki shaxssiz olmosh qo'llanilmagan, lekin ma'nosi aniq va to'liq berilgan. Bu farq ikki tilning sintaktik xususiyatlari va grammatik qurilishlaridagi asosiy tafovutni ko'rsatadi.

Ushbu keltirilgan misollarimizni qiyosiy tahlili shu ko' rinishda berishishimiz mumkin.

Jihatlar	Nemis tilidagi gap	O'zbek tilidagi gap	Izoh
Formal subyekt	es shaxssiz olmoshi formal subyekt sifatida	Formal subyekt mavjud emas	Nemis tilida shaxssiz gaplarda es formal subyekt vazifasini bajaradi
Mavjud emaslik ifodasi	es gäbe kein Fahrzeug (конъюнктивда)	transport yo'qligi (номланиш орқали)	Немис тилида шахссиз олмош орқали, ўзбек тилида номланиш орқали ифода этилади
Гапнинг синтактик тузилиши	Қўшимча субъект билан тўлиқланган	Субъект ва тўлдирувчи аниқ, формал субъект йўқ	Немис тилида гап синтактик жиҳатдан мукаммаллаштирилган
Маъноли функция	Мавжуд эмасликни шахссиз ҳолат сифатида ифода этиш	Мавжуд эмасликни тўғридан-тўғри ифода этиш	Икки тилда маъно ўхшаш, ифода усули фарқ қилади

2. *Yayov jo'nashdan bo'lak iloj yo'q, -dedu y.* [3:93]- *Es bleibt nichts anderes übrig, als zu Fuß zu gehen, - sagte er.* [2:114]

Mazkur ikkinchi misolimizni tahlil qiladigan bo'lsak, nemischa gap tarkibidagi "es" shaxssiz olmoshi fomal sub'ekt vazifasida kelgan va gapda aniq aniq sub'ekt yo'q, lekin gap sintaktik jihatdan to'liq bo'lishi uchun "es" sub'ekt sifatida qo'llanilgan.

Es bleibt nichts anderes übrig uборасуда "es" gapni boshlash va sintaktik barqarorlikni ta'minlash uchun xizmat qilish vazifasida qo'llanilgan, shuningdek, shaxssiz holatni ifoda etgan.

O'zbek tilida bunday formal sub'ekt mavjud emas, shuning uchun tarjimada "es" tushirilib qoldirilgan va ma'noga mos ravishda "Yayov jo'nashdan bo'lak iloj yo'q" shaklida berilgan.

Xulosa o'rnida nemis tilidagi "es" shaxssiz olmoshi ko'pincha formal sub'ekt sifatida gapni to'liqlashtirish va shaxssiz holatlarni ifoda etishda qo'llaniladi. O'zbek tilida esa bunday formal sub'ekt mavjud emas, shuning uchun "es" ko'pincha tarjimada tushirib qoldiriladi yoki ma'noga mos ravishda ifoda etiladi. Bu farq ikki tilning sintaktik tuzilishi va gap qurilishidagi asosiy tafovutni ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. I. A. Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent Ma'naviyat- 2008. 83,87b.
2. E. Qilichev, "Hozirgi o'zbek adabiy tili: o'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun qo'llanma – Buxoro, 2005. – 136b.
3. Назаров У. Чаён йили романи. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1990.-240b.
4. Ochilov E., Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2012. 124 b.

Nemis tillari adabiyotlari

5. Helbig, G., & Buscha, J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Langenscheidt. 2001. -731 b.
6. Ingeborg Baldauf. Das Jahr des Skorpions. Dayeli Verlag. 2002. -296 b.
7. Duden „Deutsches Universal Wörterbuch“ Berlin. 2015, 8.Auflage

YURIDIK FANLARI

О ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ

Караходжаева Окилахон Руфатовна

кандидат юридических наук, доцент Ташкентского
государственного юридического университета,
Ташкент, Узбекистан

Е-mail: okilakhon001@mail.ru

Тел: +998 97 132 99 55

Аннотация. Принцип разделения властей, важной составляющей которого выступает система сдержек и противовесов позволяет обеспечивать одновременно как взаимодействие ветвей власти, так и их взаимоограничение в установленных правовых пределах. В этом контексте парламентский контроль выступает как один из ключевых механизмов реализации принципа разделения властей, является одним из важнейших инструментов получения информации о деятельности органов власти и управления с целью обеспечения законности, эффективности и прозрачности государственного управления. В связи с этим, в данной статье анализируются правовые основы взаимодействия парламента Республики Узбекистан и различных государственных структур при осуществлении парламентского контроля, его влияние на эффективность государственного управления и укрепление демократических институтов. В статье, также рассматриваются теоретические и правовые аспекты реализации контрольной функции парламента в условиях необходимости соблюдения институционального баланса между ветвями власти, где особое внимание уделяется механизмам, обеспечивающим эффективное взаимодействие без нарушения автономии властей, так как парламентский контроль осуществляется не в духе доминирования или конкуренции, а выступает как форма институционального взаимодействия, направленного на соблюдение баланса властей в правовом государстве.

Ключевые слова: Конституция, законодательство, права человека, принципы демократии, органы государственной власти, законодательная власть, парламент, взаимодействие, парламентский контроль, формы парламентского контроля.

ON THE INTERACTION OF THE OLIY MAJLIS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND STATE AUTHORITIES IN THE IMPLEMENTATION OF PARLIAMENTARY CONTROL

Karakhodjaeva Okilakhon Rufatovna

Doctor of philosophy in Law, Associate Professor
of the Tashkent state university of law,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The principle of separation of powers allows for both interaction between branches of government and their mutual limitation within established legal limits. In this context, parliamentary control acts as one of the key mechanisms for implementing the principle of separation of powers, and is one of the most important tools for obtaining information on the activities of government and administrative bodies in order to ensure the legality, efficiency and transparency of public administration. In this regard, this article analyzes the legal basis for the interaction of the Parliament of the Republic of Uzbekistan and various government structures in the implementation of parliamentary control, its impact on the effectiveness of public administration and the strengthening of democratic institutions. The article also examines the theoretical and legal aspects of the implementation of the parliament's control function in the context of the need to maintain an institutional balance between the branches of government, where particular attention is paid to mechanisms that ensure effective

interaction without violating the autonomy of authorities, since parliamentary control is not carried out in the spirit of dominance or competition, but acts as a form of institutional interaction aimed at maintaining a balance of powers in a state governed by the rule of law.

Keywords: Constitution, legislation, human rights, principles of democracy, government bodies, legislative power, parliament, interaction, parliamentary control, forms of parliamentary control.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-13>

Основу совершенствования парламентского контроля в Узбекистане составляют приоритеты, выдвинутые в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы [1], где большое внимание уделено дальнейшему совершенствованию парламентского контроля и расширению форм и правовых механизмов его осуществления. Так, «Цель 7» Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, предусматривает дальнейшее повышение роли палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан в последовательном продолжении реформ в стране, путем:

- укрепления роли палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан в системе государственной власти, расширения их полномочий в решении важных задач внутренней и внешней политики.

- дальнейшего усиления роли палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан при разработке действенных мер по всестороннему изучению состояния и решению имеющихся проблем во всех сферах, расширения участия парламента в обеспечении безусловного и полноценного исполнения на практике принятых законов.

- пересмотра с точки зрения эффективности законотворчества и действующих механизмов осуществления парламентского контроля, повышение инициативности общественности в государственном управлении посредством обеспечения участия граждан в данных процессах.

- постановки парламентом конкретных стратегических задач перед ответственными организациями в рамках утверждения Государственного бюджета и осуществления контроля за его исполнением, внедрение практики направления запроса по их результатам.

- широкого внедрения в палатах Олий Мажлиса Республики Узбекистан практики непосредственной, в том числе дистанционной работы с регионами, усиление участия депутатов и сенаторов, избранных в соответствующих регионах, в развитии регионов и обсуждении инвестиционных программ.

- в рамках «Электронного парламента» обеспечения связи депутатов с избирателями, сенаторов с гражданами из регионов, цифровизация процессов проведения прямого диалога с ними, обсуждения и решения волнующих избирателей проблем.

- повышения эффективности системы управления Законодательной палаты, дальнейшее совершенствование парламентских выборов на основе передового зарубежного опыта.

Все эти изменения в конечном итоге преследуют важнейшую цель - обеспечение прав человека, усиление подотчетности и открытости государственных органов,

повышение роли институтов гражданского общества, средств массовой информации, политической активности населения и общественных объединений.

В мировой практике общеизвестным является факт осуществления парламентского контроля чаще всего только над исполнительной властью. Так, например, японский ученый Хиронори Ямамото отмечает, что, парламент как орган, представляющий народ, призван следить за тем, чтобы государственная политика, осуществляемая администрацией (органами исполнительной власти) отражала и удовлетворяла потребности людей [2]. По мнению И.В.Гранкина, парламентский контроль представляет собой систему норм, регулирующих установленный порядок осуществления наблюдения и проверки деятельности органов исполнительной власти, который направлен на ее оценку с возможным применением санкций [3]. В.Стеффани, считает, что парламентский контроль означает парламентский процесс проверки и определения формы поведения, в частности правительства и других органов управления [4]. Согласно позиции Р.Р.Хакимова, одним из действенных политико-правовых средств обеспечения законности, эффективности деятельности исполнительной власти, поддержки оптимального баланса между ветвями власти является парламентский контроль [5]. В свою очередь, обратившись к статье 4 Закона Республики Узбекистан «О парламентском контроле» можно обнаружить, что объектом парламентского контроля может быть помимо деятельности органов исполнительной власти, также и деятельность органов, не входящих в структуру исполнительной власти. Так, вышеуказанная норма определяет, что объектом парламентского контроля является деятельность государственных органов и их должностных лиц по исполнению Конституции и законов Республики Узбекистан, решений палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан и их органов, государственных программ, а также по реализации возложенных на них задач и функций. Далее, в статье 5 данного Закона, конкретно перечисляются формы парламентского контроля, где можно обнаружить, что помимо заслушивания ежегодного доклада Кабинета Министров, отчетов Премьер-министра, членов Кабинета Министров, то есть органов исполнительной власти, мы в отличии от практики других стран, наблюдаем существование подотчетности также органов, не имеющих положения подчинённости правительству. В частности, согласно данной статье, формами парламентского контроля также определены рассмотрение отчета Счетной палаты Республики Узбекистан, заслушивание отчета Генерального прокурора Республики Узбекистан, председателя правления Центрального банка Республики Узбекистан. Исходя из этого, можно сделать вывод, что парламентский контроль служит основой активного взаимодействия Олий Мажлиса не только с исполнительной, но и другими органами государственной власти. Следовательно, можно отметить, что в законодательстве, помимо определения субъектов, т.е. органов и должностных лиц парламентов, обладающих правом осуществления парламентского контроля, можно обнаружить круг субъектов подотчетности парламентскому контролю, которые могут отличаться в зависимости от определенных особенностей статуса парламента в той или иной стране. Чаще всего, в правовых актах устанавливается, что субъектами отчетности могут выступать исполнительная власть в лице правительства страны и представители других различных организаций и учреждений, за которыми закрепляются определенные

обязанности в связи с реализацией полномочий контроля парламента. Такими обязанностями могут быть обязанность отвечать в установленный срок на парламентские и депутатские запросы, являться на заседание палаты или другой структурной единицы парламента для ответа на вопросы её членов, обязанность предоставлять все запрашиваемые документы и материалы, обязанность уйти в отставку в случае выражения недоверия [6]. В результате реализации этих обязанностей и происходит взаимодействие парламента по осуществлению контроля с другими органами государственной власти, которое требует четкого правового регулирования, процедурной прозрачности и строгого исполнения обязанностей всеми участниками данного процесса. Что касается правовых основ и гарантий обеспечения взаимодействия Олий Мажлиса, исполнительной и других органов государственной власти при реализации парламентского контроля, то в Республике Узбекистан, нормами содержащими правила осуществления совместных и исключительных полномочий палат Олий Мажлиса, в рамках которого он осуществляет парламентский контроль являются Конституция Республики Узбекистан, Конституционные законы Республики Узбекистан «О Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан», «О Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан», законы Республики Узбекистан «О Регламенте Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан», «О Регламенте Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан», «О парламентском контроле» и ряд других нормативно-правовых актов, в которых четко регламентированы формы контроля, специальные механизмы и полномочия палат Олий Мажлиса, а также обязанности соответствующих органов, способствующие повышению открытости и подотчетности государственных органов власти.

Также стоит отметить, что ядром взаимодействия палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан и других органов государственной власти при осуществлении парламентского контроля является конституционный принцип разделения властей. Принцип разделения властей, важной составляющей которого выступает система сдержек и противовесов позволяет обеспечивать одновременно как взаимодействие ветвей власти, так и их взаимоограничение в установленных правовых пределах [7]. То есть, согласно принципу разделения властей государственные органы должны взаимодействовать между собой, не выходя за пределы полномочий, предоставленных им Конституцией и другими нормативно-правовыми актами. В этом контексте парламентский контроль являясь одним из механизмов реализации принципа разделения властей, осуществляется не в формате соперничества между органами государственной власти, а выступает как основа взаимодействия, направленного на соблюдение баланса властей в целях обеспечения подотчетности властей народу, повышения прозрачности их деятельности, эффективности государственного управления и защиты прав граждан. При этом, необходимо чтобы при взаимодействии парламента и других органов государственной власти при осуществлении парламентского контроля должны быть законодательно очерчены пределы вмешательства субъектов парламентского контроля в деятельность подконтрольных субъектов, так как такого рода нормы конкретно разъясняют какой вид деятельности не может быть объектом парламентского контроля, и при этом означают, что

парламентский контроль обеспечивая открытость, гласность и законность в государственном управлении не может вторгаться в текущую деятельность государственных органов власти, подменять их при принятии ими конкретных решений. Так, согласно части второй статьи 4 Закон Республики Узбекистан «О парламентском контроле», объектом парламентского контроля не может быть деятельность, связанная с рассмотрением конкретных дел и материалов, находящихся в производстве органов, осуществляющих оперативно-розыскную деятельность, дознания и следствия, судов, а также материалов исполнительного производства и нотариального делопроизводства. Четкое определение объектов парламентского контроля позволяет на основе действия принципа разделения властей разграничить сферу конституционных полномочий парламента, исполнительной власти и других органов государственной власти. В результате такого взаимодействия обеспечивается подотчетность народу государственных органов, выявляются недостатки в работе государственных органов, что способствует их устранению и повышению общей эффективности управления.

Изучение правовых основ взаимодействия палат Олий Мажлиса и других органов государственной власти при осуществлении парламентского контроля в Республике Узбекистан показывает, что он реализуясь в таких направлениях как общий контроль и мониторинг соблюдения законов Республики Узбекистан, решений Олий Мажлиса и других нормативно-правовых актов, финансового парламентского контроля, парламентского контроля за формированием государственных органов и назначением должностных лиц и т.д., должен закреплять детальные аспекты реализации каждого из этих направлений парламентского контроля, определив при этом систему взаимодействия органов палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан с другими субъектами государственного и общественного контроля Республики Узбекистан.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г., № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated January 28, 2022 No. UP-60 «Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026»).
2. Hironori Yamamoto. Tools for parliamentary oversight: A comparative study of 88 national parliaments. - Inter-Parliamentary Union 2007. - Switzerland. - P.6.
3. Гранкин И.В. Контрольная деятельность Федерального Собрания России: основные направления, перспективы развития. Конституционные ценности: содержание и проблемы реализации. М., 2010. Т. 2. С. 97–107.
4. Steffani W.F. Verfahren und Wirkungen der Parlamentarischen Kontrolle // Parlamentsrecht und Parlamentspraxis in der Bundesrepublik Deutschland.-Berlin. N.Y.,1989. С. 1325.
5. Хакимов Р.Р. Развитие правовых основ парламентского контроля в Узбекистане: основные положения закона "о парламентском контроле". Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2016 г. <https://cyberleninka.ru/journal/n/zhurnal-zarubezhnogo-zakonodatelstva-i-sravnitelnogo-pravovedeniya>.

6. Караходжаева О.Р. Правовые основы осуществления парламентского контроля в Республике Узбекистан. Т.: Издательство ТГЮУ, 2024г.
7. Хакимов, Р. Р. Реализация принципа разделения властей в Узбекистане. Право: история, теория, практика. материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, июль 2015 г.). — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2015. — С. 27-31.

YER OSTI SUVLARI HUQUQIY MUHOFAZASI YO'LIDAGI MUHIM QADAM

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ekologiya huquqi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: otamirzaev2107@gmail.com

Tel: +998 94 062 66 83

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Keyingi yillarda yer osti suvlari ahamiyati oshib bormoqda. U bilan bog'liq munosabatlarda huquqiy tartibga solishda muhim o'zgarishlar talab etmoqda. Bu sohani huquqiy tartibga solish va fuqarolarni ekologik huquqiy madaniyatini oshirish birlamchi vazifalardandir. Sohadagi huquqiy o'zgarishlarni qo'shimcha tahlil masalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: quduq, umumiy foydalanish, maxsus foydalanish, oqilona foydalanish, suv olish limitlari.

AN IMPORTANT STEP TOWARDS LEGAL PROTECTION OF GROUNDWATER

Otamirzaev Oybek

Lecturer, Tashkent State University of Law,

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In recent years, the importance of groundwater has been increasing. It requires significant changes in the legal regulation of relations related to it. Legal regulation of this area and increasing the environmental legal culture of citizens are among the primary tasks. Additional analysis of legal changes in the field is highlighted.

Key words: well, general use, special use, reasonable use, consuming water limit.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-14>

Oxirgi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanilishini ta'minlashga, shuningdek suvlarning zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olishga hamda uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada yer osti suvlari orqali yerlarni sug'orish va xo'jalik maqsadlar uchun olish keskin o'sganligi, shuningdek quduqlarni ruxsatsiz burg'ilash va suvlardan nazoratsiz, hisobga olmasdan foydalanish hollari davom etayotganligi sababli yer osti suv resurslarini muhofaza qilish choralari kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1062-sonli qonuni bilan yer osti suvlari muhofazasi yo'lidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi deya ayta olamiz[1].

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, ya'ni Vazirlar Mahkamasining "Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 9-sonli qaroriga muvofiq yer osti suvlaridan foydalanish umumiy va maxsus usullar orqali amalga oshiriladi[2]. Umumiy foydalanish shartlariga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 (yigirma besh) metrgacha bo'lgan quduqlardan sutkasiga 5 (besh) kub metr hajmdagi yer osti suvlaridan umumiy foydalanilganda maxsus foydalanish

sifatida ruxsatnoma olish talab etilmaydi. Bunda olingan suvdan fuqarolar o'z ehtiyojlari uchun foydalanishlari mumkin. Ammo, belgilangan limitlardan oshganlik yuzasidan ruxsatnoma olganligi masalasi to'laqonli yoritilmagan edi.

Kundalik hayotda yer osti suvlari ehtiyoj kundan-kunga ortayotganligi tufayli hamda yer osti suvlari muhofazasi muhim ahamiyatga egaligi uchun hamda limitlar belgilandi. Belgilangan yer osti suv olish limitlariga rioya etishi – ruxsatnomada belgilangan doirada suv olish me'yorlariga rioya etishi, oshgan taqdirda qo'shimcha to'lovlar joriy etish, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish orqali suvdan kam foydalanish ilg'or tajribalarini ommalashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan yer osti suvlaridan maxsus foydalanuvchilarni 2024-yil 1-yanvargacha suv hisoblagichlari o'rnatish majburiyati ham xuddi shu talabni hayotimizdagi isboti sifatida ko'rishimiz mumkin[3].

O'zbekiston Respublikasining 1062-sonli qonuni bilan umumiy foydanish me'yorlaridan ortiqcha yer osti suvlari iste'mol qilayotgan va maxsus foydalanish doirasida belgilangan suv hisoblagichlarini o'rnatmaslik holatlarini oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga, shuningdek "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga yer osti suvlariga quduqlarni qonunga xilof ravishda burg'ilash va xavfli geologik jarayonlarning oldini olishga doir ko'rsatmalar talablarini bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashni, yer osti suvlari suv o'lchash uskunalarisiz olinganda soliqni belgilangan soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirishni, yer osti suvlariga quduqlarni burg'ilashga doir ruxsatnomani berish tartib-taomilini yanada takomillashtirishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu o'zgartirish va qo'shimchalar yer osti suvlarini muhofazasi, ulardan oqilona foydalanish va hisobini yuritishni tartibga solishda muhim.

Bugungi kunda yer osti suv resurslarini muhofaza qilish borasida davlat va jamoat nazorati kuchaytirilayotgani, ularning miqdoriy kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rilayotgani ko'zga tashlanmoqda. Fuqarolar o'rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish borasida keng targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Davlatlarda qonunchilik amal qilish ko'rsatkichlari, ularga to'liq rioya etish fuqarolarning huquqiy madaniyatda ko'rinadi. Atrof muhit borasidagi normativlarga rioya etish esa fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatida aks etadi. Fuqarolarda ekologik madaniyatni oshirish — bu ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantirish jarayonidir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari, iqlim o'zgarishlari va resurslarning kamayishi global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda, shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar va xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish har bir fuqaroning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli va ongli munosabatini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun ta'lim, targ'ibot, qonunchilik va jamoatchilikning faol ishtiroki zarur. Ekologik madaniyatni oshirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta'minlash,

ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ham muhimdir. Har bir fuqaroni ekologik mas'uliyatga o'rgatish, ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida 16-sonli farmonida ham qator berilgan chora-tadbirlardan bir sifati 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash vazifasi qo'yilgan edi.

2025-yil 15-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 184-sonli qarori bilan 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi[4]. Unda belgilangan har bir vazifa mamlakatimizda barqaror ekologik muhitni ta'minlashda juda muhim dasturul amal bo'lishi, yuqori ko'rsatkichlarga erishilishiga zamin yaratishi kutilmoqda.

Har qanday huquqbuzarlik va muammolarning yuzaga kelishiga eng avvalo bilimsizlik yotishi, ekologiya yo'nalishidagi muammolarning deyarli barchasini kelib chiqishiga esa ekologik madaniyatning yetishmasligi sabab bo'lishi aytilib, qabul qilingan qarorda bularning barchasiga aniq yechimlar mas'ullari hamda amalga oshirish muddati bilan belgilab berilgani, bu esa mazkur hujjatning har tomonlama mukammal, puxta ishlab chiqilganidan dalolat ekanini e'tirof etishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.05.2025-y., 03/25/1062/0410-son;
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.04.2024-y., 09/24/169/0260-son;
3. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2022-y., 07/22/439/1081; 10.08.2023-y., 06/23/116/0579-son;
4. <https://lex.uz/uz/pdfs/7528761>.

SUD HAL QILUV QARORLARINI BEKOR QILISH YOKI O'ZGARTIRISH ASOSLARI TURLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdihakimov Samandar Salohiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: samandarabdihakimov86@gmail.com

Tel: +93 230-59-58

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda sud hujjatlarini qayta ko'rish bosqichida sud hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslarining turlari va o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan. Ayniqsa, asosiy tahlillar hal qiluv qarorlarini protsessual huquq normalarini buzilishi natijasida kelib chiqadigan asoslarga qaratilgan. Shuningdek, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqida ushbu asoslarning ba'zi farqli jihatlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sud, sudya, hal qiluv qarori, bayonnoma, taalluqlilik, prinsip.

TYPES AND SPECIFIC FEATURES OF THE GROUNDS FOR CANCELLATION OR MODIFICATION OF DISPUTE-RESOLVING COURT DECISIONS

Abdikhakimov Samandar Salohiddin ugli

Doctoral Student of Tashkent State

University of Law

Abstract. This thesis outlines the types and specific features of the grounds for cancellation or modification of dispute-resolving court decisions during the stage of judicial review of court documents. Special attention is given to grounds arising from violations of procedural legal norms in decision-making. Additionally, the thesis provides a detailed analysis of the distinctive aspects of these grounds within civil procedural and economic procedural law.

Keywords: court, judge, decision, protocol, relevance, principle.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-15>

Respublikamizda bugungi kunda sud-huquq tizimini tubdan takomillashtirish borasida juda ko'p islohatlar ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohatlarning asosiy maqsadi fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilish hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 55-moddasida har bir shaxs o'z huquqlari buzilganida ularni sud orqali himoya qilish kafolatlari belgilab qo'yilgan. Jumladan, ushbu moddaning uchinchi qismiga ko'ra: "Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi" [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqi konstitutsiya darajasida kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi farmoni qabul qilinib, ushbu farmonga muvofiq "O'zbekiston-2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi. Ushbu farmonga muvofiq qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar borasidagi muhim masalalar belgilab qo'yildi. Ushbu islohatlarning tub mohiyati fuqarolar va tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda odil sudlovga erishish va sudlarning mustaqilligini oshirish chora-tadbirlari belgilangan

[2]. Mazkur belgilangan maqsadlarga erishishda, albatta, fuqarolar va tadbirkorlarning sudga murojaat qilish huquqlari erkinliklari ham yotadi.

Fuqarolar va tadbirkorlarning sudga murojaat qilish shakllaridan biri bu sud tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat berish usuli hisoblanadi. Protsessualist olim professor Z.N.Esanova sud qarorlarining qonuniyligi va asosligini qayta tekshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish orqali odil sudlov sifatini hamda fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishga erishish mumkin ekanligini ta'kidlaydi [5; B.96.]. Shuning uchun, sud hal qiluv qarorlari ustidan yuqori instansiya murojaat qilish davomida va ushbu hujjatlarning qayta ko'rilishi jarayonida sud hal qiluv qarorlarini bekor qilish asoslari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, qachonki ushbu asoslar mavjud bo'lsagina sud hal qiluv qarorlarini o'zgartirish yoki bekor qilish orqali odil sudlovga erishish mumkin bo'ladi. Shu sababli, sud hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslarini chuqur tahlil qilish lozim.

Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual kodekslarida sud hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari qat'iy belgilab qo'yilgan. Ushbu asoslarni kelib chiqish jihatidan va har birining xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi uchta turga bo'lish mumkin:

- 1) hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirishning umumiy asoslari;
- 2) moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi natijasida hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari;
- 3) protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi natijasida hal qiluv qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish asoslari.

Hal qiluv qarorlarini bekor qilishning umumiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 374²-moddasi [3] va iqtisodiy protsessual kodeksi 279-moddasi birinchi qismida keltirilgan [4]. Ushbu asoslar quyidagicha hisoblanadi:

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) sud hujjatida bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiq emasligi.

Shuningdek, moddiy qonunchilik normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslari fuqarolik protsessual kodeksi 374³-moddasi [3] hamda iqtisodiy protsessual kodeksining 279-moddasi ikkinchi qismida sanab o'tilgan [4]. Ushbu asoslar fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual qonunchilikda bir xil qoidalar doirasida amalga oshiriladi. Ushbu qoidagilar esa quyidagilar:

- 1) qo'llanilishi lozim bo'lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo'llamaganligi;
- 2) qo'llanilmasligi lozim bo'lgan qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini qo'llaganligi;
- 3) qonunni yoki boshqa qonunchilik hujjatini noto'g'ri talqin qilinganligi.

Ammo uchinchi turi, ya'ni protsessual huquq normalarining buzilishi oqibatlari ikkala protsessual qonunchilikda ba'zi bir farqlarga ega hisoblanadi. Protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslarining turlari fuqarolik protsessual kodeksi 372⁴-moddasida [3] hamda iqtisodiy protsessual kodeksi 279-moddasi beshinchi va oltinchi qismlarida batafsil keltirilgan [4]. Ushbu normalarga ko'ra ikkala qonunchilikda umumiy bo'lgan asoslar quyidagilar:

- ish sud tomonidan g'ayriqonuniy tarkibda ko'rilganligi;
- taalluqlilik to'g'risidagi qoidalar buzilgan holda ko'rilganligi;
- ish sud tomonidan sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan, ammo sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida xabardor qilinmagan shaxslardan biror-biri yo'qligida ko'rilganligi;
- ish ko'rilayotganida sud ishlari yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilganligi;
- sud ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi masalani hal qilganligi;
- sudning hal qiluv qarorini chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilganligi;
- hal qiluv qarori ishni ko'rgan va hal qilgan sudyalardan (sudyadan) boshqa sudyalar (sudya) tomonidan imzolanganligi;
- sud majlisi bayonnomasi imzolanmaganligi.

Iqtisodiy protsessual kodeksida yuqoridagi protsessual qonunchilikning buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslaridan tashqari quyidagilar ham protsessual qonunchilikning buzilishi sifatida qaraladi:

- ishda sud majlisi bayonnomasining mavjud emasligi;
- sud majlisi bayonnomasi iqtisodiy protsessual kodeksi 202-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilganidan boshqa shaxslar tomonidan imzolanganligi;
- sud majlisining audio- yoki videoyozuvi amalga oshirilgan bo'lsa, audio- va videoyozuvning elektron yoki boshqa manbalari sud majlisi bayonnomasiga qo'shib qo'yilmaganligi;
- bildirilgan talab bo'yicha sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinmaganligi;
- hal qiluv qarorining sudya tomonidan imzolanmaganligi.

Yuqorida keltirilgan protsessual qonunchilikning buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslari fuqarolik va iqtisodiy protsessual qonunchilik o'rtasidagi farqlar hisoblanadi. Chunki, ushbu qoidalar fuqarolik protsessual qonunchilikda mavjud emas. Ammo, ulardan faqatgina bittasi, ya'ni bildirilgan talab bo'yicha sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinmaganligi qoidasi fuqarolik protsessual qonunchilikda ham mavjud. Ya'ni, ushbu qoida fuqarolik protsessual kodeksi 372²-moddasiga muvofiq hal qiluv qarorlarini bekor qilishning umumiy asoslaridan biri sifatida qaraladi [3]. Ushbu qoida ko'proq umumiy asoslarga mos tushadi.

Shuningdek, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual qonunchilikdagi protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslari o'rtasidagi farqlardan yana biri bu iqtisodiy protsessual qonunchilikda ushbu qoidalarning o'zi ham ikki toifaga ajratilgan holda keltirilgan, ya'ni:

- birinchi toifa sifatida sudning hal qiluv qarori bekor qilinishi mumkin bo'lgan holatlar;
- ikkinchi toifasi sud hal qiluv qarorini har qanday holda bekor qilishi mumkin bo'lgan qoidalar.

Protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi asoslarini ushbu ikkita guruhga ajratishdan asosiy sabab ushbu huquq normalari buzilishi doim ham sud hal qiluv qarorini bekor qilinishiga olib kelmaydi. Chunki, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual qonunchilikka muvofiq protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi

noto'g'ri hal qiluv qarorini qabul qilinishiga olib kelgan bo'lsa yoki olib kelishi mumkin bo'lsagina hal qiluv qarorini bekor qilish yoki o'zgartirishga olib keladi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquq bir-biriga yaqin bo'lgan ikki huquq sohasi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu ikkala huquq sohasida umumiy qoidalar judayam ko'p uchraydi. Ammo, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, aynan sud hal qiluv qarorlarini bekor qilishda protsessual huquq normalarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi oqibatlari doirasida bir nechta farqli jihatlar mavjud. Ushbu farqlarni chuqur tahlil qilish va ularning ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganish orqali hal qiluv qarorlarini qayta ko'rish jarayonlarini isloh qilish va rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445423>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risidagi farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156>
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-3517337#-3518464>
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3534013>
5. Sud hujjatlarini qayta ko'rish instituti: taftish instansiyasi faoliyati tahlili/ Maqola/ yu.f.d. prof. Z.N.Esanova/ "Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali, 2024-yil 4-son 93-104-bet.

MATBUOT ERKINLIGI BO'YICHA XALQARO STANDARTLAR

Komilov Asadbek Maxsudbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistranti

E-mail: sozananews@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarining erkinligi, ularning qonuniy faoliyat olib borishi uchun ishlab chiqilgan xalqaro nizomlar tahlil qilinadi. Shuningdek, dunyo mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda matbuot erkinligi qay darajada ekani borasida tanqidiy-tahliliy so'z yuritiladi. Aniqlangan kamchiliklar yuzasidan media landshaftida jurnalistlar faoliyatiga bosim o'tkazish singari harakatlarning oldini olish bo'yicha huquqiy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, ratifikatsiya, matbuot erkinligi, Chegara bilmas muxbirlar, xavfsizlik, so'z erkinligi, axborot, inson huquqlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Konvensiyasi.

INTERNATIONAL STANDARDS ON FREEDOM OF THE PRESS

Komilov Asadbek Maxsudbek ogli

Tashkent State University of Law

Master's Student

Abstract. This article analyzes the international regulations developed for the freedom of the media and their legal activities. It also critically analyzes the level of press freedom in countries around the world, in particular in Uzbekistan. In response to the identified shortcomings, legal proposals are made to prevent actions such as pressure on the activities of journalists in the media landscape.

Key words: media, ratification, freedom of the press, Reporters Without Borders, security, freedom of expression, information, human rights, United Nations, European Convention.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-17>

Har qanday sohani tashkil etishning qonuniyatlari, tartib-qoidalari uning faoliyatini belgilab beradi. Jurnalistika sohasi paydo bo'lgandan to hozirga qadar juda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Shu jarayonda uning soha sifatidagi belgilari, asosiy vazifalari hamda amal qilishi lozim bo'lgan muhim prinsplari shakllandi. XX asrga kelib axborot uzatishning ovoz, tasvir va boshqa ko'rinishlari paydo bo'lgandan keyin jurnalistikani sohaning an'ana va tajribalari asosida boshqarish ancha murakkablashdi. Chunki axborot yetkazish bir turdagi faoliyat bo'lmay qoldi. Faqat yozadigan, matbuotda ishlaydigan jurnalistgina emas, bevosita axborot tayyorlash jarayonida ishtirok etadigan kishilar ham bu jarayonga daxldor bo'la boshladi. Jurnalistika jamiyatning turli sohalari bilan munosabatda bo'lar ekan ularning tabiati, qonuniyatlari bilan to'qnash keladi. Bunday sharoitda jurnalistikaning faoliyat tartibi qanday kechishi, jurnalistning axborot bilan ishlashda qaysi mezonlarga amal qilishi, soha faoliyatining tartibga solinishi axborot samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi, umuman dunyo jurnalistlari qanday mezonlar asosida ishlashi lozimligi bilan bog'liq qator masalalarga oydinlik kiritish zaruratini tug'dirdi. Qolaversa, axborot uzatish turlari va vositalarining ko'payishi, ular o'rtasidagi muayyan huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirdiki, ularni qonuniy tartibga solish, amal qilish lozim bo'lgan muayyan mezonlarni belgilab berishni davrning o'zi taqozo etdi. Shu boisdan matbuot erkinligi bo'yicha bir qator xalqaro huquqiy standartlar ishlab chiqilgan va

ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati ko'plab xalqaro ahamiyatga molik hujjatlarda qat'iy belgilab qo'yilgan. Negaki har bir davlat o'zining OAV sohasidagi milliy qonunchilik tizimini birinchi navbatda ushbu xalqaro me'yorlar asosida tartibga soladi. Biroq bir mamlakatda qaysidir xalqaro me'yorga amal qilinishi uchun ushbu hujjat o'sha davlat tomonidan ratifikatsiya (tan olish) qilinishi lozim. Ratifikatsiya qilinmagan hujjatlar asosida OAV faoliyatining tartibga solinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jurnalistning huquq va erkinliklari asosida, eng avvalo xalqaro huquq me'yorlari yotadi. Ana shu me'yorlarni axborot huquqi, matbuot erkinligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning eng avvalida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qayd etiladi. U 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan bo'lib, hujjat 30 moddadan iborat. U O'zbekiston ratifikatsiya qilgan dastlabki xalqaro hujjatdir. Mazkur hujjatdagi bir qator me'yorlar bevosita matbuot erkinligiga tegishlidir. Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida: "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi",¹ deyiladi. Ushbu me'yor jurnalistlarning o'z fikrini erkin ifoda etishi, hech qanday to'siqlarsiz axborotlarni olishi, ularni qayta ishlashi va moneliksiz tarqatishini ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor bo'lgan yana bir yirik xalqaro hujjat bu – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. U 1966-yilda BMT tomonidan qabul qilingan bo'lib, 6 qism va 53 moddadan iborat. Paktning 19-moddasi bevosita so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga bog'liq. Jumladan, 19-moddaning 1-bandida "Har bir inson hech bir to'siqsiz o'z fikriga ega bo'lish huquqiga ega" deyilgan bo'lsa, 2-bandida "Har bir inson o'z fikrini erkin ifoda etish huquqiga ega; bu huquq har qanday axborot va g'oyalarni davlat chegaralaridan qat'iy nazar ixtiyoriy ravishda og'zaki, yozma yoki matbuot orqali, yoki badiiy shakllarda, yoki o'z xohishiga qarab boshqa vositalar yo'li bilan izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi", deyilgan. Shu bilan birga ushbu moddaning 3-bandida yuqorida ikkinchi bandda nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish alohida majburiyatlar va mas'uliyat yuklashi belgilab qo'yilgan. Ya'ni bu tarzda foydalanish ayrim cheklashlar bilan bog'liq. Agar matbuot vakilining tayyorlagan materiali boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklariga daxl qiladigan bo'lsa, shu bilan bir qatorda davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligini muhofaza etish uchun unga berilgan erkinlik ma'lum miqdorda cheklanadi.²

Yevropa Kengashi ham OAV va jurnalistlar erkinligiga oid bir qator huquqiy mezonlar va hujjatlar qabul qilgan. Shulardan eng muhimi 1950-yil 4-noyabr kuni qabul qilingan "Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida"gi Yevropa Konvensiyasidir. Ushbu hujjatning 10-moddasida so'z va fikrni erkin ifoda etish haqida so'z boradi. Unga muvofiq, "har bir inson o'z fikrini ifodalash erkinligiga ega" hamda "bu davlat organlari tomonidan aralashuvlarsiz va davlat chegaralaridan qat'iy nazar izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga olishi"³ ta'kidlangan. Mazkur modda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 19-moddasi bilan hamohangdir. Chunki paktning fakultativ protokolini tayyorlash jarayonida

¹ The Universal Declaration of Human Rights (UDHR, General Assembly resolution 217 A, 1948

² International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966

³ The Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, Rome, 1950

“Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasiga qayta-qayta murojaat qilingan. Shuningdek, aynan shu 10-modda Yevropa Ittifoqi qonunchiligiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan.

Butunjahon matbuot erkinligi qo‘mitasi tomonidan 1987-yilda qabul qilingan “Matbuot erkinligi xartiyasi”da ommaviy axborot vositalarining hukumat tomonidan iqtisodiy va boshqa jihatdan kamsitilishlariga yo‘l qo‘ymaslik, mustaqil nashrlar bilan davlat nashrlarining vakolatlari teng bo‘lishi, davlat tomonidan ommaviy axborot vositalarining axborot olish va uni tayyorlash bilan bog‘liq iqtisodiy masalalariga cheklovlar qo‘ymaslik me‘yorlari belgilangan.

Ammo biz yuqorida sanab o‘tgan OAV erkinligi borasidagi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar amalda qanchalik ishlayapti? Matbuot vakillarining o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishida to‘siqlar olib tashlanyaptimi? Bu savolga javob izlash uchun biz “Chegara bilmas muxbirlar” (Reporters Without Borders) tashkilotining oxirgi tahlillarini solishtirib chiqamiz. Negaki aynan ushbu tashkilot butun dunyo bo‘ylab axborot erkinligiga qilingan hujumlarni doimiy ravishda kuzatib boradi, ommaviy axborot vositalariga bunday hujumlarni qoralaydi hamda senzura va matbuot erkinligini cheklashga qaratilgan qonunlarga qarshi kurashish uchun hukumatlar bilan hamkorlikda harakat qiladi. Tashkilotning 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha matbuot erkinligi tarixiy eng past darajaga tushib ketdi. Hisobotda 180 ta mamlakatdagi ommaviy axborot vositalarining holati 5 ta mezon – siyosiy kontekst, huquqiy baza, iqtisodiy muhit, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar va xavfsizlik asosida baholangan.

Tahlilchilarga ko‘ra, 90 ta mamlakatda jurnalistlar uchun “qiyin” yoki “juda jiddiy” vaziyat yuzaga kelgan. Bunday holatga nafaqat xavfsizlik bilan bog‘liq muammolar va avtokratik rejim ta‘siri, balki ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy nochorligi ham sabab bo‘lmoqda.¹ RSF rahbari Anya Osterxausing ta’kidlashicha, “mustaqil jurnalistika avtokratlar ko‘zida haqiqatni oshkor qiluvchi tikandek”. Uning so‘zlariga ko‘ra, agar OAV moliyaviy qiyinchiliklarga duchor bo‘lsa, dezinformatsiya va propagandaning yolg‘onini kim fosh qilishi so‘roq ostida qoladi.

Hisobotda yozilishicha, 180 davlatdan 160 tasida OAV barqaror faoliyat yurita olmayapti yoki faqat juda qiyin sharoitda faoliyat yuritmoqda. Qariyb uchdan bir mamlakatda tahririyatlar iqtisodiy sabablar bilan yopilgan, ko‘p hollarda bunga rasmiy bosim sabab bo‘lgan. 46 davlatda OAV faqat bir necha boy shaxslar tomonidan nazorat qilinadi. Rossiya ham shular qatorida tilga olingan.²

Rossiya RSF reytingining eng oxiridagi o‘nlikka kirgan. Mamlakat bir yilda 9 pog‘ona pastlab, 171-o‘rinni egalladi (100 ballik tizimda 24,57 ball), ya‘ni reytingdagi eng yomon natijalardan biri. Rossiya yonida Misr va Nikaragua qayd etilgan.

Sobiq Ittifoq davlatlari ichida eng yomon ko‘rsatkich Turkmanistonda – 174-o‘rin, 19,14 ball. Bundan pastda faqat Afg‘oniston, Eron, Suriya, Xitoy, Shimoliy Koreya va Eritreya joylashgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ham past pog‘onalarda joylashgan: Tojikiston 153-o‘rin (32,21 ball), O‘zbekiston 148-o‘rin (35,24 ball), Qirg‘iziston 144-o‘rin (37,46 ball), Qozog‘iston 141-o‘rin (39,34 ball).

¹ Katharina Buchholz, Intellinews, Global press freedom indicator slips, Statista, May 2025.

² RSF World Press Freedom Index 2025: economic fragility a leading threat to press freedom, May 2025.

Gruziya esa bir yil ichida 11 o'rin pastlab, 114-pog'onaga tushib ketdi (50,53 ball). Bunga sabab mamlakatdagi parlament saylovlari va "Gruziya orzusi" partiyasining hokimiyatda qolishi ortidan kelib chiqqan xalqaro tanqidlar va ichki noroziliklar bo'ldi.

O'zbekiston ketma-ket ikkinchi yil 148-pog'onada qolmoqda. Biroq ahvol 2024-yilga nisbatan yomonlashgan. Chunki o'tgan yili O'zbekiston OAV erkinligiga 37,27 ball berilgan bo'lsa, bu yil 35,24 ball berilgan.

Mamlakatlarda matbuot erkinligi yuqoridagidek past ko'rsatkichga kelib qolmasligi, umuman bu ko'rsatkich eng yaxshi o'ringa olib chiqish uchun davlat o'zi qabul qilgan qonunlarga amal qilishi lozim. Huquqiy himoyalanganlik faqat qonunlarning qabul qilinganigagina bog'liq emas, bu qonunlar amal qilishi ham kerak. Qonunlar amal qilishi esa juda ko'p omillarga bog'liq bo'ladi. Ulardan ayrimlarini sanab o'taylik.

Birinchidan, qonunlar amal qilishi uchun ular xalq irodasini ifodalashi kerak, ya'ni odamlar qonunlarni yuqoridan o'rnatilgan, cheklovchi, taqiqlovchi unsur emas, aksincha, ularning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqaruvchi, himoya qiluvchi vosita sifatida qabul qilishi kerak. Ikkinchidan, qonunlarning amal qilishi jamiyatning huquqiy madaniyatiga, undagi ijtimoiy-huquqiy ongning takomiliga bog'liq. Uchinchidan qonunni buzganlar muqarrar jazolanishi qonunning amal qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Tamoyil shuki, biror-bir huquqbuzarlik jazosiz qolmasin va ayni paytda, biror-bir begunoh jazolanmasin. Biz sanab o'tgan omillar va boshqa tendensiyalar mamlakatdagi huquqiy amaliyotga, shu jumladan ommaviy axborot vositalarining faoliyat yuritishiga ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bugun demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholi orasida siyosiy faollikni oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritish ekanmiz, albatta, matbuot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. The Universal Declaration of Human Rights (UDHR, General Assembly resolution 217 A, 1948
2. International Covenant on Civil and Political Rights, General Assembly resolution 2200A (XXI), 1966
3. The Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, Rome, 1950
4. Katharina Buchholz, Intellinews, Global press freedom indicator slips, Statista, May 2025.
5. RSF World Press Freedom Index 2025: economic fragility a leading threat to press freedom, May 2025.
6. <https://www.intellinews.com/> – rivojlanayotgan bozorlarga ixtisoslashgan axborot agentligi va media kompaniyasi.
7. <https://rsf.org/en> – "Chegara bilmas muxbirlar" (Reporters Without Borders) tashkilotining rasmiy sahifasi
8. <https://unis.unvienna.org/> – Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sahifasi

9. <https://www.freepressunlimited.org/en> – Amsterdamda (Niderlandiya) joylashgan matbuot erkinligi bo'yicha xalqaro nodavlat tashkilotning rasmiy sahifasi.
10. <https://www.irex.org/> – Xalqaro tadqiqot va almashinuv kengashining rasmiy sahifasi.
11. <https://freedomhouse.org/> – butun dunyoda OAV erkinligini oshirishga xizmat qiladigan mustaqil kuzatuvchi tashkilot sahifasi.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MULK HUQUQIGA OID HUQUQIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Xudaibergenova Dilnoza Ulug'bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi
yo'nalishi talabasi
E-mail: dilush826@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamlashtirish jarayonlari sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasi tahlil etiladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida mulk huquqining an'anaviy shakllari bilan bir qatorda yangi – raqamli mulk obyektlari vujudga kelmoqda. Maqolada raqamli aktivlar, shaxsiy ma'lumotlar, intellektual mulkning yangi shakllari, kriptoaktivlar va boshqa raqamli obyektlar ustidan huquqiy egalikni belgilash zarurati asoslab beriladi. Amaldagi konstitutsiyaviy normalarning zamonaviy raqamli muhitga yetarlicha mos kelmasligi tanqidiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, mulk huquqi, konstitutsiyaviy huquq, raqamli aktivlar, kriptoaktivlar, shaxsiy ma'lumotlar, mulkiy huquq.

IMPROVING THE LEGAL FRAMEWORK FOR PROPERTY RIGHTS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Khudaibergenova Dilnoza Ulugbek qizi

Tashkent State University of Law
Faculty of Master's and Part-time Education
Field of Study: Media Law

Abstract. This article analyzes the improvement of the constitutional and legal foundations of property rights in the context of digitalization. The development of the digital economy has led to the emergence of new types of digital property alongside traditional forms of ownership. The paper substantiates the need to legally recognize and regulate ownership rights over digital assets, including personal data, intellectual property in new formats, and crypto-assets.

Key words: digitalization, property rights, constitutional law, digital assets, crypto-assets, personal data, proprietary rights.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-18>

XXI asr boshidan boshlab global miqyosda raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi huquqiy munosabatlar tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar – sun'iy intellekt, blockchain, raqamli identifikatsiya va ma'lumotlar oqimi mavjud huquqiy me'yorlarga sig'maydigan ko'plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, mulk huquqi kabi inson erkinligi va iqtisodiy barqarorlikning asosi bo'lgan kategoriyalarning raqamli muhitda qayta talqin qilinishi talab etilmoqda. Bugungi kundagi globallashuv, sun'iy intellekt, blockchain texnologiyalari, katta ma'lumotlar (big data) va kriptoaktivlar singari raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olayotgani kabi, huquqiy munosabatlar tizimini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida, ayniqsa, mulk huquqi tushunchasining mazmuni kengayib, yangi huquqiy yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy huquqiy nazariyalarda mulk huquqi, odatda, moddiy obyektlar bilan bog'liq bo'lib, egasi o'z

mulkidan foydalanish, uni tasarruf etish va undan daromad olish huquqlariga ega bo'lgan. Biroq bugungi kunda raqamli obyektlar — masalan, NFT (nofungible tokens), kriptoaktivlar, raqamli shaxsiy ma'lumotlar, domen nomlari, bulutli serverlardagi kontent kabi nomoddiy mulklar ham real iqtisodiy qiymatga ega bo'lib, amalda egalik qilish obyekti sifatida shakllanmoqda¹.

Bunday obyektlar ustidan mulk huquqini amalga oshirishda turli murakkabliklar yuzaga chiqmoqda. Birinchidan, raqamli aktivlar ko'pincha xalqaro raqamli platformalarda ro'yxatga olinadi va transchegaraviy xarakterga ega. Ikkinchidan, bu mulklar ko'pincha tashqi ifodaga ega bo'lmagan, faqat raqamli muhitda mavjud bo'lgan obyektlardir. Uchinchidan, ularning huquqiy maqomi aniq belgilanmagani sababli, ularga nisbatan mulkiy huquqlarni himoya qilish qiyinlashmoqda².

NFTlar (no-fungible tokens), kriptoaktivlar, o'yinlardagi raqamli obyektlar, domen nomlari, bulutli kontentlar va hatto shaxsiy ma'lumotlar — bularning barchasi amalda egasi bo'lgan va boshqalar tomonidan foydalanish cheklanishi mumkin bo'lgan aktivlar sifatida shakllanmoqda. Bu esa ularni mulk obyekti sifatida ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi. Masalan, Yevropa Ittifoqida shaxsiy ma'lumotlar "egasi" tushunchasi orqali nazarda tutiladi, garchi u mulk emas, balki shaxsiy daxlsizlik obyekti deb tan olinsa ham, ushbu ma'lumotlar ustidan nazorat yuritish huquqi mavjudligi ularni funksional jihatdan mulkka yaqinlashtiradi³. Blockchain texnologiyasi esa mulk huquqining raqamli muhitdagi ifodasini tubdan o'zgartirmoqda. Endilikda foydalanuvchilar kriptoaktivlar yoki NFTlar ustidan egalikni markazlashmagan tarmoqlar orqali tasdiqlashlari, ularni boshqa foydalanuvchilarga smart-kontraktlar orqali o'tkazishlari mumkin. Bunda huquqiy egalik raqamli yozuv (token) orqali ifodalanadi va tranzaksiyalar blockchinda qayd etilib, o'zgartirilmaydigan xotira sifatida ishlaydi⁴. Shuningdek, raqamli kontent — blog postlari, musiqalar, elektron kitoblar va sun'iy intellekt mahsulotlari — intellektual mulkning yangi ko'rinishlariga aylanmoqda. Bu obyektlar ustidan mualliflik huquqi, foydalanish litsenziyalari va daromad olish imkoniyati mavjud bo'lib, ular ham mulk huquqiga oid huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Bugungi raqamlashtirish davri jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tuzilmalarini o'zgartirayotgani kabi, mulk huquqi institutini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. An'anaviy huquqiy nazariyada mulk huquqi — bu shaxsning o'z mol-mulkini egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi sifatida e'tirof etiladi. Bunday yondashuv moddiy obyektlarga nisbatan shakllangan bo'lib, ular aniq joyda, aniqlanadigan holatda mavjud bo'ladi. Ammo raqamli iqtisodiyotda yangi turdagi raqamli aktivlar vujudga kelmoqda — ular moddiy emas, lekin real iqtisodiy qiymatga ega⁵.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 41-moddada har kimning mulk huquqi, undan foydalanish va uni meros qilib qoldirish huquqlarini kafolatlaydi, shuningdek bank operatsiyalarining, omonatlarning va

¹ Tapscott, Don & Tapscott, Alex. *Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World*. Penguin Books, 2016.

² Zubair, Umar. "The Legal Status of NFTs and Virtual Assets in Property Law." *Journal of Digital Law*, vol. 3, no. 1, 2022.

³ European Parliament and Council. General Data Protection Regulation (GDPR), 2016

⁴ Werbach, Kevin & Cornell, Nicolas. "Contracts Ex Machina." *Duke Law Journal*, vol. 67, no. 2, 2017.

⁵ Raskin, Max. "The Law and Legality of Smart Contracts." *Georgetown Law Technology Review*, vol. 1, no. 2, 2017.

hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek mulk huquqi qonun bilan kafolatlanadi. 65-moddada esa davlat mulk shakllarining tengligi va daxlsizligini ta'minlash majburiyatini oladi, 66-moddada esa fuqarolar o'ziga tegishli mol-mulkga egalik qilishi va undan foydalanishi haqida keltirib o'tilgan¹. Shu bilan birga, Konstitutsiyada raqamli mulk obyektlari, intellektual mulkning yangi shakllari, kriptoaktivlar yoki ma'lumotlar ustidan egalik huquqlari haqida alohida normalar mavjud emas. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida huquqiy bo'shliqlar (legal gaps) vujudga kelishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, zamonaviy raqamli muhitda mulk huquqi tushunchasi moddiy cheklovlardan xoli, noan'anaviy aktivlar ustidan nazorat va egalik qilish imkoniyati sifatida qayta talqin etilmoqda. Bu esa huquqiy nazariyalar va qonunchilikda kengroq, moslashuvchan yondashuvni talab etadi. O'zbekistonning amaldagi huquqiy bazasida esa ushbu yangi obyektlarga nisbatan aniqlik yo'q, bu esa fuqaroviy va konstitutsiyaviy huquqiy asoslarni takomillashtirishni zarur qiladi. An'anaviy konstitutsiyalar mulk huquqini asosan moddiy obyektlar (yer, bino, transport) doirasida himoya qiladi. Ammo raqamli iqtisodiyotda mulk tushunchasi kengaymoqda va unga noan'anaviy — raqamli aktivlar ham qo'shilmoqda. Shu sababli, raqamli mulk huquqi ham konstitutsiyaviy huquq darajasida himoyalaniishi kerak. Shu sababdan shaxsiy ma'lumotlarni ham mulk huquqi obyekti sifatida ko'rish lozim. Raqamli jamiyatda har bir fuqaroning raqamli identifikatsiyasi, uning onlayn faoliyati va shaxsiy ma'lumotlari ustidan egalik qilish huquqi shakllanadi. Bu nuqtai nazardan shaxsiy ma'lumotlar faqat himoya obyekti emas, balki mulk obyekti sifatida ham himoyalaniishi lozim. Bu esa davlat va xususiy kompaniyalarning fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini ularning roziligisiz yig'ishi, saqlashi va qayta ishlashini qonuniy cheklaydi, shaxsiy daxlsizlikni raqamli maydonda ta'minlaydi.

Raqamli mulk ustidan huquqiy egalikni ta'minlashda texnologik platformalar, xususan blockchain va smart-kontraktlar alohida ahamiyatga ega. Blockchain texnologiyasi aktivlar egaligini aniq va o'zgarmas tarzda tasdiqlash imkonini beradi, bu esa raqamli mulk huquqlarining mustahkam huquqiy bazasini yaratadi. Smart-kontraktlar esa mulk huquqlarini avtomatlashtirilgan va shartnoma asosida boshqarishni ta'minlab, raqamli huquqlarni himoya qilishda yangi mexanizmlarni shakllantiradi².

Raqamli mulkning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular moddiy bo'lmagan, osongina ko'chiriladigan va ko'paytiriladigan xarakterga ega, shuning uchun mulk huquqini buzilish xavfi an'anaviy mulkdan yuqoriroq bo'lishi mumkin. Shu bois raqamli mulkni himoya qilish mexanizmlari, jumladan konstitutsiyaviy kafolatlar, sud-huquqiy himoya vositalari zamonaviy va moslashtirilgan bo'lishi talab etiladi. Shunday qilib, raqamli mulk tushunchasini huquqiy tizimga kiritish, shaxsiy ma'lumotlarni ham mulk obyekti sifatida tan olish, blockchain kabi texnologiyalardan foydalanish, va raqamli mulkning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda himoya mexanizmlarini shakllantirish — raqamlashtirish sharoitida mulk huquqini samarali konstitutsiyaviy himoya qilishning asosiy jihatlaridir. Bu o'z navbatida fuqarolarning raqamli muhitdagi huquqlarini keng va sifatli himoya qilish imkonini beradi. Xalqaro tajriba va standartlarni o'rganish ham muhim ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir), 2023-yil 30-aprel.

² Raskin, Max. "The Law and Legality of Smart Contracts." *Georgetown Law Technology Review*, vol. 1, no. 2, 2017,

Yevropa Ittifoqining GDPR kabi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimi, shuningdek, AQSh va Singapur kabi mamlakatlarning innovatsion huquqiy mexanizmlari O'zbekiston uchun mustahkam huquqiy bazani yaratishda namunalar bo'la oladi. Bu esa raqamli iqtisodiyotda raqobatbardosh va xavfsiz muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, raqamlashtirish sharoitida mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish nafaqat huquqiy muammolarni hal qilish, balki O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'ladi. Bunday takomillashtirishlar mamlakat fuqarolarining huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish, iqtisodiyotni raqamli transformatsiyaga tayyorlash hamda xalqaro hamjamiyatda raqobatbardosh pozitsiyani mustahkamlash imkonini beradi. Shuning uchun, davlat tomonidan raqamli mulk va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni konstitutsiyaviy darajada ta'minlash, qonunchilikni doimiy ravishda zamonaviylashtirish va sud amaliyotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bu jarayon O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga muvaffaqiyatli moslashuvi va fuqarolarining huquqiy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli aktivlar ustidan mulk huquqini aniqlash, himoya qilish va huquqiy tartibga solish uchun yangi, moslashuvchan va keng qamrovli konstitutsiyaviy-huquqiy yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur. Ayniqsa, blockchain va smart-kontraktlar kabi texnologiyalar huquqiy egalikni aniq va ishonchli tarzda tasdiqlashda muhim vositaga aylangan. Shu sababli, fuqarolarning raqamli mulk, jumladan shaxsiy ma'lumotlar, raqamli identifikatorlar va intellektual kontent ustidan egalik qilish huquqlari konstitutsiyaviy darajada kafolatlanishi lozim.

Umuman olganda, raqamli jamiyat sharoitida mulk huquqi institutini modernizatsiya qilish zarurati yuzaga kelgan. Bu jarayonda O'zbekistonning konstitutsiyaviy va fuqaroviy qonunchiligi yangi raqamli obyektlar tabiatiga mos ravishda takomillashtirilishi kerak. Ana shundagina, raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolarning mulkiy manfaatlarini to'laqonli huquqiy himoya ostiga olinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir), 2023-yil 30-aprel.
2. Azimov, A. A. "Mulk huquqining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari." Toshkent: Yuridik nashriyot, 2022.
3. G'afurova, M. S. "Raqamli iqtisodiyot va mulkiy munosabatlar." Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
4. Toshmatov, F. Yu. "Raqamli huquqlar va mulkning himoyasi." Yuridik fanlar jurnali, №2, 2023.
5. Tapscott, Don & Tapscott, Alex. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin and Other Cryptocurrencies is Changing the World. Penguin Books, 2016.
6. Zubair, Umar. "The Legal Status of NFTs and Virtual Assets in Property Law." Journal of Digital Law, vol. 3, no. 1, 2022,
7. Raskin, Max. "The Law and Legality of Smart Contracts." Georgetown Law Technology Review, vol. 1, no. 2, 2017.
8. European Parliament and Council. General Data Protection Regulation (GDPR), 2016.

9. Werbach, Kevin & Cornell, Nicolas. "Contracts Ex Machina." Duke Law Journal, vol. 67, no. 2, 2017.
10. <https://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.
11. <https://constitution.uz> – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi rasmiy portali.
12. <https://cyberlex.uz> – Raqamli huquq va axborot xavfsizligiga oid portal.
13. <https://www.researchgate.net> – Ilmiy maqolalar almashish platformasi.

“INSON” IJTIMOY XIZMATLAR MARKAZLARI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI: IJTIMOY XIZMATLARNING SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

Eraliyeva Malika

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

E-mail: malikaeraliyeva527@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda uning tuman (shahar)dagi “Inson” ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlarining vazifa va funksiyalari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. “Inson” ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlarining aholi bilan ishlashining zamonaviy mexanizmlari, ijtimoiy xodimlarning vazifa va yo'nalishlari, mavjud muammolar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy xodim, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy yordam, davlat organlari, mansabdor shaxslar, xorij tajribasi, nodavlat-notijorat tashkilotlari.

LEGAL FRAMEWORK OF “INSON” SOCIAL SERVICE CENTERS: WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF SOCIAL SERVICES

Eraliyeva Malika

Tashkent State University of Law

Master's Student

Abstract. This article provides a legal analysis of the powers and functions of the National Agency for Social Protection under the President of the Republic of Uzbekistan, which is the state authority specially authorized to provide social assistance and services, and the district (city) “Inson” social service centers operating under its structure. It examines the modern mechanisms of interaction between the “Inson” social service centers and the population, the roles and responsibilities of social workers, current challenges in the field, and proposed solutions.

Key words: Social worker, social services, social assistance, state authorities, officials, international experience, non-governmental non-profit organizations.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-19>

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning ma'lumotlariga ko'ra, jahonda hozirgi kunda 8 milliarddan ortiq aholi istiqomat qilsa, shundan 4,9 % ini ishsizlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, 160 million bola mehnat qurboni bo'lib, ushbu ko'rsatkich dunyo bo'ylab har 10 ta boladan 1 tasini tashkil etadi. Zamonaviy qullik qurbonlarining har 4 nafardan biri bolalardir. Ayollar erkaklarga qaraganda 23 % ga kam maosh oladi. Yuz millionlab odamlar teri rangi, millati yoki ijtimoiy kelib chiqishi, dini yoki siyosiy e'tiqodi, yoshi, nogironligi tufayli mehnat dunyosida kamsitishlardan aziyat chekmoqda¹.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2024-yil 20-fevralda bo'lib o'tgan videoselektorda “Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi. Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta'minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag'ishlashimiz kerak”, – degan so'zlarni ilgari surgan edi².

¹ Fundamental Principles and Rights at work Branch (Fundamentals)

<https://www.ilo.org/global/about-the-ilo/how-the-ilo-works/organigramme/governance/fprw/lang-en/index.htm>

² <https://president.uz/oz/lists/view/7041>

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadidayoq hududlardagi ijtimoiy muammolarni joyida hal etish uchun mahallalar vakolatlarini kengaytirish, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish belgilab olingan. Aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish deb nomlangan 53-maqsadida Aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash darajasini 60 foiz etib belgilangan. 66-maqsadida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish belgilangan. 69-maqsadida esa Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash ilgari surilgan¹.

Yuqorida aytilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning tuman (shahar) lardagi "Inson" ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 539-sonli qaroriga muvofiq, quyidagi tartib bosqichma-bosqich joriy etib kelinmoqda:

- o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bir yilda kamida bir marotaba tuman tibbiyot birlashmasi bilan kelishilgan holda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi;

- ijtimoiy xodim assistenti tomonidan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga maishiy xizmat ko'rsatish holati ijtimoiy xodimlar tomonidan monitoring qilinadi;

- vasiylikka, homiylikka, oilaga tarbiyaga (patronat) hamda oilaviy bolalar uyiga berilgan bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi, ularning turmush sharoitlari hamda tarbiyalanishi ijtimoiy xodimlar tomonidan monitoring qilinadi;

- bolaning qonuniy vakillari tomonidan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning xulosasini olish bo'yicha arizalar o'zlarining yashash joyidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga yoki hududga biriktirilgan ijtimoiy xodimlarga taqdim etiladi;

- Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo'yicha respublika markazi va uning hududiy bo'linmalarida yordam ko'rsatilgan hamda himoya orderi berilgan shaxslar ijtimoiy xodimlar tomonidan olti oy davomida xonadoniga tashrif buyurish orqali sayyor monitoring qilinadi;

ijtimoiy xodimlar tomonidan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berilishi hamda o'zining hududida joylashgan umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilganligi holatlari monitoring qilinadi;

ijtimoiy xodimlarga fuqarolardan kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam tayinlash bo'yicha arizalarni qabul qilish vakolati beriladi;

¹ "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 28.01.2022 yil. PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari ish o'rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etishdan oldin ushbu buyurtmalar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari bilan majburiy tartibda kelishiladi va shu kabilardir.

Bugungi kunda ijtimoiy xodimlar xonadonma-xonadon yurib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining muammolarini o'rganib, tegishli keys-menejmentni ishlab chiqishlari natijasida shu yo'nalishga mas'ul xodimlar tomonidan ushbu toifadagi aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatib kelinmoqda. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazida psixolog, yuristlar uchun alohida shtatlar ajratilib, yordamga muhtoj oilalarga psixologik va huquqiy yordamlar ko'rsatib kelinmoqda. Ammo har bitta tumanga psixologlar uchun faqatgina bitta shtatning ajratilishi, ularning ish yuklamasi ko'p ekanligini hisobga olsak, ular tumandagi barcha psixologik yordamga muhtoj fuqarolar bilan vaqt energiya masalasi nuqtayi nazaridan doimiy ishlay olmaydi. Shu tufayli, psixologlar shtatini aholi soniga mutanosib ravishda oshirish kerak degan taklifni ilgari suramiz.

Yuqorida ijtimoiy xodimlarning faoliyati haqida qisqacha ma'lumot berib o'tdik. Ushbu xodimlar nafaqat huquqiy, balki psixologik bilimlarga, "soft skills" ko'nikmalariga ham ega bo'lishlari lozim. Shu sababli ushbu xodimlarga ishga qabul qilishda ham aniq talablar ishlab chiqilishi va qonunchiligimizda o'z aksini topishi kerak degan taklifni ilgari surishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlari bugungi kunda aholini qiynab kelayotgan har qanday ijtimoiy masalalarni bevosita hal qilib beruvchi organ hisoblanadi. Qolaversa, yordamga muhtoj fuqarolar o'zlari murojaat qilmasalar ham ijtimoiy xodimlar o'z tashabbuslari bilan ularni qiynab kelayotgan masalalarni o'rganib chiqib, "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlariga tizim orqali xabar qilishi va kerakli yordam choralari ko'rishlari mumkin. Shu va shu kabi imkoniyatlarning barchasi fuqarolarning jamiyatdagi tengligini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy hayotda huquqlaridan to'la-to'kis foydalanishlariga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 319-sonli qarori. 28.09.2023. <https://lex.uz/ru/docs/-6624639>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 539-sonli qarori. 14.10.2023. <https://lex.uz/docs/-6636282#-6636469>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Temir daftar" orqali ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 313-sonli qarori. 31.05.2024. <https://lex.uz/docs/-6973951>

ПОНЯТИЕ, ПРИНЦИПЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНОСТРАННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Самигжонова Зилола,
Магистр Ташкентского государственного
юридического университета
Ташкент, Узбекистан
E-mail: nigmatullayevazilola75@gmail.com
Тел: +998 93 516 70 76

Аннотация. статья посвящена анализу финансирования деятельности иностранных предприятий, с акцентом на их роль в экономике Узбекистана. Рассматриваются понятие, принципы и классификация видов финансирования, включая внутренние (чистая прибыль, фонды, амортизация) и внешние (государственное финансирование, банковское кредитование, благотворительность) источники. Особое внимание уделяется юридическим и экономическим аспектам, связанным с привлечением капитала иностранными компаниями, а также принципам целевого использования, экономии и финансовой дисциплины. На примере кофейни иллюстрируется практическое применение различных видов финансирования. Статья подчеркивает важность выбора оптимальных финансовых стратегий для минимизации рисков и успешного развития бизнеса в условиях рыночной экономики.

Ключевые слова: финансирование, иностранные предприятия, экономика Узбекистана, внутреннее финансирование, внешнее финансирование, чистая прибыль, амортизация, государственное финансирование, банковское кредитование.

CONCEPT, PRINCIPLES AND CLASSIFICATION OF TYPES OF FINANCING OF FOREIGN ENTERPRISES' ACTIVITIES

Samigjonova Zilola,
Master's degree of Tashkent State
University of law,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The article is devoted to analysing the financing of foreign enterprises, with a focus on their role in the economy of Uzbekistan. The concept, principles and classification of types of financing, including internal (net profit, funds, amortisation) and external (state financing, bank loans, charity) sources are considered. Special attention is paid to legal and economic aspects related to raising capital by foreign companies, as well as to the principles of targeted use, economy and financial discipline. The practical application of different types of financing is illustrated on the example of a coffee shop. The article emphasises the importance of choosing optimal financial strategies to minimise risks and successfully develop business in a market economy.

Key words: financing, foreign enterprises, economy of Uzbekistan, internal financing, external financing, net profit, amortisation, state financing, bank lending.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-20>

Сегодня иностранные компании играют важную роль в развитии экономики многих стран, в том числе и Узбекистана. Они открывают новые рабочие места, внедряют современные технологии и способствуют увеличению товарооборота. Однако для того чтобы вести бизнес, любой компании нужны деньги - будь то для запуска проекта, покупки оборудования или расширения своей деятельности.

Когда речь идёт об иностранных компаниях, к вопросу финансирования подключаются и юридические аспекты. Ведь такие предприятия работают в другой стране и должны соблюдать местные законы. Именно поэтому важно понимать, что такое финансирование, по каким принципам оно строится, и какие его виды бывают — особенно если компания хочет избежать рисков и успешно вести бизнес за рубежом.

Стоит отметить, что предпринимательскую деятельность невозможно развивать без достаточных финансовых ресурсов. Финансирование обеспечивает стабильную работу предприятий, реализацию инвестиций, внедрение инноваций и расширение производства. В рыночной экономике предприниматели должны выбирать оптимальные источники и формы финансирования, что требует глубокого понимания этого процесса.

Современные подходы к финансированию бизнеса включают разнообразные инструменты и источники, каждый из которых имеет свои плюсы, минусы и особенности. Понимание принципов и классификаций видов финансирования помогает предпринимателям эффективно формировать финансовую стратегию и снижать риски, связанные с привлечением капитала.

В этой работе мы рассмотрим, понятие, принципы и классификация видов финансирования деятельность иностранных предприятий.

Сперва определим понятию финансирование деятельность иностранных предприятий. Это процесс обеспечения субъектов бизнеса денежными средствами для реализации их уставных целей, включая создание, развитие и поддержание хозяйственной деятельности. Оно охватывает привлечение, распределение и использование капитала через различные источники и методы.

По мнению Адик Ли, в научной и учебной литературе есть отдельного понятия «финансирование предпринимательской деятельности» наряду с общим понятием «финансирование». Определение финансирования предпринимательской деятельности как «безвозмездного и безвозвратного предоставления денежных средств в различных формах» некорректно, поскольку такие средства не являются единственным источником финансирования предпринимательства [1].

Финансирование предпринимательских субъектов, независимо от источников средств, осуществляется на основе принципов, схожих с принципами бюджетного финансирования государственных предприятий материального производства, обладающих экономической и финансовой самостоятельностью. К этим принципам относятся: целевое использование бюджетных и собственных средств, финансирование в зависимости от выполнения плановых мероприятий, соблюдение режима экономии и ответственность за финансовую дисциплину [2].

Принцип целевого финансирования подразумевает, что бюджетные и собственные средства используются предпринимательским субъектом исключительно на мероприятия, предусмотренные планово-финансовыми документами, такими как бизнес-планы.

Безвозвратность бюджетного финансирования означает отсутствие необходимости возврата выделенных средств, в отличие от кредитного метода, при

котором заемные средства подлежат возврату в установленные сроки с уплатой процентов.

Финансирование в зависимости от выполнения плановых мероприятий предусматривает выделение бюджетных средств только при достижении производственных показателей, указанных в бизнес-планах.

Принцип экономного использования бюджетных средств обусловлен сложностями в формировании доходной части бюджета и его дефицитом, что требует от субъектов предпринимательства бережного расходования выделенных средств, исключения их нерационального использования, а также поиска внутренних возможностей для оптимизации и сокращения затрат.

Принцип ответственности за финансовую дисциплину предполагает применение юридических мер к лицам, нарушающим порядок использования выделенных средств, в соответствии с действующим законодательством.

Финансирование предпринимательской деятельности делится на внутреннее и внешнее в зависимости от источников денежных средств [3].

Внутреннее финансирование (самофинансирование) включает:

1. Чистая прибыль.
2. Фонды, сформированные из чистой прибыли:
 - I. Резервный фонд.
 - II. Фонд накопления.
 - III. Фонд потребления.
3. Амортизация основных фондов и нематериальных активов.

Внешнее финансирование подразделяется на:

1. Государственное финансирование.
2. Банковское кредитование.
3. Благотворительность и безвозмездная помощь.

Внутреннее финансирование (деньги изнутри бизнеса) - это когда бизнес использует свои собственные ресурсы — то, что он уже заработал или накопил.

Чистая прибыль - это деньги, которые остаются у компании после того, как она заплатит все налоги и расходы. Данный прибыль можно вложить обратно в развитие бизнеса.

Фонды, сформированные из чистой прибыли. Бизнес может «откладывать» часть прибыли в разные копилки (фонды) на разные цели:

- резервный фонд — запас на чёрный день, если случится кризис или убытки;
- фонд накопления — деньги на расширение, покупку оборудования и развитие;
- фонд потребления — на бонусы сотрудникам, соцпакеты или мероприятия.

Амортизация - это когда компания постепенно списывает стоимость оборудования или зданий по мере их износа. Эти списанные деньги остаются в бизнесе, и их тоже можно использовать для новых вложений.

Согласно налоговому законодательству Узбекистана, основным средством для целей налогообложения считается имущество стоимостью свыше пятидесятикратного размера базовой расчетной величины, установленной в стране на момент признания, за единицу (комплект). Оно должно принадлежать налогоплательщику на праве

собственности (с некоторыми исключениями) и использоваться в производстве товаров, оказании услуг или для административно-управленческих целей более 12 месяцев. Налогоплательщик может установить в учетной политике меньший порог стоимости для учета имущества как основного средства (ст. 306 НК) .

Стоимость амортизируемого актива списывается на расходы через амортизационные отчисления, рассчитываемые от первоначальной стоимости без учета переоценки, если Налоговым кодексом не предусмотрено иное.

Внешнее финансирование (деньги извне) - это когда деньги приходят в бизнес от других людей, организаций или государства.

Государственное финансирование - это помощь от государства: гранты, субсидии, льготы или госпрограммы поддержки малого и среднего бизнеса.

Банковское кредитование - это когда бизнес берёт деньги в долг у банка и потом возвращает их с процентами.

Благотворительность и безвозмездная помощь - это деньги, которые дают бесплатно, не требуя возврата — от фондов, меценатов, спонсоров или других компаний.

Стоит привести пример классификации видам финансирования предпринимательской деятельности. Мы посмотрим на примере кофейню.

Таблица 1.

Классификация	Вид финансирования	Пример для кофейни
По источнику происхождения	Внутреннее	Владелец вкладывает собственные накопления или прибыль от другого бизнеса.
	Внешнее	Получение кредита в банке, привлечение инвестора или субсидии от государства.
По форме привлечения	Долевое	Привлечение партнёра, который вкладывает деньги и получает долю в бизнесе.
	Долговое	Заём в банке под определённый процент.
По срокам использования	Краткосрочное	Овердрафт или кредит на закупку ингредиентов перед праздниками.
	Среднесрочное	Кредит на 2 года для ремонта помещения и покупки оборудования.
	Долгосрочное	Инвестиции в открытие сети кофеен — 5+ лет окупаемости.
По характеру использования	Целевое	Грант на развитие малого бизнеса в сфере общественного питания.

Классификация	Вид финансирования	Пример для кофейни
	Нецелевое	Собственные средства владельца — могут тратиться на любые нужды бизнеса.

Таким образом можно сказать, что финансирование иностранных предприятий в Узбекистане играет важную роль в их развитии. Средства могут поступать из собственных источников, банковских кредитов, инвестиций или грантов. Согласно Закону Узбекистана «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» (№ 598 от 25.12.2019), все финансовые операции должны быть законными, прозрачными и направленными на достижение целей бизнеса. Основные принципы — это эффективность, минимизация рисков и соблюдение законодательства. Финансирование можно разделить по типам: внутреннее или внешнее, краткосрочное или долгосрочное, для расширения или текущих нужд.

Для успешной работы иностранным компаниям нужно тщательно выбирать способы финансирования, учитывая законы Узбекистана и ситуацию на рынке. Это обеспечивает их рост и устойчивость.

Adabiyotlar/Literatupa/References:

1. Ли А. Проблемы финансово-правового регулирования предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан: монография. - Т.: Издательство Lesson Press, 2023. - С. 12.
2. Проняева Л.И., Щеголев А.В., & Давыдкин И.Г. (2022). Финансовое обеспечение деятельности субъектов малого предпринимательства. Вестник Академии знаний, (6 (53)), 369-375.
3. Полтева Татьяна Владимировна, & Курилов Кирилл Юрьевич (2018). Анализ источников финансирования деятельности компании. Карельский научный журнал, 7 (4 (25)), 101-105.
4. Налоговый кодекс Республики Узбекистан от 01.01.2020 // Национальная база данных законодательства, 31.12.2019 г., № 02/19/НК/4256; 19.02.2025 г., № 03/25/1031/0160.

VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI G'AYRIIJTIMOIY XATTI-HARAKATLARGA JALB ETGANLIK HOLATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA AMALIYOTDA YUZAGA KELAYOTGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Asqarov Nodirbek Farxod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

kadrlarining amaldagi zahirasiidagi xodim

E-mail: nodirbekasqarov2610@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik uchun belgilab qo'yilgan javobgarlik normalari hamda amaliyotda ularni qo'llash bilan bog'liq yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari nazarda tutilgan masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etishning ayrim jihatlari tadqiq etgan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmagan shaxs, bola, shaxs, guruh, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, milliy qonunchilik, malakalash, kvalifikatsiya qilish, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jinoyat, jazo, jinoyatga jalb qilish, javobgarlik

CERTAIN ISSUES ARISING IN PRACTICE WHEN QUALIFYING CASES OF INVOLVING MINORS IN ANTISOCIAL BEHAVIOR AND THEIR SOLUTIONS

Askarov Nodirbek Farkhod o'gli

The personnel reserve of the

MIA of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the provisions of the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan regarding the liability established for involving minors in antisocial behavior, as well as the practical problems arising from the application of these norms and possible solutions. In addition, the article analyzes the opinions and views of scholars who have studied certain aspects of involving minors in antisocial behavior.

Keywords: Minor, child, person, group, antisocial behavior, national legislation, qualification, to qualify, accused, defendant, crime, punishment, involvement in crime, responsibility.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-21>

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida voyaga yetmagan shaxslarni turli ko'rinishdagi g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish holatlari nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida ham jiddiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, internet orqali ta'sir o'tkazish vositalarining ko'payishi, oilaviy nazoratning susayishi va ijtimoiy muhitning o'zgarishi natijasida yoshlar o'rtasida deviant va delinkvent xulq-atvor holatlari ko'paymoqda. Bu esa o'z navbatida jinoyatchilikning yangi shakllarini keltirib chiqarib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda.

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish bilan bog'liq jinoyatlarini malakalash (kvalifikatsiya qilish) borasida amaliyotda kuzatilayotgan ayrim muammolar tahlil etiladi, jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan dolzarb yondashuvlar yoritiladi. Shu bilan birga, milliy va xalqaro qonunchilikdagi turfa tajribalar

taqqoslanib, huquqni qo'llash amaliyotida aniqlik va bir xillikni ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Ushbu tadqiqot mavzusining muhimligi voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy himoyasini mustahkamlash, ularni jinoiy ta'sirlardan asrash hamda jinoyat huquqining samarali qo'llanishini ta'minlashga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Milliy qonunchiligimizda voyaga yetmagan shaxslarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etganlik uchun Jinoyat kodeksining 127-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur moddaning 2-qismida voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Mazkur moddaning 2-qismida qayd etilgan jinoiy qilmishning obyektiv tomoni katta yoshli shaxs tomonidan voyaga yetmagan shaxsni turli yo'llar (masalan, avrash, mehmon qilish, aldash va shunga o'xshash boshqa usullar) orqali giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni iste'mol qilishga jalb etishdan iboratdir.

Mazkur jinoyatning obyekti voyaga yetmagan shaxsning jismoniy va axloqiy rivojlanishi, uning sog'ligi, shuningdek, jamiyat xavfsizligi hamda ijtimoiy tartib-qoidalarga qarshi qaratilgan harakatlar hisoblanadi.

JK 127-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan qilmish obektiv tomoni jismonan va ruhan shakllanib ulgurmagan voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilishga qaratilgan harakatlarda ifodalanadi.

Ushbu moddaning 3-qismida "Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

- a) ilgari giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- b) ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- v) o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi –

bash yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi." [1] deb belgilab qo'yilgan.

Mazkur qoidadan shuni anglash mumkinki, JKning 127-moddasi 3-qismi "a", "b", "v" bandlarida belgilangan holatlar ushbu moddaning 2-qismida nazarda tutilgan harakatlar uchun ya'ni voyaga yetmagan shaxsni giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish uchungina taalluqli hisoblanadi.

JKning 127-moddasi 3-qismida voyaga yetmagan shaxsni jinoyat qilishga jalb etish, shuningdek voyaga yetmagan shaxsni Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish bo'yicha harakatlar:

- ilgari Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy ravishda muomalaga chiqarish bilan bog'liq har qanday jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;
- ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;
- o'quv yurtlarida yoki o'quvchilar, talabalar o'quv-tarbiya, sport yoki jamoat tadbirlari o'tkazadigan boshqa joylarda sodir etilishi uchun javobgarlik nazarda tutilgan. [2]

Aybdor ikki yoki undan ortiq shaxsning 18 yoshga to'lmaganligini oldindan bilgan va u tomonidan sodir etilayotgan qilmish yagona qasd bilan qamrab olingan bo'lsagina, aybdorning

qilmishi Jinoyat kodeksi 127-moddasining 3-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Agar aybdor ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar iste'mol etishga jalb qilish niyatida bo'lib, ammo unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, u jinoiy niyatini oxiriga yetkaza olmagan hollarda (xususan, bittasiga giyohvandlik vositasini iste'mol qildirishga ulgurgan, ikkinchisiga esa ulgurmagan), uning qilmishi Jinoyat kodeksi 25-moddasining 2-qismi, 127-moddasining 3-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi.[3]

Qonunchilikda aniq belgilab qo'yilganiga qaramasdan, kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, sud-tergov amaliyotida mazkur turdagi sodir qilinadigan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

Misol sifatida oladigan bo'lsak, 2023-yilda fuqaro A voyaga yetmagan B, V va G.lar bilan bir guruh bo'lib, oldindan til biriktirib, o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishgan. Dastlabki tergov organi tomonidan fuqaro A.ning jinoiy harakatlari O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 2-qismi "b,v" bandi, 127-moddasining 3-qismi "b" bandi, ya'ni *"shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan"* jinoyat belgilari bilan kvalifikatsiya qilingan.

Sud tomonidan ayblanuvchi A.ning jinoiy harakatlari dastlabki tergov organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi JK 127-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan to'g'ri malakalangan deb hisoblanib, yuqoridagi holat bo'yicha ayblanuvchi A. JKning 169-moddasi 2-qismi "b,v" bandi, 127-moddasi "b" bandi bilan aybli deb topilib, ayblov hukmi o'qilgan va unga nisbatan 3 yil 6 oy muddatga ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo chorasi qo'llanilgan.[4]

Bundan tashqari, yana boshqa bir holatda 2024-yilda fuqaro A. voyaga yetmagan B. va V.lar bilan bir guruh bo'lib, oldindan til biriktirib, o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishgan. Dastlabki tergov organi fuqaro A.ning jinoiy harakatlarini O'zbekiston Respublikasi JK 169-moddasi 2-qismi "v,g" bandi, 127-moddasining 3-qismi "b" bandi, ya'ni *"shuningdek ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxsga nisbatan"* jinoyat belgilari bilan kvalifikatsiya qilgan.

Sud tomonidan ayblanuvchi A.ning jinoiy harakatlari dastlabki tergov organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi JK 127-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan to'g'ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblanib, yuqoridagi holat bo'yicha ayblanuvchi A. JKning 169-moddasi 2-qismi "v,g" bandi, 127-moddasi "b" bandi bilan aybli deb topilib, ayblov hukmi o'qilgan va unga nisbatan 5 yil 2 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo chorasi qo'llanilgan.[5]

JKning 127-moddasi 3-qismida voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir qilishga jalb etish uchun javobgarlik mavjud, biroq ushbu moddada ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat sodir qilishga jalb etganlik uchun javobgarlik belgilanmagan, bu kabi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarni harakatlarini kvalifikatsiya qiluvchi asoslar mavjud emas.

Bu esa o'z navbatida JKning 127-moddasi 3-qismi va undagi bandlari dastlabki tergov va sud organlari tomonidan yuqoridagi misollarda keltirilgan holatlardagi kabi noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi amaliyotining shakllanishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning katta qismi o'zlarining ish amaliyotlari davomida ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir qilishga jalb etilganda

ularni jalb qilgan katta yoshli shaxslarning harakatlarini JKning 127-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan malakalashlari haqida ma'lum qilishgan.

Shu bilan birgalikda, jinoyat ishlari tahlil qilinganda, mamlakatimizning ayrim viloyatlarida 2 yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir qilishga jalb etilganlarida dastlabki tergov organlari tomonidan jalb qiluvchi katta yoshli shaxslarning harakatlari O'zR JKning 127-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan kvalifikatsiya qilinayotgani, sudlar tomonidan esa ushbu holatlar JKning 127-moddasi 3-qismiga qayta malakalanib, ayblov hukmi chiqarilayotganligiga guvoh bo'ldik.

Misol uchun, 2024-yilning dekabr oyida jinoyat ishlari bo'yicha Pastdarg'om tumani sudida ko'rilgan jinoyat ishida sudlanuvchi A. 2 nafar voyaga yetmagan shaxslarni o'g'irlik jinoyati sodir qilishga jalb etgani uchun dastlabki tergov organi tomonidan uning harakatlari O'zR JKning 127-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan malakalangan, biroq sud tomonidan ushbu ayblov JKning 127-moddasi 3-qismiga o'zgartirilgan va mazkur modda bilan A.ga nisbatan ayblov hukmi chiqarilgan.[6]

Biroq, bizning fikrimizcha shu va boshqa shu kabi ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxslar jinoyat sodir qilishga jalb etilganida aybdor shaxslarning harakatlari JKning 127-moddasi 3-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishini ham xato deb hisoblaymiz, sababi moddaning ushbu qismida faqatgina bir nafar voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir qilishga jalb etish holati nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksi misolida tahlil qilinganda 97-modda 2-qismi "a" bandi, 104-modda 3-qismi "a" bandi, 105-moddasi 2-qismi "a" bandi, 111-moddasi 3-qismi, 113-moddasi 3-qismi "a" bandi, 118-moddasi 2-qismi "a" bandi, 119-moddasi 2-qismi "a" bandi, 126¹-moddasi 5-qismi "a" bandi, 8-qismi "a" bandi, 129-moddasi 2-qismi "b" bandi, 135-moddasi 2-qismi "b" bandi, 235-moddasi 2-qismi "ye" bandi, 245-moddasi 2-qismi "b" bandi, 274-moddasi 4-qismi "v" bandi, 297-moddasi 2-qismi "a" bandida nazarda tutilgan jinoyatlarning barchasi moddaning og'irlashtiruvchi holatlarini o'zida aks ettirib, unga ko'ra mazkur ijtimoiy xavfli qilmishlar ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etilganligi uchun og'irroq javobgarlik belgilab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga "Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir qilishga jalb etish" deb nomlangan ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab bir necha qismlar va bandlardan iborat bo'lgan alohida yangi 127²-moddasini kiritish, unda og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida ikki yoki undan ortiq voyaga yetmagan shaxslarni jinoyat sodir qilishga jalb etganlik uchun javobgarlik mezonlarni belgilab qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar JK tegishli moddalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilib, quyidagilarni aniqladik. Jumladan, Ozarbayjon Respublikasi JK 170-modda[7], Armaniston Respublikasi JK 165-modda[8], Qozog'iston Respublikasi JK 131-modda[9], Qirg'iziston Respublikasi JK 156-modda[10], Moldova Respublikasi JK 208-modda[11], Belarus Respublikasi JK 172-modda[12], Rossiya Federatsiyasi JK 150-modda[13], Tojikiston Respublikasi JK 165-modda[14], Turkmaniston Respublikasi JK 155-moddalarida[15] voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga yoxud jinoiy faoliyatga jalb qilish alohida jinoyat tarkibi sifatida nazarda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ko'pgina davlatlarning qonunchiligida voyaga yetmagan shaxslarni jinoiy faoliyatga jalb qilish bilan bog'liq javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar

belgilab qo'yilgan. Bunday holatlarga, masalan, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali jinoyat sodir etishga jalb qilish, ushbu qilmish voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi, ularning o'rnidagi shaxslar, pedagoglar yoki tarbiya vazifasi yuklatilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilganda, voyaga yetmagan shaxsni og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatga, shuningdek uyushgan jinoiy guruh yoki jinoiy uyushma tarkibiga jalb etilgandagi holatlar kiradi.

Aksariyat hollarda bu norma va mexanizmlar o'xshash tahrirda qabul qilingan bo'lib, ularning ko'pchiligida Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 150-moddasi asos bo'lib xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga "Voyaga yetmagan shaxsni jinoyat sodir qilishga jalb etish" deb nomlangan yuqorida bayon qilingan mezonlar asosida og'irlashtiruvchi holatlarni o'zida aks ettirgan bir nechta qism va bamlardan iborat bo'lgan yangi 127²-moddasini kiritish va amaliyotga tatbiq qilish orqali ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarning harakatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilish, jazo tayinlash hamda javobgarlikni belgilashda aniqlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <http://lex.uz//docs/-111453> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
2. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – Б. 161-162.
3. Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган иккинчи нашри / Ш.Т.Икрамов, Р.Кабулов, А.Отажонов ва бошқ; Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – 166 б.
4. Жиноят ишлари бўйича Жиззах шаҳар судининг архив материалларидан. – Жиззах., 2023 йил.
5. Жиноят ишлари бўйича Пахтачи туман судининг архив материалларидан. – Пахтачи., 2024 йил.
6. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
7. Новый Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. – Баку: Digesta, 2020.
8. Уголовный кодекс Республики Армения. - Ереван. Офиц. издание. 2019.
9. Уголовный кодекс Республики Казахстан – общая характеристика (в сравнении с УК Казахской ССР): Практическое пособие. – Алматы: Баспа, 2019.
10. Уголовный кодекс Республики Кыргызстан. Официальное издание. – Бишкек, 2019.
11. Уголовный кодекс Республики Молдова / Вступительная статья к.ю.н. А.И. Лукашова – СПб.: Юридический центр Пресс, 2019.
12. Уголовный кодекс Республики Беларусь. Принят Палатой представителей 1 июня 1999 года. Одобрен Советом Республики 24 июня 1999 года / Обзорная статья А.В. Баркова. – Минск: Амалфея, 2018.
13. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации / Отв. ред. В.М. Лебедев – М.: Юрайт-М, 2001.
14. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. Официальный текст. – Душанбе: «Конуният», 2018
15. Уголовный кодекс Республики Туркменистан. – Ашгабат: Амалея, 2022.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Тураев Абдуазим Жасурович

Магистрант Ташкентского Государственного

Юридического Университета

E-mail: abduazimturaev0202@gmail.com

Аннотация. Пенитенциарная система Республики Узбекистан в последние годы переживает этап глубоких преобразований, которые направлены на гуманизацию уголовной политики, улучшение условий содержания осужденных и снижение уровня рецидивной преступности. Предметом настоящего исследования являются современные проблемы и перспективы функционирования системы исполнения наказаний в нашей стране. Целью работы является всесторонний анализ состояния пенитенциарной системы, оценка проведенных реформ с точки зрения международных стандартов и разработка практических рекомендаций по ее совершенствованию. Актуальность исследования определяется необходимостью адаптации уголовно-исполнительной политики к требованиям правового государства и соблюдения прав человека. Методологическую основу составляют сравнительно-правовой, нормативный и статистический методы. В результате исследования выявлены достижения реформ, такие как, отмена смертной казни, ликвидация колонии «Жаслык», внедрение института пробации. Полученные выводы и предложения могут быть использованы при разработке новых программ и законодательных инициатив в сфере уголовно-исполнительной политики, в деятельности соответствующих государственных органов и научных учреждений. Сделан вывод о необходимости комплексного подхода к реформированию пенитенциарной системы на основе принципов гуманности, открытости и устойчивости.

Ключевые слова: пенитенциарная система, ресоциализация, пробация, реформы, права осужденных, рецидивизм, гуманизация наказаний, международные стандарты, альтернативные меры наказания, адаптация, тюремное население, условия содержания.

ISSUES OF IMPROVING THE PENITENTIARY SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Turaev Abduazim Jasurovich

Master's student at Tashkent

State University of Law

Abstract. In recent years, the penitentiary system of the Republic of Uzbekistan has undergone profound transformations aimed at humanizing criminal policy, improving the conditions of detention for convicts, and reducing the rate of recidivism. The subject of this study is the current issues and prospects of the functioning of the penal enforcement system in our country. The purpose of the work is to conduct a comprehensive analysis of the state of the penitentiary system, assess the reforms carried out in the context of international standards, and develop practical recommendations for its improvement. The relevance of the research is determined by the necessity to adapt penal policy to the requirements of the rule of law and the protection of human rights. The methodological basis includes comparative legal, normative, and statistical methods. As a result of the study, the achievements of the reforms were identified, such as the abolition of the death penalty, the closure of the "Jaslyk" colony, and the introduction of the probation system. The findings and recommendations may be used in the development of new programs and legislative initiatives in the field of penal policy, as well as in the activities of relevant state bodies and academic institutions. The study concludes with an emphasis on the need for a comprehensive approach to penitentiary reform based on the principles of humanism, transparency, and sustainability.

Keywords: penitentiary system, resocialization, probation, reforms, rights of convicts, recidivism, humanization of punishment, international standards, alternative measures of punishment, adaptation, prison population, conditions of detention.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-22>

1. Введение

3. Алексеев С.С. Современное гражданское право - знак и ключевое звено новой эпохи // Проблемы развития частного права: Сборник статей к юбилею Владимира Саурсеевича Ема / Под ред. Е.А. Суханова, Н.В. Козловой. - М., 2011. – С. 212.
4. Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истиқболлари. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. -157 б.

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLAT SIFATIDA – KAM AHAMIYATLI QILMISHLARNING HUQUQIY TAHLILI

Qilichev Nosirbek Jasur o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlarning huquqiy tahlili milliy qonunchilik hamda bir qator olimlarning fikrlari asosida amalga oshiriladi, uning mazmun-mohiyati yoritib beriladi. Kam ahamiyatli qilmishlarning jinoyatga suiqasd sifatida baholanadigan qilmishlardan farqli jihatlari huquqshunos olimlarning doktrinal qarashlari asosida, misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: jinoyat, qilmishni jinoiyligini istisno qilish, kam ahamiyatli qilmish, jinoyatga suiqasd, ijtimoiy xavflilik, zarar.

LEGAL ASSESSMENT OF INSIGNIFICANT ACTS AS CIRCUMSTANCES EXCLUDING CRIMINALITY OF THE ACT

Qilichev Nosirbek Jasur ugli

Master's Student of Tashkent State University of Law

Abstract. This thesis provides a legal analysis of minor offenses as circumstances excluding the criminality of an act, based on national legislation and the views of several legal scholars. It explores the essence and legal nature of such acts. The distinguishing features of minor offenses compared to acts classified as attempted crimes are analyzed through doctrinal perspectives of legal scholars and illustrated with relevant examples.

Keywords: crime, exclusion of criminality of the act, minor offense, attempted crime, social danger, harm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-36>

Kirish. Inson hayotida ba'zida shunday qilmishlar bo'ladiki, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyatning barcha belgilari formal jihatdan mavjud bo'lsa xam, o'zining kam ahamiyatli ekanligi, ya'ni jabrlanuvchi uchun qilmish natijasida yetkazilgan zararining deyarli ahamiyati bo'lmaydi. Masalan, birovning oddiy ruchkasini o'g'irlash, bog'idan bir-ikki kilogramm nok o'g'irlash va hokazo.

Kam ahamiyatli qilmishlar qilmishlar 1959-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida to'g'ridan to'g'ri qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tizimiga kiritilmagan edi. Faqatgina 7-moddaning ikkinchi qismida kam ahamiyatli qilmish jinoyat hisoblanmasli belgilab qo'yilgan edi [5; 342-b.]

Materiallar va metodlar. Mazkur tezisdagi analiz, sintez, tarixiy-huquqiy metod, induksiya, deduksiya metodlaridan foydalanilgan hamda milliy va xorijiy olimlarning fikr va mulohazalari tahlili amalga oshirilgan,

Muhokama va natijalar. Jinoyat huquqi nazariyasida qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar masalasi juda murakkab va muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 35-moddasiga ko'ra kam ahamiyatli qilmishlar qilmishni jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar jumlasiga kiradi. JKning 36-moddasiga ko'ra " garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlarini mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatliliigi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi". Aynan mana

shu moddada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining insonparvarlik prinsipi yaqqol namoyon bo'ladi.

Kam ahamiyatlilik — bu jinoyatning majburiy belgilaridan biri bo'lgan ijtimoiy xavflilikning mavjud emasligini bildiradi. Bunda sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tashqi jihatdan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi alomatlariga ega bo'lishiga qaramay, u ijtimoiy xavf tug'dirmaydi. Qilmishni jinoyat deb topishning to'rt belgisidan biri ijtimoiy xavflilik bo'lib, uning mavjud emasligi qilmishni jinoyatligini istisno qiladi.

X.R.Ochilovning fikricha "Qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun obyektiv va subyektiv mezonlari mavjud. Obyektiv mezon – shaxs sodir etilgan qilmishning tashqi tomonini ifodalab, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyektga amalda yetkazilgan zarar miqdorini ifodalaydi. Subyektiv mezon – shaxsning maqsadi yo'naltirilgan zarar darajasini ifodalaydi" [6; 85-b.]

M.X.Rustambayevning fikricha "Jinoyat tarkibining moddiy belgisi jihatidan kam ahamiyatli qilmish uni jinoyat deb tan olish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy xavf darajasiga yetmaydi. Bunday qilmish yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilmaydi, qo'zg'atilgan jinoyat ishi esa JK 36-moddasiga tayangan holda JPK 83-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq tugatilishi lozim" [4; 336-337-b.]

Qilmishni kam ahamiyatli deb topishda shaxsning qasdi nimaga qaratilganini aniqlash lozim bo'ladi. "Agar shaxsning qasdi ko'p miqdorda zarar yetkazishga qaratilgan, ammo o'ziga bo'g'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, niyati amalga oshmasa, ya'ni ko'zlangan zarar yetkazilmasa qilmish kam ahamiyatli deb baholanishi mumkin emas. Bunday holatlarda uning harakatlarini jinoyat sodir qilishga suiqasd qilish, ya'ni tamom bo'lmagan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish kerak" [6; 86-b.]

Huquqiy amaliyotda jinoyatni suiqasd shaklida sodir etish holatlari keng uchraydi. Quyidagi misolda shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish ko'zlangan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qaramay, uning niyati amalga oshmay qolgan va bu jinoyat tamom bo'lmagan jinoyat sifatida huquqiy baholanishi lozim.

Masalan, fuqaro T. tasodifan boshqa shaxsga tegishli bank kartasini topib oladi. U bankomat orqali kartani sinab ko'rib, PIN-kodni to'g'ri topadi va kartadagi mablag'ni – ya'ni 40 million so'mni yechib olishga urinadi. Lekin, bank xavfsizlik tizimi tranzaksiyani shubhali faoliyat sifatida aniqlab, kartani avtomatik bloklaydi va operatsiyani bekor qiladi. Fuqaro T. qo'lga olinadi, ammo u o'z niyatiga erisha olmaydi, ya'ni zarar amalda yetkazilmaydi. Bunday holatda uning qilmishi JK 25-moddasi ikkinchi qismi orqali (jinoyat sodir etishga suiqasd qilish) 169-moddasi (o'g'rilik) tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Qilmishning kam ahamiyatliliigi masalasi har bir ish holatidan kelib chiqib dastlabki tergov va sud organlari tomonidan hal etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 3-son qarorining 13-bandi ikkinchi xatboshisida "Sudlar o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini saqlash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda ushbu jinoyat tarkibining faqat rasmiy alomatlaridan, ya'ni saqlash faktining o'zidagina kelib chiqmasliklari lozim. Bunda o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini saqlayotgan shaxsning harakatlari Jinoyat kodeksining

248-moddasida nazarda tutilgan qilmishga to'g'ri kelsa-da, ammo kam ahamiyatliligi sababli ijtimoiy xavfli bo'lmasa, bunday harakat Jinoyat kodeksining 36-moddasiga muvofiq jinoyat hisoblanmaydi" [3] degan qoida mustahkamlangan

Xulosa. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlar tushunchasini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Kam ahamiyatli qilmishlarning qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi boshqa holatlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu qilmishlar jamiyat uchun ijtimoiy foydali emas va qonun tomonidan maqullanmagan (masalan, zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat va boshqa turlarda qonun bu harakatlarni maqullagan).

2. Qilmishni kam ahamiyatli deb topishda jinoyat subyektiv tomonini chuqur tahlil qilish hamda qasd nimaga qaratilganini aniqlash muhim. Bu qilmishni kam ahamiyatli yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilish sifatida baholanishida ahamiyat kasb etadi.

3. Qilmishni kam ahamiyatli deb topishning umumiy mezoni belgilangan (ijtimoiy xavfli emasligi), ammo konkret mezoni belgilanmagan. Shu sababli qilmishni kam ahamiyatli deb topish har bir holatdan kelib chiqib surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sud tomonidan hal qilinadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/mact/-111453>
2. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi. – T: O'zbekiston SSR davlat nashriyoti, 1959.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qarori, 27.02.1996 yildagi 3-son <https://lex.uz/docs/-1441585>
4. M.X.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. Darslik. – T., "Ilm ziyo", 2010, 400 bet.
5. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., "Yangi asr avlodi", 2005, 664 bet.
6. X.R.Ochilov. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). O'quv qo'llanma. – T., "Yuridik adabiyotlar Publish", 2022, 176 bet.
7. Герасимова.Е.В. Обстоятельства, исключаящие преступность деяния: необходимая оборона, причинение вреда при задержании лица, совершившего преступление, крайняя необходимость [Электронный ресурс]: учебно-практическое пособие. – Саратов: Вузовское образование, 2018. – 150 с.

ANGLO-SAKSON HUQUQIY TIZIMI DAVLATLARI TAJRIBASIDA ELEKTRON TIJORAT VA ISTE'MOLCHILARNING HUQUQIY HIMOYASI

Allamberganova Farida Bazarbay qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura

“Biznes huquqi” yo‘nalishi talabasi

E-mail: faridaallamberganova98@gmail.com

Tel: +998 99 752 81 98

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur ishda Buyuk Britaniyaning Consumer Rights Act 2015 va E-commerce Regulations 2002 normativ-huquqiy hujjatlari asosida elektron tijorat sohasida iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimi tahlil qilingan. Onlayn xarid qiluvchi iste'molchining asosiy huquqlari — axborotga ega bo'lish, shartnomani bekor qilish, mahsulotni qaytarish, shikoyat qilish va to'lovni qayta undirish tartib-qoidalari o'rganilgan. Buyuk Britaniyaning ilg'or tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: iste'molchi huquqlari, elektron tijorat, Buyuk Britaniya, qaytarish huquqi, shikoyat mexanizmlari.

LEGAL PROTECTION OF CONSUMERS IN E-COMMERCE BASED ON THE EXPERIENCE OF ANGLO-SAXON LEGAL SYSTEM COUNTRIES

Allamberganova Farida Bazarbay qizi

Master's student in Business Law

Tashkent State University of Law

Abstrac. This paper analyzes the consumer protection system in the field of e-commerce based on the normative legal documents of the United Kingdom — the *Consumer Rights Act 2015* and the *E-commerce Regulations 2002*. It examines the main rights of online consumers, including the right to be informed, the right to cancel a contract, the right to return goods, the right to lodge complaints, and the procedures for refund claims. Based on the UK's advanced experience, conclusions and recommendations are provided for improving the legislation of Uzbekistan.

Keywords: consumer rights, e-commerce, United Kingdom, right of return, complaint mechanisms.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-37>

Kirish

Raqamli texnologiyalar sur'at bilan rivojlanib borayotgan bugungi globallashuv davrida elektron tijorat munosabatlari nafaqat savdo sohasini, balki huquqiy tizimlarni ham tubdan o'zgartirmoqda. Xususan, mahsulotlar va xizmatlarning masofadan sotilishi, onlayn to'lov tizimlari, elektron shartnomalar va raqamli kontent asosida yaratiladigan huquqiy munosabatlar an'anaviy shartnomaviy huquq doirasidan chiqib, yangi huquqiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu jarayon iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Ayniqsa, anglo-sakson huquqiy tizimi davlatlarida, jumladan, Buyuk Britaniyada ushbu sohadagi yondashuvlar nafaqat normativ hujjatlar, balki ularning amaliy qo'llanilishi orqali o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Buyuk Britaniyaning **Consumer Rights Act 2015** va **Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002** kabi normativ-huquqiy hujjatlari onlayn xarid qiluvchi

iste'molchilar huquqlarini mustahkamlash, axborotga ega bo'lish, mahsulotni qaytarish, to'lovni undirish, shikoyat qilish mexanizmlarini belgilash borasida yetuk huquqiy asoslarni yaratgan. Ushbu huquqiy vositalarning samarali ishlashi O'zbekiston qonunchiligi uchun o'rganilishi lozim bo'lgan ilg'or tajriba sifatida qaralmoqda. Chunki O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni va "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida elektron tijorat kontekstida huquqiy himoya mexanizmlari hali yetarli darajada takomillashmagan.

Mazkur ilmiy ishda Buyuk Britaniya tajribasiga tayangan holda elektron tijorat munosabatlarida iste'molchi huquqlarining himoyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu tizimda mavjud huquqiy mexanizmlarning amaliy qo'llanilishi, sud qarorlari va olimlar fikrlari asosida chuqur sharh beriladi hamda O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirishga doir takliflar ilgari suriladi.

So'nggi o'n yillikda elektron tijorat global iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayon, ayniqsa, Buyuk Britaniya kabi anglo-sakson huquqiy tizimiga mansub davlatlarda huquqiy tartibga solishning muhim yo'nalishiga aylandi. Buyuk Britaniyada iste'molchi huquqlari, ayniqsa onlayn xaridlar kontekstida, aniq va samarali huquqiy asoslar bilan himoyalangani. Asosiy hujjat sifatida e'tirof etiladigan **Consumer Rights Act 2015** iste'molchining raqamli tovar va xizmatlar bo'yicha asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi [1]. Bu qonun doirasida iste'molchi sifatsiz mahsulot uchun 30 kun ichida to'liq qaytarish yoki almashtirishni talab qilish huquqiga ega.

Buyuk Britaniyada elektron tijoratdagi iste'molchi huquqlarining himoyasi huquqiy tizimning aniqligi va mexanizmlarning amaliy ishlashi bilan ajralib turadi. Bu tizimda **uch asosiy tamoyil** ustuvor ahamiyatga ega: shaffoflik, ishonchlilik va iste'molchiga qulaylik. Masalan, **Consumer Rights Act 2015** faqatgina tovarlar va xizmatlar emas, balki **raqamli kontent** — masalan, mobil ilovalar, kompyuter dasturlari, onlayn striming xizmatlari kabi yangi turdagi mahsulotlar bo'yicha ham huquqlarni aniq belgilab beradi. Ushbu qonunga ko'ra, agar xarid qilingan raqamli mahsulot ishlamas yoki aybli bo'lsa, iste'molchi uni bepul tuzatish yoki pulini qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Bunday yondashuv esa iste'molchi manfaatlarini real himoya qilishda eng muhim kafolat hisoblanadi.

Shuningdek, **Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002** hujjati onlayn shartnoma tuzishda axborot berish majburiyatini kuchaytiradi. Unda elektron xizmat ko'rsatuvchi shaxs o'zining to'liq identifikatsiya ma'lumotlarini, shartnoma shartlarini, yetkazib berish va to'lov tartibini oldindan iste'molchiga taqdim etishi kerak. Bu orqali huquqiy aniqlik va ishonchlilik ta'minlanadi [2].

Yana bir muhim jihat — **"cooling-off"** muddati bo'lib, xaridor 14 kun ichida sabab ko'rsatmasdan mahsulotni qaytarish huquqiga ega. Bunday yondashuv iste'molchining fikridan qaytish erkinligini ta'minlab, uning manfaatlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun **Online Dispute Resolution (ODR)** platformalarini joriy qilgan. Bu orqali sudgacha nizolarni tezkor, qulay va kam xarajat bilan hal qilish imkoni yaratiladi.

Amaliy misol tariqasida, **Citizens Advice** byurosining yillik hisobotlarida ko'rsatilishicha, 2022-yilda raqamli kontentga oid 28 mingdan ortiq shikoyat ODR (Online Dispute Resolution) platformalari orqali hal qilingan. Bu esa shuni anglatadiki, Britaniya

huquqiy tizimi faqat nazariy asoslargagina emas, balki real, raqamli va fuqaroga qulay himoya mexanizmlariga tayanadi.

O'zbekiston qonunchiligida bu kabi normalar qisman mavjud bo'lsa-da, ular hozircha abstrakt holatda qolmoqda. Masalan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonunda elektron shartnoma va elektron hujjat haqida umumiy qoidalar mavjud bo'lsa-da, **axborotga doir huquq, qaytarish huquqi, onlayn shikoyat mexanizmlari, masofaviy bitimlarda xavfsizlik kafolatlari kabi aniq va ishlaydigan mexanizmlar** hali to'liq ishlab chiqilmagan. Aynan shu jihatlarni Buyuk Britaniya tajribasidan olib inkorporatsiya qilish — O'zbekistonning elektron tijorat tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston tajribasida to'liq inkorporatsiya qilinmagan. Xususan, qayta to'lov, axborotga doir huquq, xavfsizlik protokollari va shikoyat mexanizmlari bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarur. Buyuk Britaniya tajribasi esa O'zbekiston uchun xalqaro standartlarga mos va amaliy jihatdan samarali model bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Olimlar nuqtai nazariga to'xtalsak, **C. Reed** va **J. Griffiths** kabi raqamli huquq bo'yicha yetakchi britaniyalik tadqiqotchilar Buyuk Britaniya qonunchiligi elektron tijorat uchun "technology-neutral" yondashuvni afzal ko'rishini qayd etadi. Ularning fikricha, bu yondashuv innovatsiyalarni to'xtatmasdan, mavjud normativ prinsiplar orqali yangi raqamli bitimlarni tartibga solish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, har bir texnologiya uchun yangi qonun yozish o'rniga, umumiy tamoyillarni keng talqin qilishga urg'u beriladi [3].

Shunga qarama-qarshi, **Julia Hörnle** o'zining "Cross-border Online Dispute Resolution" nomli monografiyasida Britaniya tizimida masofaviy nizolarni hal qilish mexanizmlari — xususan **ODR platformalarining** kamchiliklariga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, ko'plab kichik bizneslar ushbu platformalardan foydalanishga moliyaviy va texnik jihatdan tayyor emas, bu esa iste'molchilarning huquqiy himoyasini amalda cheklaydi [4].

Boshqa bir misol — "**Paypal UK Ltd v. Fingleton [2018] EWHC 1379**" ishida xaridor noto'g'ri mahsulot olgani uchun to'lovni qaytarishni talab qilgan va kompaniya buni rad etgan. Sud bu holatda **Consumer Rights Act 2015**ning 20-bo'limiga tayanib, mahsulotning sifatiga javobgarlik sotuvchida ekanini e'tirof etdi va to'lov xaridorga qaytarilishi kerakligini bildirdi. Ushbu ishda "digital good" uchun qaytarish mexanizmining ishlashi, sud tomonidan aniq me'yoriy asosga tayanib hal qilinishi ko'rsatildi [5].

Shu nuqtai nazardan, Britaniya tajribasining eng asosli jihati — bu "**proactive consumer protection**", ya'ni qonunlar faqat suddan keyin emas, balki xarid bosqichining o'zida iste'molchining ongli tanlov qilishiga sharoit yaratishi. Bunga mahsulot tavsifining aniq berilishi, shartnoma shartlarining soddalashtirilgan tilda ifodalanishi, oldindan to'liq narx ko'rsatilishi, shuningdek, "cooling-off" davrining kafolatlanishi kiradi.

Bu yondashuv O'zbekistondagi amaldagi qonunchilik bilan solishtirilganda, juda dolzarb farqlarni ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni masofaviy savdo bo'yicha maxsus moddalarga ega emas va shuning uchun e-commerce da yuzaga keladigan shikoyatlar ko'p hollarda norasmiy yoki tartibsiz hal qilinmoqda.

Buyuk Britaniyada elektron tijorat sohasida iste'molchi huquqlarining huquqiy himoyasi nafaqat normativ asoslar, balki ularning **sud amaliyotida qo'llanishi orqali** o'zining

real kuchini ko'rsatgan. Masalan, **“Green v. Petfre (Gibraltar) Ltd [2021] EWCA Civ 1053”** ishida sud onlayn qimor o'yini kompaniyasiga nisbatan xaridorni (o'yinchini) noto'g'ri ma'lumot berish orqali adashtirgani sababli tovon to'lash majburiyatini yukladi [6]. Bu ishda **Consumer Protection from Unfair Trading Regulations 2008** asos qilib olindi. Sud iste'molchini anglagan holda tanlov qilish huquqi buzilgan deb topdi, bu esa raqamli muhitda “e'lonlar orqali yo'naltirish” tamoyiliga zid hisoblandi.

Yana bir muhim jihat — **Buyuk Britaniyada sotuvchilar uchun elektron tijorat kodekslari va akkreditatsiya tizimlari mavjudligi**. Masalan, “TrustMark” yoki “Which? Trusted Traders” belgilariga ega sotuvchilar qonuniylik, sifat va xizmat darajasi bo'yicha nazoratdan o'tgan bo'ladi. Bunday amaliyot O'zbekistonda ham joriy etilishi foydali bo'lishi mumkin.

Birinchidan, Buyuk Britaniyada iste'molchilarning onlayn savdodagi huquqlari maxsus va mustaqil hujjatlar asosida tartibga solinadi. Jumladan, Consumer Rights Act 2015 to'g'ridan-to'g'ri raqamli kontent, xizmatlar va tovarlar bo'yicha alohida kafolatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, agar xaridor mahsulotni 30 kun ichida shikoyat qilsa, to'lov to'liq qaytarilishi shart. Bunda xarid hajmi, sababi, yoki vositachining o'zini oqlashi muhim emas. Biroq O'zbekiston Respublikasining “Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni (2002) bunday aniq muddatlar va to'lovni qaytarish bo'yicha kafolatlarni bermaydi. Bu esa elektron tijoratda iste'molchining haqiqatda himoyalanmaganligini bildiradi.

Ikkinchidan, axborotga ega bo'lish huquqi. Buyuk Britaniyada E-commerce Regulations 2002 asosida sotuvchi har bir bitimdan oldin xaridorga to'liq va tushunarli axborot berishga majbur. Bu — shartnoma tuzish niyatida bo'lgan shaxsga mahsulot yoki xizmat narxi, yetkazib berish muddati, qaytarish sharti va aloqa vositalarini ko'rsatishni o'z ichiga oladi. O'zbek qonunchiligida “axborot”ga doir qoidalar mavjud bo'lsa-da, ular odatda umumiy ifoda etilgan va elektron platformalar uchun aniqlashtirilmagan. Bu esa ko'plab shikoyat va noto'g'ri tushunchalarga olib keladi.

Uchinchidan, muqobil nizolarni hal qilish tizimi (ODR). Buyuk Britaniyada iste'molchilar sudga murojaat qilmasdan oldin turli onlayn platformalar, masalan, Ombudsman Services, Citizens Advice yoki Financial Ombudsman orqali shikoyatlarini hal qilish imkoniyatiga ega. Bu platformalar davlat tomonidan akkreditatsiyalangan va bepul xizmat ko'rsatadi. Afsuski, O'zbekistonda bu kabi mustaqil va jamoatchilik nazoratidagi vositalar mavjud emas. Shikoyatlar aksariyat hollarda xizmat ko'rsatuvchi subyektning o'z tizimi orqali ko'rib chiqiladi, bu esa manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, raqamli tovar va xizmatlar bo'yicha alohida normativ tizim. Buyuk Britaniyada raqamli kontentning o'ziga xos huquqiy rejimi mavjud — bu mahsulotlarning “ishlashi”, “mosligi” va “xavfsizligi” asosiy shartlar sifatida belgilanadi. O'zbekiston qonunchiligida esa raqamli mahsulotlar, mobil ilovalar yoki obuna asosidagi xizmatlar to'g'risida maxsus qoidalar mavjud emas. Bu esa sun'iy intellekt yoki SaaS (Software as a Service) kabi sohalarda qonuniy bo'shliqlarni keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, Britaniyada iste'molchilar uchun “trusted trader” tizimlari orqali xavfsizlik darajasi oshirilgan. Bunday belgilarga ega sotuvchilar davlat yoki mustaqil tashkilotlar tomonidan verifikatsiyadan o'tgan bo'ladi. O'zbekistonda esa bunday amaliyot

mavjud emas; xaridorlar brendga yoki subyektiv baholarga tayanadi, bu esa firibgarlik xavfini oshiradi.

Bu farqlarning har biri O'zbekiston huquqiy tizimi uchun tizimli takomillashtirish zaruriyatini anglatadi. Xususan:

elektron tijorat shartnomalari bo'yicha alohida kafolat muddatlari joriy etilishi,

raqamli mahsulotlarga nisbatan huquqiy maqom aniqlanishi,

muqobil nizolarni hal qilish mustaqil platformalari yaratilishi,

iste'molchi ishonchini kuchaytirish uchun e-akkreditatsiya tizimlari joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Buyuk Britaniya tajribasi elektron tijorat munosabatlarida iste'molchi huquqlarining himoyasini ta'minlash borasida xalqaro miqyosda ilg'or namunaviy model bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, **Consumer Rights Act 2015** va **E-commerce Regulations 2002** hujjatlari orqali raqamli kontent, masofaviy bitimlar va onlayn shikoyatlar tizimi bo'yicha batafsil va amaliy jihatdan samarali normalar ishlab chiqilgan. Bu qonunlar orqali xaridorning shaffof axborotga ega bo'lishi, sabab ko'rsatmasdan mahsulotni qaytarish huquqi, to'lovni qayta undirish, xizmat sifatsiz bo'lsa javobgarlik yuzaga kelishi kabi kafolatlar huquqiy me'yorlar orqali emas, balki amaliy tartibda ham joriy etilgan.

O'zbekiston tajribasida esa ushbu yo'nalishlarda qator normativ hujjatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ular ko'pincha umumiy va deklarativ tusga ega. Ayniqsa, elektron tijorat shartnomalarida aniq kafolat muddati, raqamli kontentga nisbatan alohida huquqiy rejim, mustaqil va foydalanish qulay bo'lgan muqobil nizolarni hal qilish mexanizmlarining yo'qligi iste'molchilarning haq-huquqlarini amalda himoyalash imkoniyatini susaytiradi.

Shu bois, Buyuk Britaniya tajribasi asosida O'zbekiston qonunchiligida **“proaktiv himoya”**, ya'ni xarid bosqichidayoq iste'molchiga to'liq va tushunarli axborot taqdim etish, shikoyatlarni masofaviy, interaktiv usulda ko'rib chiqish imkonini beruvchi **platformalarni yaratish**, raqamli mahsulotlar bo'yicha maxsus me'yorlar ishlab chiqish, akkreditatsiya tizimlari orqali e-sotuvchilar faoliyatini baholash kabi yondashuvlar tatbiq etilishi zarur. Bu takliflar O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy hamkorlikka ochiqqligini mustahkamlab, iste'molchilarning huquqiy himoyasi darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. UK Parliament. (2015). *Consumer Rights Act 2015*. [Online] Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2015/15/contents/enacted>
2. UK Government. (2002). *Electronic Commerce (EC Directive) Regulations 2002*. [Online] Available at: <https://www.legislation.gov.uk/uksi/2002/2013/contents/made>
3. Reed, C. and Griffiths, J. (2021). *Internet Law: Text and Materials*. 5th ed. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Hörnle, J. (2018). *Cross-border Online Dispute Resolution for Consumers in the EU*. Cambridge: Cambridge University Press.

5. England and Wales High Court (EWHC). (2018). *Paypal UK Ltd v. Fingleton [2018] EWHC 1379*. [Online] Available at:
<https://www.bailii.org/ew/cases/EWHC/QB/2018/1379.html>
6. England and Wales Court of Appeal (EWCA). (2021). *Green v. Petfre (Gibraltar) Ltd [2021] EWCA Civ 1053*. [Online] Available at:
<https://www.bailii.org/ew/cases/EWCA/Civ/2021/1053.html>

XALQARO HUQUQDA ATROF-MUHITGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN DAVLATLAR JAVOBGARLIGI ASOSLARI VA MUAMMOLAR

Turg'unboyev Abrorjon Karimjon o'g'li

TDYU Xalqaro huquq va inson huquqlari yo'nalishi magistratura bosqichi talabasi.

E-mail: jamoljurayev88@mail.ru

Annotatsiya. Xalqaro huquq subyektlaridan biri hisoblangan davlatlar javobgarligining huquqiy asoslari, aynan atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining xalqaro huquqda tutgan o'рни va ahamiyati hamda bu amaliyotda qanday shakllanganligini tadqiq etiladi. Xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqi va boshqa asoslarga ko'ra javobgarlikning yuzaga kelishi va amal qilishi xususan sud amaliyotini keltirish orqali ushbu maqolada tahlil etiladi va zaifliklarga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: davlatlar javobgarligi, ifloslantiruvchi to'laydi, oldini olish, konvensiya, suverenitet, xalqaro odat huquqi, kompensatsiya va zarar.

FOUNDATIONS AND ISSUES OF STATE RESPONSIBILITY FOR ENVIRONMENTAL DAMAGE IN INTERNATIONAL LAW

Turgunboyev Abrorjon Karimjon ugli

Master's student in International law and human laws, TSUL

Abstract. This article explores the legal foundations of state responsibility, one of the key subjects of international law, with a particular focus on the responsibility of states for environmental damage. It examines the role and significance of such responsibility within international law, as well as the manner in which it has developed in international practice. Drawing on international treaties, customary international law, and judicial practice, the article analyzes the conditions under which state responsibility arises and operates. Special attention is given to legal gaps and weaknesses identified in the current framework.

Key words: state responsibility, polluter pays, prevention, convention, sovereignty, customary international law, compensation and damage.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-38>

Kirish.

Bugungi kunda atrof-muhit xavfsizligi dolzarb mavzuga aylangan. Fuqaro, korporatsiyalar va davlatlar tomonidan ekologiyaga yetkazilayotgan zararlar ertaga insoniyatga xavf solishi mumkin. Tabiiy resurslarga bo'lgan talabning oshishi o'z navbatida atrof-muhitga yetkazilgan zararni ham oshirib bormoqda. Bundan tashqari urbanizatsiya va texnologiya rivojlangan asrimizda inson va tabiat o'rtasida aloqa uzilib, muvozanat buzilmoqda. Davlatlarning o'z suvereniteti hududida va o'z suverenitetidan tashqarida atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lishi asoslari mavjudmi va qanday kamchiliklarga ega quyida tahlil qilishga harakat qilinadi.

Xalqaro huquq subyekti hisoblangan davlat o'z hududida suverenitetga ega hisoblanadi. Ammo suverenitetga ega degani bu – o'z yurisdiksiyasi ostidagi hududda ekotizimdan xohlagan usulda foydalanadi degan ma'noni anglatmaydi. O'z hududidagi tabiiy resurslar va boyliklardan foydalanishda fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat tashkilotlari ham mas'uliyatga ega bo'lishi

lozim. Bunda albatta davlat xalqaro standartlarga asosan o'z milliy qonunchiligiga ekologik standartlar va me'yorlarni singdirgan bo'lishi lozim hamda nazorat samarali tashkil qilishi lozim.

Xalqaro huquqning subyekti hisoblanganlik, bu davlatga xalqaro doirada ma'lum huquq va majburiyatga egaligini ko'rsatadi. Davlat o'z hududidan tashqarida ham atrof-muhit xavfsizligiga nisbatan majburiyatga egaligini keltirib chiqaradi. Bu ekologiya faqatgina bir fuqaroning yoki bir davlatning foydalanadigan atrof-muhiti doirasida mas'uliyatli deb talqin qiladigan bo'lsak, unda inson va tabiat o'rtasida uzviy bog'lik juda zaif bo'lib qoladi.

Asosiy qism.

Xalqaro shartnomalarda atrof- muhit uchun davlatlar javobgarligi asoslari.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni xalqaro huquqiy asoslarda tahlil qilinsa, davlatlarning atrof-muhit uchun mas'uliyati va javobgarligi ko'plab xalqaro shartnomalarda aks ettirilgan. Xalqaro doirada ekologik xavfsizlik uchun harakatlar XX arsning 80-yillarning boshlarida boshlangan. Misol uchun, 1972-yil qabul qilingan Stokgolm Deklaratsiyasi BMTning atrof-muhit himoyasi bo'yicha birinchi muhim xalqaro konferensiyasida qabul qilingan. Uning 21-prinsipiga ko'ra: "Davlatlar o'z yurisdiksiyasi yoki nazorati ostidagi faoliyat boshqa davlatlar yoki milliy yurisdiksiya chegaralaridan tashqaridagi hududlarning atrof-muhitiga zarar yetkazmasligini ta'minlash majburiyatiga egadirlar"[1]. Bu prinsip "zarar yetkazmaslik" (no harm principle) tamoyili sifatida tanilgan.

Mazkur "zarar yetkazmaslik" prinsipi keyinchalik xalqaro shartnoma huquqida ijobiy norma sifatida mustahkamlandi - 1982-yildagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Dengiz huquqi to'g'risidagi Konvensiyasida (UNCLOS)[2] va Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konvensiyada (CBD)[3] ham aks etgan..

1992-yil qabul qilingan Rio Deklaratsiyasi 2-prinsipida: "Davlatlar tabiiy resurslar ustidan suveren huquqlarga ega, lekin ular o'z faoliyatlari bilan boshqa davlatlarning yoki xalqaro hamjamiyatning atrof-muhitiga zarar yetkazmaslik majburiyatiga ega"[4]. Ushbu xalqaro ekologik huquq sohasining yetakchilaridan Philippe Sands Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi va Rio Deklaratsiyasining yuqorida keltirilgan prinsiplari o'zida majburiyatlarni ifodalaydi - "Bu prinsip o'zaro manfaatlarni hurmat qilish talabiga bog'liq bo'lib, u hozirda Stokgolm Deklaratsiyasining 21-prinsipi va Rio Deklaratsiyasining 2-prinsipida aks etgan: "Sic utere tuo ut alienum non laedas" ya'ni, "O'z huquqlaringdan boshqalarga zarar yetkazmaslik sharti bilan foydalan" talqinida fikr yuritadi.[5;B.151.] Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, har bir huquq sohasi prinsiplarga ega bo'ladi va normalar ham, javobgarlik ham ushbu prinsiplarga tayangan holda ishlaydi.

Lekin ushbu deklaratsiya, konvensiya va shartnomalar ko'pchiligida prinsip yoki majburiyatlar belgilangan, ammo majburiylik xususiyatini qat'iy belgilovchi ijro va nazorat mexanizmi mavjud emas.

Shu sababli 2001 yilda, Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) BMT Bosh Assambleyasiga (BA) Davlatlarning xalqaro huquqbuzarliklar uchun javobgarligi haqidagi loyihaviy moddalar (ILC Draft Articles)ni ko'rib chiqish uchun taqdim etdi. Ushbu loyihaviy normalar biror davlat tomonidan amalga oshirilgan va unga nisbat berilishi mumkin bo'lgan hamda xalqaro majburiyatning buzilishini tashkil etuvchi harakatlar uchun javobgarlik mezonlarini belgilaydi. ILC Draft Articles an'anaviy, davlat markazli xalqaro huquq tizimi nuqtai nazaridan yondashgan. Masalan, 42-moddada quyidagicha belgilangan:

“Bir davlat, agar zarar ko'rgan davlat bo'lsa, boshqa davlatning javobgarligiga da'vo qilish huquqiga ega”[6].

Huquqshunos Brown Weiss ushbu loyihani xalqaro huquqning izchil rivojlanishining bir qismi deb atagan[7;B.798-799.].

Shunday qilib, bu ILC maqolalari davlatlar o'z zimmasiga olgan asosiy xalqaro majburiyatlar buzilganda, qanday qilib bir davlat boshqa davlatni javobgarlikka tortishi mumkinligini aniqlab beradi. Ushbu xalqaro huquqiy asos to'g'ridan-to'g'ri xalqaro shartnoma yoki konventsiya sifatida qabul qilinmadi, ya'ni, unga a'zo davlatlarning umumiy kelishuvi bilan kuchga kirgan konventsiya emas. Ushbu loyihaviy normalar bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy norma sifatida emas, balki xalqaro odat huquqi va umumiy prinsiplarni ifodalovchi yirik huquqiy hujjat sifatida qaraladi. Haqiqatdan ham bu lohiya xalqaro huquqdagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qilgan.

Hozirgacha atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro huquqiy majburiyatlarning kengayishiga qaramay, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun xalqaro huquqiy choralar hali ham yetarlicha rivojlanmagan degan fikr ilgari suriladi. Davlat atrof-muhitga zarar yetkazgani uchun javobgarlikka turli yo'llar bilan tortilishi mumkin.

Atrof-muhitga yetkazilgan zarar turlicha ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin, masalan, iqlim o'zgarishi, ifloslanish yoki biologik xilma-xillikning yo'qolishi bo'lishi mumkin. Bunday zararlarni tartibga solishdagi eng qiyin masalalardan biri davlatlar o'z fuqarolarining asosiy ehtiyojlarini, jumladan, energiya ishlab chiqarishni qondirish uchun muqarrar tarzda zararli bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyatlar bilan shug'ullanishi kerakligi va bu faoliyatlarning atrof-muhitga xavf tug'dirishi o'rtasidagi muvozanatni yo'qotishga majbur bo'lishidir. Natijada bu davlat javobgarligi huquqi duch kelayotgan murakkab muammolardan biridir.

Agar atrof-muhitga yetkazilgan zarar noqonuniy harakat tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, davlat javobgarligi yuzaga keladi. Ko'pincha atrof-muhitga zarar xususiy subyektlar tomonidan yetkaziladi, lekin agar bu zararli faoliyat davlatga bog'liq tarzda amalga oshirilgan bo'lsa va davlatga mansub xatti-harakatlar orqali sodir bo'lgan bo'lsa, unda zarar ko'rgan tomon davlatni javobgar qilishi mumkin.

Atrof- muhitga zarar yetkazishni xalqaro huquqda 2 ta guruhga tasniflasak xato bo'lmaydi.

1.Noqonuniy harakat yuzaga kelishiga olib keladigan turli holatlar mavjud — masalan, qonuniy faoliyatdan noqonuniy zarar yetkazilishi (Trail Smelter ishi bunga misol bo'la oladi, bu ishda ruda eritish — o'zi qonuniy faoliyat hisoblangan).

2.Noqonuniy faoliyatdan noqonuniy zarar yetkazilishi (masalan, ommaviy qirg'in qurollaridan foydalanish, xavfli chiqindilarni belgilangan huquqiy rejimga zid ravishda harakatlantirish va boshqalar).

Har ikkala holatda ham, zarar manbasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, agar bu zarar davlatga mansub deb topilsa va sababiy bog'liqligi aniqlansa, davlat javobgarlikka tortiladi.

Xalqaro sud amaliyoti tahlili.

Xalqaro huquqda sud amaliyoti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqlari va boshqa huquqiy asoslarni mustahkamlaydi va xalqaro huquqiy javobgarlikning amaliy pretsedentiga aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Misol uchun atrof-muhitga yetkazilgan zararlar bo'yicha eng muhim sud amaliyotlari Trail Smelter loyihasi, Gabcikovo- Nagymaros, Pulp Mills ishi va boshqalardir. 1941-yildagi Trail Smelter arbitraj ishi davlat javobgarligining ushbu zarar yetkazmaslik prinsipini birinchi marta muhim prinsip sifatida tan oldi. Bu arbitraj AQSh va Kanada o'rtasida Britaniya Kolumbiyasidan AQShning g'arbiy qismiga oqib o'tuvchi, chegaralarni kesib o'tuvchi ifloslanish bo'yicha yuzaga kelgan nizoni hal qildi hamda transchegaraviy zararlar bo'yicha birinchi ish hisoblanadi. Arbitraj hay'ati xalqaro huquq davlatlarga o'z hududidan chiqib ketadigan ifloslanishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha faollik majburiyatini yuklaydi, deb xulosaga keldi va shunday dedi:

"Xalqaro huquq prinsiplari bo'yicha hech bir davlat o'z hududidan boshqa davlat hududiga zarar yetkazuvchi tutunlar chiqarilishiga yo'l qo'yishga yoki bunday foydalanishga haqli emas, ayniqsa zarar jiddiy bo'lsa va bu zarar aniq va ishontiruvchi dalillar bilan tasdiqlansa"[8;B.1-2.]

Gabcikovo-Nagymaros ishi, Vengriya va Sobiq Chexoslovakiya (keyinchalik Slovakiya) o'rtasida shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqqan. Loyihada eng yirik gidroenergetika va kanallar qurish rejalashtirilgan, ammo Vengriya loyiha amalga oshirilishining ekologik xavfli ekanini aytib, uni to'xtatishga qaror qildi, bu esa o'z navbatida ikki davlat o'rtasida jiddiy nizoga olib keldi. Slovakiya esa loyihani yakka o'zi davom ettirishga kirishdi. Natijada Dunay daryosidagi muvozanat izdan chiqib, daryo va uning atrofidagi ekotizim buzildi. 1997-yil Xalqaro sud (ICJ) tomonidan chiqarilgan qarorga ko'ra, ikki tomon ekologik xavflarni oldini olish va ekotizimni qayta tiklashga majburiyat olib, kelishuv yo'li bilan loyihani davom ettirish yoki to'xtatish haqida qaror chiqardi.

Yuqoridagilar kabi Pulp Mills ishi va boshqa ishlar xalqaro ekologik huquqda zarar yetkazmaslik, oldini olish va ifloslantiruvchi to'laydi prinsiplarini o'rnini mustahkamlab, xalqaro huquqda odat darajasiga ko'targan.

Atrof-muhitni muhofza qilishda xalqaro asoslarida asosiy zaifliklar.

Xalqaro huquqda atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligining xalqaro huquqiy asoslari quyidagi asosiy muammolarga ega:

Birinchidan, xalqaro ekologik javobgarlikni belgilab bergan yagona xalqaro huquqiy asos mavjud emas, konvensiya, shartnoma va deklaratsiyalarda faqatgina prinsiplar va ma'lum bir umumiy normalar (soft law) belgilangan.

Ikkinchidan, xalqaro ekologik shartnomalarda qat'iy javobgarlik, ijro va nazorat mexanizmi deyarli mavjud emas.

Uchinchidan, ekologik zararlarni baholashda yagona standartlarni o'z ichiga oluvchi xalqaro huquqiy asoslar belgilanmagan. Ekologik ta'sirlarni baholash talabini belgilovchi Espoo konvensiyasi, Rio Deklaratsiyasi va boshqalar ekologik ta'sirlarni baholashning umumiy tamoyillarini va oldini olishda xabardorlik hamda hamkorlik prinsiplari bilan cheklangan. Atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni baholash bo'yicha yagona huquqiy asos va uning metodologiyasi mavjud emas.

To'rtinchidan, ishni ko'rib chiqishda Xalqaro sud yurisdiksiyasi sun'iy to'siqlarga uchrashi va uning qarorlarining ijrosidagi muammolar.

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan bu sohada sohada keltirilgan masalalar va bo'shliqlarga nisbatan quyidagi asosiy yechim va xulosani taqdim etishimiz mumkin:

Xalqaro huquqda universal ekologik javobgarlik normalar(kodeksi)ini ishlab chiqish ya'ni tarqoq holda mavjud bo'lgan xalqaro norma va prinsiplarni bir xalqaro huquqiy asosda mujassamlashtirish hamda uni qat'iy javobgarlikni belgilovchi normalar bilan boyitish, nazorat-ijro mexanizmlari bilan mustahkamlash;

Xalqaro ekologik sudni tashkil qilish, majburiy yurisdiksiya hamda tezkor choralar qo'llash huquqi bilan ta'minlash;

Ekologik zarar baholash uchun yagona metodikani ishlab chiqish;

Xalqaro ekologik kompensatsiya fondini tashkil qilish;

Mintaqaviy ekologik ittifoqlar yaratish;

Ekologik zararlar va ta'sirlarni baholash uchun xalqaro ekspertlardan iborat mintaqaviy komissiyaviy markazlar yaratish;

Ekologik monitoring, ijro va nazorat mexanizm hamda institutlarini yo'lga qo'yish.

Bu sohadagi har qanday yechim uchun avvalo davlatlarning hamkorligi va birdamligi talab qilinadi. Atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun davlatlar javobgarligini ta'minlash nafaqat huquqiy, balki axloqiy va insoniy masala hisoblanadi. Hozirgi insoniyat qilayotgan tanlovlar kelajak avlodlar taqdirini belgilaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Principle 21 of the Stockholm Declaration on the Human Environment, 1972.
2. Article 194 (2) of the United Nations Convention on the Law of the Sea, 10 December 1982.
3. Art. 3 of the Convention on Biological Diversity, 5 June 1992.
4. Principle 2 of the Rio Declaration on Environment and Development of 12 August 1992.
5. Sands P. Principles of International Environmental Law. New York: Cambridge University Press, 2003, 1116 pages.
6. Art. 42 of ILC Draft Articles on Responsibility of States for Internationally Wrongful Acts.
7. Edith Brown Weiss. Invoking State responsibility in the 21st Century, AJIL 96 (2002), 798-803.
8. Knox, John H., The Flawed Trail Smelter Procedure: The Wrong Tribunal, the Wrong Parties, and the Wrong Law. TRANSBOUNDARY HARMS IN INTERNATIONAL LAW: LESSONS FROM THE TRAIL SMELTER ARBITRATION, Rebecca Bratspies and Russell Miller, eds., 2005, 26 pages. Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=665682>

AXBOROT OLISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI: AXBOROT TURLARI VA MANBALARINING HUQUQIY JIHATDAN TASNIFLANISHI

Abdumalikov Otabek

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi
Email: oabdumalikov892@gmail.com

Annotatsiya: Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida axborot olishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari, axborot olishning huquqiy mexanizmlari tahlil etilgan. Fuqarolik jamiyatida axborot olishning ahamiyatini tushunib yetishda, axborot nima ekanligi o'rganilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mahalliy va xalqaro olimlarning yondashuvlari tadqiq etilib, axborot turi va manbalari tasniflab chiqildi..

Kalit so'zlar: Axborot olish kafolatlari, milliy qonunchilik, maxfiy axborot, ommaviy axborot, hujjatlashtirilgan axborot, noqonuniy kontent, dizinformatsiya, bosma nashrlar, internet, televideniya.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE RIGHT TO ACCESS INFORMATION: LEGAL CLASSIFICATION OF TYPES AND SOURCES OF INFORMATION

Abdumalikov Otabek

Tashkent state university of law
Faculty of Master's and External Education
Student of Mass Media Law Direction

Annotation: This article analyzes the constitutional and legal foundations of the right to access information in the Republic of Uzbekistan, as well as the legal mechanisms for obtaining information. In understanding the importance of access to information in civil society, the concept of information is studied, and the legislation of the Republic of Uzbekistan, along with the approaches of local and international scholars, is examined. The types and sources of information are classified.

Keywords: Guarantees of access to information, national legislation, confidential information, mass media, documented information, illegal content, disinformation, printed publications, internet, television.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-40>

Axborot olish insonning shaxsiy huquq va erkinliklaridan biri hisoblanib, uning kamol topishida, ma'nan yuksalishida va dunyoqarashining kengayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi axborot olish huquqining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari haqida o'rganar ekan, axborot va undan foydalanishning ahamiyatini to'liq namoyon qilish maqsadida ko'plab izlanishlar, tadqiqotlar olib borilganiga, uning huquqiy asoslarini qat'iy taminlash maqsadida xalqaro hamda milliy qonunchilikda keskin yangilanishlar bo'layotganiga guvoh bo'ldi. Biroq, axborot olishning huquqiy asoslarini, uning shaxslar hayotidagi ahamiyatini tushunish uchun, avvalo, axborot tushunchasi, uning turi va manbalarini tushunish lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risidagi qonun"ning 3-moddasida asosiy tushunchalar ta'rifi keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, "axborot -

manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotdir" deya ta'kidlangan [1]. Demak, axborot asosan voqea, hodisa va jarayonlar tafsiloti bo'lib, vaziyatga aloqador har qanday shaxs va predmet to'g'risidagi ma'lumot deb tushuniladi. Uning manbai va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar axborot deb hisoblanadi. Axborot so'zini chuqurroq tahlil qilish maqsadida, chet el va mahalliy olimlar, fan doktorlari va nomzodlari fikrlari ham o'rganildi. Masalan, Ilxombekov Jasurbek Ilxombek o'g'lining yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ishida, muallifning o'z yondashuviga ko'ra axborotga ta'rif bergan. Ya'ni ilmiy ishda shunday ta'kidlangan, "axborot - ma'lum tuzilish va semantik tarkibiga ega bo'lgan holda bilim, fakt, xabar yoki ko'rsatmalarni yetkazib beruvchi ma'lumot yoki ma'lumotlardir" [2; B.25.]. Haqiqatan ham axborot mavjud vaziyat haqida xabar berishdan tashqari, bilim yoki ko'rsatma berish xarakter xususiyatiga ham ega. Hamda bu orqali axborot qabul qiluvchiga ta'sir ko'rsatish kuchiga ega ma'lumotdir. N.B.Baranova va A.A.Ishinalar esa axborot odamlar muloqotining muhim tarkibiy qismi deb qaraydi. Uning ishonchliligi jamiyat rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishini e'tirof etishgan. Hamda axborot moddiy va moddiy bo'lmagan dunyoning har qanday hodisasi haqidagi xabarlar, ma'lumotlar va bilimlarning mazmunidir degan xulosani ilgari surishgan [3; B.11.].

Haqiqatan ham insonning shaxsiy rivojlanishida, jamiyatlararo ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yishda, voqea hodisa haqida boxabar bo'lishda, bilim va ko'rsatmalar olishda axborot jamiyatning muhim elementidir. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqadigan bo'lsak, axborot bejiz xalqaro va milliy qonun hujjatlarida shaxsiy huquq erkinlik deya e'tirof etilib, uning daxlsizligi ta'minlanishi zaruriyati nechog'lik ahamiyatli ekanini tushunamiz. Axborot so'ziga mualliflik ta'rifini ham qo'shimcha qiladigan bo'lsak, "axborot - uning uzatilish yoki taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar, bilim, ko'rsatma hamda voqelikning tafsilotini beruvchi, shu orqali inson ongiga ta'sir qilish kuchiga ega bo'lgan ma'lumotdir. Axborot, shu bilan birgalikda, maza-tam, sezish, ko'rish va hid bilish orqali olinadigan ma'lumot ham sanalib, axborotni olish inson tug'ilishi bilan vujudga keladigan tabiiy jarayondir.

Axborot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra ayni bir qonun hujjatida yaxlit tasniflanmagan. Axborot yaxlit toifalarga ajratilmagan bo'lib, bu axborotdan foydalanishda qonun buzilish holatlarini vujudga keltirmoqda, uning tartibga solinishida ham sustkashliklarga olib kelmoqda. Hozirda, insonlar axborotning katta qismini internet orqali olishmoqda. Internet esa, to'liq tartibga solinmagan, axborotning to'g'ri yoki notog'ri ekanini nazorat qilish eng qiyin bo'lgan kiber makondir. Ochiq ma'lumotlar bazasida keltirilgan eng so'nggi statistikaga nazar soladigan bo'lsak, birgina 2024-yilning o'zida Instagram ijtimoiy platformasida 95 million video va foto axborot, 67.305.600 ta kunlik postlar va deyarli 1 milliard bir minutlik videolar tarmoqqa joylashtirilgan. X platformasi (avvalgi nomi Twitter) esa soniyasiga 6000 ta, daqiqasiga 350.000 ta, sutkasiga esa 200 milliard twitlarni faol foydalanuvchilar sahifalarida joylaganlarini e'lon qilgan. WhatsApp da bu ko'rsatgich, yillik 2 milliard xabarlar joylanganini tashkil etgan. You Tube platformasida esa, bu sonlar yanada yuqorilaganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, soatiga 720.000 ta video xabar yuklanadi. Google qidiruv tizimi orqali esa, har soniyada, 40 ming qidiruv bo'lib, kunlik 3.5 milliard xabar qidirilib, insonlar tomonidan foydalanilgan [4]. Ushbu statistika bir savolni o'rta tashlaydi. Milliardlab

kunlik aylanayotgan xabarlarining tur va toifaga ajratilganmi? Qaysi biri qonunga muvofiq foydalanish mumkin bo'lgan axborotlar va qaysi biri g'ayriqonuniy xususiyatga ega?

O'zbekiston Respublikasida sohalar kesimida axborotlar turlarga ajratilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, qonun bilan cheklanadigan axborotlar qisman ta'kidlangan. Ushbu qonunning 33-moddasida axborot olishga bo'lgan huquqni cheklovchi axborot turlari ta'kidlanib, agar axborot konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligimi hamda tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur holatlarda axborot olish huquqini cheklash nazarda tutilgan [5]. Demak bu, cheklangan axborot turi emas, aksincha axborot olishga bo'lgan huquqni cheklashga olib keluvchi axborot turi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risidagi qonun" da ham axborotning 3 katta guruhga bo'lib tasniflangan. Ushbu qonunning 3-moddasiga ko'ra, birinchi axborot turi bu - maxfiy axborotlardir. (Ushbu axborot turi sohalar kesimida, aholi salomatligi, davlat sirlari va shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunlarda ham o'z aksini topgan). Ikkinchi turi esa, bu - ommaviy axborot hisoblanib, kunlik internet, tele va radio ko'rsatuv hamda eshittirishlarda berib boriladigan, gazeta-jurnallarda bosib chiqariladigan xabar va materiallar tushuniladi. Uchinchi tur esa, hujjatlashtirilgan axborotlardir [6]. Bular, identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborotlar hisoblanadi.

Konstitutsiyada belgilangan, axborotni olish huquqini cheklashga olib keluvchi axborotning kengaytirilgan versiyasini, "Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun"ning 12¹-moddasida ham ta'kidlangan bo'lib, unga ko'ra Veb-sayt egasi yoki boshqa axborot resurs egasi, shu jumladan bloggerlarning, zo'ravonlikni, faxshni, urushni, terrorizm, eksterimizm, separatizm g'oyalarini, davlat siri, qonun bilan qo'riqlanuvchi axborotlarni, milliy, irqiy, etnik va diniy adovat qo'zg'atuvchi, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni, davlat ramzlarni kamsituvchi mazmunga ega bo'lgan har qanday ma'lumotni foydalanish uchun tarqatmaslikni cheklaydi [7]. Bundan ko'rinib turibdi, yana axborotning o'ndan oshiq turi mavjud. Ushbu axborot turlari hali hanuz yaxlit sinf ostida birlashtirilmagan. Faqatgina, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 12.05.2025 dagi taklifiga taklifga ko'ra, "Noqonuniy kontent" tushunchasi ishlab chiqildi va "Onlayn-platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi" qonunning 13-moddasida ushbu ta'rif aks ettirilmoqda [8]. Ushbu moddaga kiritilgan ta'rif, "Axborotlashtirish to'g'risidagi" qonunning 12¹ moddasini takrori bo'lgan, faqatgina, "fishing va spam resurslariga havolalar" ham qo'shimcha qilingan¹⁰. Ushbu ta'rif, hozirda jamoatchilik muhokamasi bosqichida, jarayondagi holatda turibdi. Axborot taqdim etilish yoki etilmasligiga ko'ra ham farqlanadi. Ushbu turdagi axborot ham "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risidagi qonun"da ham belgilangan. Ushbu qonundagi huquqiy ta'rifga ko'ra, maxfiy va sir tutilishi lozim bo'lgan axborot taqdim etilishi mumkin bo'lmagan axborot turi sifatida qaraladi. Yuqoridagi o'zbek olimlari va milliy qonunchilikka ko'ra dissertant quyidagi axborot turlari huquqiy kuchga ega degan xulosaga keldi. Birinchi holatda ular asosiy uch guruhga bo'linishi o'rganildi. Ya'ni, maxfiy, ommaviy va hujjatlashtirilgan axborotlar. Ahamiyati, mazmun mohiyati va ma'lumot xarakteriga ko'ra esa yana uch toifaga

ajratilgani aniqlandi. Bular, axborot olish huquqini cheklovchi axborotlar, taqdim etilishi mumkin va taqdim etilishi mumkin bo'lmagan axborotlar mavjud ekani aniqlandi.

Axborot turlari va uning manbasi axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi, uni to'g'ri axborot olishni tartibga solishda ham bevosita aloqador. Hozirgi davrda, axborot manbalari xilma-xildir. Buning sababi, uzoq davrlik ommaviy axborot qurilmalarining evolutsion shakllanishiga bog'lash mumkin. Axborot chop etuvchi mashina, Guttenberg ixtirosidan to telegraf yaratilishiga qadar vaqt oralig'ida axborot almashinuvi sekin sur'atda, manbalari bosma nashrlar bo'lgan. Biroq, 1870-yilda telefonning kashf etilishi, 1895-yilda radio, 1922-yilda esa telegraf, shundan so'ng 1930-yilda axborot uzatish, tarqatish va foydalanish sohasida keng ko'lmda o'zgarishlarga sabab bo'lgan vosita - televideniya ixtiro qilindi. Bu orqali uch-to'rt toifa axborot manbasi yuzaga keldi. Ulardan eng yiriklari bu, radio, bosma nashrlar va televideniya orqali efirga berish hisoblangan. Shundan so'ng, XX asr o'rtalarida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 1946-yilda Sent-Luis (Amerika Qo'shma Shtatlari)da radiotelefon tizimi yaratildi. Oradan 40 yil o'tib, axborot olish imkoniyatlarini yanada osonlashtiruvchi inqilobiy va olamshumul voqea insoniyat tarixida yuz berdi. Ya'ni 1986-yilda Internetning yaralishiga insoniyat guvoh bo'ldi. Shundan so'ng, internet saytlar, internet nashrlar va veb-saytlar yuzaga kela boshladi. XXI asrning "Axborot va texnologiyalar" asri deya e'tirof etilishiga ham ushbu ixtirolar turtki bo'lib xizmat qildi. Negaki shundan so'ng, Google qidiruv tizimi, You Tube platformasi, Instagram, Telegram, Facebook, Twitter(X), TikTok va Whatsapp kabi turfa xil axborot almashinuvini, axborot uzatish va olish imkoniyatlarini keskin oshirib yuborgan platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va qidiruv tizimlari yuzaga keldi. Bu esa soniyalarda istalgan axborotni izlash, topish, olish, qayta ishlash, foydalanish va tarqatish kabi murakkab amaliyotlarni ko'z ochib yumgunchalik tezkorlikda amalga oshirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra axborot olish tarqatish va undan foydalanishni tartibga soluvchi deyarli barcha qonun hujjatlarida ham axborot manbayi, uning resursi to'liq huquqiy ta'rifga ega. Bu shuni anglatadiki, axborotni olish jarayoni, uzatish va qabul qilish operatsiyalari ham, bu operativ jarayonda axborot almashinuvini ta'minlovchi texnik vositalar, qurilmalar, jihoz va ashyolar ham to'liq qonun nazoratiga olingan. Negaki, uzatilinayotgan axborotning turi, u qonuniy axborot yoki g'ayriqonuniy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot ekanini aniqlashdan tashqari, u qanday vosita orqali, qaysi nuqtadan va yana qaysi manzilga yo'nalayotganini ham to'liq tartibga solish uchun, uning manbasi va resursi to'liq qonun bilan belgilangan. Bu o'z navbatida, axborot bilan ishlovchi, axborotga egalik qiluvchi mulkdor zimmasiga qonuniy majburiyatlarni yuklashda ham alohida funkasiyani bajaradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun" ning 3-moddasi asosiy tushunchalar qismida ham axborot resursiga berilgan huquqiy ta'rif mavjud bo'lib, unga ko'ra, "axborot resursi - axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi, shu jumladan axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e'lon qilinadigan audio-, video-, grafik va matnli axborotlar"dir deya ta'kidlangan [9]. Yuqoridagi texnologik qurilmalarning kashf qilinishi, haqiqatan, axborot manbasiga va resursiga katta inqilobiy o'zgarishlar kiritgani ayni haqiqatdir. Chunki hozirgi davrda, axborot almashinuvi va uzatilishida, uning uzatilish shalllariga ko'ra manba turlari mavjud. Masalan, radio asosan radio to'lqinlar orqali, ovozli axborotni katta auditoriya tomon

yo'naltiradi. Televideniya esa, rasmlı, matnli, raqamli, visual va tovush orqali turli axborot kontentini tomoshabinlarga uzatadi. Bu axborot manbasi deyarli axborot uzatishning barcha shakllaridan foydalana olish xususiyatiga ko'ra, ancha ustunliklarga ega. Bosma nashrlar, gazeta, jurnal, bulletinlar, broshuralar va har qanday bosma nashr etilgan axborotga ega tarqatma materiallar, bu matnli axborot manbayi deya xarakterlanadi. Internet manba - hozirda televideniyaning uzoq axborotga egalik qilish manbasi sifatidagi hukmronligiga barham bergan, axborot manbasi sifatida qaralmoqda. Negaki, unda ham axborot ishlab chiqarish va uzatish shakliga ko'ra, matnli, ovozli, visual, rasmlı shakllarning barchasidan aktiv foydalaniladi. Undan tashqari, internet manbalarining kuchli tomoni ham, axborotni turli axborot uzatuvchi vositalardan foydalanishidadir. Negaki, axborot hozirgi davrdagi 50 dan ziyod mashhur platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali faol uzatiladi. Millionlab veb-saytlar, fuqarolik jurnalistikasi va erkin jurnalist sifatida faoliyat olib borayotgan har qanday axborot uzatish faoliyati bilan shug'ullanayotganlar, o'zlarining shaxsiy bloglari orqali xabar uzatishmoqda. Ushbu axborot manbalarini o'zida jamlovchi bu vositalarning eng mashhuri ham internet manbalardir. Jasurbek Ilxombekov Ilxombek o'g'lining "Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari" nomli PHD dissertatsiyasida bir statistika ushbu fikrning dalili bo'lib xizmat qiladi. Ushbu statistik ma'lumot Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan olib borilgan bo'lib, hozirda internet jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xususan, 50 millionlik auditoriyaga ega bo'lish uchun radioga 30 yil, televideniya esa 13 yil, Internetga esa atigi 4 yil kerak bo'lganligi alohida ta'kidlanadi [10; B.12.]. Hozirgi davrda, 50 millionlik auditoriyaga internet orqali faoliyat yurituvchi blogger va mashhur sport va madaniyat hodimlari juda qisqa muddatda erishmoqda. Demak, axborot butun jahon bo'ylab, sun'iy yo'ldosh apparatlari orqali ulanganligi ham, axborot kiber makonida juda katta axborot manbasi borligi va milliardlab axborotlar sutkasiga sizdirilayotgani yuqoridagi statistikalar orqali o'z tasdig'ini topdi.

Axborot resurslari axborotga egalik qilish va saqlash jihatidan ham turli resurslarga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi va kafolatlari to'g'risidagi qonunda" ham axborot resursi - alohida hujjatlar, axborot tizimi yoxud kutuxonadagi hujjatlar, kitoblar, arxivlar va idoraviy arxivlardagi, fond hamda ma'lumotlar banklaridagi hujjatlar va hujjatlar to'plami deb ham huquqiy maqom berilgan [11]. Agar biror shaxs, fuqaro, ilmiy tadqiqotchi o'ziga kerakli bo'lgan axborotni olish huquqiga ega, bunda unga yuqoridagi axborot shakllariga va manbalari qo'l keladi. Ular axborot shakli, resursi, turi va manbasidan qat'iy nazar axborotni shu resurslardan foydalangan holda olish huquqiga ega, faqat qonunga muvofiq cheklangan yoki taqiq qo'yilgan axborotlar bundan mustasno. Bu shuni anglatadiki, insonlar hozirda erkin tarzda elektron kutubxonalar, kutubxonalar, muzeylar, arxivlar, axborot xizmatlaridan ma'lumotni olishda hech qanday to'siqqa uchramayotganliklarining yana bir sababi ham aynan bu huquqning kichik elementiga qadar qonun bilan tartibga solinganligidadir degan xulosaga kelindi. Fuqarolik jamiyatida, axborot olish huquqi deganda, fuqarolar juda sayoz nuqtai nazar bilan qarasalarda, bu huquqni ta'minlashda juda ko'p mehanizmlar to'xtovsiz ishlamoqda. Agar ushbu mehanizmlarning bittasi ishdan chiqsa ham, axborotning cheksiz oqimining tartibi bir lahzada jamiyatni, davlatning bir maromda ketayotgan boshqaruv tizimini izdan chiqarishi mumkin. Chunki axborot insoning aqliy va psixologik holatini ham boshqaradi va ta'sir o'tkazadi. Nobel mukofoti nomzodi, psixolog Daniel Kahneman axborotni juda ham qudratli

kuch, chunki u bizni qarorlarimiz ustidan baxo beradi deb aytgan, ya'ni biz chiqargan qarorlar yaxshi tuyilgani bilan, uni adolatli baholovchi bu axborot deb ta'rif bergan o'zining "Thinking fast and slow" asarida [12; B.1.]. O'zbekiston qonunchiligida belgilangan axborot manbasi va resursini jahon axborot makonidagi tushunchalar bilan solishtirish juda ham muhimdir. Henry Conor tomonidan 2025-yildan chop etilgan "Axborot manbasi: asosiy tushunchalar, tuzilish va Jurnalistika" nomli maqolasida axborot manbasini turli tomondan guruhlab, tasniflashga harakat qilgan. Ushbu maqolada, "Axborot resurslarini tasniflashning bir qancha sabablari bor. Tarkibiga ko'ra ularni quyidagilarga bo'lish mumkin: ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, shaxsiy ma'lumotlar, normativ, ekologik va boshqalar. Shakl bo'yicha hujjatlashtirilgan va hujjatsiz axborot resurslarini ajratish mumkin. Bu hujjatlar, o'z navbatida, matn, grafik, audio, foto va video hujjatlar, elektron manbalarga bo'linadi. Mulkchilik shakliga ko'ra ular quyidagilarga bo'linadi: davlat axborot resurslari, munitsipal, davlat tashkilotlariga tegishli va xususiy resurslar" deya yanada to'liq ta'rif berganini ko'rishimiz mumkin [13; B.2.]. Ya'ni haqiqatan ham axborotni uning mohiyati, shakli, tarkibi, axborotni uzatish xususiyatiga ko'ra sinflarga bo'lib chiqish, qonun hujjatlaridagi huquqiy bo'shliqlarni kamaytirishga xizmat qiladi

Ushbu qism bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, axborot resurs va manbalari mazmun mohiyati va tarkibiga ko'ra ilmiy, ijtimoiy siyosiy, ekologik va shaxsiy axborot manbalari sifatida guruhlanadi. Axborot shakliga ko'ra hujjatlashtirilgan va hujjatlashtirilishi lozim bo'lmagan axborotlar. Axborot tarqatish va uzatish xususiyatiga ko'ra, matnli, vizual, audio, foto va video hujjatlarga bo'linishga ega hisoblanadi. Mulkchilik shakliyatiga ko'ra, axborot resurslari davlat tashkilotiga tegishli manbalar, ochiq axborot resurslari va shaxsiy axborot (xususiy resurslar) sifatida tasniflanadi degan xulosaga kelindi

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). 33-moddasi. <http://lex.uz//uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risidagi qonun. <https://lex.uz/docs/-83472>
3. Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 24.04.1997 yildagi 400-I-son: <http://lex.uz//docs/-1319>
4. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son: <http://lex.uz//docs/-52268>
5. Onlayn-platforma va veb-saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun. <https://regulation.adliya.uz/project/6294/12680?contentLang=oz>
6. Data Creation in 2024: Daily Breakdown. <https://edgedelta.com/company/blog/how-much-data-is-created-per-day>
7. Daniel Kahneman: Thinking, Fast and Slow. – Wallstreet Journal, 2024. https://medium.com/@oscar_opus/50-powerful-ideas-from-thinking-fast-and-slow-by-daniel-kahneman-cb70bac65ac7
8. Ilxombekov J. Internetdan axborot olishning konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari – Toshkent: Universitet, 2024. – 59b. https://tsul.uz/public/media/xtamybyyqt47_27_11_11_06.pdf

9. Henry Conor. State information resources: basic concepts, formation and provision | Journalism. – Fashionrebelsbook, 2025.
10. <https://fashionrebelsbook.com/17165647-state-information-resources-basic-concepts-formation-and-provision>

BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARINI XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR

Xursanov Shamsiddin Allamurod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: shamsiddincouncil@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda davlatlar o'rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirish eng muhim asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, dunyo siyosatining notinch ekanligi dunyo davlatlarining inqirozga yuz tutishini tezlashtirib yuborayotgandek tuyuladi. Ammo, har qanay holatda ham biz yodimizdan chiqarmasligimiz kerak bo'lgan bir muhim jihat shundan iboratki, savdo sohasini rivojlantirish bilan bir qatorda tabiatni asrash va ekologiyaga ham alohida e'tibor berishdir. Xalqaro savdo faoliyatini barqaror rivojlanish tamoyillarining asosi bo'lgan atrof-muhitni himoya qilish bilan uyg'unlashtira olsak, biz davlatlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit yarata olgan bo'lar edik. Maqolada ayni shu jarayondagi muammolar va ularga takliflar hamda O'zbekistonning bu boradagi tajribasini xorijiy davlatlar bilan qiyosiy tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish, SDG, BMT, JST, TRIPS, Rio deklaratsiyasi.

IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES INTO INTERNATIONAL TRADE RELATIONS: CHALLENGES AND PROPOSALS

Khursanov Shamsiddin Allamurod ugli

Master's student at Tashkent State University of Law

Annotation. Today, the development of trade relations between countries remains one of the most important issues. The current instability of global politics appears to be accelerating crises in many nations. However, regardless of the situation, one critical point that must not be overlooked is that alongside trade development, equal attention must be paid to environmental protection and ecological balance. If we can align international trade activities with the protection of the environment—one of the core principles of sustainable development—we would create a foundation for the stable growth of national economies. This article analyzes the existing problems in this process, offers solutions, and presents a comparative legal analysis of Uzbekistan's experience with that of foreign countries.

Key words: Sustainable development, SDG, UNO, WTO, TRIPS, Rio declaration.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-41>

Kirish. Barqaror rivojlanish bugungi kunda xalqaro munosabatlar va global iqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, xalqaro savdo munosabatlari doirasida ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Savdo faqat iqtisodiy o'sishni emas, balki atrof-muhit va inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiluvchi kuch sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bois, ushbu maqola xalqaro savdo doirasida barqaror rivojlanish tamoyillarining huquqiy implementatsiyasi, mavjud muammolarni tahlil qilish va istiqbolli takliflarni ishlab chiqishga harakat qilinadi.

Metodlar. Maqola IMRAD usuli asosida yozildi. Unda quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniladi: tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, induktiv va deduktiv tahlil, keys-stadi, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar sharhi. Maqolada JST va BMT

doirasidagi asosiy konvensiyalar, xalqaro amaliyot, O'zbekiston qonunchiligi va xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil olib borildi.

Natijalar va tahlil: JST konvensiyalarining barqaror rivojlanishdagi roli. Jahon savdo tashkiloti (JST) xalqaro savdo munosabatlarining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi bo'lib, uning konvensiyalari (GATT, GATS, TRIPS) xalqaro savdo qonunchiligining asosini tashkil etadi. GATT (1947)ning 20-moddasi ekologik sabablarga ko'ra savdoni cheklash imkonini beruvchi istisnolarni nazarda tutadi[1]. Bu moddaga ko'ra, a'zo davlatlar "odam, hayvon yoki o'simlik hayotini himoya qilish uchun zarur bo'lgan choralar"ni qo'llashi mumkin.

Ushbu moddani mahalliy qonunchilikka implementatsiya qilish yoki xalqaro xususiy munosabatlarni tartibga solishda qo'llash turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, bu kabi normalarning qabul qilinishi tadbirkorlar ya'ni xalqaro savdoda ishtirok etuvchi subyektlar uchun ortiqcha protsessual tartiblarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu kabi byurokratik to'siqlar paydo bo'lishining oldini olish choralari ham ko'rilishi zarur. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida"gi Qonun ining 4-moddasida asosiy prinsiplar keltirilgan bo'lib, ushbu prinsiplar qatoriga atrof-muhitni himoya qilishda taraflarning o'zaro javobgarligi prinsipini ham kiritish mumkin. Bu protsessual jihatdan yuridik shaxslar uchun muammo keltirib chiqarmaydi ammo, ulaer tarafidan tabiat uchun yetkazilgan zarar uchun javobgarlik keltirib chiqaradi. Shu yo'l orqali byurokratik to'siqlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

GATS esa xizmatlar savdosida ekologik xizmatlar segmentini o'z ichiga olgan bo'lib, davlatlarga ekologik xizmatlarni tartibga solish imkonini beradi[2]. TRIPS bitimi esa atrof-muhitga doir texnologik innovatsiyalarni intellektual mulk orqali himoya qilishni rag'batlantiradi[3].

Shuningdek, JST doirasida 2001-yilda boshlangan Doha Raundida "savdo va atrof-muhit" aloqalariga doir muhokamalar olib borilgan[4]. JSTning Barqaror Rivojlanish Komissiyasi esa ekologik masalalarni ilgari surmoqda.

Stokgolm deklaratsiyasi va UNEP faoliyatining huquqiy tahlili. 1972-yilgi BMT Stokgolm deklaratsiyasi global ekologik siyosatning asosiy tamoyillarini belgilagan hujjat bo'lib, unda 26 ta prinsip orqali insoniyat va tabiat o'rtasidagi muvozanat ta'kidlangan[5]. Shu hujjat asosida BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tashkil etildi.

UNEP ekologik standartlar ishlab chiqish, davlatlararo kelishuvlarni targ'ib qilish va ekologik monitoring tizimini rivojlantirish bilan shug'ullanadi. UNEP tomonidan ishlab chiqilgan Milliy Barqaror Rivojlanish Strategiyalarini (NSDS) tayyorlash metodologiyasi ko'plab davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham amaliy ahamiyatga ega[6].

UNEPning savdoga taalluqli faoliyatida quyidagilar alohida ajralib turadi:

- Yashil iqtisodiyotni ilgari surish (Green Economy Initiative);
- Global Environment Outlook (GEO) hisobotlari orqali savdo va ekologiya o'rtasidagi bog'liqlikni yoritish;
- Savdo-siyosiy vositalarning ekologik muvofiqligini baholash.

Parij Bitimi, Rio Konvensiyasi va Agenda 21. Rio-de-Janeyroda 1992-yilda qabul qilingan Rio deklaratsiyasi va unga ilova sifatida ishlab chiqilgan Agenda 21 hujjati barqaror rivojlanish tamoyillarini xalqaro siyosatga integratsiya qilishga xizmat qildi[7]. 27 tamoyildan iborat Rio

Deklaratsiyasi xalqaro savdoni ekologik barqarorlikka moslashuvchan tarzda olib borishni tavsiya qiladi.

Agenda 21 esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhitni boshqarish, fuqarolik jamiyati va xalqaro hamkorlikka oid amaliy choralarni belgilaydi. Savdo bo'yicha alohida bo'limda ishlab chiqarish va iste'mol madaniyati, texnologik o'zgarishlar va ekologik standartlarning muhimligi ta'kidlanadi[8].

2015-yil Parij bitimi esa harorat ko'rsatkichlarini saqlash, karbon chiqindilarini kamaytirish, va "nationally determined contributions" (NDCs) tizimini joriy etish orqali BRga erishishni ko'zlaydi. Xalqaro savdo siyosatining ushbu maqsadlarga xizmat qilishi zarur[9].

O'zbekiston qonunchiligi va JSTga integratsiya istiqbollari. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish jarayonida savdo-siyosiy qonunchiligini moslashtirish bilan birga, BR tamoyillarini ham implementatsiya qilishi zarur. Quyidagi hujjatlar BR tamoyillarining huquqiy asosini shakllantiradi:

- O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni[10];
- O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun;
- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston-2030" strategiyasi;

Shuningdek, Texnik tartibga solish to'g'risidagi qonunchilik JST talablari asosida ekologik standartlarni integratsiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Korporativ javobgarlik va O'zbekiston tajribasi. Korporatsiyalar barqaror rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ulardan atrof-muhit va ijtimoiy masalalarda javobgarlik talab qilinmoqda. Xalqaro miqyosda, ayniqsa Yevropa Ittifoqida, "Corporate Sustainability Due Diligence" kabi qonunlar korporatsiyalarning ekologik va inson huquqlariga hurmat asosida harakat qilishini ta'minlaydi[11].

O'zbekistonda esa korporativ barqarorlik instituti rivojlanish bosqichida. Korxonalarning atrof-muhit bo'yicha hisobot berish majburiyati, ESG (Environmental, Social, Governance) indikatorlarining tatbiqi, jamoatchilik monitoringi zaif rivojlangan.

Takliflar:

- ESG hisoboti yuritish majburiyatini yirik kompaniyalar uchun joriy qilish;
- Ekologik soliq va kompensatsiyalar tizimini joriy etish;
- Barqaror rivojlanish bo'yicha mustaqil tartibga solish instituti (regulyator) tashkil etish (masalan, Ekologik Ombudsman);
- Nodavlat tashkilotlar ishtirokini kuchaytirish.

Qiyosiy-huquqiy tahlil: AQSh, Yel va Xitoy tajribasi. AQShda "National Environmental Policy Act" (NEPA) ekologik baholashni majburiy etadi va savdo bitimlarida ham ekologik baholashlar talab etiladi[12].

- Yelda "Green Deal" siyosati savdoni karbon neytral tarzda amalga oshirishga qaratilgan. 2023-yildan boshlab "Carbon Border Adjustment Mechanism" (CBAM) joriy qilinadi[13].

- Xitoyda "Eco-civilization" konsepsiyasi va barqaror rivojlanishga oid besh yillik rejalarda savdo va ekologiya uchun uyg'unligi ko'zda tutilgan[14].

Bu tajribalar O'zbekiston uchun quyidagi jihatlarida foydali bo'lishi mumkin:

- Integratsiyalashgan ekologik baholash tizimi yaratish;
- Savdo bo'yicha bitimlarda atrof-muhitga ta'sir tahlilini majburiylashtirish;

- Karbon kvotalar va yashil sertifikat tizimlarini joriy qilish.

Barqaror rivojlanish tamoyillarini xalqaro savdo siyosatiga to'laqonli integratsiya qilish uchun quyidagi institutsional islohotlar taklif qilinadi:

- Xalqaro savdo bitimlariga ekologik majburiyatlarni kiritish;
- JST bilan muzokaralarda "environmental safeguards" ni muhokama qilish va mexanizmini ishlab chiqish;
- O'zbekiston savdo strategiyasiga barqaror rivojlanish indikatorlarini qo'shish.

Xulosa. Xalqaro savdo barqaror rivojlanishga qarshi emas, balki u bilan uyg'unlashgan tarzda yuritilishi zarur. JST, BMT hujjatlari va xorijiy tajriba O'zbekiston uchun huquqiy islohotlar yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi. Korporativ javobgarlikni mustahkamlash, qonunchilikni takomillashtirish va institutsional rivojlanishni jadallashtirish orqali O'zbekiston xalqaro savdoning barqaror rivojlanish tamoyillariga mos modelini shakllantirishi mumkin.

Bu yo'lda biz avvalo xalqaro savdo uchun hech qanday to'siq yaratmaslik haqida o'ylashimiz kerak. Agar, mana bu kiritilayotgan yoki ilgari surilayotgan takliflar sababli xalqaro savdo to'xtab qoladigan yoki inqirozga yuz tutadigan bo'lsa, biz tabiatni asrash bo'yicha va xalqaro savdo faoliyatini hamda atrof-muhitni uyg'unlashtirgan holda tashkil etishga erisha olmasligimiz mumkin. Qonunchilik normalari har bir subyekt uchun to'siq emas balki, imkoniyat kaliti sifatida xizmat qilishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

I. Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar

1. GATT, General Agreement on Tariffs and Trade, 1947. https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/ai17_e/gatt1994_e.htm
2. GATS, General Agreement on Trade in Services, WTO, 1995. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/26-gats.pdf
3. United Nations, Stockholm Declaration, 1972. Havola: <https://docs.un.org/en/A/CONF.48/14/Rev.1>
4. United Nations, Rio Declaration on Environment and Development, 1992. Havola: <https://www.un.org/en/conferences/environment/rio1992>
5. United Nations, Agenda 21, 1992. Havola: https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/Agenda21.pdf?_gl=1*17gjk8h*_ga*MTY5NzczNTQ4Ni4xNzQ3Mjg4MjE5*_ga_TK9BQL5X7Z*_czE3NDg1MTYyNDYkbzYkZzAkdDE3NDg1MTYyNDYkajYwJGwwJGgw
6. UNFCCC, Paris Agreement, 2015. <https://unfccc.int/process-and-meetings/the-paris-agreement>
7. European Commission, Proposal for a Directive on Corporate Sustainability Due Diligence, 2022. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/IDAN/2022/702560/EXPO_IDA\(2022\)702560_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/IDAN/2022/702560/EXPO_IDA(2022)702560_EN.pdf)
8. European Union, Green Deal Policy Framework, 2020. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en
9. State Council of China, Five-Year Plan on Ecological Civilization, 2021. https://www.fujian.gov.cn/english/news/202108/t20210809_5665713.htm

10. WTO Trade and Environment Division Reports, 2022.
https://www.wto.org/english/res_e/publications_e/wtr22_e.htm
11. UNEP, Green Economy Report, 2011.
<https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?page=view&type=400&nr=126&menu=35>
12. UNCTAD, Trade and Environment Review, 2013. <https://unctad.org/publication/trade-and-environment-review-2013>

II. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar

13. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
<https://lex.uz/ru/docs/-107115?ONDATE2=01.01.2024&action=compare>
14. O'zbekiston Respublikasi "Ekologik ekspertiza to'g'irisida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-32955>.
15. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'irisida"gi Qonun <https://lex.uz/ru/docs/-18942>

ELEKTRON TIJORAT SHARTNOMALARINING AN'ANAVIY TIJORATDAGI SHARTNOMALARDAN FARQI VA O'ZIGA XOSLIKLARI

Adizova Nargiza Parda qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: ushbu tezisdan elektron tijorat shartnomalarining tuzilishi, shakli va amalga oshirilishi bilan bog'liq an'anaviy shartnomalardan farqli jihatlari, elektron shartnomalarga qo'yiladigan talablar va ularni tartibga soluvchi qonunchilik asoslari, elektron tijorat shartnomalarining afzalliklari va kamchiliklari, elektron shartnomalarning o'ziga xosliklari O'zbekiston, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi qoidalari orqali o'rganilib, atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron shaklda tuzib bo'lmaydigan shartnoma turlari, elektron shartnomalarni E-imzo bilan tasdiqlash masalalari, Internet tarmoqlaridagi barcha takliflar oferta hisoblanmasligi masalalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: elektron shartnoma, oferta, aksept, elektron imzo, axborot vositachilari, kiberxavfsizlik, elektron axborot almashish.

DIFFERENCES AND CHARACTERISTICS OF ELECTRONIC COMMERCIAL CONTRACTS FROM TRADITIONAL COMMERCIAL CONTRACTS

Adizova Nargiza Parda qizi

Master's student at Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This thesis studies and analyzes in detail the differences between electronic commercial contracts and traditional contracts in terms of their structure, form and implementation, the requirements for electronic contracts and the legal framework regulating them, the advantages and disadvantages of electronic commercial contracts, and the specifics of electronic contracts through the rules of Uzbekistan, Great Britain and the European Union. It also analyzes the types of contracts that cannot be concluded electronically, the issues of confirming electronic contracts with an E-signature, and the fact that not all offers on the Internet are considered offers.

Keywords: electronic contract, offer, acceptance, electronic signature, information intermediaries, cybersecurity, electronic information exchange.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-42>

O'zbekistonda elektron tijorat shartnomalarini tartibga soluvchi bir qancha qonunchilik normalari mavjud bo'lib, jumladan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun: shartnomalar tuzishga doir umumiy talablar; elektron tijoratdagi elektron hujjatlarning va elektron xabarlarining yuridik kuchi; elektron tijoratda ofertaga doir talablar; elektron tijoratda hujjatlarni saqlashning o'ziga xos xususiyatlari; elektron tijoratni amalga oshirish jarayonlari; shartnomani tuzish tartibi; raqamli mahsulotlar bo'yicha shartnomalarni rasmiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari; elektron tijoratda shartnomalar shartlarining o'ziga xos xususiyatlari kabi qoidalarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-son "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori elektron tijorat shartnomalarini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari hisoblanadi.

Elektron tijorat shartnomalari taraflarning huquq va majburiyatlarini vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan, elektron savdo maydonchasi – axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tuzilgan kelishuvdir. Elektron shartnoma va an'anaviy shartnomalarning mazmun mohiyatida o'xshashliklar ko'p, faqat ayrim jihatlari bilangina bir-biridan farqlanadi. O'xshash jihatlarga e'tibor qaratsak, ikkala shartnoma ham taraflarning kelishuviga ko'ra tuziladi va taraflar uchun huquq va majburiyatlar keltirib chiqaradi. Farqli jihatlari esa, birinchidan, shakl jihatidan an'anaviy shartnomalar og'zaki va yozma shaklda tuziladi, shaxslar tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Elektron shartnomalar esa yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning 14-moddasiga ko'ra, shartnomalarni tuzish chog'ida qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida hujjatni o'z qo'li bilan imzolash talab qilingan hollarda elektron hujjat, agar shartnoma tarafi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash tartib-taomili bajarilsa, imzolangan deb hisoblanadi. Elektron tijoratdagi hujjatda hujjatni imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari ("SMS", "Face-ID" va boshqalar) ham imzo sifatida tan olinadi.

Elektron shartnomalar bir qancha qulaylikka ham ega hisoblanadi, ya'ni elektron shartnomani tuzish an'anaviy shartnoma tuzishdan ko'ra, tezroq va qulayroq amalga oshiriladi. Elektron shartnoma tuzish uchun joy talab qilinmaydi, kompyuter texnologiyalari va uzluksiz internet tarmog'ining o'zi kifoya qiladi. Bundan tashqari an'anaviy qog'oz shaklida tuziladigan shartnomalarni saqlash uchun fizik joy talab etiladi, elektron shartnomalar raqamli serverlarda saqlanadi. Shu jihatdan elektron shartnomalarning saqlanishi bo'yicha kiberxavfsizlik masalasi ham bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Elektron tijoratni amalga oshiruvchi subyektlar shartnoma tuzish jarayonida shartnomadagi ma'lumotlarning o'zgarib qolishi yoki uning butunlay tizimdan o'chib ketishini oldini olish uchun kiberxavfsizlikni ta'minlashi zarur.

Q.Mehmonov o'zining ilmiy izlanishlarida internet orqali shartnoma tuzish odatdagi shartnoma tuzishdan bir qator xususiyatlari bilan farqlanishini keltirib o'tgan. Jumladan: Birinchidan, taraflar yuzma-yuz o'tirmagan holda onlayn muhitida bo'lishi va internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Ikkinchidan, oferta va aksept ham o'ziga xos shaklda, ya'ni internetga joylashtirilgan bo'ladi. Bunda har qanday taklif ham oferta sifatida qaralmasligi zarur. Ayrim hollarda oferent ofertaga qo'yiladigan talablarni batafsil o'z veb-saytida e'lon qiladi. Uchinchidan, internet orqali tuzilgan shartnoma elektron hujjat shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lishi shart. To'rtinchidan, aksariyat fuqarolik-huquqiy shartnomalarni internet orqali tuzish mumkin bo'lsada, ayrim istisnolar ham mavjud. Bunda, avvalo shartnoma narsasi va mohiyatidan kelib chiqiladi. Beshinchidan, internet orqali shartnoma tuzish yagona qonun hujjati bilan emas, balki kompleks qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. [2; 44-45 b.] Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, bir qancha qo'shimchalarni keltirib o'tish mumkin: qonunchilikka ko'ra shartnoma taraflarning ixtiyoriy kelishuviga ko'ra tuzilishi kerak. Shunga ko'ra taraflar o'zining erk-irodasini ixtiyoriy bildirayotganini tasdiqlash elektron shartnomalarda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Buning oldini olish maqsadida Buyuk Britaniya sud amaliyotida elektron shartnomani imzolashda guvohlarning ishtirokini

ta'minlash qoidasi belgilangan. Odatda electron shartnomalarni electron imzo bilan tasdiqlashning o'zi taraflarning roziligini bildiradi.

Elektron shartnomalarning o'ziga xos tomonlaridan biri sifatida barcha turdagi shartnomalarni ham electron shaklda tuzishning imkoni yo'qligi bilan izohlash mumkin. I.Rustambekovning fikricha, qonun hujjatlariga asosan, davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinadigan shartnomalar, xususan, ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar yoki patentdan o'zga shaxs foydasiga voz kechish shartnomalari; notarial tasdiqlashni talab qiluvchi bitimlar, masalan, renta shartnomasi; odatdagi tartibda vasiyatnoma tuzish, shuningdek, o'zining alohida tuzilish tartibiga ega bo'lgan birja bitimlari internet tarmog'i orqali electron tijorat doirasida electron shartnoma shaklida tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ularning electron shartnoma shaklida tuzilishi shartnomaning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin. [3; 61-b.] Ushbu qoidalar "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunning amal qilish sohasi bilan ham belgilanadi, ya'ni qonunning 1-moddasida quyidagicha qoida belgilangan: Ushbu Qonunning amal qilishi: tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan davlat xaridlariga; birja faoliyati uchun litsenziyalarga ega bo'lgan birjalarda tuziladigan kelishuvlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. [1; 1-modda]

Elektron tijorat shartnomalarida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan masalalardan biri bu – internet saytlari va dasturlardagi barcha taklif va reklamalar oferta hisoblanish yoki hisoblanmaslik masalasidir. Internet sahifasida joylashtirilgan taklif va reklamalar oferta hisoblanadimi degan savolga javob berishda ikki asosiy holatga e'tibor qaratish zarur. Birinchi holatda, bu taklif ommaviy oferta bo'lishi mumkinligi, ya'ni shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga olgan va taklif qiluvchi tomon taklifni ko'rib chiqqan har qanday shaxs bilan ushbu shartlar asosida shartnoma tuzishga tayyorligini bildirgan bo'lsa bu ommaviy oferta bo'ladi va oferta yo'llovchi taraf aksept yuborgan har qanday shaxs bilan shartnoma tuzishga majbur bo'ladi. Ikkinchi holatda esa, bu faqat reklama yoki ofertaga taklif bo'lib, haqiqiy oferta sifatida qabul qilinmaydi va taraf shartnoma tuzish majburiyatiga ega bo'lmaydi. Ushbu ikki jihatni tushunish shartnoma tuzilishida xatoliklarga yo'l qo'ymaslik va kelajakdagi nizolarni oldini olish uchun juda muhimdir. Masalan, Buyuk Britaniyada sayt orqali e'lon qilingan mahsulotlar ommaviy oferta sifatida emas, balki oferta berishga chaqirish (ofertaga taklif) sifatida ko'riladi. Internet-do'konlarda esa saytning foydalanish qoidalarida taklifning haqiqiy oferta ekanligi ko'rsatiladi. Shunday qilib, sotuvchi muammoli vaziyatlar yuzaga kelmasligi uchun sayt shartlarini batafsil va aniq belgilab qo'yadi. Shuningdek, Germaniya va Buyuk Britaniyada do'kon vitrinasi orqali ko'rsatilgan mahsulotlar ham oferta emas, balki ofertaga taklif deb hisoblanadi (*invitatio ad offerendum*).

Xulosa qiladigan bo'lsak, elektron tijorat shartnomalari an'anaviy shartnomalardan shakl, imzolash usuli, tezkorlik, xavfsizlik, huquqiy asos va saqlash jihatidan tubdan farq qiladi. An'anaviy shartnomalar ko'pincha qog'ozda tuzilib, qo'l bilan imzolansa, elektron tijorat shartnomalari raqamli shaklda bo'lib, elektron imzo va maxsus texnologiyalar orqali tasdiqlanadi. Bundan tashqari, elektron shartnomalar masofadan tezkor va qulay tuzilishi, shifrlash orqali yuqori xavfsizlikka ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Ular maxsus elektron tijorat qonunlari asosida tartibga solinadi va raqamli formatda saqlanadi, bu esa arxivlash va boshqarishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, an'anaviy shartnomalar aniq huquqiy an'analar

va amaliyotlarga tayangan holda tuziladi, biroq jarayonlari ko'proq vaqt va mehnat talab qiladi. Shunday qilib, elektron tijorat shartnomalari zamonaviy texnologiyalar yordamida an'anaviy shartnomalarga nisbatan yanada samarali va xavfsiz huquqiy vosita sifatida shakllanmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2022-yil., 03/22/792/0870-son.
2. Mehmonov Q. Internet orqali shartnoma tuzishning xususiyatlari. 2019. № 3. O'zbekiston qonunchiligi tahlili. Uzbek law review. Обзор законодательства Узбекистана.
3. Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik- huquqiy munosabatlarni tartibga solish; yurid. fan. dokt. diss. ... avtoref. – T.: TDYU, 217

O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING SHAKLLANISHI VA HUQUQIY ASOSLARI

Omonkeldiyeva Sevara Odiljon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish tarixi, asosiy qonuniy asoslari hamda sohadagi mavjud muammolar tahlil qilingan. Elektron tijorat sohasidagi texnologik yutuqlar, onlayn to'lov tizimlari va internet infratuzilmasining rivojlanishi savdo-sotiqning raqamli shaklga o'tishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, pandemiya davrida bu sohaning ahamiyati ortgani, yangi imkoniyatlar paydo bo'lgani ta'kidlangan. Tezisda elektron tijoratni yanada rivojlantirish uchun huquqiy bazani mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish va infratuzilmani yaxshilash zarurligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, raqamli savodxonlik, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, UNCITRAL, elektron savdo platformalari, elektron to'lov infratuzilmalar.

FORMATION AND LEGAL FOUNDATIONS OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN

Omonkeldiyeva Sevara Odiljon qizi

Student of Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes the historical development of e-commerce in Uzbekistan, its main legal frameworks, and existing challenges in the field. Technological advancements, online payment systems, and the growth of internet infrastructure have contributed to the transition of trade into digital formats. The importance of e-commerce notably increased during the pandemic period, creating new opportunities. The thesis highlights the need to strengthen the legal framework, improve digital literacy, and enhance infrastructure to further develop e-commerce in Uzbekistan

Keywords: e-commerce, digital economy, digital literacy, socio-legal relations, UNCITRAL, e-commerce platforms, electronic payment infrastructure.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-43>

Ta'kidlash joizki, insoniyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida uni savdo-sotiq faoliyati kuzatib kelgan. Shu bois, jamiyat rivojlanishida, ayniqsa innovatsiyalar sohasidagi har qanday o'zgarishlar tijorat sohasida ham tezda aks etadi. Bunday o'zgarishlar, tabiiyki, axborot texnologiyalari sohasini ham chetlab o'tmadi.

Elektron savdo va elektron biznes atamalaridan ilk bor XX asr oxirida foydalanila boshlangan. Dastlab kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi yirik korporatsiyalar bu atamalarni ishlab-chiqarish va xo'jalik faoliyatini raqamli texnologiyalar orqali optimallashtirish kontekstida qo'llaganlar.

Mazkur tushunchani iqtisodchi D. Kozye birinchilar qatorida kiritgan bo'lib, u elektron tijoratni "foyda olish va bu jarayonni davom ettirishga qaratilgan tijoriy operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni bo'lib, u hamkorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yengillashtiradi", deb ta'riflagan. [1; 206-b]

J.F. Reyport va B.J. Yavorski esa "...Elektron tijoratni texnologik vositalar orqali tomonlar (shaxslar, tashkilotlar yoki ularning ikkalasi) o'rtasidagi almashinuv, shuningdek, ichki yoki tashqi tashkilotlararo jarayonlar ko'rinishidagi faoliyat deb aniqlash mumkin, bu jarayonlar elektron shakldagi almashinuvga xizmat qiladi", deb hisoblaydi. [2; 420-b.]

Xalqaro tashkilotlar esa ushbu tushunchani o'zlariga xos tarzda talqin qiladilar. Masalan, BMTning xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) tomonidan

1996-yilda qabul qilingan "Elektron savdo to'g'risidagi namunaviy qonun" milliy qonunchilik asoslarini ishlab chiqishda asosiy hujjat sifatida tavsiya etilgan. Ushbu hujjatga ko'ra, elektron savdo – bu "ma'lumotlarni elektron shaklda almashish yoki boshqa usullar orqali uzatish asosida, qog'oz shaklidagi an'anaviy vositalarga muqobil tarzda amalga oshiriladigan bitim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, bozor iqtisodiyotiga o'tish joriy qilindi. Bozor iqtisodiyoti rivojlanib borgan sari, zamon talabi asosida elektron tijoratga bo'lgan talab ham bora-bora osha boshladi. Raqamli texnologiyalarning dunyo bo'ylab rivojlanib borayotganligi barcha mamlakatlarda o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymadi. Shuning natijasida O'zbekiston Respublikasida ham raqamli texnologiyalarni takomillashtirish asosida elektron tijoratni ommalashtirish ishlari boshlandi hamda bu bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.

Elektron tijoratning dastlabki ko'rinishlari mamlakatimizda 2000-yillar boshida ko'zga tashlana boshladi. Internetning ommalashuvi, ilk internet do'konlar orqali elektron savdo-sotiqning rivojlanayotganligi hamda elektron to'lov tizimining ham kirib kelishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi, deb ayta olamiz. Shubhasiz, elektron tijorat bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni qonuniy tartibga solishga nisbatan ehtiyoj paydo bo'la boshladi va shu bilan ilk normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu normativ-huquqiy hujjatlar sirasiga 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Elektron imzo to'g'risida"gi Qonuni ham kiradi. Qonun orqali elektron shartnomalarning yuridik kuchga egaligi ta'minlandi. Elektron imzolar orqali fuqarolar va yuridik shaxslar o'zaro shartnoma tuzish, to'lovlar amalga oshirish va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, 2004-yil 29-aprelda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni elektron tijoratning asosiy tushunchalari, subyektlari va shartnomalarining huquqiy kuchini belgilab berdi. Bu hujjat elektron savdoni tartibga soluvchi ilk muhim normativ asos bo'ldi.

2010-yillarda O'zbekiston elektron to'lov infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor bera boshladi. "Click", "Payme" kabi mahalliy to'lov tizimlari paydo bo'lib, onlayn xaridlarning keng ommalashuviga sabab bo'ldi.

2020-yil va undan keyingi davr esa elektron tijorat sohasida tub burilish nuqtasi bo'ldi. Koronavirus pandemiyasi sharoitida masofaviy xizmatlarga bo'lgan talab keskin oshdi, bu esa onlayn savdo va elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishiga olib keldi. 2020-yil 5-oktyabrda 6079-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni doirasida qator tashabbuslar ilgari surildi. Elektron savdo platformalarini qo'llab-quvvatlash, startap loyihalarni moliyalashtirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha amaliy choralar hozirgi kunga qadar ko'rilmogda.

Electron tijoratning rivojlanishi jamiyat uchun ham katta yutuq bo'ldi deb ayta olamiz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari sirasiga kirishi bilan birga "landlocked"

(to'g'ridan to'g'ri dengiz yoki okean yonida bo'lmagan) davlatlar qatorida hamdir. Elektron tijoratning rivojlanishi mintaqadagi tadbirkorlarni yangi bozor bilan hamnafas bo'lishiga imkoniyat yaratdi va o'z-o'zidan daromad miqdori ham mutanosib oshib bordi. Elektron tijorat global savdoga kirishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda elektron savdo platformalarining rivojlanishi va muvaffaqiyatga erishgani chet el iqtisodchilarini ham befarq qoldirmadi. "Uzum" — O'zbekistondagi savdo maydonchasi — 2022-yil dekabrda 2023-yilgacha 23 barobar o'sishga erishdi. 2024-yilda Uzum O'zbekistonning birinchi "unicorn" kompaniyasiga aylandi — ya'ni bozordagi bahosi 1 milliard AQSh dollaridan oshgan xususiy kompaniya." [3]

Shunday bo'lsada, elektron tijoratni yurtimizda keng rivojlangan deb ayta olmaymiz. Elektron savdoning ommaviy yo'lga qo'yilishi uchun elektron tijorat bilan bog'liq sotuvchi va xaridor o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, bu bilan bog'liq nizolarni hal qilish hozircha umumiy huquq qoidolari asosida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining umumiy qoidalar qismi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan qoidalar bilan tatbiq qilinib kelmoqda. Vaholanki, elektron tijorat va unda iste'molchilarning huquqlarini qay tarzda himoya qilish bilan bog'liq yagona normativ-huquqiy hujjat qabul qilinmagan. Bu esa nizo yuzaga kelganda masalani hal qilishni biroz murakkablashtirishi shubhasiz. Chunki barcha umumiy qoidalarni ham elektron tartibda tuziluvchi shartnomalarga tatbiq etib bo'lmaydi.

Elektron tijoratning o'sishi uchun to'sqinlik qilib kelayotgan jihatlar faqatgina huquqiy sohada emas, balki yaxshi logistika, internet aloqasi, moliyaviy infratuzilma va raqamli savodxonlikni ham talab qiladi. Internetga kirmaslik sabablari ko'pincha raqamli savodxonlikning pastligi, naqd pul olish odatlari, qimmat transport xizmatlari va kichik bozorlar bilan bog'liq.

O'zbekiston hududida elektron tijoratni rivojlantirish uchun mavjud muammolarni tizimli hal etish, raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish va huquqiy asoslarni mustahkamlash muhim hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy inklyuziya, bandlik va xalqaro bozorga integratsiyalashuvni ham ta'minlaydi. Elektron tijorat — bu nafaqat texnologik jarayon, balki O'zbekistonning zamonaviy raqamli iqtisodiyot sari intilishining muhim tayanchi hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Козье Д. Электронная коммерция: пер. сангл. – М., 1999. Головенчик Г. Сущность, классификация и особенности электронной коммерции // Наука и инновации. – 2020. – №4 (206). С. 40. URL
2. Rayport J.F, Jaworski B. J. E-commerce. – Boston; Toronto; London: Irwin/McGraw-Hill, 2004. – P. 420
3. https://blogs.worldbank.org/en/psd/ending-poverty-through-e-commerce-in-kyrgyzstan--tajikistan-and-?utm_source

FUQAROLIK PROTSESSIDA MEDIATSIYANING HUQUQIY ASOSLARI

Anvarova Azizabonu Anvar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: anvarovaazizabonu003@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mediatziya tushunchasi, lotincha "mediare" so'zidan olingan bo'lib, "vositachilik qilish" degan ma'noni anglatadi. Tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish mas'uliyatli vazifa hisoblanadi, shuning uchun ko'pgina xorijiy mamlakatlarda mediatorga kasbiy malaka, mediatsiya sohasida qo'shimcha maxsus tayyorgarlik, yosh va amaliy tajribaga oid maxsus talablar mavjud. Aksariyat xorijiy mamlakatlarda nizolarni sudga nisbatan mediatsiya orqali hal etish rivojlangan va uning ko'rsatkichi ancha yuqori. Ushbu maqolada mediatsiya hamda nizolarni hal qilishda uning o'rni, shu bilan bir qatorda, uning muammolari yoritilib, ushbu muammolar yuzasidan amaliy takliflar beriladi va xorijiy davlatlarda mediatsiyasining o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, nizo, huquq, vositachilik, sud, kelishuv, mediator, tinchlik

LEGAL BASIS OF MEDIATION IN CIVIL PROCEEDINGS

Anvarova Azizabonu Anvar qizi

Master's student, Tashkent State Law University

Email: anvarovaazizabonu003@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The concept of mediation is derived from the Latin word "mediare", which means "to mediate". Resolving disputes between parties is a responsible task, therefore, in many foreign countries, there are special requirements for a mediator regarding professional qualifications, additional special training in the field of mediation, age and practical experience. In most foreign countries, resolving disputes through mediation is developed compared to the courts and its rate is much higher. This article discusses mediation and its role in resolving disputes, as well as its problems, gives practical suggestions on these problems and analyzes the role of mediation in foreign countries.

Key words: mediation, dispute, law, mediation, court, agreement, mediator, peace

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-44>

Ma'lumki, huquqiy nizolarni hal etishning o'ziga xos shakli sifatida mediatsiya bugungi kunda nizolarni samarali va tejamkor hal etish imkoniyatlari tufayli sezilarli o'rin egalladi. Mamlakatimizda mediatsiya institutini milliy qonunchilikka joriy etish bo'yicha islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi va ikkinchi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish etib belgilandi [1]. Ushbu ustuvor yo'nalish doirasida sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash, xo'jalik sudlari tizimida mintaqaviy apellatsiya sudlarini tashkil etish, fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlarining qilish etib belgilandi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 79-bandida

sudgacha fuqarolik va xo'jalik nizolarini hal etishning asosiy tushunchalari, maqsadlari, vazifalari, mexanizmlarini belgilovchi "Yarashtiruv jarayonlari (mediatsiya) to'g'risida"gi O'zbekiston loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Mediatsiya deganda taraflar o'rtasidagi nizoni ularning ixtiyoriy roziligi asosida uchinchi shaxs ya'ni mediator orqali hal qilish usuli tushuniladi. BMT ustavining 33-moddasida mediatsiya (vositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan [2]. Yevropa parlamenti va kengashining 2008-yilgi 52-direktivasi fuqarolik va tijorat nizolarida mediatsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Taraflar boshlab bergan yoki sud tomonidan tayinlangan yoxud milliy qonunchilik bilan belgilanganidan qat'i nazar, ikki yoki undan ortiq nizolashuvchi taraflarning nizoni hal etish to'g'risida kelishuvga erishish maqsadida uchinchi shaxsga murojaat etish jarayonidir» [3]. mediatsiyada taraflar mediatorni ixtiyoriy tanlaydilar, sudda esa sudyani tanlash huquqi berilmagan, mediatsiyada o'z ixtiyorlari bilan rozi bo'lib, istalgan mediatorni tanlasalar, sudga faqat yashash joyi bo'yicha murojaat qilishlari mumkin. Shuningdek, sudning vazifasi kim haq, kim aybdorligini aniqlash bo'lsa, mediatsiyada taraflar o'rtasidagi hamkorlik va do'stona munosabatlarni saqlab qolingan holatda kelishuvga erishish asosiy maqsad qilib olinadi. Sudlarning ish hajmi kattaligidan ishlarni ko'rib chiqish bir necha oy va undan ortiq vaqtga cho'zilib ketadi, mediatsiya jarayoni esa juda qisqa muddatda ham yakunlanishi mumkin; mediatsiya sud jarayoniga qaraganda har tomonlama tejimli bo'ladi. Sudda qaror faqat qonunga asoslanib qabul qilinadi, mediatsiyada esa qarorni taraflarning o'zlari qabul qiladilar. Sud tartibida ko'riladigan nizolar bo'yicha bir taraf foydasiga chiqarilgan qaror ikkinchi tarafning ziyoniga xizmat qiladi. Mediatsiyani qo'llashda taraflar ixtiyoriy ravishda mediativ kelishuv tuzish orqali nizoni hal qilish yo'llari va usullari, kelishuvda belgilangan majburiyatlarni bajarish muddatlari hamda ushbu majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlarini ham belgilab qo'yishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida 2018-yilda qabul qilingan "Mediatsiya to'g'risidagi" qonun amal qiladi [4]. Mazkur qonunning maqsadi nizolarni tartibga solishning muqobil usullarini rivojlantirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratish, sud tizimiga tushadigan ish hajmini kamaytirishdan iborat. Mediatsiya ixtiyorilik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, maxfiylik, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi. O.Xolmizaev va R.Sagatov mediatsiyaning quyidagi prinsiplarini ajratib ko'rsatgan: taraflarning teng huquqliligi, ixtiyoriyligi, o'zaro hurmati, maxfiyligi, jarayonning maxfiyligi, shaffofligi, mediatorning xolisligi [5]. F.Otaxonovning ta'kidlashicha, mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, tomonlarning hamkorligi va teng huquqligi, mediatorning mustaqilligi va xosligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi [6]

Mediatorlik jamiyatdagi barqarorlik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Sababi mediatsiya orqali adolatli kelishuvlarga erishiladi va fuqarolarda sud tizimiga bo'lgan yukni kamaytirgani sababli ijtimoiy ishonchni oshiradi. Shuningdek nizolarni o'zaro hal qilish madaniyatini shakllantiradi. Taraflar o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy saqlab qolib, mahallalardagi ijtimoiy birdamlikni ta'minlashga yordam beradi.

O'tgan vaqt davomida jamiyatimizda mediatsiyani yanada keng qo'llash maqsadida qonunchilik hujjatlarida mediatsiyani sudgacha, sudda va ijro bosqichlarida qo'llash mumkinligi, sudlarda mediativ kelishuv tuzilganda, davlat boji qaytarib berilishi kabi imtiyozli normalar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni da nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kenlaytirishga e'tibor qaratilgan.

Fuqarolik protsessual kodeksning 17-bobi yashtiruv tartib-taomillari ni tartibga soladi. Unda mediativ kelishuv da'vo tartibida yuritiladigan har qanday ish bo'yicha birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraflar tomonidan tuzilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan [7].

Mediatsiya fuqarolik nizolarini hal etishda juda samarali. Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya yashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kelishuv tartiblari, ayniqsa, anglo-sakson huquq tizimida va kontinental Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Amerika Qo'shma Shtatlarida mediatsiya tartibida ko'rilgan ishlarining 95%i sudgacha bormaydi. Germaniyada muzokaralarning 90% dan ortig'i kelishuv bitimi bilan yakunlanadi, xususan, Quyi Saksoniyada bu ko'rsatkich - 97% ni tashkil etadi. Buyuk Britaniyada nizolarning 90-95% i sudgacha hal qilinadi. Yevropada esa mediatsiyaning muvaffaqiyat darajasi 40-80% ni tashkil qiladi.

O'zbekistonda mediatsiya sohasidagi kamchilik va muammolarni tahlil qilib, ularni hal qilish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Mediatsiya sohasidagi asosiy muammolardan biri-mediatsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning to'liq shakllanmaganligi va talabga javob bermasligidir. Fuqarolar esa mediatsiya to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotga ega emas, shuning uchun ham ular mediatorga emas, asosan, sudga murojaat qilishni afzal ko'rishadi. AQSHda esa butun huquq tizimi ko'pchilik nizolarning sudgacha ixtiyoriy ravishda hal etilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, hattoki tomonlar mediator bilan bog'lanishlari uchun sud muhokamasi to'xtatilishi mumkin. Mamlakatda nizolarni hal qilish milliy instituti hamda xususiy va davlat mediatorlik xizmatlari mavjud. Bu muammoni hal qilish uchun "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqib, barcha sohalarni hal qilishga qaratilgan moddalarni qo'shish zarur. Shuningdek, 2018-yil 20-dekabrda qabul qilingan mediatsiya bo'yicha Singapur konvensiyasini qabul qilish orqali ham ushbu soha bo'yicha yangiliklar qabul qilinishi hamda boshqa ko'pgina mediatsiya rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik amalga oshirilib, ularning tajribasi o'rganilib, qo'llanilishi mumkin.

Keyingi muammo – sudlarning mediatsiyani muqobil vosita sifatida emas, balki ikkinchi darajali jarayon sifatida qabul qilishidir. Shuning uchun ham sud tizimida mediatsiyani majburiy yoki ixtiyoriy bosqich sifatida joriy etish hamda sudyalarning mediatorlar bilan hamkorligini mustahkamlash zarur. Oilaviy nizolarda esa sudlarga alternativ sifatida mediatsiya xizmatlarini tavsiya etish orqali ushbu sohaning rivojiga hissa qo'shiladi. Sudda taraflar sudyani tanlay olmaydi, sudga esa faqat yashash joylari bo'yicha murojaat qilishga majburdirlar, sudning asosiy vazifasi taraflarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo'lsa, mediatsiya, aksincha, taraflarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli xil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan, sudda taraflar sud qaroridan norozi bo'lsalar ham uni bajarishga majbur bo'lishadi yoki apellatsiya

shikoyati bergan taqdirlaridayam apellatsiya instansiyasi birinchi instansiya qarorini o'zgarishsiz qoldirsa, davlat boji to'lashlaridan tashqari, hal qiluv qarorini bajaradilar, lekin mediatsiyada barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar. Masalan, Germaniyada sudlar mediatorlar bilan bevosita ish olib boradi, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sud jarayonlari sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Xitoyda nizolarning 30% ga yaqini suddan tashqari hal qilinadi. Ushbu mamlakatda, agar tomonlar mediatsiya doirasida kelishuvga erishsa va uni hakamlilik sudlari tomonidan ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda tasdiqlasa, bunday bitim hakamlilik sudning qarori (arbitraj) kuchiga ega bo'ladi. Shuning uchun sudning mediatsiya bilan hamkorlikda ish olib borishi yo'lga qo'yilib, nazorat qilinishi kerak.

Va oxirgisi, mediatsiyaning cheklangan holda qo'llanilishi. Har bir soha bo'yicha mediatsiya qo'llanilishi bo'yicha qonun qabul qilinib, tartibga solinishi kerak.

Xulosa o'rnida aytganda, mediatsiya mexanizmi, nafaqat, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi, balki jamiyatning barqarorligini va birdamligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediatsiya sud jarayonlariga nisbatan tez va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lib, nizolarni hal qilishni yengillashtiradi hamda taraflarning kelishuviga sabab bo'ladi. Bu esa taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish hamda bolalar manfaatini himoya qilishda muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqot mediatsiya institutini rivojlantirish va uni keng tarqalishi zarurligini ko'rsatdi. Bunda mediatsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan islohotlar olib borish, sudlarning mediatsiya bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ushbu sohani keng tarqalishi uchun mediatorlar malakasini oshirish, qayta o'qishlari uchun chuqurlashtirilgan maxsus kurslar tashkil etishni taklif etaman. Mediatsiya insoniylik hamda muloqotga asoslangan yondashuvi, natijaviyligi va tezkorligi bilan jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadigan vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son. <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi, 1945-yil 26-iyun.
https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/uncharter/charter_Uzbek.pdf
3. Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati. Nurmatov Nurbek O'rinboy o'g'li, Qudrat Matkarimov Qalandarovich. 2024
4. Mediatsiya to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son <https://lex.uz/docs/-3805227>
5. Холмирзаев О., Сагатов Р. О роли и значении медиаторов в странах Центральной Азии // Правосудие. Ташкент 2019. №3. – С.98
6. Отахонов Ф. Правовые основы и перспективы развития медиации в Узбекистане // Правосудие. 2019. – №6. – С.98.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. <https://lex.uz/acts/-3517337#:~:text=17%2Dbob.%20Yarashtirish%20tartib%2Dtaomillari>

ДОКТРИНА СНЯТИЯ КОРПОРАТИВНОЙ ВУАЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРУГА ОТВЕТСТВЕННЫХ ЛИЦ

Сайдалиева Ойсултанахон Шохрухбековна

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета по направлению «Бизнес право»
Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В условиях усиления коммерческой активности и роста корпоративных злоупотреблений доктрина снятия корпоративной вуали приобретает особую значимость как средство правовой защиты интересов кредиторов. В статье проведен комплексный анализ концепции снятия корпоративной вуали (piercing the corporate veil) в контексте узбекского права, с учетом международного опыта и сравнительно-правового подхода. Особое внимание уделено вопросам субсидиарной ответственности учредителей и контролирующих лиц за обязательства юридического лица, возникающим в результате недобросовестных действий, повлекших банкротство. На примере конкретного судебного дела №2-1107-2006/5289 показано, как в условиях отсутствия четкой законодательной регламентации суды прибегают к доктрине снятия корпоративной вуали, руководствуясь общими принципами справедливости и добросовестности. Обосновывается необходимость законодательного закрепления четких критериев и процедур применения данной доктрины в Республике Узбекистан для повышения эффективности правоприменения, защиты интересов кредиторов и улучшения инвестиционного климата

Ключевые слова: снятие корпоративной вуали, субсидиарная ответственность, корпоративное право, банкротство, злоупотребление правом, ответственность учредителей, контролирующие лица, правоприменительная практика, Узбекистан

THE DOCTRINE OF PIERCING THE CORPORATE VEIL: CHALLENGES AND PROSPECTS IN DEFINING THE SCOPE OF RESPONSIBLE PARTIES

Saydalieva Oysultanaxon Shohruxbekovna

Master's Student at Tashkent State University of Law,
specializing in Business Law
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In the context of growing commercial activity and increasing corporate abuse, the doctrine of piercing the corporate veil has gained critical importance as a legal tool for protecting creditors' rights. This article provides a comprehensive analysis of the doctrine within the legal system of Uzbekistan, supported by international practice and a comparative legal approach. Particular focus is given to subsidiary liability of founders and controlling persons for the obligations of legal entities in cases of bad faith conduct leading to bankruptcy. Using the illustrative example of case No. 2-1107-2006/5289, the article shows how, in the absence of specific legislative regulation, courts in Uzbekistan rely on general principles of justice and good faith when applying this doctrine. The article concludes by arguing for the need to codify clear legal criteria and procedures for applying the doctrine of piercing the corporate veil in order to strengthen legal certainty, protect creditor interests, and enhance the investment climate.

Keywords: piercing the corporate veil, subsidiary liability, corporate law, bankruptcy, abuse of rights, founders' liability, controlling persons, judicial practice, Uzbekistan

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-45>

В условиях стремительного развития предпринимательской деятельности особую значимость приобретает принцип ограниченной ответственности, являющийся правовой основой функционирования хозяйственных обществ. Однако в ряде случаев

этот принцип превращается в инструмент недобросовестного поведения — прикрываясь корпоративной оболочкой, учредители и руководители компаний уклоняются от ответственности и оставляют без удовлетворения требования кредиторов, включая государство.

В таких ситуациях доктрина снятия корпоративной вуали (piercing the corporate veil) выступает правовым механизмом, направленным на восстановление справедливости. Она позволяет судам, в исключительных обстоятельствах, отступить от принципа отдельной правосубъектности юридического лица и возложить ответственность за его долги на физических лиц, стоящих за корпоративной структурой.

Актуальность данной темы обусловлена растущей необходимостью балансировать между защитой инвесторов и предупреждением злоупотреблений корпоративной формой. Несмотря на то, что доктрина получила широкое признание в международной практике, в Республике Узбекистан она остаётся слабо разработанной и практически не урегулированной на уровне законодательства. Это создает высокий уровень правовой неопределенности: суды вынуждены полагаться на фрагментарные нормы Гражданского кодекса, судебную практику и общие принципы добросовестности и справедливости. Неопределенность законодательства в вопросе снятия корпоративной вуали не только затрудняет борьбу с корпоративными злоупотреблениями, но и негативно влияет на инвестиционный климат. Инвесторы и кредиторы, осознавая риск невозврата долгов из-за недостаточной законодательной защиты, могут быть менее склонны к инвестициям в бизнес. Это подрывает основы коммерческой деятельности и может тормозить экономическое развитие.

Для решения этих проблем необходимо разработать и внедрить более четкие законодательные критерии для применения доктрины снятия корпоративной вуали. Это должно включать конкретные условия, при которых такое "проникновение" возможно, четко определенные процедуры расследования и судебного разбирательства, а также указания на то, какие действия или обстоятельства могут считаться злоупотреблением корпоративной вуалью.

Объектом исследования являются корпоративные отношения, связанные с ответственностью участников (учредителей, акционеров) юридических лиц по обязательствам этих лиц, особенно в случаях, когда возникает необходимость применения концепции снятия корпоративной вуали.

Предметом исследования являются нормативно-правовые акты Республики Узбекистан и зарубежных стран, регулирующие ответственность участников юридических лиц, судебная практика по делам, связанным с привлечением к субсидиарной ответственности, а также доктринальные подходы и теории, связанные с концепцией снятия корпоративной вуали в Узбекистане и зарубежных странах.

Методологической основой исследования послужили всеобщий диалектический метод, позволивший рассмотреть концепцию снятия корпоративной вуали в развитии и противоречиях; общенаучные методы (анализ, синтез, индукция, дедукция, исторический и системный подходы) для изучения элементов конструкции юридического лица и выявления взаимосвязей между правовыми нормами; а также

специально-юридические методы (формально-юридический и сравнительно-правовой) для анализа законодательства Узбекистана и зарубежной практики применения доктрины, что в совокупности обеспечило комплексное исследование темы и обоснование рекомендаций по совершенствованию правового регулирования. Практическая применимость исследования заключается в том, что сформулированные в ней выводы и рекомендации могут стать научной платформой для совершенствования гражданского законодательства, а также помочь в преодолении разногласий, возникающих в процессе применения права по делам данной категории.

Основная часть.

"Снятие корпоративной вуали" – концепция, прежде всего, англосаксонского права. Она касается не только ответственности контролирующих акционеров/участников, но и применяется для получения информации о бенефициарах и даже в интересах контролирующих лиц. Поэтому выделяют две формы "снятия корпоративной вуали":

1. Отождествление юридического лица с контролируемыми его лицами: Это происходит, когда юридическое лицо используют, чтобы обойти закон или избежать обязательств. Например, чтобы обойти запрет на владение землей иностранцами, учреждают фирму на территории страны и оформляют землю на неё.

2. Проникающая ответственность: Эта форма особенно важна для исследования. "Проникающая ответственность" редко применяется к директорам, если они не совмещают функции директора и акционера/участника. Ведь ограниченная ответственность разделяет ответственность фирмы и акционеров, а директор, не будучи акционером, не подпадает под это правило [1]. Также некоторые ученые отмечают, что привлечение директоров к ответственности по данной концепции в "фирмах-однодневках" или "нескольких компаниях, принадлежащих одному лицу" является неэффективным. Это связано с тем, что в таких компаниях в качестве директоров назначаются лица, не имеющие имущества, и выполняющие номинальную роль, а фактическое управление осуществляется контролируемыми лицами. С нашей точки зрения, к субсидиарной ответственности следует привлекать тех, кто реально влияет на деятельность фирмы, а не тех, кто просто имеет формальный статус. Такого же мнения придерживаются О. Гентовт и Д.В. Ломакин. Концепция "проникающей ответственности" введена для защиты кредиторов и является исключением из принципа разделения ответственности юридического лица и его участников/менеджеров [4]. Эта концепция позволяет возложить ответственность за долги юридического лица на его участников, менеджеров или других лиц, которые могут его контролировать.

По нашему мнению, круг лиц, которые могут быть привлечены к субсидиарной ответственности по обязательствам юридического лица, следует определять, исходя не из их статуса, а из фактической возможности оказывать решающее влияние на деятельность юридического лица. Близкие к этому идеи высказывают О. Гентовт и Д.В. Ломакин. Согласно их точке зрения, правила концепции "прорыва корпоративной вуали" введены для обеспечения интересов кредиторов и применяются в качестве исключения из принципа разделения имущества, личности и ответственности

участников (менеджеров) от имущества, личности и ответственности юридического лица [4]. Эта концепция отражается в возложении ответственности по обязательствам юридического лица на его участников или менеджеров, или на других лиц, имеющих возможность контролировать юридическое лицо. По мнению И.С. Шиткиной и Д.И. Степанова, контролирующими лицами являются лица, имеющие возможность определять решения юридического лица в результате преобладающего участия (с долей 50%) в уставном капитале или в силу договора. Однако, само по себе преобладающее участие в уставном капитале не является основанием для признания участника контролирующим лицом. Основным критерием должна быть установлена возможность фактического влияния на определение деятельности контролируемого юридического лица, направленной на формирование и выражение его воли [3].

Сложность в применении этих правил заключается в определении "неправомерных действий", которое часто остается на усмотрение судебной практики и может включать различные формы экономических злоупотреблений, такие как преднамеренное банкротство, уклонение от уплаты налогов или фальсификация финансовой отчетности.

Поскольку законодатель уже отказался от механизмов предварительного (ex ante) контроля, таких как установление минимальных требований к капитализации, проверка создания корпорации, то следует внедрить механизмы последующего (ex post) контроля, такие как доктрина "снятия корпоративной вуали" (piercing the corporate veil — в англо-американском праве) или "проникающая ответственность" (penetrating liability — в континентальных правовых системах).

Закон Республики Узбекистан № 531 от 20.03.2019 "О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с принятием дополнительных мер по улучшению делового климата в стране" отменил минимальные требования к минимальному капиталу хозяйственных обществ [2]. С одной стороны, это направлено на упрощение процедуры создания бизнеса и стимулирование предпринимательской активности. С другой стороны, эта мера может создать риски для кредиторов, поскольку снижается гарантия наличия у компании достаточных активов для покрытия своих обязательств.

Отмена минимальных требований к капиталу, по сути, облегчает создание компаний с недостаточной капитализацией (undercapitalization). Это означает, что компании могут начинать свою деятельность, не имея достаточных финансовых ресурсов, что увеличивает риск неплатежеспособности и, как следствие, невозврата долгов кредиторам. В ситуации, когда компания имеет незначительный капитал, возрастает соблазн для контролирующих лиц выводить активы, заключать рискованные сделки и, в конечном итоге, доводить компанию до банкротства, перекладывая бремя долгов на кредиторов.

В правоприменительной практике корпоративного права развитых правовых систем основанием для снятия корпоративной вуали является наличие особых обстоятельств, указывающих на то, что корпорация, несмотря на видимую самостоятельность, представляет собой лишь "фасад", "инструмент" или "оболочку", скрывающую подлинные действия и факты, относящиеся к ее контролирующим лицам.

На этом основании игнорируется юридическая самостоятельность корпорации, и она отождествляется с ее участником (акционером).

Более того, в условиях экономического кризиса, вызванного распространением коронавирусной инфекции, ожидается рост банкротств субъектов предпринимательства. Это обстоятельство требует пересмотра существующего подхода к распределению рисков ответственности, особенно с учетом недобросовестных действий контролирующих лиц. В противном случае действующее регулирование ответственности контролирующих лиц за долги компаний не позволяет справедливо распределять риски ответственности и не обеспечивает должной защиты прав и интересов добросовестных кредиторов от недобросовестных действий таких лиц.

Структура ответственности участника/акционера по обязательствам компании в узбекском праве построена на принципе субсидиарной ответственности участника/акционера.

При этом она основывается на деликтной (внедоговорной) ответственности: ответственность наступает в связи с незаконными действиями участника, которые привели к неплатежеспособности (несостоятельности) компании. Однако такая конструкция подразумевает также и иные механизмы, которые полностью не связаны и несовместимы с указанным подходом.

Как следует из части 4 статьи 48 Гражданского кодекса, на акционера (участника) может быть возложена субсидиарная ответственность по обязательствам юридического лица при одновременном наличии следующих условий:

- Наступление неплатежеспособности (банкротства) юридического лица и недостаточность его имущества для удовлетворения обязательств;
- Неплатежеспособность была вызвана незаконными действиями учредителя (то есть должна быть установлена причинно-следственная связь между банкротством и действиями участника);
- У учредителя имеется право давать обязательные указания юридическому лицу, и это право закреплено в уставе (или ином учредительном документе);
- Наличие умысла со стороны учредителя – если учредитель, используя указанное право, намеренно побуждал юридическое лицо к совершению действий, зная, что в результате наступит неплатежеспособность (банкротство) этого юридического лица (то есть преднамеренное доведение до банкротства).

Теперь мы рассмотрим основания (механизмы) возникновения "субсидиарной ответственности" отдельно. Важнейшим основанием для субсидиарной ответственности является наступление несостоятельности (банкротства). Это означает, что ответственность учредителя возникает только в том случае, если экономический суд признает неспособность юридического лица в полном объеме удовлетворить требования кредиторов по денежным обязательствам и (или) исполнить обязательства по обязательным платежам. Соответственно, законодатель последовательно связывает несостоятельность юридического лица с недостаточностью имущества для исполнения его обязательств. Самое интересное, что законодатель в контексте этой нормы вкладывает совершенно другое содержание в термин "субсидиарная ответственность": ответственность учредителя обусловлена его виной и правом давать обязательные

указания. Конечно, автор не исключает установление и предопределение субсидиарной ответственности такими политико-правовыми основаниями. Однако основная проблема при установлении такого положения о субсидиарной ответственности заключается в том, что оно отвлекает внимание от классической компенсации убытков в форме деликтной или договорной ответственности соответствующего лица, виновного в уменьшении активов юридического лица, впоследствии объявленного банкротом. В конце концов, если ответственность возникает в результате виновных незаконных действий учредителя, почему невозможно разрешить вопрос об ответственности в рамках деликта?

В конце концов, субсидиарная ответственность подразумевает полную ответственность перед кредитором по обязательствам юридического лица, а вина учредителя может не соответствовать (скорее, не соответствует в большинстве случаев) такому объему ответственности.

В Германии, как уже отмечалось, в результате противоправных, виновных действий контролирующего лица (включая учредителя / участника / акционера), в результате которых корпорация теряет свою жизнеспособность, он несет ответственность перед кредиторами в рамках правил об общем деликте в соответствии со ст. 826 Гражданского кодекса Германии (Existenzvernichtungshaftung) Эксклюзивное право государства на снятие корпоративной вуали также предоставлено в соответствии со статьей 91 Налогового кодекса Республики Узбекистан, если денежные средства юридического лица, находящегося в процессе ликвидации, недостаточны для полного погашения его налоговой задолженности, включая выручку от продажи его активов, оставшаяся непогашенная задолженность может быть взыскана с учредителей этого юридического лица — в пределах и в порядке, установленном законодательством.

В настоящей статье рассматривается один из ярких примеров судебной практики Республики Узбекистан, связанный с привлечением учредителя к субсидиарной ответственности за налоговую задолженность предприятия, признанного банкротом. Проведем анализ решения Охангаронского межрайонного суда Ташкентской области по гражданским делам от 27 октября 2020 года по делу №2-1107-2006/5289 по иску ГНИ г. Алмалык к ответчику Р.Б. о взыскании налоговой задолженности предприятия за счёт личного имущества его руководителя.

Истец подал иск о взыскании с физического лица Р.Б. налоговой задолженности в размере 9 527 742,57 сумов, образовавшейся у ООО «FUTBOL FAHRIYLARI FUTBOL KLUBI». Общество зарегистрировано как субъект предпринимательской деятельности, но признано банкротом на основании решения экономического суда от 7 июня 2015 г. Ввиду безответственного отношения учредителя (Р.Б.) к управлению, задолженность по налогам осталась невыплаченной, а у компании не оказалось имущества для исполнения судебного решения.

Суд установил, что ответчик как учредитель и руководитель допустил банкротство юридического лица своими незаконными действиями. На основании ст. 48 ГК РУз суд постановил взыскать долг с личного имущества Р.Б..

Суд частично удовлетворил иск, обязав:

- Взыскать с Р.Б. налоговую задолженность в сумме 9 527 742,57 сумов;

- Взыскать государственную пошлину в размере 381 109 сумов.

Мы видим, что снятие корпоративной вуали (piercing the corporate veil) — правовой механизм, позволяющий игнорировать отдельную правосубъектность юридического лица и привлекать к ответственности его участников или руководителей в случае злоупотребления корпоративной формой.

Суд напрямую применил ст. 48 ч. 4 ГК РУз, согласно которой участник может быть привлечён к субсидиарной ответственности, если банкротство вызвано его неправомерными действиями. Это — пример фактического снятия корпоративной вуали, при котором корпоративная форма была проигнорирована в целях удовлетворения требований публичного кредитора.

Более того, судьей было осуществлено игнорирование формального ограниченного риска в соответствии со статьей 3 Закона «Об обществах с ограниченной ответственностью», которая устанавливает, что «участники общества с ограниченной ответственностью не отвечают по его обязательствам и несут риск убытков, связанных с деятельностью общества, в пределах стоимости внесенных ими вкладов». Однако суд сделал исключение, учитывая вину учредителя и доказанный ущерб государству.

Для защиты кредиторов компаний с ограниченной ответственностью в мировой практике применяются меры *ex ante* (заранее) и *post control* (после). *Ex ante* – это инструменты, действующие при создании компании: требования к минимальному уставному капиталу, страхование ответственности и др. *Post control* – меры, применяемые при наступлении ответственности, например, концепция "снятия корпоративной вуали", которая закрепляется и развивается в законодательстве [6].

К сожалению, национальная политика пошла по пути отмены требований к минимальному уставному капиталу для стимулирования предпринимательства. Это решение критикуется юристами, которые считают, что отказ от гарантии минимального капитала негативно скажется на стабильности гражданского оборота.

В связи с этим исследование предлагает в качестве *post control* усилить возможности "снятия корпоративной вуали" (статья 48 Гражданского кодекса РУз). В частности, предлагается расширить практику привлечения к субсидиарной ответственности тех, кто фактически управляет компанией с ограниченной ответственностью и злоупотребляет ею, когда компания не может расплатиться по долгам. Это должно сочетаться с усилением контроля за финансовой деятельностью компаний и повышением прозрачности их структуры собственности, чтобы выявлять недобросовестных бенефициаров.

Заключение.

Концепция снятия корпоративной вуали является важным и необходимым механизмом для защиты интересов кредиторов и обеспечения справедливости в сфере корпоративного права. В условиях современного делового оборота, когда компании могут использовать юридическую форму для уклонения от обязательств и злоупотребления, традиционный принцип ограниченной ответственности участников требует разумных исключений.

Опыт Республики Узбекистан, отражённый в законодательстве и судебной практике, демонстрирует тенденцию к расширению применения доктрины

проникающей ответственности, что позволяет привлечь к субсидиарной ответственности тех лиц, которые фактически контролируют компанию и несут ответственность за её банкротство вследствие неправомерных действий. При этом основным критерием привлечения к ответственности должно оставаться не формальное положение лица в компании, а реальная возможность и факт контроля и влияния на её деятельность. Такой подход соответствует международным стандартам и направлен на усиление прозрачности и добросовестности в предпринимательской среде.

Важным условием повышения эффективности данного механизма является комплексное сочетание мер последующего контроля с усилением прозрачности корпоративной структуры и финансового мониторинга. Только системное применение таких мер позволит снизить риски недобросовестного управления и защитить права кредиторов и государства.

В свете экономических вызовов и роста банкротств, актуализация и развитие института снятия корпоративной вуали становится залогом устойчивого развития правовой системы и делового климата в Узбекистане.

Adabiyotlar/Literatupa/References:

1. Быканов Д. Д. "Проникающая ответственность" в зарубежном и российском корпоративном праве: дисс. канд. юр. наук. – Москва, 2018. – 320 с.
2. Закон Республики Узбекистан от 20 марта 2019 года № ЗРУ-531 - Национальная база данных законодательства, 21 марта 2019 года, № 03/19/531/2799. URL: <https://lex.uz/docs/4249870>
3. Корпоративное право: Учебный курс. В 2 т. / Отв. ред. И.С. Шиткина. – М., 2018. – Т. 2. – С. 716.
4. Ломакин Д., Гентовт О. Ответственность контролирующих лиц: правовая природа и механизм привлечения к ней //Хозяйство и право. – 2016. – №. 1. – С. 12-39.
5. Gilson, R. J., & Schwartz, A. Constraints on private benefits of control: Ex ante control mechanisms versus ex post transaction review // Journal of Institutional and Theoretical Economics (JITE)/Zeitschrift für die gesamte Staatswissenschaft. – 2013. – P. 160-183.

IJTIMOY ADOLAT PRINSIPINI TA'MINLASH: KONSTITUSIYAVIY-HUQUQIY TAHLIL

Qahramonova Sevinch Farhodovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Email: aristokratkaaaaa@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy adolat prinsipining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Germaniya hamda O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunchiligida ijtimoiy adolatni ta'minlovchi mexanizmlar qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijasida esa ikki davlatning ijtimoiy himoya tizimlaridagi o'xshashlik va farqlar aniqlangan. Maqolada ijtimoiy adolat konsepsiyasining nazariy asoslari, uning konstitutsiyaviy belgilanishi va amaliy ta'minlanish yo'llari ko'rib chiqilgan. Germaniyaning ijtimoiy bozor iqtisodiyoti modeli va O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari kontekstida adolat prinsipining ro'li baholanganli ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, konstitutsiyaviy huquq, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, qiyosiy huquqshunoslik, Germaniya, O'zbekiston, inson huquqlari

ENSURING THE PRINCIPLE OF SOCIAL JUSTICE: A CONSTITUTIONAL AND LEGAL ANALYSIS

Qahramonova Sevinch Farhodovna

Master's student, Tashkent State University of Law

Email: aristokratkaaaaa@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the constitutional and legal foundations of the principle of social justice. It explores, through comparative analysis, the mechanisms for ensuring social justice within the constitutional legislation of the Federal Republic of Germany and the Republic of Uzbekistan. As a result of the study, similarities and differences in the social protection systems of both countries have been identified. The article examines the theoretical foundations of the concept of social justice, its constitutional formulation, and the practical ways it is implemented. The role of the principle of justice is assessed in the context of Germany's social market economy model and Uzbekistan's socio-economic reforms.

Keywords: social justice, constitutional law, social protection, welfare state, comparative law, Germany, Uzbekistan, human rights.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-46>

Ijtimoiy adolat prinsipi bugungi kunda zamonaviy davlat va huquq kabi nazryalarning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning ko'plab mamlakatlar konstitutsiyalarida ijtimoiy davlat konsepsiyasini yanada mustahkamlagan va ijtimoiy adolatni ta'minlashni davlatning eng asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilab bergan. Ijtimoiy adolat prinsipi nafaqat inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, shu bilan bir qatorda, jamiyatdagi ijtimoiy tenglik va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniya Federal Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tizimlarida ijtimoiy adolat prinsipiga alohida e'tibor qaratilgan. Germaniyaning "ijtimoiy bozor

iqtisodiyoti" modeli va O'zbekistonning "inson manfaatlari ustuvorligiga asoslangan ijtimoiy davlat" konsepsiyasi ijtimoiy adolatni amalga oshirishning turli yo'llarini ko'rsatadi.

Ijtimoiy adolat tushunchasi ko'p qirrali va murakkab fenomen bo'lib, uning mohiyatini tushunish uchun turli nazariy yondashuvlarni tahlil qilish zarur. John Rawls o'zining "Theory of Justice" asarida adolatni jamiyatning asosiy tuzilmasi sifatida ta'riflagan va "adolat - bu ijtimoiy institutlarning birinchi fazilati" deb ta'kidlagan.

Nemis huquqshunoslari esa ijtimoiy adolat tushunchasini "Soziale Gerechtigkeit" atamasi bilan ifodalaydilar va ijtimoiy adolatni davlat faoliyatining eng asosiy prinsiplaridan biri sifatida ko'rib chiqadilar. Bu konsepsiya XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Gustav Schmoller va Lujo Brentano kabi iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan. Nemis konstitutsiyaviy huquqida ijtimoiy adolat prinsipi "ijtimoiy davlat" (Sozialstaat) tushunchasi orqali o'z ifodasini topgan.

O'zbek huquqshunosligida ijtimoiy adolat masalasi mustaqillik yillarida faol ravishda o'rganila boshlandi. O'zbekistonlik olimlar ijtimoiy adolatni milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar kontekstida tahlil qiladilar. Bu yondashuv mahalliy sharoitlar va tarixiy tajribani hisobga olgan holda ijtimoiy adolat prinsipini amalga oshirishga imkon beradi.

Germaniyada ijtimoiy adolatning konstitutsiyaviy asoslari Germaniya konstitutsiyaviy huquqida ijtimoiy adolat quyidagi yo'nalishlar orqali ta'minlanadi:

Mehnat huquqlarining himoyasi. Asosiy qonunning 11-moddasi majburiy mehnatni taqiqlaydi va kasb tanlash erkinligini kafolatlaydi. Federal Mehnat sudi va ijtimoiy sudlar tizimi mehnatchilar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. 2019-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada mehnat nizolari bo'yicha sudlar 85% holatda ishchilar foydasiga qaror qabul qilgan. Bunday statistiklardan kelib shuni xulosa qilish mumkinki, Germaniya Federatsiyasi ijtimoiy davlat sifatida o'z qonunlarida ijtimoiy adolatni ta'minlab bergan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi, 85% mehnat nizolarining ham aynan fuqarolar, ya'ni ishchilarning foydasiga hal etilishi ham buni yorqin misola bo'la oladi.

Ijtimoiy xavfsizlik tizimi. Sobiq Germaniya kansleri Bismark tomonidan XIX asrda yaratilgan ijtimoiy sug'urta tizimi bugungi kunda ham Germaniyaning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etadi. Bu tizim pensiya ta'minoti, tibbiy xizmat, ishsizlik va baxtsiz hodisalardan sug'urtani o'z ichiga oladi. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada ijtimoiy xarajatlar YalMning 25.9% ni tashkil etgan. Ijtimoiy harajatlar uchun yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismini sarflanishi esa davlatning qanchalik ijtimoiy masalalar muhim ahamiyat kasb etishini va ijtimoiy adolatning ta'minlanganligini ko'rsatadi.

Ta'lim huquqining kafolatlanishi. Germaniyada barcha fuqarolar uchun bepul ta'lim tizimi mavjud. Federal konstitutsiyaning 7-moddasi ta'lim sohasida davlat nazoratini belgilaydi. Germaniyada oliy ta'lim ham amalda bepul bo'lib, bu ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim omilidir.

O'zbekistonda ijtimoiy adolatning konstitutsiyaviy ta'minlanishi

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat va ijtimoiy adolat kabi prinsiplar yanada mustahkamlagan. Konstitutsiyaning 1-moddasi "O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir" deb belgilaydi. Konstitutsiyaning birinchi moddasidanoq davlatning ijtimoiy davlat ekanligining belgilanib

qo'yilishi, davlatda qanchalik ijtimoiy adolatni ta'minlashga va aholiga teng imkoniyatlar yaratish davrlarning eng muhim maqsad va vazifalaridan biri ekanligini ifodalaydi.

O'zbekiston konstitutsiyasida ijtimoiy adolat quyidagi yo'nalishlar orqali kafolatlanadi:

Ijtimoiy himoya huquqi. Konstitutsiyaning 57-moddasi ijtimoiy ta'minot huquqini belgilaydi: " Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi". 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 3.2 million kishi turli ijtimoiy to'lovlar oladi. Ijtimoiy yordamlarning aholiga berilishi bu jamiyatda vujudga kelayotgan, fuqarolar o'rtasidagi katta moddiy tengsizliklarni nisbatan kamaytirishga yordam beradi va bundan tashqari aholini qo'llab quvvatlashga yordam beradi.

Mehnat huquqlari va ularning himoyasi. Konstitutsiyaning 42-moddasi mehnat huquqini va uni himoya qilish kafolatlarini belgilaydi. 2019-2023 yillarda O'zbekistonda mehnat qonunchiligida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi esa mehnatchilarning huquqlarini kengaytirdi va ijtimoiy sheriklik institutini rivojlantirdi.

Qiyosiy tahlil: o'xshashliklar va farqlar

Germaniya va O'zbekiston davlatlarining ijtimoiy adolat prinsipini ta'minlash mexanizmlarini taqqoslash va tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga olib keladi:

O'xshashliklar:

- Ikkala davlatda ham ijtimoiy davlat prinsipi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan
- Mehnat huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi rivojlangan
- Ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga umumiy kirish imkoniyatlari mavjud
- Ijtimoiy adolatni ta'minlashda davlat faol rol o'ynaydi

Asosiy farqlar: Germaniyada ijtimoiy bozor iqtisodiyoti asosida shakllantirilgan ijtimoiy himoya tizimi O'zbekistondagi davlat boshqaruviga asoslangan tizimdan farq qiladi. Germaniyada ijtimoiy sug'urta tizimi federal va shtat darajasida tashkil etilgan bo'lsa, O'zbekistonda markazlashtirilgan tizim mavjud. Moliyaviy imkoniyatlar jihatidan ham sezilarli farq mavjud. Germaniyada YaIMga nisbatan ijtimoiy xarajatlar O'zbekistondagiga qaraganda yuqori (25.9% ga nisbatan 12.3%). Bu farq iqtisodiy rivojlanish darajasi va moliyaviy imkoniyatlar bilan bog'liq.

Takomillashtirish yo'llari va tavsiyalar

O'zbekistonda ijtimoiy adolat prinsipini yanada samarali ta'minlash uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Ijtimoiy sheriklik institutining rivojlantirilishi. Germaniya tajribasi asosida shuni xulosa qilish mumkin, ish beruvchilar, ishchilar va davlat o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy adolatni ta'minlashning samarali usuli hisoblanadi.
2. Ijtimoiy sug'urta tizimining modernizatsiyasi. Hozirgi markazlashtirilgan tizimni saqlab qolgan holda, uni yanada moslashuvchan va samarali qilish zarur.
3. Huquqiy himoya mexanizmlarining kuchaytirilishi. Ijtimoiy huquqlar sohasida sudlar faoliyatini kengaytirish va maxsus ijtimoiy sudlar tizimini yaratish masalasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Ijtimoiy adolat prinsipi zamonaviy konstitutsiyaviy huquqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u davlatning legitimligi va barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Germaniya va O'zbekiston tajribasi ko'rsatadiki, ijtimoiy adolatni ta'minlashning turli yo'llari mavjud bo'lib, ularning samaradorligi mamlakat sharoitlari va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq. O'zbekiston uchun Germaniya tajribasini o'rganish va milliy sharoitlarga moslashtirilgan holda qo'llash ijtimoiy adolat prinsipini yanada samarali amalga oshirishga yordam berishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor ijtimoiy sheriklik institutlarini rivojlantirish, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Rawls J. A Theory of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 1971. – 607 p.
2. Brentano L. Die Sozialpolitik. – Berlin: Duncker & Humblot, 1925. – 345 S.
3. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland. – Berlin: Bundestag, 2023. – 89 S.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

RAQAMLASHTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY SOHALARGA, XUSUSAN, PENSIYA TIZIMIGA TA'SIRI

Xolmo'minova Barchinoy Abdumalik qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Email: abdumalikovna2112@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyotning dunyo bo'yicha tutgan o'rni va uning rivojlanish bosqichlari tobora taraqqiy etib bormoqda. Raqamlashtirish nafaqat axborot kommunikatsiya tarmog'ini, balki barcha sohalarni qamrab olmoqda. Bu borada xususan, pensiya sohasida ham so'nggi yillarda juda muhim islohotlar qilindi. Yagona elektron ma'lumotlar tizimi joriy qilinganligi, pensiya tayinlashning proaktiv usuliga o'tilganligi shular jumlasidandir. Ushbu islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad pensiya tayinlash jarayonini shaffof va avtomatlashtirilgan qilish, fuqarolarning o'z pensiya ma'lumotlariga onlayn kirish imkoniyatini yaratish, inson omiliga bog'liq xatoliklar va korrupsiya xavfini kamaytirish, ma'lumotlar bazalarini yagona tizimga birlashtirish orqali tezkor xizmat ko'rsatishni ta'minlashdan iborat hisoblanadi. Biroq keng ko'lamli tarzda amalga oshirilayotgan ushbu ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda muammoli holatlar ham mavjud bo'lib, bular jumlasiga qishloq va chekka hududlarda raqamli infratuzilmaning zaifligi sababli fuqarolar raqamli davlat xizmatlaridan, jumladan pensiya tayinlash, elektron ariza topshirish va holatni tekshirish imkoniyatidan foydalana olmayotganligi hamda bu tengsizlikni keltirib chiqarayotganligi, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi zaifligi oqibatida fuqarolarning pasport, ish haqi, ish staji, sog'liq holati kabi shaxsiy ma'lumotlari ko'plab turli bazalarda mavjud bo'lib, ularga nisbatan yetarli darajada nazorat va himoya mexanizmlari yo'qligi kabilarni keltirishimiz mumkin bo'ladi. Quyidagi muhokama davomida mamlakatimizda raqamlashtirishning pensiya tizimida tutgan o'rni, bu borada huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligi natijasida fuqarolarga yaratilayotgan bir qator yengilliklar haqida ma'lumot berib o'tamiz hamda mavjud muammolarga o'z fikr-mulohazalarimizni bildirgan holda taklif va yechimlar berib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimi, raqamlashtirish, axborot xavfsizligi, integratsiyalashuv.

THE CONCEPT OF DIGITALIZATION AND ITS IMPACT ON SOCIAL SECTORS, PARTICULARLY THE PENSION SYSTEM

Kholmuminova Barchinoy Abdumalik qizi

Tashkent State University of Law

Faculty of Graduate and Part-Time Education

Email: abdumalikovna2112@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: In the current era, the role of the digital economy in the world and its stages of development are progressively advancing. Digitalization is encompassing not only the information and communication sector but also all other spheres. In this regard, significant reforms have been implemented in recent years, particularly in the pension system. Among these are the introduction of a unified electronic data system and the transition to a proactive pension assignment model. The main goal of these reforms is to make the pension assignment process transparent and automated, provide citizens with online access to their pension data, reduce human-related errors and corruption risks, and ensure prompt service delivery through the integration of databases into a single system. However, along with these large-scale positive changes, certain problems remain. For example, due to the weak digital infrastructure in rural and remote areas, citizens are unable to use digital public services, including applying for pensions, submitting electronic applications, or tracking their status. This situation leads to inequality. Moreover, the insufficient protection of data security and personal information has resulted in a lack of control mechanisms, as sensitive data such as passport information, salary, work history, and health status are scattered across various databases. This article discusses the role of digitalization in the pension system of our country, outlines the legal and regulatory documents adopted in this area, and highlights the benefits provided to citizens. Furthermore, we analyze the existing challenges and present our opinions, suggestions, and potential solutions.

Keywords: social security, pension system, digitalization, information security, integration.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-47>

Pensiya- ijtimoiy ta'minot turlaridan biri sifatida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 46-moddasiga ko'ra har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas. Ijtimoiy ta'minot — bu davlat tomonidan aholining muayyan toifalarini (mehnatga layoqatsizlar, nogironlar, keksalar, yetimlar va boshqalar) moddiy qo'llab-quvvatlash tizimidir. Ushbu tizimning asosiy maqsadi — aholi farovonligini ta'minlash, kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishdir. Pensiya — ijtimoiy ta'minotning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. "Fuqarolarning davlat pesiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunining 1-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar. Shuningdek, mazkur qonunga ko'ra davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Fuqarolar ushbu turdagi pensiyalarni pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. Ushbu qonun pensiya sohasidagi asosiy qonun hisoblanib, unda yuqorida sanab o'tilgan uchta turdagi pensiyalarni tayinlash, hisoblash, to'lash tartibga solib o'tilgan. Shunday qilib pensiya — bu mehnat faoliyatidan chiqqan, yoshi yetgan yoki mehnatga layoqatsiz bo'lgan shaxslarga, shuningdek, ba'zi hollarda ularning oilalariga davlat tomonidan doimiy yoki davriy to'lanadigan moddiy ta'minotdir

Raqamlashtirish va pensiya tayinlash tizimi

Raqamlashtirish — bu ma'lumotlar, xizmatlar, hujjatlar va jarayonlarni analog (qo'lda, qog'ozda) shakldan raqamli (elektron) shaklga o'tkazish orqali samaradorlikni, tezlikni va shaffoflikni oshirishga qaratilgan jarayondir. Qog'ozbozlikdan voz kechish, xizmatlarni onlayn shaklda taqdim etish, sun'iy intellekt va algoritmlar orqali qarorlar qabul qilish, hamda vaqt va resurs tejallishi ushbu jarayonning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Ushbu jarayonning boshqa sohalar qatorida pensiya tayinlash tizimiga ham joriy etilishi natijasida fuqarolar uchun juda qulay imkoniyatlar yaratildi. Misol tariqasida raqamlashtirishdan avvalgi davr bilan taqqoslaydigan bo'lsak, avval arizalar qo'lda to'ldirilardi, hujjatlar qog'oz shaklida topshirilar va ko'p nusxalarda yig'ilar edi, ish staji, ish haqi bo'yicha ma'lumotlarni tekshirish murakkab va uzoq vaqt talab qilardi, inson omili va xatoliklar, korrupsiya holatlari mavjud edi. Raqamlashtirish joriy etilgan so'ng esa fuqarolarda onlayn ariza topshirish imkoniyat yaratildi. Bunda fuqarolar O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali uydan chiqmagan holda pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilishlari mumkin. Fuqarolarning ushbu huquqi qonuniy mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, "Fuqarolarning davlat pesiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunining 43-moddasiga ko'ra

fuqaro yoki uning qonuniy vakili pensiya tayinlashni so'rab o'z tanloviga ko'ra quyidagi usullardan birini qo'llagan holda murojaat qilish huquqiga ega: doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga ariza bilan; yashash joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat xizmatlari markazida so'rovnoma to'ldirgan holda; O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali so'rovnoma to'ldirgan holda. Bundan tashqari elektron mehnat daftarchalari orqali ish staji, ish haqi, tashkilotlar haqidagi barcha ma'lumotlar markazlashgan elektron tizimda saqlanadi. Ushbu ma'lumotlar o'zaro integratsiyalashuv natijasida YaMMT orqali olinadi. Shuningdek, personallashtirish markazi orqali fuqaroning pasport ma'lumotlari, Xalq banki, Adliya vazirligi tomonidan FHDYo yoki 2016 yildan keyingi soliqqa oid ma'lumotlarni Soliq qo'mitasidan olinishi natijasida fuqarolar uchun bir qancha ovoragarchiliklarning oldi olinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 592-sonli qarori asosida tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomda davlat pensiyalarini proaktiv usulda tayinlash, hisoblash, to'lash tartibi batafsil keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga pensiya tayinlash bo'yicha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2023-yil 31-oktabrda qabul qilingan 353-sonli qarori asosida 2025-yil 1-martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etildi. Shuningdek, nogironlik va imtiyozli pensiyalar (zararli ishlarda ishlayotgan fuqarolarga oldindan pensiya tayinlash)ni bosqichma-bosqich o'tkazish joriy qilinadi. Ular ham xuddi shunday tartibda bo'ladi. Chunki hozir bosqichma-bosqich o'tkazishda fuqarolarning oylik ish haqi, staji raqamlashtirilgan holda kelyapti. Keyinchalik zararli ishda ishlaydiganlarning lavozimi, o'tkaziladigan attestatsiyalar, kerakli hujjatlar raqamlashtirilgach, proaktiv shaklda amalga oshiriladi.

Raqamlashtirish sharoitida pensiya tizimida mavjud muammolar

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekistonda raqamlashtirish asosida pensiya tayinlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjud hisoblanadi. Masalan, raqamli savodxonlikning past darajada bo'lishi natijasida ko'plab fuqarolar, ayniqsa yoshi katta insonlar, raqamli xizmatlardan foydalanishda qiynalmoqda. Bu esa pensiya tayinlash, ariza topshirish yoki elektron holatni tekshirishda muammolar keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi zaifligi oqibatida qonunbuzilish holatlari ham kuzatilmoqda. Davlatimizda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan eng muhim hujjatlardan biri 2019 – yil 2 – iyunda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonundir. Qonun esa eng maqbul yechim sifatida shaxsiy axborotlarni to'plash, tarqatish, saqlash va undan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bundan tashqari qonunda shaxsiy ma'lumotlarni boshqalarga taqdim etish va foydalanish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, o'zganing xususiy ma'lumotlarini g'ayriqonuniy tarzda foydalanish uchun javobgarlik choralari belgilangan. Hukumat huzuridagi Davlat personallashtirish markazi bu sohadagi vakolatli organ hisoblanadi. Ushbu tashkilot shaxsga doir ma'lumotlarning himoya qilinishini va shaxslarning roziligisiz ma'lumotlarni oshkor etish

va tarqatishning oldini olishni kafolatlaydi. Biroq amalda qonunning talablarini bajarish mexanizmlari zaif ishlamoqda. Jumladan 2022-yilda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim shaxslarning pensiya olish huquqi, ish staji va ish haqi bo'yicha ma'lumotlari ruxsatsiz tarqalgan holatlar kuzatildi. Masalan, ayrim tuman pensiya bo'limlari xodimlari ma'lumotlarni shaxsiy telefonlariga ko'chirib olib, uchinchi shaxslarga berib yuborgani aniqlangan. Bu esa fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarining tarqalishiga, ayrim hollarda esa ularning firibgarlik qurboniga aylanishiga olib kelgan. Bu kabi holatlar esa shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish yuzasidan mamlakatimizdagi sharoitlarni hisobga olgan holda bu boradagi chora-tadbirlar majmuini yanada kengaytirishni talab etadi. Axborot maxfiyligining muommolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar dastlab tartibga solish mehanizmini ishlab chiqish bilan cheklangan edi. Biroq, bu mehanizmga ta'sir etuvchi tashqi omillarga kam e'tibor berildi. Bir vaqtning o'zida turli mamlakatlarda malumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq turlicha muommolar yuzaga keldi. A. Westin ham ma'lumotlar maxfiyligining turli o'lchovlari turli mamlakatlarda turlicha qabul qilinishi mumkinligi haqida xulosa bergan

Xulosa

Pensiya tizimidagi raqamlashtirish — bu faqat qulaylik emas, balki yuksak axborot xavfsizligi majburiyatini ham talab qiladi. Har qanday raqamli islohotning asosida fuqarolarning ma'lumotlari ishonchli himoyalangan bo'lishi shart. Shu bois bu yo'nalishda texnologik, huquqiy va tashkiliy choralarni kompleks tarzda amalga oshirish zarur. Ko'rib turganimizdek raqamlashtirish sharoitida har bir davlat o'z hududidagi mavjud holatlarni hisobga olgan holda o'z huquqiy tizimini ishlab chiqishi lozim hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi muhokamalarimizdan kelib chiqib quyidagicha takliflarni keltirib o'tamiz:

Raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida har bir tuman va shahar markazida "Raqamli xizmatlar bo'yicha maslahat markazlari" tashkil etish, pensiya yoshidagi fuqarolar uchun maxsus qisqa o'quv kurslari (masalan, telefon orqali pensiya holatini tekshirish, my.gov.uz portali bilan ishlash) tashkil qilish hamda "Raqamli hudud" dasturini ishlab chiqib, chekka hududlarda optik tolali internet tarmoqlarini kengaytirish va bepul Wi-Fi nuqtalari tashkil qilish.

Har bir pensiya yozuvi blokcheyn orqali shifrlangan va o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda saqlanishi kerak. Bu orqali har qanday o'zgartirish yoki kirish harakati kuzatib boriladi, kim, qachon, nima uchun ma'lumotdan foydalangani ko'rinib turadi.

Davlat personallashtirish markazi vakolatlarini kuchaytirish. Ushbu organ ma'lumotlar bilan ishlovchi har bir muassasa faoliyatini muntazam nazorat qilib borishi, monitoring qilish tizimini joriy etishi kerak.

Davlat xizmatchilari uchun maxsus sertifikatlash tizimini joriy etish. Pensiya tizimi va boshqa ijtimoiy sohalarida ishlovchi xodimlar shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha maxsus o'quv va testlardan o'tishi, ular qonuniy javobgarlikni tushunishi kerak.

Fuqaroga o'z ma'lumotlari ustidan nazorat berilishi. Maxsus portal orqali har bir fuqaro o'zining shaxsiy ma'lumotlariga kim kirganini, qachon foydalanilganini onlayn ko'ra olishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni. - Toshkent sh., 1993-yil 3-sentabr, 938-XII-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.10.2022 yildagi 592-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.10.2023 yildagi PQ-353-son.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-texnologiyalar-davrida-shaxsiy-ma-lumotlarni-muhofaza-qilish> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI MUHOFAZA QILISH Eshdavlatova Zarifa Nurmuxamadovna. [449-453-b.]

II. Internet sahifalari

6. www.lex.uz
7. [HTTPS://KUN.UZ](https://kun.uz)

XORIJIY DAVLATLARDA ADVOKAT XIZMATIGA HAQ TO'LASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sadinov Shohboz Erali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti, "Advokatlik faoliyati" yo'nalishi magistranti, Toshkent, O'zbekiston

Email: shaxbooz2001@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: ushbu maqola xorijiy davlatlarda advokat xizmatlari uchun haq to'lashning huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari tahlilidan iborat. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Turkiya kabi huquqiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida advokat xizmatlari uchun haq to'lashning asosiy shakllari — soatbay to'lov, fiksatsiyalangan narx, kontingent to'lov (ya'ni ish natijasi bo'yicha foiz asosida to'lov), shuningdek, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bepul yuridik yordam tizimlari o'rganilgan.

Maqolada xorijiy tajriba doirasida ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning shakllanishi, narx siyosatini belgilovchi omillar, qolaversa, yuridik xizmatlar bozorini tartibga soluvchi organlarning vakolatlari va nazorat mexanizmlari o'zaro qiyosiy yondashuv uslubida tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, maqolani yoritishda qonunchilik hujjatlari, ilmiy manbalar, huquqshunos olimlar fikrlaridan foydalaniladi. Tadqiqot natijalari asnosida O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining advokat xizmatlari uchun haq to'lash tizimini xalqaro standartlarga asoslangan holda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: advokat xizmati, soatbay to'lov, minimal narx, bepul yuridik yordam, gonorar, mukofot puli.

FEATURES OF PAYMENT FOR LAWYER SERVICES IN FOREIGN COUNTRIES

Sadinov Shohboz Erali o'g'li

Tashkent State University of Law, Faculty of Master's and Correspondence Education, Master's student in the field of "Advocacy" Tashkent, Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the legal basis and practical mechanisms for paying for lawyer services in foreign countries. In particular, based on the experience of such legally developed countries as the USA, Great Britain, Germany, France, Japan, and Turkey, the main forms of payment for lawyer services were studied - hourly payment, fixed price, contingent payment (i.e., payment based on the percentage of the work result), as well as state-funded free legal aid systems.

The article analyzes the formation of contractual relations between a client and a lawyer within the framework of foreign experience, the factors determining pricing policy, as well as the powers and control mechanisms of bodies regulating the legal services market using a comparative approach.

In addition, legislative acts, scientific sources, and the opinions of legal scholars are used in the coverage of the article. Based on the research results, scientific and practical proposals will be developed aimed at improving the system of payment for lawyer services in the national legislation of the Republic of Uzbekistan based on international standards.

Keywords: lawyer services, hourly payment, minimum price, free legal assistance, fee, bonus.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-48>

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida yurist kasbi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, advokatlik faoliyatining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari inson huquqlarini ta'minlashda muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq advokat xizmatining sifati va unga haq to'lash tartibi mamlakatdan mamlakatga sezilarli darajada farqlanadi.

Ushbu farqlar, o'z navbatida, har bir davlatning huquqiy tizimi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, fuqarolarning huquqiy madaniyati va adliya organlari faoliyatining samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Advokatni xizmatga jalb etish — bu shunchaki huquqiy maslahat olish yoki sudda himoya qilish emas, balki insonning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish jarayonidagi ajralmas mexanizmdir. Shu sababli, xorijiy tajribani o'rganish orqali nafaqat milliy tizimni takomillashtirishga zamin yaratiladi, balki adolatli sud-huquq tizimini barpo etishda zamonaviy yondashuvlar joriy etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda advokatura sohasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, advokatlik tuzilmalarini ro'yxatga olish va advokatlarga litsenziya berish jarayonlari soddalashtirildi, advokatlarga orderlar elektron shaklda rasmiylashtirish tizimi yo'lga qo'yildi, advokatlarning elektron reestri yaratildi.

Shu bilan birga, advokatlarning kasbiy faoliyatini erkin va samarali amalga oshirishlari uchun zarur qonunchilik bazasi yanada takomillashtirilmoqda. Mazkur maqolada turli xorijiy davlatlarda advokat xizmatlariga haq to'lashning tartibi, mexanizmlari, byudjetdan moliyalashtirish, bepul yuridik yordam tizimlari hamda xususiy advokatlar xizmatining baholanishi, shuningdek, bu tizimlar O'zbekistondagi amaliyot bilan taqqoslanadi. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy sohani isloh qilishga doir strategik qarorlari, ayniqsa, advokatlarning maqomini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari fonida xorijiy amaliyotni o'rganish va solishtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Xalqaro huquq amaliyotida advokat xizmatlariga haq to'lash tizimi mamlakatlarning huquqiy an'analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab turlicha shakllangan. Masalan, AQShda bu tizim asosan soatbay, shartnomaviy to'lov foizli kelishuv kabi modellar asosida yuritiladi. AQShda "Rules of Professional Conduct" [5] ga asosan advokat xizmatlariga haq to'lash tartibi va advokatning ishonch bildiruvchi shaxs oldidagi mas'uliyati qat'iy belgilanadi. O'zbekiston bilan taqqoslaganda bu "Advokat kasb etika qoidalari"ga to'g'ri keladi.

Professor Lawrence M.Friedman o'zining "The Legal System: A Social Science Perspective" [2; 135-bet] nomli asarida ta'kidlaganidek, AQShda advokat xizmatlarining narxlari yuristning obro'si, tajribasi va yurisdiksiyaga bog'liq ravishda keskin farqlanishi mumkin. Ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o'rtasida tuziladigan yozma shartnoma xizmat haqi, xarajatlar va to'lov muddatlarini aniq belgilab berishi lozim.

Buyuk Britaniyada esa advokatlik faoliyati barrister va solisitorlar o'rtasida bo'linadi va ularning xizmat haqlari tartibi "Legal Aid, Sentencing and Punishment of Offenders Act 2012" [3] kabi qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Moliyaviy jihatdan yetarli imkoniyatga ega bo'lmagan fuqarolar uchun yuridik yordam davlat tomonidan subsidiya shaklida ta'minlanadi.

Fransiyada advokat xizmatlari uchun haq to'lash tartibi "Loi n°71-1130 du 31 décembre 1971" [7] Qonuni bilan tartibga solinadi. Bu hujjatda advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar, narxlar kelishuvi va tariflarni belgilash tartibi ko'zda tutilgan. Fransuz olimi Mirelle Delmas-Marty tomonidan ilgari surilgan tamoyilga ko'ra, yuridik xizmatlar uchun to'lovning shaffofligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Germaniyada “Rechtsanwaltsvergütungsgesetz” [8] — “Advokat xizmatlari uchun haq to'lash to'g'risida”gi Qonun advokatlar faoliyatining moliyaviy asoslarini aniq belgilab beradi. Germaniyada tariflar og'zaki kelishuvga emas, balki qonuniy asosga tayanadi, bu esa ishonch bildiruvchi shaxsning huquqiy ishonchini oshiradi.

Bundan tashqari yuqorida keltirilgan qonun hujjati orqali advokat xizmatiga haq to'lashning minimal miqdorlari ko'rsatilgan.

Italiyada esa yuridik xizmatlar uchun to'lov “Tariffe forensi”— advokatlar tariflari asosida belgilanadi va advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanadi. Bu tartib xizmat narxlarini standartlashtirish orqali nohaqlik va suiste'mol qilishning oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xorijiy davlatlarda advokat xizmatlariga haq to'lash tizimi quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

- Huquqiy me'yorlar bilan mustahkamlangan aniq tartib;
- Davlat tomonidan ijtimoiy himoyalangan qatlamlar uchun subsidiyalangan yuridik yordam;
- Shartnoma asosida tomonlar huquq va majburiyatlarining aniq belgilanishi;
- Haq to'lash tizimi orqali xizmat sifatining oshirilishi.

Xorijiy mamlakatlarda advokat xizmatlari uchun to'lov tartiblari nafaqat ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o'rtasidagi shartnoma bilan belgilanadi, balki ushbu jarayon ustidan nazoratni amalga oshiruvchi mustaqil organlar faoliyati orqali shaffoflik prinsiplariga rioya qilinadi. Misol uchun, AQShda advokatlik xizmatlari narxlarini shtatlar bo'yicha farqlanishi mumkin bo'lsa-da, “American Bar Association” tomonidan belgilangan etika qoidalariga muvofiq har bir advokat xizmat narxlarini ishonch bildiruvchi shaxs bilan oldindan ochiq kelishib olishi shart. Xizmat haqlari asosan soatbay, ishga bog'liq xarajatlar asosida yoki ma'lum bir ishda yutish sharti bilan kelishiladi.

Buyuk Britaniyada esa “Legal Services Act 2007” [4] Qonuni asosida yuridik xizmat ko'rsatish bozorida raqobat va ishonch bildiruvchi shaxs huquqlarini himoya qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. “Solicitors Regulation Authority” tomonidan advokatlarning faoliyati ustidan doimiy nazorat olib boriladi, to'lovlarning oshirib ko'rsatilishi, yashirin shartlar qo'shilishi kabi holatlar qat'iy taqiqlanadi.

Fransiyada esa advokat xizmatlari narxlarini “Loi Macron” [6] Qonuni asosida shartnoma orqali belgilanadi. Ushbu qonun bilan advokatlar xizmat haqi bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxsga yozma shartnoma taklif qilishga majburlar. Bundan tashqari, xizmat narxining asoslantirilganligi bo'yicha hujjatli dalillar taqdim etilishi talab qilinadi.

Turkiya Advokatlar Assotsiatsiyalari Ittifoqi har yili yanvar oyida advokatlar uchun minimal to'lov tariflarini e'lon qiladi va advokatlarga ushbu to'lov tarifidan past bo'lgan advokatlik to'lovi bo'yicha kelishish taqiqlanadi. Taraflar va advokat o'rtasida tuziladigan gonorar to'lash to'g'risidagi shartnomada advokatning gonorari soatbay yoki muvaffaqiyat uchun gonorar ko'rinishida belgilanishi mumkin. Biroq, har qanday holatda ham bu to'lov advokatlar hay'ati tomonidan e'lon qilingan tarifdan past bo'lmasligi kerak.

Advokatlik gonorarining hisob-kitobi eng kam gonorar tarifida tushuntirilgan. Minimal yig'im tarifi har yili oktyabr oyida e'lon qilinadi. Advokatlik haqini hisoblashda, avvalo, ishning pul bilan bog'liq yoki pulsiz ekanligini aniqlash lozim. Keyin advokatning gonorari mana shu ikki holatga qarab hisoblanadi.

Turkiya “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 164-moddasi beshinchi qismi advokatlik gonorari masalasini tartibga soladi. Advokatning gonorari advokat tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordamning qiymati hisoblanadi. [9]

Advokatlik haqi sifatida harakat yoki hukmning qiymati yoki pulning ma‘lum foizi, 25 foizdan oshmagan miqdorda kelishilishi mumkin.

Qonunga muvofiq tuziladigan shartnomalarda da‘vo predmeti bo‘lgan puldan tashqari mol-mulk va huquqlarning bir qismi advokatga asli holida tegishli bo‘lishi nazarda tutilishi mumkin emas.

Advokatning xizmat haqi to‘g‘risida kelishilmagan yoki taraflar o‘rtasida yozma haq to‘lash to‘g‘risida kelishuv bo‘lmagan yoxud haq to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv noaniq yoki nizoli bo‘lgan yoxud haq to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv qoidasi haqiqiy emas deb topilgan hollarda, advokatlik haqi to‘g‘risidagi e‘tirozlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ tomonidan da‘vo talablari qiymatining hal qiluv qarori yakuniga yetkazilgan sanadagi 10 foizdan 20 foizigacha bo‘lgan miqdori, basharti u qiymati pul bilan o‘lchanishi mumkin bo‘lgan ishlar va ishlar bo‘yicha advokatlik haqining eng kam tariflaridan past bo‘lmasa, advokatlik haqi sifatida belgilanadi. Qiymatini pul bilan o‘lchab bo‘lmaydigan ishlar bo‘yicha advokatlik haqining eng kam tarifi qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida advokat xizmatiga haq to‘lash tizimi xorij amaliyoti bilan taqqoslaganda yetarli darajada tartibga solinmagan. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura” to‘g‘risidagi Qonunining 9 prim 1-moddasiga asosan, yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitimning (shartnomaning) muhim shartlari quyidagilardan iborat:

topshiriqni bajarishni ishonchli vakil sifatida o‘z zimmasiga olgan advokat haqidagi, uning guvohnomasi rekvizitlari ko‘rsatilgan holdagi ma‘lumotlar;

topshiriqning predmeti;

ko‘rsatilayotgan yuridik yordam uchun ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan haq to‘lash shartlari;

advokatning topshiriqni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibi va miqdori;

topshiriqni bajarishni o‘z zimmasiga olgan advokat javobgarligining miqdori va xususiyati.

Advokatning haq olishi hamda topshiriqni bajarishi bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilish huquqi ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) maxsus ruxsatisiz uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

Iшонch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) tomonidan advokatga to‘lanadigan haq va advokatning topshiriqni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilish yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi bitimda (shartnomada) nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda tegishli advokatlik tuzilmasining kassasiga kirim qilinishi yoki advokatlik tuzilmasining bankdagi hisobvarag‘iga o‘tkazilishi shart. [10] Qonunda advokat xizmatiga haq to‘lanishiga oid qoidalarni o‘z ichiga olgan boshqa moddalar mavjud emas. Misol uchun ish muvaffaqiyatli yakunlanganda advokatga mukofot to‘lash tartibi haqida va hokazo. Advokatga ish ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) foydasiga hal bo‘lish yoki bo‘lmasligiga qarab qo‘shimcha mukofot pullari to‘lanishi to‘g‘risida yuridik yordam ko‘rsatish bitimi (shartnomasi)da kelishish mumkin. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar

palatasi II Konferensiyasining 2013-yil 27-sentabrdagi qarori 8-ilovasi “Advokatning kasb etika qoidalar”da belgilab berilgan.[11; 51-qoida]

Advokat yuridik yordam ko'rsatgani uchun ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan kelishgan holda gonorar olishi mumkin. Qonunchilikka ko'ra, advokat ko'rsatilgan xizmatlar uchun gonorar miqdorini mustaqil (ishonch bildiruvchi shaxs bilan kelishgan holda), uning minimal yoki maksimal miqdoriy cheklovlarisiz belgilash huquqiga ega.[1; 96-bet] Lekin fikrimizcha mukofot pullari haqidagi qoidalar Qonunda o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarga asoslangan holda xulosaga qiladiganimiz shuki, maqolada AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Turkiya kabi davlatlarning qonunchiligida advokat xizmatlariga haq to'lash tartiblari o'rganildi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga advokat xizmatiga haq to'lash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ayrim takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, advokatga to'lanadigan mukofot puliga oid qoidalarni aniqlashtirilgan tartibda bevosita “Advokat kasb etika qoidalar”idan “Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ko'chirish lozim. Buning sababi, etika qoidalar tavsiyaviy xarakterga ega va ularning bajarilishiga har doim ham majburiy deb yondashilmaydi. Mukofot puliga oid qoidalar qonunda mustahkamlaganda uni buzganlik uchun aniq va qat'iy javobgarlik mexanizmlari ishlashni boshlaydi. Ikkinchidan, advokatga to'lanadigan xizmat haqining minimal miqdorlarini ishlab chiqish. Bu orqali advokatlar o'rtasida nosog'lom raqobatning oldi olinadi. Chunki, minimal narxlar mavjud bo'lmaganligi uchun ayrim advokatlar xizmat narxlarini sun'iy ravishda pasaytirgan holda o'zlarining ishonch bildiruvchi shaxslarining sonini oshirishga urinishadi. Natijada ko'p nuqtalarda advokat va ishonch bildiruvchi shaxslar o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Minimal narx tariflarining o'rnatilishi bu kabi hollarning oldini olishga xizmat qiladi. Bunda tariflar Advokatlar palatasi va Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU, 2019. – 195 bet.
2. The Legal System: A Social Science Perspective. Lawrence M.Friedman. 1975. 338-bet. “Russell Sage Foundation” nashriyoti.

Normativ huquqiy hujjatlar:

3. “Legal Aid, Sentencing and Punishment of Offenders Act 2012” Qonuni. Buyuk Britaniya.
4. “Legal Services Act 2007” Qonuni. Buyuk Britaniya.
5. “Rules of Professional Conduct”. Amerika Qo'shma Shtatlari.
6. “Loi Macron” Qonuni. Fransiya.
7. “Loi n°71-1130 du 31 décembre 1971”. Fransiya.
8. “Rechtsanwaltsvergütungsgesetz”. Germaniya.
9. “Advokatura to'g'risida”gi Qonun. Turkiya.
10. O'zbekiston Respublikasi “Advokatura to'g'risida”gi Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi “Advokatning kasb etika qoidalar”.

Internet manbalari:

12. https://www.americanbar.org/groups/professional_responsibility/publications/model_rules_of_professional_conduct/model_rules_of_professional_conduct_table_of_contents
13. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2012/10/contents>
14. <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000000508793>
<https://www.gesetze-im-internet.de/rvg/>
15. <https://www.avvocatoandreami.it/servizi/calcolo-compenso-avvocati-parametri-civili-2014.php>

FUQAROLIK JAMIYATINING MA'NAVIY HAYOTIDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI

Harifov Sobir Zokir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Email address: sobirharifov@gmail.com

Telefon raqam: +99877 311 16 99

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida huquqiy tarbiya hamda ma'naviy qadriyatlarining tutgan o'rni yoritib berilgan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev, birinchi prezident I.A. Karimov, ma'rifatparvar Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning fikrlari orqali fuqarolik jamiyatining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning ahamiyati, ayniqsa ta'lim tizimidagi o'rni haqida taklif va yechimlar bildirilgan. Shuningdek, Sh. Xudoyberganov va Q. Islomovlarning ilmiy qarashlariga tayanib, huquqiy tarbiyaning metodik va nazariy jihatlari izohlangan. Maqola yakunida huquqiy va ma'naviy tarbiya orqali kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, huquqiy tarbiya, ma'naviyat, huquqiy ong, ta'lim tizimi, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi.

THE ROLE OF LEGAL EDUCATION IN THE SPIRITUAL LIFE OF CIVIL SOCIETY

Harifov Sobir Zokir ogli

Student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article discusses the role of legal education and spiritual values in the formation and development of civil society. Theoretical and practical foundations of civil society are analyzed through the views of prominent thinkers such as President Sh. Mirziyoyev, First President I.A. Karimov, and educator Abdulla Avloniy. The significance of legal education in shaping legal awareness and culture, especially within the education system, is addressed through various proposals and solutions. Additionally, the methodological and theoretical aspects of legal education are explained based on the scholarly views of Sh. Khudoyberganov and Q. Islamov. The article concludes by justifying the necessity of building a strong civil society through legal and spiritual education.

Keywords: civil society, legal education, spirituality, legal awareness, education system, legal culture, rule of law.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-176-6/rkm-52>

Kirish: Bugungi globallashuv davrida har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti, eng avvalo, kuchli fuqarolik jamiyatining mavjudligiga bog'liq. Fuqarolik jamiyati — bu inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy faolligini rag'batlantiruvchi muhim ijtimoiy tizimdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida yondashilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, har qanday islohot jamiyat a'zolarining huquqiy va ma'naviy ongidan, ongli fuqarolik pozitsiyasidan boshlanishi lozim.

Bu jarayonda, ayniqsa, huquqiy tarbiya — jamiyat a'zolarida qonunlarga hurmat, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Huquqiy tarbiya fuqarolik jamiyatining ijtimoiy poydevorini mustahkamlash, insonlarni qonunlarga itoatkorlikka va faol fuqarolik pozitsiyasiga undashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham huquqiy tarbiyani faqat ta'lim muassasalarida emas, balki keng ijtimoiy muhitda — ommaviy axborot vositalari, oilada, jamoat tashkilotlari orqali olib borish zarurdir.

Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatining shakllanishi, bu jarayonda huquqiy tarbiyaning tutgan o'rni, huquqiy ong va ma'naviyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, sohani chuqur o'rgangan olimlar — Sh. Xudoyberganov, Q. Islomov, A. Avloniy va boshqa mutafakkirlarning qarashlari orqali mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini yoritib beriladi.

Asosiy qism: So'nggi yillarda davlatimizda fuqarolik jamiyatda katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar turli xil usullarda o'zining aksini topmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev fuqarolik jamiyati tushunchasini shunday ta'riflaydi, "Bizga, birinchi navbatda, kuchli fuqarolik jamiyati zarur, chunki har qanday islohot har birimizning yuragimizdan, ongimizdan boshlanishi lozim. Adolatli qonunlar bo'yicha vijdonan yashashga tayyor bo'lishimiz, mamlakat kelajagi uchun bir yoqadan bosh chiqarib, olg'a qadam bosmog'imiz kerak."¹ Bu ham fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun asosiy turtki desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugun rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun dunyoda jurnalistlar o'zlari va jamiyatni o'ylantirayotgan, xavotirga solayotgan mavzular haqida gapirish va yozish huquqi uchun kurashlar avjida, va bu muvaffaqiyatga davlatimizda erishilmoqda. Abdulla Avloniy ham ko'plab fikrlar aytgan: "Millat ravnaqi — ma'rifatli, huquqiy ongli va tarbiyali fuqarolar bilan bo'lur."² Bundan ko'rinib turibdiki, fuqarolik jamiyati davlatimizda tarixdan eng kuchli masala sifatida shakllanib kelayotganligi, bugun ham o'zining ta'sirini keng miqyosda ko'rsatayotganligi va ma'rifatparvarlarimiz ham bu o'rinda ko'plab ishlar qilganligi hammaga ma'lum.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov 1998-yilda chop etilgan "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" asarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, kuchli davlat fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.³ Bundan tashqari, birinchi prezidentimiz davrida fuqarolik jamiyati borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi, bu o'zining xususan, ta'lim, ilm-fan va insonlarning yashash jarayonlarida xususiyatlarini ko'rsatdi. Bizning bugungi jamiyatimizda bu jarayonlar asosiy o'rin tutmoqda.

Fuqarolik jamiyati — bu davlat tuzilmalaridan nisbatan mustaqil, fuqarolarning o'z manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiluvchi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi institutlar, uyushmalar va alohida shaxslarning o'zaro hamkorlikdagi tizimi hisoblanadi. U jamiyatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi faolligini kuchaytirish, ularni davlat boshqaruvi va jamoaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali demokratik jamiyat asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati davlatning muvozanatli va ochiq faoliyat yuritishini nazorat qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. U jamiyatda "davlat – fuqaro" munosabatlarining tenglik, ishonch va hamkorlik asosida shakllanishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda eng yuqori turuvchi ma'naviyat tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, **Ma'naviyat** — bu insonning ichki dunyosi, ruhiy-axloqiy fazilatlarini, imon-e'tiqodi, aqliy salohiyati, estetik didi, vijdoni va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda

¹ <https://daryo.uz/2023/08/31/bizga-birinchi-navbatda-kuchli-fuqarolik-jamiyati-zarur-shavkat-mirziyoyev?daryo.com>

² Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq"

³ I.A.Karimov "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari"

shakllanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. U insonning o'zini anglash, yaxshilik va yomonlikni farqlash, adolatga intilish, go'zallikni qadrlash kabi fazilatlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat shaxsning hayotiy pozitsiyasi, jamiyatdagi o'rni va faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. "Ma'naviyat — inson qalbidagi ilohiy nur. Ma'naviyat — inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuridir"¹ deb keltirgan Muhammad Imomnazarov o'zining nutqlarida.

Ma'naviyat tushunchasiga birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham shunday ta'rif bergan: "Ma'naviyat — avvalo odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchdir."² Bugun fuqarolik jamiyatida ma'naviyat tushunchasining o'rni beqiyosdir. Chunki, insonlar fikrlaydi va tafakkur qiladi, ularning qilayotgan ishlarining rivoji esa ma'naviyat bilan aloqador bo'ladi. Misol uchun, ma'lum bir shaxs fuqarolik jamiyatiga foyda keltiradigan bir nechta jarayonlarni o'ylab topdi, ammo fuqaro buni hech kimga berishni xohlamadi. Bu esa ma'naviyatning o'z kuchini yo'qotganligidadir, insonlar qachonki beg'araz bir biriga yordam bersa, bu asosiy ma'naviy hayotning yuksalishi bilan bog'liqdir.

Bu o'rinda huquqiy tarbiya tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, **Huquqiy tarbiya** — bu shaxsda huquqiy ong, huquqiy madaniyat va qonunlarga hurmatni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir. U jamiyat a'zolarining huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy ko'nikmalarini rivojlantirish va qonunlarga rioya qilish odatini o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiya keng ma'noda, jamiyatning huquqiy ongini shakllantirish, tor ma'noda esa alohida shaxsning huquqiy xulq-atvorini o'zgartirishga yo'naltirilgan faoliyatni anglatadi.

Sh.Xudoyberganovning ta'kidlashicha, **huquqiy tarbiya** — bu jamiyat a'zolarining huquqiy ongini shakllantirish, ularning huquqiy bilimlarini oshirish va huquqqa hurmat ruhida tarbiyalash jarayonidir. Bu jarayon orqali shaxslar o'z huquq va majburiyatlarini anglab, qonunlarga rioya qilish madaniyatini egallaydilar.³ Bu ham bugungi kunimizning asosiy jarayonlaridan hisoblanadi. Chunki, fuqarolik jamiyatida huquqiy ong va huquqiy madaniyat asosiy o'rin tutadi. Bugun jamiyatimizda huquqiy ong mavjud, chunki fuqarolar o'zining huquqi haqida hamma ma'lumotlarga ega va bu haqida ular tushunchalar mavjud. Huquqiy madaniyatga kelganda esa bugun bizning asosiy muammolarimiz kelib chiqmoqda.

Bugungi kunda huquqiy tarbiya bo'yicha ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Buni esa biz Q. Islomovning ilmiy izlanishlaridan ham ko'rishimiz mumkin. Huquqiy tarbiyaning tarixiy rivojlanishi, asosiy nazariy jihatlar va amaliyotdagi o'z o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif huquqiy tarbiyani insonning ijtimoiy hayotidagi qonuniylik, adolat va mas'uliyat hissini shakllantirish vositasi deb hisoblaydi. U asarida huquqiy tarbiyaga shunday ta'rif "Huquqiy tarbiya inson ongini chuqurlashtirib, jamiyatdagi nizom va qonunlarga hurmatni mustahkamlaydi."⁴

Bundan tashqari, birinchi prezidentimiz ham o'zining asarida fikrlarini keltirib o'tgan, ushbu asarda prezident tomonidan ilgari surilgan g'oya, ya'ni kuchli davlat asosida mustahkam

